

A.S. URALOV, L.A. ADILOVA

---



# LANDSHAFT ARXITEKTURASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

---

A.S. URALOV, L.A. ADILOVA

# LANDSHAFT ARXITEKTURASI

Uz. Respublikasi oliv va o'rtta maxsus ta'limgazalarini vazirligiga  
tomonidan 5341000 — «Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy  
tashkil etish» ta'limgazalarini qurish  
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

*Me'morchilik fanlari doktori  
A.S. Uralovning umumiy tahriri ostida*

*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2014*

UO'K: 712.01(075)  
KBK 26.82(50',1)  
L 20  
U-62

**Taqrizchilar:**

*D.A. Nozilov* — arxitektura doktori, professor (TAQI);  
*R.T. Toshtemirov* — arxitektura nomzodi, dotsent (SamDAQI).

L 20 Landshaft arxitekturasi/ A. Uralov [va boshq.]. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi — T.: Cho'lpion nomidagi NMIU, 2014. 384 b.  
ISBN 978-9943-05-683-1

Mazkur darslik 5341000 — «Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish» ta'lif yo'naliшining DTS va ushbu yo'naliшning o'quv rejasiga kiritilgan «Landshaft arxitekturasi» fanining o'quv dasturi asosida yozilgan bo'lib, unda landshaft arxitekturasi va bog'dorchilikning ilk shakllanish asoslari va genezisi, bog'-park san'ati va landshaft arxitekturasining tarixi, landshaft arxitekturasining zamonaviy yo'naliшlari va tajribalari, landshaft arxitekturasining shaharsozlik asoslari va nazariyasi, qishloq aholi punktlari hududlarini me'moriy landshaft tashkil etish, landshaft arxitekturasi elementlari va landshaft qurilmalari, landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash tartibi va tarkibi, ularga qo'yiladigan asosiy talablar, landshaft arxitekturasi fanidan bajariladigan kurs loyihasining mavzulari va ularni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar bayon qilingan.

Ushbu kitob nafaqat qishloq arxitekturasi sohasida o'qiyotgan talabalar uchun, balki arxitektura, shaharsozlik, landshaft arxitekturasi, dizayn, shahar va qishloq xo'jaligi qurilish ta'lif yo'naliшlariда o'qiyotgan talaba yoshlar va landshaft arxitekturasi bilan shug'ul-anuvchilarga ham mo'ljallangan.

UO'K: 712.01(075)  
KBK 26.82(50',1)

ISBN 978-9943-05-683-1

© A.S. Uralov va boshq., 2014  
© Cho'lpion nomidagi NMIU, 2014

---

## KIRISH

O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda «Landshaft arxitekturasi» mavzusi va fani hanuzga qadar alohida adabiyot yoki kitob tarzida faqat sanoqli mualliflar (L.A. Adilova, A.S. Uralov, K.J. Raximov, S.N. Sadikova) tomonidan yozilgan. Bu sohadagi o'quv adabiyotlari sobiq ittifoq davrida, asosan, Rossiyada rus tilida chop etilib, ular landshaft arxitekturasining turli muammolariga bag'ishlangan va alohida kitoblar tarzida nashr etilgan.

Umuman olganda, bu sohadagi shu choqqacha chop etilgan adabiyotlardagi asosiy e'tibor bog'-park san'atiga qaratilgan. «Landshaft arxitekturasi» mavzusining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu muammoni nafaqat bog'-parkchilik san'atini o'rganish, balki landshaft arxitekturasidan zamonaviy estetik va ekologik maqsadlarda foydalanish hamda bu sohadagi madaniyatizni keng va uzviy boyitib borish nuqtayi nazaridan ham unga yangicha yondashish zarurdir.

Landshaft arxitekturasining sermazmun va serfayz tajribalari bilan tanishish nafaqat arxitektorlarga, balki me'morchilikning boshqa sohalarida ishlayotgan arxitektorlar, xususan, qishloq arxitektorlariga ham birday ahamiyatlidir. Ushbu darslikni yozishdan maqsad nafaqat o'quv adabiyotlarining yetishmasligiga barham berish, balki landshaft arxitekturasi va bog'-park san'atining eng qadimgi davrlaridan to bizning kunlargacha bosib o'tgan taraqqiyot jarayonida orttirilgan boy tajribalari haqida tushuncha berish va bu sohadagi muhim amaliy ishlar va loyihalash jarayonlari bilan talabalarni tanishtirishdir.

«Landshaft arxitekturasi» atamasi ilk bor bundan 150 yillar muqaddam avval Angliyada 1850-yillardan so'ng Amerika qo'shma shtatlarida 1872-yildan u yerdag'i yirik Xalqaro ko'rgazma parklar va milliy parklarni tashkil qilish muammolari bilan bog'liq holda

yuzaga keladi. O'zbekistonda esa landshaft arxitekturasi fani, asosan, mustaqillik yillarida shakllandi va rivojlanib kelmoqda. Landshaft arxitekturasining taraqqiyot yo'lini yaxlit tushunish uchun ushbu atamaning mohiyatini aniqlash, landshaft arxitektorlarining nimalar bilan shug'ullanishlari va bu sohaning keng arxitektura dunyosidagi o'rnini chuqurroq anglash juda muhimdir.

Arxitektorlar, ma'lumki, nafaqat bino va inshootlar qurish, shaharlar yaratish, balki ochiq fazoviy muhitlar arxitekturasi va ularni tashkillashtirish bilan ham shug'ullanadilar. Bularga ko'chalar, maydonlar, gulzorlar, xiyobonlar, sohillar, mikrorayonlar ichidagi bog'lar, skverlar, bulvarlar, maxsus parklar, istirohat bog'-saroylari, milliy bog'lar, xiyobonlar, mo'jaz bog'lar va tarixiy landshaftlar kiradi. Sun'iy tarzda yaratiladigan bunday ochiq maskanlar ro'yxatini yana ham davom ettirish mumkin. Landshaft arxitekturasining asosiy maqsadi ana shunday ochiq maskanlar muhitini tabiiy landshaft va sun'iy elementlar, shu jumladan, mo'jaz me'moriy shakllar, tashqi obodonlashtirish elementlari va informatsion axborot qurilmalari vositasida kompozitsion badiiy, me'moriy-rejaviy va landshaft shakllantirishdir.

Arxitektura, shaharsozlik va landshaft arxitekturasi o'zaro uzviy aloqada bo'lib, bir-biridan muhitni shakllantirishda qo'llaniladigan materiallari va vositalari bilangina farq qiladi. Har uchala soha ham kishilik jamiyatining rivojlanish tarixida umumiylar yo'nallish va maqsadlar uchun xizmat qilgan. Landshaft arxitekturasi ham arxitektura va shaharsozlik kabi barcha tarixiy ijtimoiy bosqichlarda jamiyat ehtiyojlarini qondirib kelgan va o'z davrining badiiy madaniy hamda umuminsoniy yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Landshaft arxitekturasi va uning muhim tarmog'i hisoblangan bog'-parkchilik san'atining o'ziga xos yorqin xususiyati – bu ularni yaratishda qo'llaniladigan tabiiy «qurilish materiallari»dir. Bular safiga, eng avvalo, o'simliklar dunyosi, suv dunyosi, yer, toshlar va umuman joy relyefining barcha xususiyatlari kiradi. Aynan shu materiallar ochiq fazoviy muhitni shakllantirishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Landshaft arxitekturasi – bu kishilik jamiyatiga xos badiiy va umummadaniy merosning cheksiz va behad keng sohasidir. Tabiiyki, birgina kitob-darslik orqali landshaft arxitekturasining

dunyoviy bayonini to'la ifodalash qiyin. U faqat bu sohaga qiziquv-chan talabalarimiz uchun o'ziga xos yo'l ochuvchi va ochiq muhitlar arxitekturasi dunyosiga taklif etuvchi darslik tarzida xizmat qil-guvchidir.

**Fanning maqsadi** – talabalarda arxitekturaviy landshaft dunyo-qarashni shakllantirish, ularning landshaft loyihalash malakasini egallashi va uni amaliy loyihalash ishlarida qo'llay olishi bo'yicha ko'nikmalar berishdir.

### **Fanning usosiy vazifalari:**

- talabalarga landshaft arxitekturasi va bog'-park san'atining butun olam tajribasi va taraqqiyot bosqichlarini o'rgatish;
- landshaft arxitekturasi obyektlari va landshaftni tashkil etish asoslarini shaharsozlik rejalashtirish va loyihalashning turli bosqichlari bo'yicha o'rgatish;
- talabalarda landshaft arxitekturasi obyektlarini funksional-rejaviy, landshaft estetik va ekologik yondashgan holda loyihalash ko'nikmalarini turbiyalash.

**Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni va roli.** Landshaft arxitekturasi jamiyatning hayotiy faoliyatini o'rab turgan muhitning ekologik, sanitar gigiyenik va estetik sifatlarini yaxshilashga bevosita ta'sir etuvchi fandir.

Landshaft arxitekturasining obyektlari yerusti – turli rejaviy sathlaridagi, turli tuman funksional maqsadlarga xizmat qiluvchi ochiq va yarimochiq hududlardir. Bu shaharlar, qishloqlar, sanoat ishlab chiqarish, rekreatsiya, tabiat muhofazasidagi va boshqa xalq xo'jaligiga tegishli bo'lgan yer hududlaridir. Yerni landshaft obodonlashtirish asosidagina uning ijtimoiy, ekologik, estetik qulayliligi va rentabelligiga erishish mumkin. Landshaft arxitekturasi shahar va rekreatsiya xo'jaligi yerlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi, chunki bu hududlarning jozibadorligi va manzaraviyligini kuchaytirib, shahar va qishloqlarda yashovchi va rekreatsion imkoniyatlardan foydalanuvchi aholini o'ziga jalb qiladi. Rekreatsiya-hordiq, dam olish, aholi sog'lig'inining mustahkamlashuvi, mikroiqlimning yaxshilanishi va boshqa maqsadlarda foydalilaniladigan hududlarni landshaft obodonlashtirish, ko'kalam-zorlashtirish, shuningdek, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash natijasida savdo-sotiq va boshqa xizmatlardan

ko‘riladigan foyda ko‘payib, shahar xo‘jaligi va umuman, xalq xo‘jaligi uchun bu hududlarning rentabelligi yanada ko‘tariladi.

Landshaft arxitekturasi obyektlarini ko‘kalamlashtirishda manzaraviy daraxt va butalar, gullar, chirmashuvchi hamda yeryo-par o‘simliklar, maysalar muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham bu san‘atni o‘rganuvchilar dendrologiya fanini yaxshi bilishlari zarur. Shu sababdan mazkur darslikda landshaft arxitekturasida qo‘llaniladigan o‘simliklar dunyosini, ulardan tuziladigan turli xil yashil kompozitsiyalarni talabalarga o‘rgatish, ularni amaliyotga qo‘llay bilish masalalariga ham e’tibor qaratilgan.

Landshaft arxitekturasi ochiq muhitdagi landshaft qurilmalari bilan shunchalik bog‘liqki, landshaft arxitekturasining tarixi butkul landshaft qurilmalari bilan bisyordir. Landshaft arxitekturasi bu umumiy so‘z bo‘lsa, landshaft qurilmalari uni to‘ldiruvchi, uning barcha obyektlariga sifat va mazmun bag‘ishlovchi, landshaft bilan bog‘liq mo‘jaz me’moriy shakllar, tashqi muhitni obodonlashtirish elementlari, bularning barchasi landshaftni shakllantiruvchi qurilmalardir.

Landshaft arxitekturasi nazariyasi va amaliyotini o‘rganayotgan har bir mutaxassis yoki ijodkor uning tarkibiy qismi bo‘lmish – landshaft qurilmalari, ularning shakllari, tasnif tizimi va tiplari, ularni amalga oshirish uslublarini o‘rganmay turib, bu sohada biron-bir muvaffaqiyatga erishishi qiyindir. Shu boisdan mazkur masala darslikning alohida bobি sifatida qaralib, masalaga chuqur va kompleks yondoshildi.

Mazkur ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasida «Landshaft arxitekturasi» faniga 38 soat nazariy, 114 soat amaliy, kurs loyihasi va 138 soat mustaqil ta’lim soatlari ajratilgan. Shu boisdan mazkur darslikni yozishda 114 soat amaliy dars jarayonida bajariladigan kurs loyihasining mavzusi va topshirig‘ini, kurs loyihasini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma hamda tavsiyalar, shuningdek, talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va mavzulari, fan hamda kurs topshiriqlarini baholash mezonlari, joriy, oraliq va yakuniy nazorat reyting savollari, «Landshaft arxitekturasi» fanining atamalar lug‘ati, O‘zbekistonda landshaft arxitekturasida qo‘llaniladigan daraxt hamda butalar turlari va ularni tanlash tamoyillari ham ko‘rsatib berilgan.

Mazkur *dasrlikning tarbiyaviy ahamiyati* shundaki, landshaft arxitekturasi muhitni orasta va go'zallashtirish orqali inson nafakkurini tabiat bilan bog'lash, unga yaqinlashtirish, uni sevish hamda ardoqlash kabi tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirib, insonning ekologik tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi.

Mazkur darslikda bayon etilgan va asrlar davomida shakllanib, qo'llanib kelingan bog'-park san'ati hamda landshaft arxitekturasi merosi hozirgi yoshlarni, bo'lajak qishloq arxitektorlarini kelajakda mo'jizaviy bog'lar va landshaft arxitekturasining yangi obyektlarini yaratishga da'vat etsa ajab emas.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, landshaft arxitekturasida qo'llaniladigan o'simliklarning barchasi ham o'zbek tiliga to'liq o'g'irilmagan. Shu sababdan mazkur darslikda ko'rsatilayotgan o'simliklarning nomlari rus tilida berilmoqda.

Mazkur darslik shu choqqacha landshaft arxitekturasi bo'yicha yozilgan boshqa darslik va o'quv qo'llamalardan o'zining takomillashganligi, ko'tarilgan mavzu hamda masalalarining to'laligi va yangiligi bilan ajrilib turadi (VIII–IX boblar va keltirilgan ilovalarga qarang).

Ushbu darslikda berilayotgan rasm va fotolar Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar (L.A. Adilova (2011-y), R.J. Raximov, A.S. Uralov (2013-y) va xorijiy davlatlarda chop etilgan yangi nashrlar (P. Cooper (2001-y), V.V. Dorminontova (2004-y), E.V. Zabelina (2005-y), V.Y. Kurbatov (2007-y)) hamda INTERNET materiallaridan olinib, montaj qilindi va mualliflarning shaxsiy arxividan keltirilgan foto va chizmalar bilan to'ldirildi.

Darslikning 2.5; 2.6; 6.1 va 6.3-paragraflari va rasmlarnini L.A. Adilova, qolgan barcha boblar va paragraflar matni va rasmlarini esa A.S. Uralov yozdi va tayyorladi.

Mualliflar darslik qo'lyozmasiga ijobiy taqriz yozgan arxitektura doktori, professor D.A. Nozilovga, arxitektura nomzodi, dotsent R.T. Toshtemirovga hamda darslik qo'lyozmasini kompyuterda tergan va unga tegishli rasmlarni joylashtirishda yordam bergen T.F. Kushmanov, G.S. Sidikova, Y.B. Sharifova va L.A. Razzaqovalarga o'z minnatdorchiligini izhor etadi.

**I bob**  
**LANDSHAFT ARXITEKTURASINING ILK**  
**SHAKLLANISH ASOSLARI.**  
**OBYEKTIV VA SUBYEKTIV OMILLAR**

---

*Dars rejasi*

1. Landshaft arxitekturasining dastlabki ildizlari (genezisi) va shakllari. Ilk bog'dorchilik va bog'-park madaniyatining yuzaga kelish sabablari.
2. Bog'dorchilik va bog'-park san'atining tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonlari.
3. Bog'-park san'ati va landshaft arxitekturasining me'moriy-rejaviy va landshaft yechimlariga xos stillar.

**1.1. Landshaft arxitekturasining dastlabki ildizlari  
(genezisi) va shakllari. Ilk bog'dorchilik va bog'-park  
madaniyatining yuzaga kelish sabablari**

Landshaft arxitekturasi – bu kishilik jamiyatiga xos badiiy va umummadaniy merosning cheksiz va bexad keng sohasidir.

Landshaft arxitekturasini biz an'anaviy me'moriy amaliyot bilan taqqoslasak, hal qiluvchi narsani uning tabiatni jonlantirishda, estetik, ekologik va me'moriy muhitning sog'lomlashtiruvchi roli va ta'bir joiz bo'lsa, insonparvarlikning ibtidosida ko'ramiz. Muhitni shakllantiruvchi odatiy funksional va ayniqsa, texnik tomonlar qanchalik muhim bo'lsa-da, landshaft arxitekturasida ular yordamchi o'rinni egallaydi. Birinchi o'ringa o'simliklar dunyosi, suv dunyosi, joyning tabiiy relyefi chiqadi. Aynan ushbu holat landshaft arxitekturasining alohida sanat turi mazmunida keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

Landshaft arxitektori go'yo tirik tabiat bilan ishlayotgandek bo'ladi, asosan, shu tabiat elementlaridan foydalanib, inson ehtiyoji uchun muhit yaratadi.

Bunda u tabiiy elementlar va atrof-muhitga iloji boricha kam ta'sir ko'rsatish va undan samarali foydalanishga harakat qiladi. Boshqa tomondan esa u butunlay yangi «sun'iy tabiat» yaratib, uni inson maqsadlari va badiiy ehtiyojlariga moslashtiradi. Ushbu yo'nalish landshaft arxigekturasi tarixiy taraqqiyotining butun

davomida turli ko‘rinish va bog‘lanishlarda namoyon bo‘lib keldi va kelmoqda.

**Landshaft arxitekturasining genezisi** deganda uning yer yuzida dastlab paydo bo‘lish shakllari, taraxiy ildizlari, sabablari, yuzaga kelishidagi obyektiv va subyektiv omillar tushuniladi.

Landshaft arxitekturasining dastlabki ildizlari qadimgi bog‘dorchilikka borib taqaladi. Yer yuzida ilk shaharlarning yuzaga kelishi bilan bog‘dorchilikning mevali va manzarali turlari shakllanadi. Ular kishilik jamiyatining utilitar estetik, xo‘jalik va rekreatsion ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan. Bunday bog‘lar dastlab jamiyatning amaldorlari, hukmdorlari, ruhoniylar sinfiga mansub bo‘lgan. Ular yer yuzining ilk sivilizatsiyalari rivojlangan mintaqalarida, insonlarning tabiatga bo‘lgan ehtiyojlarining oshishi, suv va sug‘orish inshootlari tizimining shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan. Bog‘dorchilikning rivojlanishi bilan jamiyatning rekreatsion ehtiyojlarasi ososida bog‘-parkchilik san’ati ham yuzaga kelgan. Bog‘-parkchilikning ilk vatanlari Qadimgi Misr, Bobiliston, Eron, Qadimgi Yunoniston, Rim, Hindiston va Xitoy, ya’ni iqlimi jihatdan issiq, geografiyasi sersuv daryolarga boy, tropik va suptropik mintaqalar hisoblangan.

Bog‘-park madaniyatining turli mamlakatlardagi rivoji turli davrlarda turlicha kechgan bo‘lsa-da, ularning shakllanishi hamma vaqt joylardagi muayyan tabiiy iqlim sharoitlariga, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘daniy, diniy e’tiqodlarga, insonlarning atrof-muhit va tabiatga bo‘lgan munosabatiga bog‘lik bo‘lgan.

**Dekorativ bog‘dorchilik va bog‘-park san’atining vujudga kelishi va rivojlanishidagi asosiy sabablar (tarixiy ildizlar).** Landshaft arxitekturasining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishining bir qator ijtimoiy sabablari, boshqacha aytganda, tarixiy ildizlari borki, ular fikrimizcha quyidagilardan iborat:

1) insoniyatning tabiat go‘zalligi va landshaftga bo‘lgan ijobjiy munosabati tufayli o‘zining yashashi, faoliyat ko‘rsatishi hamda dam olish muhitiga tabiat elementlarini kiritishga, ularni o‘ziga yaqinlashtirishga, ulardan huzur-halovat olishga intilish ehtiyoji;

2) noqulay tabiiy iqlim sharoitlarining insoniyatga salbiy ta’sirini pasaytirish, soya-salqin yaratish va ayni paytda, go‘zal manzaraviy landshaft muhitini yaratish imkoniyatlarini izlash ehtiyoji;

3) jamiyatning rivojlanish jarayonida dehqon va bog“bonlar, olim hamda muhandislarning turli-tuman sug‘orish inshootlari va qurilmalarini yaratish, suvni bir joyga to‘plash, saqlash, uzatish hamda balandlikka ko‘tarish texnikasi ilmi va amaliyotiga ega bo‘lish tajribalarining oshib borishi;

4) hukmdorlar va mansabdorlarning firdavsmo‘nand bog‘-saroylar, yozgi bog‘lar, ov qilish bog‘lari va istirohat bog‘larini yaratishga bo‘lgan ehtiyoji va intilishi;

5) inson o‘zi yaratgan shaharlar ochiq muhitida tabiat element (suv, o‘simlik, tog‘-u toshlar va hayvonot dunyosi shakllari va manzara)larining bo‘lishligini xush ko‘rishi.

Bularning barchasi oxir-oqibatda landshaft arxitekturasi so-hasining inson faoliyatining muayyan turi tarzida vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

### **Bog‘dorchilik va bog‘-park san‘atining tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonlari**

**Bog‘chilik  
san‘atining ilk  
shakllanish davri  
(eramizgacha  
2000-yillardan  
to eramiz  
boshlari gacha)**

Bu davr bog‘lari haqida turli xil yozma manbalar va adabiyotlar va xalq og‘zaki ijodidagi ayrim ma‘lumotlar saqlanib, bizgacha yetib kelgan.

Bog‘chilik san‘atining ilk shakllanish davri, asosan, Osiyo hududidagi issiq iqlimli mammalakatlar (Misr, Bobil, Eron, Hindistonlar)ga to‘g‘ri kelib, bu davr bog‘chilik san‘ati insoniyat sivilizatsiyasining vujudga kelishi va sug‘orish inshootlarining yaratilishi bilan bog‘liq. Bu davr bog‘lari zodagonlar va hukmdorlarga tegishli bo‘lib, ular, asosan, uylar va saroylar, ibodatxonalar qoshidagi manfaatli bog‘larni tashkil qilgan. Bu bog‘lar muayyan reja va tartib asosida shakllantirilib, me’moriy yechimi muntazam simmetrik kompozitsiyalarga asoslangan. Bu davr bog‘larining maydoni nisbatan kichik bo‘lgan. Biroq, Eron shohlari eramizgacha bo‘lgan davrlardayoq manzarali tog‘ vohalarida ulkan ov bog‘lari — «paradiz»larni tashkil etgan.

**Bog‘-park  
san’atining  
qadimgi va  
o‘rta asrlar  
davri  
(eramiz  
boshidan to  
XIV asrgacha)**

Ushbu davrga doir bog‘lar haqida juda kam ma’lumotlar mavjud. Ularning ayrimlari arxeologik topilmalarda, buyum va gravyularlarda, devoriy surat va naqshlarda, baraleflarda uchraydi.

Bu davr bog‘lari Osiyo hududidan chiqib, qadimgi Yunoniston va Rim mintaqalarini qamrab olgan.

Bu davrdagi bog‘lar oldingi davr bog‘-laridan farq qilmasa-da, soni va tipologiyasiga ko‘ra ajralib turgan. Turarjoylarning ichki hovli bog‘lari, saroylar, ibodatxonalar qoshidagi bog‘lardan tashqari, shaharlardan tashqaridagi villalar, gimnaziyalar, litseylar, akademiyalar, shahar piyoda ko‘chalari bog‘-larini tashkil qilgan.

Ularning o‘lchamlari ham ancha kattalashgan. Bu davrda ilk bor topiar san’ati va labirint shakllantirilgan.

**Bog‘-park  
san’atining  
rivojlanish  
davri  
(XV—XVII  
asrlar)**

Ushbu davrga doir bog‘lar haqida juda kam ma’lumotlar mavjud. Ularning ayrimlari arxeologik topilmalarda, buyum va gravyularlarda, devoriy surat va naqshlarda, baraleflarda uchraydi. Bu davr bog‘lari Osiyo hududidan chiqib, qadimgi Yunoniston va Rim mintaqalarini qamrab olgan. Bu davrdagi bog‘lar oldingi davr bog‘laridan farq qilmasa-da, soni va tipologiyasiga ko‘ra ajralib turgan.

Turarjoylarning ichki hovli bog‘lari, saroylar, ibodatxonalar qoshidagi bog‘lardan tashqari, shaharlardan tashqaridagi villalar, gimnaziyalar, litseylar, akademiyalar, shahar piyoda ko‘chalari bog‘larini tashkil qilgan.

Ularning o‘lchamlari ham ancha kattalashgan. Bu davrda ilk bor topiar san’ati va labirint shakllantirilgan.

## Bog‘-park san’ati va landshaft arxitekturasining me’moriy-rejaviy va landshaft yechimlariga xos stillar

Azal-azaldan inson bilan tabiat orasidagi munosabatlarda, xususan, aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish va bog‘-park san’atida o‘ziga xos uslublar, landshaft kompozitsiyalari, an’analalar va qurilmalar shakllantrilib va qo‘llanilib kelingan. Bu uslub va an’analarning asosiyлари, ishonchlilari hamda amalda sinalganlari bog‘-park san’atining qoida va qonunlariga aylanib, bu sohadagi landshaft arxitekturasi fani va amaliyotining tarkibiy asoslarini tashkil qilgan.

Demak, zamonaviy landshaft arxitekturasi uzoq tarixdan shakllanib va rivojlanib kelayotgan bog‘-park san’atini, uning turli an’ana hamda uslublarini, landshaft qurilmalari va dizayn elementlarini o‘z ichiga oladi. Turli mintaqqa va xalqlarda turlicha bo‘lgan madaniy-ma’rifiy, iqlimiyl, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda bu uslublar o‘sha mintaqalarga moslashib, takomillashib, o‘zgarib, yangilanib kelmoqda. Masalan, nafaqat odatiy gorizontal ko‘kalamzorlashtirish, balki tik (vertikal) ko‘kalamzorlashtirish uslubi, daraxt va butalarni nafaqat tabiiy shakllarda o‘stirish, balki qirtishlab va qirtishlab ularga turli-tuman sun’iy yashil shakllar berish uslubi va hokazo.

Biroq, daraxt va butalarni, gulzorlarni landshaft shakllantirish hamda ekishda uzoq tarixdan bizgacha yetib kelgan va zamonaviy bog‘-park san’ati va landshaft arxitekturasida keng qo‘llanilib kelayotgan **ikkita asosiy rejaviy uslub** mavjud: birinchisi – tartibli muntazam (regulyar) uslub. Bu uslubni adabiyotlarda klassik, ya’ni mumtoz uslub, geometrik yoki fransuz uslubi deb ham yozishadi. Ikkinchisi – bu erkin, ya’ni tabiat ko‘rinishidagi uslub bo‘lib, uni adabiyotlarda landshaft yoki ingliz uslubi deb ham atashadi.

**Landshaft arxitekturasidagi muntazam rejaviy uslub** deganda bog‘-parklar, xiyobonlar, yo‘laklar, hududlarni ko‘kalamzorlashtirishda bir-biriga parallel va ko‘ndalang to‘g‘ri chiziqlar, ariqlar bo‘ylab o‘zaro simmetrik tarzda, tartibli reja asosida joylashtirilgan daraxt hamda butalar, gulzorlar, maydonlar, yo‘llar va landshaft qurilmalarining yaxlit kompozitsiyasi tushuniladi. Bu uslubda qo‘llanilayotgan daraxt va butalarga qirtishlab, sun’iy yashil shakllar

Shuning uchun suvda eruvchan oqsillar *sarkoplazma oqsillari* deb ataladi.

Tuzli eritmada eruvchan mushak to‘qimasi fibrill tuzilishga ega. Ularning molekulalari bir-biri bilan o‘zaro reaksiyaga kirishib, eruvchi molekulalari (suv)ga nisbatan boshqa oqsil molekulalari bilan kuchliroq birikma hosil qiladi.

Shuning uchun ularni eritishda maxsus sharoit talab qilinib, unda oqsillarning molekulalararo ta’siri buziladi. Bu holat tuz eritmalarining ion kuchlari ( $M$ ) 0,35 dan yuqori bo‘lganda yuzaga keladi. Tuzli eritmalaridan ajratib olinadigan oqsillar, asosan, mikrofibrillali strukturalardan iborat bo‘ladi.

«Stroma oqsillari» oqsillarning hujayra pardasini tashkil etuvchi va oqsillarni mushak hujayralari strukturalarida mustahkam ushlab turuvchi, tuzli eritmada erimaydigan qismining shartli nomi. Ularni (oqsillarning sarkomellalari – kollagen va elastindan tashqari) ajratib olishda 0,25% li NaOH eritmasidan soydalanish mumkin.

Oqsil yadrolari alohida strukturalar bilan tavsislanaadi va stroma oqsillariga mansub bo‘ladi.

Ayrim mushak to‘qimalaridagi oqsillar (aktin, tropomiozin) lipidlar bilan bog‘langan holatda bo‘ladi. Ularni eritmaga o‘tkazish uchun esa ana shu bog‘ni buzish kerak.

Mushak gomogenatlarida turli eruvchilarning qo‘llanishi tufayli ekstraktlarning ko‘p qismini oqsillar aralashmasi tashkil etadi. Qator usullar yordamida (adsorbsiya, dializ, elektroforez, xromatografiya va boshqalar) oqsil fraksiyalarini bir-biriga yaqin bo‘lgan individual oqsillar – aralashmalaridan ajratib olish mumkin.

Keyingi vaqtarda mushak to‘qimalarini ajratishda elektroforez va katoforez usullari keng qo‘llanilmoqda.

Oqsillarni ekstraktsiya qilish vaqtida, eritma tarkibidagi oqsillar bilan birga suvda eriydigan azotli birikmalar hamda noazotli bo‘lgan ekstraktlangan mineral moddalar dializ yo‘li bilan olinishi shart.

Ajratib olingan oqsillar eruvchanlik diagrammasi bo‘yicha belgilanadi.

Olingan oqsil ekstraktlari yoki cho‘kmalarning mushak to‘qimalaridagi oqsil fraksiyalarining sonini aniqlashdagi biologik usullar bilan birga, oqsilning fizik-kimyoviy xossalari aniqlash usullari ham qo‘llaniladi.

ya'ni unda daraxt va butalar, gulzorlar, maydonlar, yo'laklar va boshqa landshaft elementlari yovvoyi tabiatda qanday shakllangan va joylashgan bo'lsa, o'shanday rejelashtirilishi ko'zda tutiladi. Bu uslubda hamma narsa tabiiy, o'simliklarning shakllari va joylashishi, tog'-u toshlar ham, suv havzalari, me'moriy shakllar ham erkin, faqat ular inson zakovati va qo'li bilan yaratilgan, xolos. Bu uslubda ochiq, yarimochiq va yopiq yashil maydonlar, erkin rejali maysazor va gulzorlar, tim soya o'rmonzorlar, suv havzalari, irmoqlar, qavariq ko'priklar, toshloq bog'larni qo'llash odatiydir.

Bu uslubda ko'plab Angliya bog'lari, Xitoy va Yaponiya, Uzoq Sharq, Amerika va Evropa mamlakatlarining o'rta asr va zamonaviy bog'-parklari, qo'riqxonalar va skverlari shakllantirilgan.

Bu uslubda uncha katta bo'limgan hududlarda ham erkin tabiatning turli ko'rinishlari va peyzajlarini yaratish mumkin. Aylanma yo'l, qirlar orqasidan yangicha yashil tabiat ko'rinishlari, istiqboli, maydonlar va aksentlar: alohida ekilgan xushqomat go'zal daraxt, daraxtlar va butalar guruhidan tuzilgan landshaft kompozitsiyalari, hovuzlar, favvora va haykallarni ko'rish mumkin. Daraxt va butalarni kuzab, ularga sun'iy yashil shakllar berish bu uslubga xos emas, aksincha ular erkin hamda tabiiy ekilishii va o'sishi zarur (1.2-rasm).



1.2 -rasm. Erkin tabiat ko'rinishidagi rejaviy uslubda bunyod etilgan bog'.

Zamonaviy landshaft arxitekturasida yuqorida ta'rif berilgan ikki xil rejaviy uslublarning aralashmasini ham uchratish mumkin: ommaviy tashrif va tadbirlar o'tkaziladigan hududlarda muntazam uslub, tinch dam olish va sayr qilish hududlarida erkin rejali landshaft uslubi qo'llaniladi. O'zbekiston viloyatlari aksari bog'-parklar ana shunday aralash uslubda shakllantirilgan.

Misol uchun Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani, Juma shaharchasidagi «Yoshlar bog'i»ni olib qaraylik. Bog'ga kirish, darvoza atroflari, bog'ning bosh xiyoboni va attraksionlar joylashgan hududlarning landshafti muntazam uslubda shakllantirilgan bo'lsa, bog'dagi tinch dam olish va sayr qilish zonasi landshaft uslubida ishlangan. Ishtihon tumani markazidagi istirohat bog'ining landshafti ham deyarli aralash uslubda shakllantirilgan.

Bog'-park san'ati va qurilishida tarixiy shakllangan milliy uslublar ham borki, ularga italyan, fransuz, ingliz, xitoy, yapon, mavritan va eron bog'-park stillarini kiritish mumkin.

Bog'-park qurilish tajribalari arxitektura taraqqiyoti bilan chambarchas va yonma-yon kechgan. Shu sabab arxitekturaga xos ayrim muqim va yirik badiiy ijodiy yo'nalishlar va stillar bog'-park san'ati amaliyotiga ham kirib kelgan. Bularga misol tariqasida Yevropa bog'-park san'atiga xos bo'lgan renessans, barokko klassizm va romantizm stillarini ko'rsatish mumkin.

### ***Mustahkamlash uchun savollar***

1. *Bog'dorchilik san'atining ilk shakllanish davriga ta'rif bering. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.*
2. *Landshaft arxitekturasining vujudga kelish sabablarini tushuntiring. U qachon, qayerda, qanday vaziyat va ehtiyojlar oqibatida vujudga kelgan?*
3. *Dekorativ bog'dorchilik va bog'-parkchilikning vujudga kelish va rivojlanishidagi tarixiy shart-sharoitlarini tushuntiring.*
4. *Landshaft arxitekturasining shakllanishi va rivojlanishidagi obyektiv va subyektiv omillariga nimalar kiradi?*
5. *Dekorativ bog'dorchilik va bog'-park san'ati rivojining asosiy bosqichlarini tushuntiring.*
6. *XV—XVII asrlarda bog'-park san'ati qanday yangiliklar va o'zgarishlar bilan izohlanadi? Bog'-park san'atiga xos o'rta asr stillarini tushuntiring.*
7. *Bog'-park san'ati rivojidagi asosiy stillar, uslublar va ijodiy yo'nalishlarga izoh bering.*

**II bob**  
**BOG‘-PARK SAN’ATI VA LANDSHAFT**  
**ARXITEKTURASINING TARIXI**

---

---

## 2.1. Qadimgi davrning bog‘dorchilik va bog‘-park san’ati

### Qadimgi Misr bog‘lari

#### *Dars rejasি*

1. *Qadimgi Misrda bog‘dorchilikning shakllanish omillari.*
2. *Qadimgi Misr bog‘larining turlari, ularga xos xususiyatlar.*
3. *Misr bog‘laridagi o’simliklar va ularning landshaft kompozitsiyasi.*
4. *Fiva shahrining qadimgi bog‘lari.*
5. *Qadimgi Misr villalari qoshidagi bog‘lar va ularga xos xususiyatlar.*
6. *Misr bog‘larining me’moriy-rejaviy yechimlari va qurilmalari.*

Eng qadimgi bog‘-parklarning fanga ma’lum bo‘lganlari yer yuzining dastlabki sivilizatsiyalaridan biri hisoblangan Misr hududida vujudga kelgan.

Sug‘orilish inshootlari va qurilmalarining rivojlangan tizimiga asoslangan yuksak saviyadagi Misr dehqonchiligi o‘lkaga xos issiq iqlim, jazirama quyosh taftidan bekinish va quyuq soyaga erishish ehtiyojlari bu o‘lkada bog‘lar yaratishni talab qilgan.

Misrda eramizgacha II ming yillik o‘rtalaridan boshlangan Yangi podsholik davri naqsh-bezaklarida turli hovuzlar va bir-biridan farqlanuvchi ekinlar va daraxtlarga, to‘g‘ri burchakli muntazam me’moriy rejaga ega bo‘lgan xususiy bog‘larning tasvirlari uchraydi. Bunday bog‘lar hukmdorlar saroylari qoshida, badavlat uylarning ichki hovlilarida, ibodatxonalar atrofida, ularning muqaddas hisoblangan bo‘limlarida qurilgan. Saroylar va ibodatxonalar, odatda, Nil daryosining toshqini etib bormaydigan tepalik va qirlarda qurilgan. Ehtimol shu sababdan Qadimgi Misr qirlari etaklarida pog‘onali (ko‘p sahnli) bog‘lar vujudga kelgan. Saroylarning ichki hovlilarini tekislanib, to‘g‘ri burchakli tekis bog‘lar shakllantirilgan. Bog‘ chetlariga katta dov-daraxtlar, ichkariga esa pastqamroq daraxt va butalar ekilgan. O‘rtada katta hovuz, uning yoniga soyabon qurilgan.

Misr bog‘larining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, ularda hovuzlar, gulzorlar, mevali va manzarali daraxtlar, uzumzor va sabzavot-

zorlarning aralash ekilishidir. Daraxt qatorlari orasidagi bo'sh joylarga sabzavot va gullar ekilgan. Tokzorlar uchun esa alohida maydon ajratilgan. Eng Qadimgi podsholik davrlaridayoq toklarni ko'tarib qo'yish uchun ustunli-to'sinli qurilmalar ishlatilgan. Keyinchalik ularga zeb berilib, tokzorlar bilan o'ralgan soyabonlar vujudga kelgan. Bog'lar to'rida saroy binosi joylashib, darvozadan ungacha usti uzum bilan yopilgan xiyobon tortilgan. Bog' markazi va bog' qismlari o'rtasida hovuzlar joylashgan. Shahar qal'alari, ehromlar, bog'lar va ulardagi hovuzlar, asosan, to'g'ri to'rburchakli muntazam simmetrik rejalarda ishlangan.


Misrlik bog'bonlar marvaridgul, shabbo'y va atirgullarni madaniylashtirib ko'paytirganlar. Bog'larga bulardan tashqari, qalampirgul, butako'z, moychechak, lolagul, nilufar va papirus gullari ekilgan.

Misrdagi Yangi podsholik davrlarida har bir ibodatxona o'z bog'-xo'jaligiga ega bo'lgan. Mentuxoteplar (eramizgacha 2160–2000-yillar) ibodatxonalar qoshidagi bog'lar hamda qirolicha Xatshepsug (eramizgacha 1820–1500-yillar) bunyod etgan bog'-park bunga misol bo'la oladi.

Bog'-istirohatchilik san'ati, ayniqsa, Misrning qadimgi poytaxti Fivada rivoj topgan. Fivadagi bog'lar saroylar, shahar hovlilari va ibodatxonalar qoshida qurilgan. Yirik saroy bog'lari bir necha qismlarga bo'linib, har bir alohida hovli bog'i ham devorlar bilan ajratilgan.

Bu devorlar bog' muhitini quruq shamollardan saqlashga yordam bergen. Bog'lar va ulardagi yashil maydonlar alohida devorlar bilan o'ralgan. Bog' ichiga hovuzlar joylashtirilib, ularda chiroqli suv o'simliklari, boshqalarida esa o'rdaklar va baliqlar suzib yurgan. Bosh bino, ya'ni saroy bog' kompozitsiyasining markaziy o'qida joylashib, unga toklar osilgan xiyobon orqali borilgan. Bog'-ning barcha tarkibiy qismlari — hovuzlar, soyabonlar, tokzorlar, gulzorlar, ochiq pavilyonlar sug'orish tizimiga asoslangan yaxlit muntazam (regulyar) kompozitsiyaga bo'ysindirilgan (2.1.1-rasm).

Hukmdorlar bog'larining ko'pchiligi bo'ylama o'qli simmetrik rejaga ega bo'lib, o'q uzra joylashgan bog' imoratlari va ochiq yashil muhitlar kontrasti hamda perspektivasini tashkil etgan. Boy zodagonlar saroylari qoshidagi bog'lar hududi 6–7 ming kv.m bo'lsa,



a)

b)

d)

### 2.1. 1-rasm. Misrning hovli bog'lari:

a – misrlik boyning uy bog'i; b – Fivadagi Amenonfis III lashkarboshining bog'i; d – ushbu bog'ning umumiy ko'rinishi.

oddiy shaharliklarning hovli bog'lari bor-yo'g'i 100 kv.metrga yaqin bo'lgan.


Fir'avn Ramzes III (eramizgacha 1198–1166-y.y.) davrida kichik daraxt va butalarni katta dekorativ sopol idishlarga ekish tajribasi orttirilgan. Uning davrida 514 ta bog' bunyod etilgan. Bu bog'lar o'zlarining dekorativ ahamiyatidan tashqari ehromlarni o'simlik yog'i, sharof, yog'och, xushbo'y o'tlar bilan ta'minlab turgan.

Qadimgi Misrda eng sevimli gullar lotos va papiruslar hisoblangan. Misrliklarda ehromlar va saroylar qoshidagi bog'larga zabit etilgan o'lkalardan keltirilgan ekzotik daraxt va butalar ekish odati bo'lgan.

Karnak shahridagi Amon va Edfu shahridagi Gora ibodatxonalari qoshida «Sfinkslar xiyobonlari» saqlangan bo'lib, ular eramizgacha XV–XIV asrlar landshaft arxitekturasining xiyobon ko'rinishidagi yodgorligi hisoblanadi. Odamlar ibodatxonaga sfinkslar xiyoboni orqali kirib kelishgan.


Misrdagi eng uzun sfinkslar xiyobonining uzunligi 3,5 kilometrga yaqin bo'lgan. Shahar ko'chasining landshaft muhitini yechish tajribasi ham Qadimgi Misrda ushbu davrga taalluqlidir. Shimoldan janubga qarab bir necha kilometrga cho'zilgan Axetaton shahrining shoh ko'chasi esa har ikki tomonidan baland sfinkslar bilan emas, balki palma daraxtlari bilan chiroyli bezatilgan. To'g'ri chiziqli metrik qatorda joylashgan sfinkslarni palma daraxtlari bilan almashtirish o'sha davr shahar shoh ko'chalarining landshaft

yechimida katta yangilik hisoblagan. Shuning uchun ham Misrdagi bu qadimiy xiyobonning kompozitsion uslubi keyinchalik hayotga keng qo'llana boshlangan (2.1.2–2.1.4-rasmlar).



*2.1.2-rasm. Qadimgi Misr. Editudagi Gora ibodatxonasi ichki va tashqi muhitining landshaft yechimi.*

Fir'avnacha XV asr. Ibodatxona davozasidan sfinkslar xiyoboni bohilangan, daraxtlarning ćikilishi muntazam rejaga asoslangan.



*a)*




*b)*



*d)*

*2.1.3-rasm. Misr shaharlarida va saroylar kompieksining joylashishi:*

a – Fir'avn Ramzes III saroyi, Medinet-Xabu, er.av. 1 asr; b – Karnakka kirish, sfinkslar xiyoboni; d – Luksor, Ramzes III kolossi.



**2.1.4-rasm. Xatshepsut malikasini saroyi. Er.av. 1520–1500-yil oldin:**  
 a – saroy rekonstruksiyasi; b – Xatshepsut haykali; d – saroyning hozirgi  
 shakli; e – kolossalr; f – sfinkslar xiyoboni; g – saroy ichida.

#### **Mavzuning talabalar e'tibor berishi kerak bo'lgan yakuniy xulosalari**

1. Qadimgi Misrda mavjud bo'lgan sug'orish inshootlari tizimi va qurilmalariga asoslangan dehqonchilik, o'lkaza xos jazirama issiq iqlimning salbiy ta'sirini susaytirish va soyaga erishish ehtiyojlari bu mamlakatda qadimdan bog'dorchilik madaniyatining shakllanishiga sabab bo'lgan.

2. Qadimgi Misrda bog'-park san'ati muntazam rejaviy yechimga asoslangan holda shakllangan. Shahar landshaftini shakllantirishda ko'cha va xiyobonlar muhim rol o'ynagan. Keng ko'chalar to'g'ri chiziqli, uzun saroylar va ibodatxonalarini bir-biriga bog'lagan. Landshaft me'morchiligining kompozitsiyalari aksariyat tekis hududlarda shakllangan.

3. Qadimgi Misr bog'-parklarining turlariga ibodatxonalar, saroylar va shaharlarning hovlilari qoshi va tarkibida tashkil etilgan bog'lar kirgan. Ko'chalar bo'ylab fsmkslar yoki palmalardan shakllangan uzun xiyobonlar o'tkazilgan. Ibodatxonalarga kirib keluvchi ko'chalar sfinkslar qatorlari bilan bezatilgan.

4. Qo'llanilgan o'simliklar turlariga ularning mahalliyaridan tashqari chetdan keltirilgan ekzotik o'simliklar: anjir, anor, atirgul, yasminlardan keng foydalanilgan. Ayniqsa, xushbo'y hid va mevalaridan moy chiqaruvchi daraxtlar yuqori baholangan. O'tli o'simliklardan chinnigul, butako'z, ko'knorilar keng tarqalgan.

## **Qadimgi Mesopotamiya: Ossuriya va Bobil bog'lari**

### **Dars rejasি**

1. Qadimgi Mesopotamiya va uning tarkibidagi davlatlar haqida qisqacha tushuncha.
2. Ossuriya va Bobil bog'larining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar.
3. Shoh Sargon II va Durshurakin saroy kompleksining bog'lari.
4. Bobil shahrining saroy bog'lari.
5. Semiramida «osmav» bog'larining qurilish tamoyillari va bog'ni grafik ta'mirlash variantlari.
6. Bog'hardagi avosy o'simliklar va ularning landshaft kompozitsiyalari.
7. Ossuriya – Bobil bog'dorchilgining umumjahon bog'-park san'atining rivojiga ta'sir.

Yaqin Sharqdagi Erot va Djayla daryolari oralig'ida joylashgan bu o'lkada eramizgacha IV minginchchi yillarda shumer va akkad-larning qadimgi qabilalari yashagan. Mesopotamiya xalqlari bog'-park san'ati tarixi, odatda, 3 davriga shumeroakkad, ossuriya va yangi bobilliklar davrlariiga bo'linadi.

Shumeroakkadlar davri o'ziga xos chromlar – zikkuratlar tarkibidagi bog'lar bilan ajralib turgan. Zikkurat pog'onasimon piramida ko'rinishidagi minoraga o'xshash, yirik xomg'isht va toshlardan qurilgan ko'p qavatli (odatda, 7 qavatlik) bino bo'lib, eng yuqori qavatda chrom joylashgan. Mesopotomiyaning eng qadimgi bog'lari Ure tog'idagi zikkuratning pog'onasimon bog'lari hisoblangan (eramizgacha XXIV–XXIII asrlar). Ehrom pog'onalari keng bo'lib, ularda turli xil o'simliklar o'stirilgan.

Ossuriylar davri bog'lari katta o'chamlari bilan farq qilgan. Tabiiy daraxtzorlar va o'simliklar ov hamda hordiq chiqarishga mo'ljallangan istirohat bog'lariga aylantirilgan. Bu bog'lar rejasি qat'iy muntazamlikka ega bo'lmay, o'simliklar o'rmonlardagi kabi ancha erkin joylashtirilgan. Ossiriya va Bobilda davlat tomonidan qo'riqlanadigan rivojlangan sug'orish tarmoqlari mavjud bo'lib, ular o'simliklar o'stirish va bog'lar bunyod etish imkonini bergen. Biroq, tarixiy manbalar bu yerdagi bog'lar Qadimgi Misr bog'laridan keyin vujudga kelganligini ko'rsatadi. Tarixiy tasvirlardan biri Shumer shohi Gudeaneing eramizgacha taxminan 2340-yillarda qamishli o'simliklar bilan chegaralangan tokzorlar va baliqli hovuzlar tashkil etganini ifodalaydi. Bu yerdagi parklar haqida ilk bor Ossiriya shohi

Tigratpalasar I (eramizgacha 1100-yillarda) shunday ma'lumot beradi: «Kedr va qora qayin hamda bu yerga mendan oldin hech kim ekmagan daraxt navlarini mag'lub etgan o'lkalarimdan olib kelib o'z mamlakatim bog'lariga ekdim».

Keyinroq esa shoh Sargon II ham (eramizgacha 711–707-yillar) o'zi qurdirgan yangi shahar Dur-Shurakindagi saroyi qoshida katta park bunyod etib, uni Xett mamlakatidan keltirilgan turli xil ekzotik o'simliklar va tog' mevalari bilan bezatadi. Sargonning o'g'li Sanxerib ham Ossiriyaning avvalgi poytaxti Nineviyada saroy qurib, uning yonida park bunyod etadi va parkda turli xil bog'lar, shuningdek, mevali daraxtlar hamda uzumzor tashkil qiladi. Bog'lar kanal orqali sug'oriladi va unda uzumlar, mevali daraxtlar, xushbo'y o'tlar, gullar, sarv, palma va boshqa o'simliklar yayrab o'sadi. Parkda, shuningdek, noyob hayvonlar ham saqlanadi, sun'iy suv havzalari va turli shakllardagi pavilyonlar quriladi (2.1.5-rasm).



*2.1.5-rasm. Dur-Shurakin-Ossuriya (Xorsabod poytaxti) er. av. VII asr:*

- 1 – Sargon saroyining rejası; 2 – saroy;
- 3 – Sargon III saroyining kirishidagi qanotli ho'kiz haykali.

Ma'lumki, ossiriyaliklar ham shumeroakkadlarga o'xshab, zikkuratlar qurbanlar. Zikkurat pog'onalarining sathi ko'kalam-zorlashtirilgan. Ayrim mutaxassislarning taxminicha, parklardagi tuproqdan uyib yasalgan sun'iy qirlik va tepe qismiga soyabon (pavilyon) o'rnatilgan baland tepalik ushbu zikkurat ta'sirida vujudga kelgan. Zikkuratga xos landshaft va me'moriy yechimlar qadimgi bobilliklarni ehtimol «osma bog'lar» bunyod etish g'oyasiga undagan.

Dunyoning yetti mo'jizasidan biri hisoblangan «osma bog'lar» nafaqat Qadimgi Bobilnning, balki butun Sharqning ham landshaft

me'morchiligi va dizaynidagi eng go'zal namunalaridan biri bo'lgan (2.1.6-rasm).




2.1.6-rasm. Qadimgi Bobil shahrining umumiy ko'rinishi,  
uning Ishtar darvozasi va zikkurati tasviri.

Bu bog'lar Frot daryosining sohilida joylashgan bo'lib, Gero-dotning fikricha, Ossiriya qirolichasi Semiramida (eramizgacha IX asr) nomi bilan bog'langan. Tarixchi Strabon esa bu bog'larni shoh Navuxodonosor II (eramizgacha 605–562-yillar) o'zining Midiyalik sevikli xotini Nikotrissa uchun qurdirgan deb yozgan. Bog'lar dastlab malika Semiramida (aslda Shaamuramat) davrida qurilgan, keyinchalik esa Navuxodonosor tomonidan rivojlantirilib, qayta ishlangan bo'lishi mumkin.

To'rt qavatlik baland tepaga sekin-asta qisqarib boruvchi pog'onasimon «osma bog'lar» bиринчи qavatining o'lchamlari 45x40 ni, ikkinchi qavati esa 40x30 metrni tashkil qilgan. Har bir qavatning sof balandligi 5 metrga yaqin bo'lib, bir qavatdan ikkinchisiga oq va qizg'ish rangli marmardan ishlangan keng zinalar orqali chiqilgan. Naqshinkor ustunlarga tayangan ravoqlar ustidan g'isht, uning ustidan murakkab tarkibli yelim-qatron, ichiga esa hozirgi sementga o'xshash loy to'ldirilgan chiy to'shalib, yana g'isht terilgan va, nihoyat, suv o'tmasin deb yana qatron va qo'rg'oshin quyilgan. Har qavatga mana shu tarzda «zamin» hozirlanganidan so'ng

ustidan ulkan daraxtlar o'sadigan darajada unumdor tuproq qatlami yotqizilgan. Bog' uchun dunyoning Mag'ri-bu Mashrig'idan eng nodir va ko'rksam daraxt ko'chatlari, butalar, anvoysi gullar keltirib ekilgan (2.1.7-rasm).



1

2

3

4

#### **2.1.7-rasm. Semiramida «Osma bog'lari» rekonstruksiyasining shakllari:**

- 1, 3 – rekonstruksiya shakllari; 2 – Ishtar darvozasi va Bobil rejasি;  
4 – «Aleksandr» badiiy filmidan olingan rasm.

Bog'lar Frot daryosidan charxpalak yordamida chiqarilgan suv bilan sug'orilgan. Har bir qavatga favvoralar, qavatlارaro shalolalar ishlangan. Qavatlarni ko'tarib turuvchi yo'g'on ustunlar ichi bo'shliq bo'lib, ularga tuproq solingan va dov daraxtlar ekilgan. Daraxtlar tabiiy tartibda, ya'ni yuqori qavatlarga dov-daraxtlar, pasti pog'onalarga esa pastqamlari ekilgan. Ossiriya va Bobilga palma, kiparis, kedr, shamshod, chinor va eman daraxtlari qadimdan xos bo'lgan. Bog'ning eng yuqori qavatiga go'zal va nafis ko'shsaroy ishlanib, undan butun shahar husni, bog'ning quyi qismi, Frot daryosining suvi va sohili ko'rinib turgan. Qavatlardagi ustunlar orasidagi bo'shliqlar esa bezatilib, usti yopiq oromgoh ayvonlar tarzida xizmat qilgan. Bundan tashqari, Ossuriya – Bobiliston podshohollarining ov qilib, hordiq chiqarish, ot chopish va otda sayr qilishga mo'ljallangan keng yaylovlар va o'rmonzorlarga boy bog'lari ham bo'lgan. Bu bog'larda suv havzalari bo'lib, turli yovvoyi hayvonlar va parrandalar boqilgan.

Sharq xalqlari landshaft me'morchiligi va dizaynining yana bir ajoyib namunasi Qadimgi Iyerusalimdagи shoh Solomon (eramiz-gacha X asr) saroyi qoshidagi bog'lardir. Manbalarda keltirilishicha, saroy qoshida ajoyib balzam bog'i bunyod etilib, unda qimma baho xushbo'y o'simliklar o'stirilgan. Shohning oromgohlaridan biri

ko'shk (pavilyon) ko'inishida qurilgan. Uni turli xil daraxtlar va metalldan ishlangan g'aroyib o'simliklar bezagan. Daraxt va o'simliklar saroy devorlarini butunlay yopgan, shohlardagi barglar esa shunchalik go'zal va nozik ishlanganki, go'yo ular doim yelpinin turgandek ko'ringan. Ushbu landshaft me'morchiligining o'ziga xos bezagi tabiiy jimmijadorligi va rangi-ro'yi bilan kishida ajoyib taassurot qoldirgan. Boshqa manbalardan yana shu ma'lumki, Solomon saroyining to'rtta naqshinkor hovlisi va bog'lari bo'lib, ulardag'i hovuzlarda baliqlar suzgan, bog'da manzarali palma va sarv daraxtlari, anor, uzum va boshqa mevali daraxtlar va gullar o'sgan. Bog'da tovuslar, kabutarlar va boshqa turli nafis qushlar saqlangan.

## Qadimgi Eron va Turon bog'lari

### *Dars rejasি*

1. Qadimgi Eron bog'lari asos solgan podsholiklar.
2. Qadimgi Eron shohlarining saroylari qoshidagi bog'lar va bog'-qo'riqxonalari (payridezlar).
3. Eronning qadimgi Chorbog'lari, Bo'ston va Gulistonlari. Qadimgi Eron va Turonda Chorbog' uslubining shakllanishi.
4. Qadimgi Eron bog'laridagi o'simliklar va hayvonot dunyosi.
5. Qadimgi Sug'diyona bog'ları haqidagi antik davr mualliflarining ma'lumotlari.
6. Samarqand atrofdagi «Bazraya-Bog'iston» bog'i.
7. Devashitich qo'riqxonasi, Buxorodagi «Shamsobod» bog'i.
8. Xorazm bog'-parkchilik san'ati (Jend, Vazir va Shohsanam bog'-parklari).
9. Eron va Turon bog'-park san'atining dunyo bog'-parkchilik san'atiga ta'siri.

Eronning qadimgi bog'lari Ahamoniylar sulolasiga asos solgan podshoh Kir II va uning davomchilari (miloddan avvalgi 545–330-yillar) davridayoq shakllana boshlaganligi manbalardan ma'lum. Jumladan, qadimgi Eronda davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus bog'-qo'riqxonalar mayjud bo'lib, ularda turli hayvonlarni saqlash, o'rchitish va ov qilib dam olish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Buloqlar, daraxtzorlar va o'rmonzorlarga g'arq bo'lgan bunday bog'lar baland devorlar bilan o'ralib, ov qilish uchun maxsus burjlar va qulay joylar qurilgan. Ahamoniylar davrida va keyinchalik Sosoniylar davrida (eramizning 200–600-yy.) bunday bog'lar «payridez» deb atalgan. Bunda «payri» (atrof) va «dez» (devor)-atrofi devor bilan aylantirilgan bog' ma'nosini bildirgan. Bunday sifatli

ov bog‘lari o‘zining kengligi, tanlangan landshafti va go‘zal tabiatini bilan ajaralib turgan. Qadimgi Eron shohlari o‘zlari qurdirgan ulkan saroylari qoshida ham bog‘lar yaratgan. Qadimgi Persepol saroyi qoshidagi bog‘ shunday bog‘ jumlasiga kirgan. Hind olimi M. Randxavaning fikricha, Eron shohi Kir II Eron va Turonda «chorbog‘»lar bunyod etgan ilk hukmdor ham hisoblanadi. Qadimgi Eronning poytaxti Pasargad shahri atrofida eramizgacha VI asrda yaratilgan chorbog‘ ana shunday bog‘larning biri sanalgan.

Tarixchi Ksenofontning yozishicha, Kir yaratgan «Chorbog‘» muntazam simmetrik rejaviy yechimga ega bo‘lib, undagi xiyobonlarni sersoya daraxtlar, xushbo‘y o‘simliklar, gullar bezagan. Bog‘ to‘rt qismga bo‘linib, unda turli-tuman manzaralari va mevali daraxtlar ekilgan, ariqlar va sharsharalardan sharqirab suv oqqan. Chorbog‘lar Eronning suvgaga tanqis issiq iqlimi sharoitida suvdan tejarnli va samarali foydalanish tajribasi asosida yaratilgan bo‘lsa ajab emas.

Qadimgi Eron bog‘larida chinor daraxti ko‘proq ekilgan. Bu bog‘lar ekzotik o‘simliklar, xonaki hayvonlar, hovuzlar, tabiiy havzalar, ko‘shklar, ko‘shk oldilari gulchamanlar bilan bezatilgan. Bog‘larda zilol suvli buloqlar bo‘lgan.


Bularning barchasi bog‘larga firdavsmonand manzara bergen. Qadimgi Eronda «Bo‘ston» deb ataluvchi mevali bog‘lar ham keng an’ana bo‘lgan. Sa’di Sheraziyning shu nomli poemasi buning isbotidir. Eron gullar shohi atirgulning vatani deb ham bekorga aytilmagan. Atirgul bog‘lariga «Guliston» deb nom berilgan. Hatto Eron milliy eposining nomi ham «Gulnoma» («Atirgul haqidagi poema») deb nomlangan. Eron, nafaqat atirgulning, balki siren, lolagul, chinnigul, nargislar vatani hamdir. Yozishlaricha, Qadimda Eronning poytaxti bir vaqtlar So‘za, ya’ni Liliya gulining nomi bilan atalar ekan. Umuman olganda, Eron bog‘-parkchilik san’ati butun Qadimgi Sharq bog‘larining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan (2.1.8-rasm).

Tarixiy ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘rta Osiyoda bog‘lar yaratish san’ati me’morchilik va shaharsozlikning muhim tarkibiy qismi tarzida juda qadim zamonalardan boshlab taraqqiy topgan. Masalan, Sug‘diyonaning qadimgi bog‘-parklari haqida antik davr mualliflari, jumladan, Diodor va Kvint Kursiy Ruflar xabar beradi. Ularning yozishicha, bunday bog‘lar uchun, odatda, mavjud keng

yashil maydonlar, suvloq tog‘oldi yaylovları va qalın o‘rmonzorlar tanlanib, ular hukmdorlarning ov qilishlari va dam olib hordiq chiqarishlari uchun mo‘ljallangan. Ularda hatto ov paytida foydalaniladigan maxsus burjlar va imoratlar qurilgan.

Bog‘larda turli xil yovvoyi hayvonlar saqlanib urchitilgan. Bunday bog‘lar o‘sha davr hukmdorlarining boyligi, yashash, dam olish va istirohat uslublaridan darak beradi. Bu bog‘lar maxsus tarh asosida qurilganmi yo yo‘qmi, bu haqda biror narsa deyish qiyin. Biroq, ular o‘zlarining shakllanish omillari, egallagan joylari va tabiiy manzaralariga qarab muntazam rejali me’moriy bog‘lardan keskin farq qilgan. Shu boisdan ularni erkin rejali manzaralari istirohat bog‘lar turkimiga kiritish mumkin.

### **Chorbog‘ uslubining grafik tasvirlari**



#### **2.1.8-rasm. Chorbog‘lar va Sharqona mahalliy gilam (Eron).**

Gilamda chorbog‘ g‘oyasi ifodalangan bo‘lib, o‘rtadagi «jannat bulog‘i» va arig‘idan dunyoning to‘rt tarafiga hayotbaxsh suv tarqalmoqda. Chorbog‘dagi to‘rtta bog‘da sayrgohlar, mevali daraxtlar, chamanzorlar, chamanzorlarda esa mo‘jaz gulzorlar ko‘rsatilgan.


«Makedoniyalik Iskandar tarixi»ning muallifi rimlik Kvint Kursiyning yozishicha, Iskandar Sug'diyonaga bostirib kelganda «Bazayra» nomli joyda barpo etilgan manzarali bog'da askarlari bilan ov qilib dam oladi va ov paytida to'rt ming hayvonni otib o'Idiradi. Tarixchi olimlarning fikricha, ushbu bog' Maroqand shahriga, ya'ni qadimgi Samarqandga yaqin joyda bo'lган. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, bu bog' o'ta keng tog'liq yaylovlarga, qalin daraxtzorlarga, turli xil yovvoyi va qo'lga o'rgatilgan hayvonlarga boy bo'lган.

Shuningdek, antik davr manbalarida Afg'onistondagi Tosh-qo'rg'ondan Mozori-Sharifgacha bo'lган keng yaylovlarda Amudaryoning o'ng sohiliga yaqin to'qayzorlarda qadimgi zamонлардаги podshohlarning hayvonlar o'stirilадиган va saqlanадиган ulkan bog'lari bo'lганлиги haqida ham ma'lumotlar mavjud. Ularda son-sanoqsiz kiyiklar va yovvoyi cho'chqalar to'dasi, ular orqasidan tushgan bo'rilar galasi va hatto go'yoki sherlar ham o'stirilgan.

Tojikistondagi Mug' qasridan topilgan (VIII asr) hujjalaring biridan Panjikent hokimi Devashtichning baland devorlar bilan o'ralgan istirohat bog'i – «paradiz»i bo'lганлиги haqida xabar beradi. Devashtichning ushbu bog'i shahardan tashqarida, Panjikent tog'liklarida joylashgan deb taxmin qilinadi. O'sha hujjalarda ushbu boqqa maxsus boshliq tayinlanganligi ham ko'rsatilgan. Bu narsa bog'ni haqiqatdan ham qo'riqlanganligi hamda hukmdor Devashtich hayotida alohida ahamiyat kasb etganligini bildiradi.

Arxeologik ma'lumotlar bizga Xorazmda ham qadimiy bog'-parkchilik san'atining rivojlanganligidan darak beradi. XII asrda Xorazmshohlar davlatining mustahkamlanishi Amudaryo vohalarida bir qator: Jend, Vazir va Shoxsanam bog'-park majmularining vujudga kelishiga imkon yaratadi. Bu bog'lar shahardan tashqarida qulay iqlimli va ko'rkan landshaftli joylarda joylashib, shohlarning oilalari bilan yoz paytlari yashashi va dam olishiga mo'ljallangan bog'lardir. Atrofi devor bilan to'silgan bu bog'lar sahni nisbatan tekis bo'lib, bog'da saroy, bog' ko'shklari, xo'jalik imoratlari, mevali bog'lar, xiyobonlar va hovuzlar bo'lган. Bog' majmuasi to'g'ri chiziqli muntazam rejaviy yechimga ega bo'lib, darvozadan kirilgach, bosh xiyobon bog' markazida joylashgan asosiy bino-saroy va uning yonidagi hovuzga eltgan. Bog' sahni katta va kichik bog'chalar

hamda chamanzorlarga bo'lingan. Bu davr bog'larining me'moriy inshootlari, asosan, xomg'isht, paxsa va sinchkor imoratlardan iborat bo'lib, davr o'tishi bilan buzilib ketgan (2.1.9-rasm).



2.1.9-rasm. Qadimgi Xorazm bog'lari  
(Jend., Vazir va Shohsanam).

Miloddan avvalgi II asrlarda O'rta Osiyodagi Parsiya davlatining podshohlari o'zлari uchun saroylar qurdirib, ularning atrofini tartibli rejadagi bog'lar va suv havzalari bilan o'ragan. Demak, chorborg'lar Eron va Turonning islomgacha bo'lgan bog'lariga ham xos me'moriy uslubiyatdir.

Shunday qilib, Eron va Turon qadimgi va islomgacha davridagi bog'-parklarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin: ov qilishga va qo'lga o'rgatilgan turli xil hayvonlar saqlashga mo'ljallangan shahar tashqarisidagi bog'-qo'riqxonalar, hukmdorlarning oilalari bilan dam olishga mo'ljallangan shahar tashqarisidagi bog'-saroylari (chorborg'-lar) va shahar ichidagi, uning maydonlarida bonyod etilgan mo'jaz bog'chalar. Har uchala yo'nalishdagi bu bog'-parklar O'rta Osiyoda islomdan so'nggi davrlarda ham saqlanib qoldi va rivojlantirildi. Temuriylar davri bog'lari va bizgacha saqlanib qolgan Buxorodagi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida barpo etilgan Sitorai Moxi-Xossa chorborg'i va undagi baland chinorlar tagida erkin sayr qilib yurgan tustovuqlar va ohular fikrimning daliliga bir nishonadir.

## **Qadimgi Yunoniston bog'larini**

### **Dars rejasি**

- 1. Qadimgi Yunoniston bog'larining shakllanish asoslari.**
- 2. Bog'larning turlari va ularga xos xususiyatlari.**
- 3. Ehromlar – ibodatxonalar bog'larini.**
- 4. Podshohlik va ommaviy marosimlar o'tkaziladigan bog'lar.**
- 5. Turarjoy binolarining ichki hovlilaridagi bog'lar.**
- 6. Gimnaziya va akademiya qoshidagi bog'lar.**
- 7. Bog'-labirintlar.**
- 8. Piyodalar ko'chasi landshaft tizimini tashkil qilishning mumtoz tajribalari.**
- 9. Yunoniston bog'larining o'simlik dunyosi va bog' elementlari.**

Qadimgi Yunon adabiyotlarida Yunoniston shaharlарining tabiiy landshaft bilan mutanosib tarzda bunyod etilishi haqida yozilgan. Darhaqiqat, Pelponnesa va Kichik Osiyodagi yunon hamda Ellada shaharlарidagi akropol va teatrлar tabiat landshafti kompozitsiyasiga tamoman mos tushib, uni sun'iy rivojlantirgan. Agar Afina akropolining ansamblı o'zi o'rashgan qoyaning haykalona yakuni tarzida bunyod etilgan bo'lsa, Epidora, Efes, Priyena teatrлari go'yo insonning tog' qoyalariga yengilgina badiiy ishlov bergenligi oqibatida vujudga kelganday tuyuladi. Ayniqsa, bu hol Priyena shahrida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shahar joylashgan tog' qiyaligi agora va jamoya binolariga mo'ljallangan maydonchalaraga mos tarzda pog'onalarga bo'lib chiqilib, joyning tabiiy landshaft xususiyatlari saqlab qolingan (2.1.10-rasm).

Yunoniston bog'larini ko'p sonli bo'lsa-da, katta bo'Imagan. Turarjoy binolarining ichki hovlilaridagi bog'lar tagiga mozaik rasmlar ishlangan kichik hovuzlar bilan bezalgan. Hovlilarda maxsus quти va yog'och bochkalarda o'stirilgan gullar va butalar so'lim tabiatning mo'jaz bir bo'lagiga aylanib ketgan. Qadimgi Yunonistonda bog'lar gimnaziyalar qoshida sayrgoh va tafakkuf maskani tarzida ham bunyod etilgan. Unchalik katta bo'Imagan bog'lar ayrim ibodatxonalar qoshida ham tashkil etilgan.

Tabiatga moslashgan yunon shaharlарini, odatda, zaytun daraxt-zorlari va qishloq xo'jalik ekinzorlari o'rab turgan bo'lsa-da, biroq tirik landshaftni shahar ichida vujudga keltirish harakatlari deyarli kam miqdorda amalga oshirilgan.

## Qadimgi Yunoniston bog‘larining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar

Tabiiy iqlim  
sharoitlar

Ijtimoiy-madaniy  
ehtiyojlar

Siyosiy  
omillar

Moddiy-texnik  
imkoniyatlar

### Antik Yunoniston bog‘larining turlari

Ehromlar  
qoshidagi  
bog‘lar

Podshohlik va  
ommaviy  
marosimlar  
bog‘lari

Turarjoy  
hovlilaridagi  
bog‘lar

Gimnaziyalar,  
akademiyalar,  
litseylar qoshidagi  
bog‘lar



1

2

3

4

#### 2.1.10-rasm. Qadimgi Yunoniston bog‘lari:

- 1 — muqaddas o‘rmonzor modeli; 2 — Akademiya bog‘ining  
rekonstruksiyasi; 3 — Like chromining peshtoqi;  
4 — muqaddas o‘rmonzorning altari — geroon.

Yunoniston va Ellada shaharlarining ko‘chalari hamda jamoat maydonlari — agoralarni mi’moriy manzaraviy tashkil etish bobida qiziqarli misollar mavjud. Piyodalar ko‘chasini landshaft tashkil etishning mumtoz misoli tariqasida Efesdag‘i Savdo, Marmar va Kuretes nomli ko‘chalarni ko‘rsatishi mumkin.

Arkadian savdo ko‘chasing har ikki tomoni baland ustunlar qatori bilan bezatilgan. Butun ko‘chaga tosh taxtachalar to‘shalgan.

Yunon shaharlaridagi ochiq maydonlarni shakllantirishda haykallardan keng foydalanilgan. Jumladan, Efesdag‘i Kuretez ko‘chasi shahardagi eng buyuk kishilarning haykallari bilan bezalgan. Qadimgi dunyo landshaft arxitekturasining o‘ziga xos asarlari qatoriga Afina akropolidagi afina Promoxosining siyoshi ifodalangan haykal hamda Rodos orolidagi Quyosh xudosi Gelios sharafiga o‘rnatilgan ulkan haykal «dunyoning ertaknamo mo‘jizasi» hisob-

langan Koloss ham kiradi. Koloss sohilga hamma tomondan ko'riniib turadigan keng maydonga o'rnatilgan bo'lgan.

**Qadimgi Yunoniston.** Yunon me'morlari binolarni tabiat quchog'iga muvofiqlashtirishga va bu uyg'unlikni turli nuqtalardan ko'rsatishga harakat qilganlar. Tog' etaklariga mos tushgan teatr deyarli har bir yunon shahrining ajralmas qismi hisoblanib, butun aholini sig'dirish imkoniyatiga ega bo'lgan. Rimliklar davrida teatr o'zining ana shunday «landshaftdor» xususiyatini yo'qotib, to'lig'icha sun'iy inshoot ko'rinishini olgan (2.1.11-rasm).



2.1.11-rasm. Qadimgi Yunoniston. Efes shahri teatrining joy  
relyefiga mos tarzda ishlanishi.

### Qadimgi Rimning antik davri bog'lari

#### *Dars rejasi*

1. Qadimgi Rimliklarning tabiiy landshaftlarga munosabati.
2. Qadimgi Rim bog'larining xillari: Rim zodagonlarining saroylari qoshidagi bog'lar, shahar turarjoylari, hovli bog'ları, shahardan tashqarida joylashgan villa bog'ları.
3. Laurentinum va Tivolidagi manzarali villa bog'i va uning tarkibi.
4. Qadimgi Rimning «topiar» san'ati.
5. Villa bog'larining me'moriy elementlari.



6. Italiyaning tog' va nishabliklarda joylashgan pog'onasimon bog'lari va ularning rejaviy tuzilishi (italyancha bog'lar).
7. Shahar ko'chalari va xiyobonlarning landshaft arxitekturasi.
8. Bog'larni sug'orish tizimlari – akveduklar va viaduklar.

Yunoniston va Rim landshaft arxitekturasi bog'-park san'ati xususiyatida inson va tabiat orasidagi aloqadorlikning, asosan, ikki xil an'analar ko'zga tashlanadi. Bu an'analar eramiz boshida O'rta Yer dengizi atrofida yashagan ikki yirik xalqlar va davlatlarning badiiy madaniyatidagi umumiy farqlar bilan bog'langan. Yunoniston me'morchiligi va san'ati asarlariga tabiat bilan tamoman uyg'unlashishga erishish xususiyatlari mos kelsa, rimliklar, yunonlardan farqli o'laroq, atrof-muhit jozibadorligiga geometrik va to'g'ri chiziqlli shakllar nafosatini qarama-qarshi qo'yishga harakat qilganlar.

Rim bog'-parkchilik san'ati xususiy uylar, saroylar va hovlili dala uylari — villalar qoshidagi bog'lar shaklida mavjud bo'lgan. Shahar turarjohlari hovlilaridagi bog'larda, asosan, Yunon an'anaları taraqqiy ettirilgan. Bu an'analar Pompeydagı (I-asr) qazishmalar natijalari orqali yaxshi tanilgan. Rim zodagonlarining shahar tashqarisidagi dala-hovlilaridagi bog'lari esa o'zgacha ko'rinishga ega bo'lgan. Runga zabt etilgan mamlakatlardan keltirilgan qullar va behisob boyliklar hukmdorlarga manzaraviy va manfaatli utilitar bog'lar bilan bezatilgan serhasham dalahovlilari, villalar va saroylar qurish imkonini bergan.

Kichik Pliniyning Laurentinumdagı villasi Rimdan 30 km chetda, dengiz sohilidagi xushmanzara go'shada, bog'lar va qishloq xo'jalik ekinzorlari orasida joylashgan (2.1.12-rasm). Ushbu villa ning grafik tasviri keltirilgan, biroq u to'liq aniqlikka davogar emas. Shunday bo'lsa-da u Rim villasining miqyosiy ko'lami va kengligidan darak beradi.

Villa ichki hovlilardan birida qishin-yozin yam-yashil bo'lib va kechki ziyyoratlarga xizmat qiluvchi «viridarium» deb nomlangan bog' joylashgan. Villa yaqinida muntazam tarzda rejallashtirilgan manzaraviy sayrgoh bog'lar joylashgan. Kuzalgan daraxtlar va butalar bilan bezatilgan yo'laklar maysazorlar va gullar orasidan o'tkazilgan. O'simliklarni kuzash san'atida va gulchilikda rimliklar yuqori saviyaga erishganlar.



**2.1.12-rasm. Laurentinumdag'i kichik Pliniy villasi.**

**Eramizning 1 asri:**

yuqoridagi rasmda Villa saroyining umumiy ko'rinishi;  
pastki rasmda Villa bog'-saroyining tarxi.

Qadimgi Rimning bog'-parkchilik san'atida bugungi kun manzaraviy bog'dorchiligidagi deyarli barcha ma'lum uslublar qo'llanilgan. Bog' kompozitsiyasini shakllantirishda pergola, yopiq xiyobonlar, haykallar, o'rindiqlar, favvoralardan keng foydalanilgan. Qo'llanilgan daraxtlar, butalar va gullar turi nihoyatda ko'p bo'lgan. Katta Pliniy (eramizgacha 1-asrda) Rim bog'larida o'sha davrda qo'llanilgan o'simliklarning sonini mingtagacha yetkazadi.



2.1.13-rasm. Tivoldagi Adrian villasi, II-asr. «Nil» nomidagi sun'iy hovuz va «Kanopus» inshooti.



2.1.14-rasm. Tarixiy bog'-parklarning asosiy stillari:  
Italyancha (relyefda muntazam), fransuzcha (muntazam tekis) va  
inglizcha (tabiliy peyzajli) bog'larning bir-biridan farq qiluvchi yechimlari  
ko'rsatilgan: a - italyancha; b - fransuzcha; d - inglizcha bog'.

Villalar qoshidagi parklar ancha katta bo'lib, maydoni 100–150 hektarga yetgan. Ushbu maydonlar ortida poliz ekinlari va mevuli daraxtlar joylashgan. Ana shunday mashhur villalardan biri Rimdan sharqda 30 kilometr masofada joylashgan Tivoli shaharchasi yaqinidagi Adrian villasidir (2.1.13-rasm). Tivoli boy rim zodagonlarning asrlar davomida shahar atrofidagi villalarini qurishda eng sevimli go'sha bo'lib xizmat qilgan. Rim imperatorlari Yuliy Sezardan boshlab qadimgi Misr me'moriy yodgorliklari va bog'lariga katta qiziqish bilan qaragan. Bu hatto ular qurdirgan inshootlarda ham o'z aksini topgan. Masalan, «Kanopus» Aleksandriyaga yaqin shaharchanining nomi. Adrian villasidagi Kanopus markazida «Nil» nomi berilgan sun'iy hovuz mavjud.

Villa turli-tuman binolar konglomerati, bog'lar o'stirilgan terrasalar, qator suv havzalari va haykallardan tashkil topgan. Bularning barchasi so'lim daryo sohili etaklarida joylashgan. Adrian villasidan janubroqda Olimp tog'lari etaklarida o'suvchi afsonaviy o'rmonga bag'ishlangan «Zamon vodiysi» deb nomlanuvchi manzarali tabiiy park joylashgan. Ovrupa XVIII asr romantik bog'larining mualliflari Ushbu adrian villasi qoshidagi «Zamon vodiysi» g'oyalaridan tasvirlangan bo'lishi muqarrardir.

Shahar ichidagi bog'lardan tashqari, Italiyaning Alban va Sabin tog'lari etaklari va nishabliklarida joylashgan villa bog'lari o'ziga xos yechimlarga ega bo'lgan. Tivoli yaqinidagi imperator Adrian villasining bog'i qadimgi Yunoniston va Sharqning eng mashhur imoratlarining minatyuralashtirilgan maketlari bilan bezalgan.

Rimdag'i Pliniy villasiga doir yozma ma'lumotlarda ko'rsatilgan gulzorlar, favvoralar, ustunlar va terrasalarni qadimgi Yunonistonning Pompey freskalari va Palatin saroyi – Stadium bog'lariga taqqoslab qaralsa, aytish mumkinki, Qadimgi Rim bog'lari ham Yunoniston bog'lari kabi me'moriy jihatdan tartibli hajmiy kompozitsiya va muntazam rejalarda ishlangan. Bog' imoratlarining to'g'ri tekis shakllari, ravoq va ustunlarning qat'iy geometriyasiga daraxt va butalarning tabiiy shakllarini moslashtirishga intilish ularni kuzash zaruratini tug'dirganki, bu qadimgi Rimda «topiar» san'atini vujudga keltirgan.

Qadimgi Rim bog'lari bezakdor usulda go'zal basseynlari bo'lgan usti gumbaz bilan yopilgan salqin suhabatxonalar (nimfeyalar), parterlar, favvoralar yoki haykallar bilan va hatto uzoq hinddan keltirilgan nodir gullar bilan bezatilgan.

Rimda, so'ngra esa Italiya sayrgoh bog'larida joyning relyefidan o'ta ustakorona foydalanganlar. Tog' va qirliklar nishabligida zina-poyalar hamda panduslar orqali bog'langan terassalar tizimi shakllantirilgan. Terassalarda regulyar bog'larni tarh etganlar. Tog'dan oqayotgan suv favvoralar, hovuzlar, sun'iy havzalar va shalolarga kelib quyilgan. Ana shunday relyefli regulyar, muntazam tarhli, simmetrik kompozitsiyali bog'lar pirovardida, «italyan» bog'i nomini olgan (2.1.14-rasm).

Tarixdan ma'lum bo'lgan xalqlarning ulkan ko'chishi jarayoni bu bog'larning boshqa Rim inshootlari kabi, shu jumladan,

akveduklar va fovvoralarning ham buzilishi va vayronaga aylanishiga sabab bo'lgan.

### **Savollar**

1. Qadimgi Misr bog'larining turlari va ularga xos xususiyatlarni tushuntirib bering.
2. Semiramida (Bobil) «osma» bog'larining qurilishi tamoyillari va bog'ni grafik ta'mirlash variantlari haqida gapirib bering.
3. Qadimgi Eron shohlarining saroylari qoshidagi bog'lar – «Chorbog»lar va bog'-'go'riqxonalari (payrijezlar) haqida tushuncha bering. Chorbog' payridezlardan qanday farq qilgan?
4. Qadimgi Samarcand atrofidaqgi «Bazayra-Bog'iston» haqida tushuncha bering. U qanday bog'-bo'lgan?
5. Qadimgi Xorazm bog'-parkchilik san'atiga xos xususiyatlarni aytib bering.
6. Qadimgi Yunonlarning jonli tabiatga munosabati qanday bo'lgan?
7. Antik Yunoniston bog'larining turlari va ularga xos xususiyatlarni tushuntirib bering.
8. Rim bog'larining xillarini tushuntirib bering. «Topiar» san'ati deganda nimani tushunasiz?

## **2.2. O'rta asrning bog'dorchilik va bog'-park san'ati**

### **Yevropaning qal'a va monastir bog'ları**


#### **Dars rejası**

1. Ilk o'rta asrlarda Yevropa bog'dorchiligidagi o'zgarishlar.
2. Yevropaning qal'a saroylari qoshidagi mo'jaz bog'lar.
3. Yevropaning monastir bog'ları va ularning me'moriy-landshaft yechimlari.
4. Qal'a, monastir ya botantik bog'larni landshaft tashkillashtirishning asosiy tamoyillari.
5. Khuatr va labirint.
6. Bog' o'simliklari va lmoratlari.

To'rt asrdan ziyod hukm surgan Rim imperiyasining yemirilishidan so'ng Yevropa o'rta asrlar davrida (V asrdan to Yevropa Uygonish davrigacha bo'lgan davr) boshlanadi. Yevropaliklarga majburiy bo'lgan xristian dini hukmronlik qilgan bu davrda Cherkov dogmasi har qanday inson tafakkuridan, shu jumladan, bog'-park san'ati ma'naviyatidan ham ustun turardi. Yevropadagi o'zaro urushilar ham bog'-park san'atining jadal rivojlanishiga imkon

bermadi. Shu sababdan o'rtalashganda kelib Yevropada, xususan G'arbiy Yevropa mamlakatlari bo'yishlari nisbatan ancha qisqaradi. Ayni paytda ularning vazifalari ham o'zgardi. Avvalgi manzaraviy, sayrgoh bo'yishlari bu davrda o'ta kamyob bo'lib, ularning maydonlari o'rtalash feodallari qasrlarining ulkan devorlari iskanjasidagi mo'jazgina sahnlariga tushib qoldi. Bu bo'yishlari ham ko'p hollarda, asosan, mevazor va dorivor o'simliklar yetishtirish maqsadida foydalanildi.

Afsuski, haqiqiy o'rtalash Yevropa bo'yishlari bizgacha to'liq saqlanmagan. Biroq, ularning ayrimlari tarixiy rasmlar va yozuvlar orqali qayta tiklangan. Bu bo'yishlari o'rtalash saroy qal'a devorlari va imoratlari orasidagi cho'zinchoq tor maydonlarni egallagan. 2.2.15-rasmida Frantsiyadagi Ambuaz qal'asi va uning tarkibidagi mo'jaz bo'yish tarhi keltirilgan.



2.2.15-rasm. Fransiyadagi Ambuaz qal'asining bo'yisi. (XVI asr). 1 — ibodatxona (cherkov); 2 — bog'.

Qal'a-saroylar qoshidagi bunday bo'yishlari, odatda, sun'iy asosga ega bo'lib, bosilgan tuproqqa qurilgan. Qal'a bo'yishlari muntazam rejada ishlaniib, ularda foydali ekinlar zonasidan tashqari «ko'ngil ochish» yoki «jannat bo'yishlari» zonalari ham bo'lgan.

O'rtalash Yevropa bo'yishlari haqidagi ma'lumotlar Bokachchoning «Dekameron»i va Choserning «Atirgul haqida roman»ida ham mavjud (2.2.16-rasm).

Qal'a-saroylar tarkibiga kirgan bo'yishlardan tashqari Yevropada o'rtalash cherkovlari va monastirlari qoshidagi hovli bo'yishlari ham keng tarqalgan. Monastir va cherkovlarga xos hayot tarzining doimiylilik xususiyatlari bu bo'yishlarning ko'rinishlari va vazifalarini o'zgarmagan holda saqlab qolishga sharoit tug'dirgan. Monastirdagi bo'yishlari, odatda, bir nechta bo'lib, vazifasiga ko'ra mevazor, polizzor,



2.2. 16-rasm. Ko'ngil ochish bog'i.  
Choserning «Atirgul haqidagi roman»iga ishlangan miniatyura.

uzumzor, cherkov xizmati uchun gulzor hamda dorivor o'simliklar bog'lariga bo'lingan. Ular, odatda, kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shakklardagi hovlilarda muntazam rejaviy yechimlarda ishlagan. Fransiya, Italiya va Angliyadagi ko'pchilik o'rta asr monastirlarida xuddi shunday an'anaviy yechimlarda ishlangan hovli bog'lari saqlanib qolgan. Kvadrat hovli markazida, ko'ndalang yo'laklar o'zaro kesishgan joyda quduq yoki katta bir mevali daraxt, janubiy tumanlarda esa apelsin daraxtini joylashtirish an'anasi keng tarqalgan. Italiyada o'rta asrlarga kelib bunday monastir hovlibog'larini uchratish hatto «tipovoy» uslubga aylanib qolgan. Ular, ayniqsa, noyabr-dekabr oylarida, apelsinlarning pishib yetilishi davrida juda samarali ko'rinishlar olgan. Hovli bog'larini chor atrofdan qator ravvoqlar galereyasi o'rab turgan (2.2.17-rasm).



2.2.17-rasm. Florentsiya.  
San-Lorenzo monastirining bog'i.



2.2.18-rasm. «Vertograd maxbusining  
onasi» nomli ikonaga ishlangan bog'  
tasviri. 1960-yil. O'rta asr rus  
bog'lari aks ettirilgan eng yaxshi  
ikona namunasi.



2.2.19-rasm. Kluatr bog'lari:  
1 – Rimdag'i San Jovan ibotxonasingin kluatri;  
2 – Florensiyadagi Tarbiya uyi hovlisining kluatri.





Katolik monastirlar hovlisidagi bunday mo'jaz bog'larning to'rt tarafi yopiq bo'lgani uchun ularni *kluatr*, ya'ni yopiq hovli bog'i deb atashgan. Tarhi kvadrat yoki to'g'ri to'rburchak bo'lgan bunday kluatrlar chetlari tuvaklarga ekilgan chiroyli gullar bilan bezatilgan. Ayrim o'rta asr ibodatxonalari va monastirlarining pollariga

xudojo‘ylarning emaklab, tizzalagan holatda harakatlanishi uchun mozaika ko‘rinishidagi murakkab yo‘lklar — *labirintlar* ishlangan. Labirintlar dastlab xudoga intilish yo‘lidagi azob-uqubatlar va shaytonga qarshi kurashish harakatlarini bildiruvchi ramziy ma’noga ega bo‘lgan. Cherkovlarga kelgan xudojo‘ylar kishini adashtiruvchi ushbu murakkab yo‘lni bosib o‘tishi lozim bo‘lgan.

Labirint yo‘lklari keyinchalik o‘rtalas bog‘lariga ko‘chirilib, ularda doim yashil o‘simliklar (grab, lipa, lavr, tis)dan qirqilib ishlangan yashil devorli uzun koridorlar shaklini olgan (2.2.20-rasm). Labirint bog‘ga kirganlar ushbu koridorlar bo‘ylab sayr qilishgan. Bu sayr dastlab maroqli, kech tushgach tashvishli, oqshomga qolganlar uchun esa qo‘rqinchli o‘tgan.

Ma’lumki, o‘rtalaslar hunarmandchilik san’atining eng taraqqiy topgan davri hisoblanadi. Bu davrda an’anaviy hunarmandchilikdan tashqari manzaraviy o‘simliklarni yetishtirish, bog‘-park elementlari — favvoralar, o‘rindiqlar, koshinkoriy to‘shamalar, o‘ta nafis bezaklar berishda yaxshi natijalarga erishgan bog‘dorchilik san’ati ham rivoj topadi.

O‘rtalaslarda G‘arbiy Yevropa shaharlari tashqaridan baland tekis devorlar, minoralar, chuqur zovurlar bilan aylantirilgan me-



2.2.20-rasm. Labirintning umumiy ko‘rinishi.

tindek mustahkam ko‘rinishda bo‘lgan. O‘rta asr G‘arbiy Yevropa bog‘larining mo‘jazligi shaharlarning keskin chegaralangan boshqa ochiq maydonlari bilan moslashib ketgan.

O‘rta asr badiiy madaniyatida, jumladan, Sharqiy Yevropa hududini egallagan Qadimgi Rus landshaft arxitekturasida esa o‘zga-cha g‘oyalar mavjud edi. Bu yerda G‘arbdan farq qiluvchi ijtimoiy hayot tarzi o‘ziga xos yashash tizimini vujudga keltiradi. G‘arbda tig‘iz mustahkam shaharlar bilan birga feodallarning qalalari va qishloqlar mavjud edi.

Rusda esa faqat shaharlarga ana shunday istehkomlarga ega edi. Yevropalagi qal’alar o‘rnini Rossiyada qishloq xo‘jalik o‘simliklari bilan o‘rab olingan qo‘rg‘onlar (usadbalar) egallagandi.

Monastir bog‘larida qadimdan ham xo‘jalik va manzaraviy funksiyalar mushtarak bo‘lgan. Bog‘lar monastir hovlisining 25–30 foiz hududini egallagan. Mevali daraxtlar, polizlar, rezali mevazorlar, baliq boqish havzalari bog‘larning ajralmas elementlari bo‘lgan.

## Ispaniyaning Mavritan bog‘lari

### *Dars rejası*

1. Ispaniyada Arab – Mavritan xalifaligi davri.
2. Ispaniyaning Kordova, Toledo, Sevilya va Granada shaharlaridagi mavritan bog‘lari.
3. Granadadagi Algambra va Generalif bog‘lari.
4. Mavritan bog‘larining me’moriy-landshaft yechimlari.

**Ispaniyada Arab – Mavritan xalifaligi davri.** Arablar milliodiy 711–718-yillarda Ispaniyaning deyarli hamma joyini bosib olib, 756-yili mustaqil davlat – Kordova amirligini, 929-yilda esa Kordova xalifaligi, ya’ni Mavritan davlatini tuzadilar. Keyinroq (X–XIV asrlarda) arablar Ispaniyaning Kordova, Granada, Sevilya shaharlarda amirlikka xos mustahkam istehkom – qasr va saroylar, ularning qoshida esa go‘zal bog‘-rog‘lar bunyod etadilar. Buning uchun esa Ispaniyaning Serra-Nevada tog‘ tizmalaridagi erigan qor suvlarini ulkan yerosti hovuzlariga yig‘ib, usti yopiq katta kanallar «aseki» va akveduklar tizimi orqali pastga, bog‘ va saroy hovlilariga qarab suv keltiradi.

**Ispaniyaning Kardova, Toledo, Sevilya va Granada shaharlidagi mavritan bog‘lari.** Arablar VIII asrdan to XV asrgacha Ispaniyada keng bunyodkorlik ishlari bilan shug‘ullanadi. Ana shunday ishlar qatoriga arablarning Ispaniyada amalga oshirgan keng sug‘orish inshootlari, takomillashgan suv ta’mnoti tizimlari, islomiy bog‘-park san’ati va madaniyatining go‘zal namunalarini mamlakatga olib kirish va joriy qilish, ularni asrlar davomida o‘zları qurgan saroylar, qasrlar, qal’alar hamda Ispaniya iqlimi va tabiatini bilan hamohanglikda rivojlantirib borish ham kiradi.


Ispaniyadagi so‘ngi arab davlati – bu Granada (arabcha G‘arnota) amirligidir. U 1238-yilda tashkil etilib, to 1492-yilgacha hukm surgan. Aynan shu shaharda va Sevilyada arablar qurgan qasr va saroylar, bog‘-rog‘lar bizgacha saqlanib, yetib kelgan. Ispaniyadagi o‘rtalasrlar Mavritan bog‘-park san’atini Granadaning Generalif (2.2.18; 2.2.19-rasmlar) (arabcha «Jin al-Arif», ya’ni «Me’moriy bog‘» degani) va unga yaqin joylashgan Algambra («Qizil uy») bog‘-saroy ansamblari orqali o‘rganish mumkin (2.2.20; 2.2.22; 2.2.23-rasmlar).

Arablar Ispaniyani bosib olgan dastlabki davrlarda va so‘ngra o‘zları qurgan uy-joylarning ichki hovlilarida Yevropa adabiyotlarida «patio» deb ataladigan ispan-mavritan bog‘ini shakllantiradilar. Hovli va yashash xonalari devorlari bilan aylantirilgan bu mo‘jaz bog‘da favvora, hovuzcha, shalola, ariq va bog‘ mebeli kabi elementlardan tashqari, ayrim hollarda atirgul, shipovnik va mirt o‘simgiliklari bo‘lgan. Patio, asosan, tinch dam olish va oila bilan ochiq havoda hordiq chiqarish uchun mo‘ljallangan. Ana shunday mo‘jaz «patio» bog‘lari keyinchalik Granadadagi Algambra va Generalif qasr-saroy ansamblarining ichki hovlilari va atrofida ham tashkil etila boshlanadi va «me’moriy bog‘» larga aylanadi.

**Granadadagi Algambra va Generalif bog‘lari.** Generalif va Algambra saroy-bog‘lari Ispaniyada hukmronlik qilgan arab amirlarining yozgi rezidensiyasi (istiqomat va dam olish) maskanlari hisoblangan. Ular Granadada XII asrdan boshlab to XV asrgacha shakllantirilgan. Algambra va Generalif qasrlarning bog‘lari sathi, asosan, 100–150 kv. m.dan oshmaydigan, bir nechta pog‘onalarda alohida joylashgan, bir-biriga zinapoyalar va suv kanallari orqali bog‘langan hovli bog‘laridan iborat (2.2.21-rasm).



**2.2.21-rasm. Granada shahridagi Algambra qasrinинг umumiyo ko‘rinishi.**



**2.2.22-rasm. Algambra qasri va Generalif saroyining joylashuvi.**

XII—XV asrlar:

- a — Algambra qasri;
- b — Generalif saroyi.

**2.2.23-rasm. Algambra saroy bog‘larining tarhi:**

- 1 — saroy; 2 — Mirt hovli bog‘i;
- 3—5 — saroya doir xonalar;
- 4 — Sherlar hovlisi bog‘i.

Granada shahrining Generalif va Algambra saroylaridagi aksari ichki hovli bog‘lari sharqona mumtoz «Chorbog» uslubida to‘rt simmetrik qismlarga bo‘lingan holda shakllantirilib, ularda asosiy o‘rinni hovli markazida joylashgan hovuz (basseyn) yoki favvora va ularga to‘rt tomondan tutashgan toza oqar suvgaga to‘la kanallar yoki ariqlar egallaydi. Bunda suv markaziy favvoradan tashqariga, bog‘ning to‘rt tarafiga yoki aksincha bog‘ning to‘rt qismida yoki burchagida joylashgan mo‘jaz favvorachalardan markazga qarab oqish hollari uchraydi. Algambraning Sherlar hovlisida aynan shunday, ya’ni hovli burchaklaridagi to‘rtta favvorachalardan markazga, Sherlar favvorasiga suv oqib keladi.

Hovli bog‘lari tarhda, to‘g‘ri to‘rtburchak shakllarda bo‘lib, ularning arxitekturasi hovlini o‘rab turgan xonalarning devorlari, eshiklari, derazalaridagi naqshlar, kuzalgan yassi yashil bordyur va izgorodlar va, eng asosiysi, g‘aroyib suv inshootlari – favvora va hovuzchalar shakllarining o‘zaro kompozitsiyaviy uyg‘unligi, ularning «inson mashtabi»ga mutanosiblidigidir (2.2.24-a, b, d rasm).

Algambra Sherlar hovli bog‘ining markazida marmardan ishlangan 12 ta (yilning 12 oyi) sher haykallari majmuasi joylashib, ular og‘zidan suv tizgini otolib turadi. Haykallar ustida katta basseyn kosasi joylashgan. Suv shu kosadan toshib sherlar ustiga tushadi va maxsus yerosti quvurlariga kirib, saroy atrofidagi dala bog‘larini sug‘oradi. Algambradagi keyingi hovli bu Mirt hovlisidir. Uning ichida shakli to‘g‘ri to‘rtburchakli sathi kattagina keng hovuz joylashganki, unga atrofdagi mo‘jaz favvorachalardan suv oqib tushadi. Hovuzga uning atrofidagi saroy ravoqlari va palma daraxtlarining aksi tushib turadi. Hovuzning ikki uzun tomonida mirt butasidan qirtishlab ishlangan cho‘zinchoq yashil izgorod (to‘sqliar) borki, hovli ularning nomiga qo‘ylgan. Hovuz atrofida uni yurib tomosha qilish uchun tekis yo‘laklar ishlangan. Hovliga katta palma daraxtlari ham ekilgan.

Generalif saroy bog‘lari Algambra yaqin hududda joylashgan bo‘lib, Algambradan ko‘rinib turadi. Bog‘ga uzun kiparislar hiyobonidan kiriladi. Generalisning asosiy yuragi – bu Kanal hovlisidir, ya’ni akvedukka birikkan patio (Patio de la Asekiya) bog‘idir (2.2.25; 2.2.26; 2.2.27; 2.2.28-rasmlar). Bu bog‘ qir nishabligida, bir necha pog‘onalarda joylashgan. Bog‘da sokin suvni tomosha qilib favvoralar tovushini eshitish, o‘yga cho‘mish va yolg‘iz qolish kishiga xush yoqadi. Bog‘da arxitektura, suv elementlari, o‘simliklar bir-biriga o‘ta mutanosib, uyg‘un sharqona shakllarda ishlangan. Bu bog‘ tomosha va rohatlanish bog‘idir. Hovli muhiti berk baland devorlardan tushgan soya va favvora suvidan salqin va sokindir (2.2.29-rasm).


*Mavritan bog‘larining me’moriy-landshaft yechimlari.* Algambra va Generalif saroylarida qator hovli bog‘lari bir-biri bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Aksari bog‘lar markazida favvora joylashib, undan to‘rt tarafga ariqcha-yo‘llar ketgan. Bu bog‘lardagi o‘sim-



a)



b)




d)


2.2.24-rasm. Algambra qasridagi saroy bog'lari:  
a – bog'larga burkangan Algambra saroy kompleksi,  
b – Mirt hovlisi, d – Sherlar hovlisi.





2.2.25-rasm. Alcambra hovli bog'ining landshafti.



2.2.26-rasm. Granada. Generalif saroyi va uning bog'lari:  
a – Generalif saroy bog'lari; b – Generalif saroy bog'iiga boriladigan  
kiparislар xiyoboni.




**2.2.27-rasm. Algambra saroy bog‘larining suv qurilmalari.**



**2.2.28-rasm. Generalif saroyidagi bog‘larning landshaft yechimlari.**

liklarga kuzab shakl berilgan, ya’ni yashil yassi shamshotlar, baland xvoylar, mirt butasi va pastqam sitrus (limon, apelsin) daraxtlari kiradi. Atirgullar va ularning xushbo‘y hidi ham o’simliklar qatoridan joy olgan.

Arablarning Ispaniyada qurgan bog‘lariga suvgaga to‘la sug‘orish kanallari, keng hovuzlar, turlichay favvoralar, shalolalar, yo‘laklar-



2.2.29-rasm. Generalif saroyidagi bog‘larning landshaft yechimlari.

dan past joylashgan oqar suv ariqlari nafaqat ichki hovli bog‘larida, balki saroy galereyalari va zallarining ichiga ham kirib ketgan.

Suvning ko‘pligi shunchaki, hatto zinapoyalar bo‘ylab ham oqadi. Hovlidan hovliga o‘tgan bu kanallar va ariqlar maxsus sug‘orish tizimi — «aseki» larni hosil qilgan.

Ispaniyadan arablar quvilgach, diniy fanatlar ta’siri ostida arablar qurgan akveduk va kanallar izdan chiqadi. Faqat Ispaniyaning chekka Janubida , Serra Nevada tog‘ yaqinida joylashgan Granada qal‘a saroylari va ular qoshidagi guzal bog‘lar — Generalif va Algambralar hozirgacha saqlanib qolgan.

#### *Mustahkamlash uchun savollar*

1. Yevropaning qal‘a saroylari qoshidagi mo‘jaz bog‘lari haqida tushuncha bering.
2. Yevropaning monastir bog‘lari va ularning me’moriy-landshaft yechimlari qanday bo‘lgan?
3. Kluatr va labirintlar nima va ular nima uchun mo‘ljallangan?
4. Ispaniyadagi Mavritan bog‘lari haqida umumiy tushuncha bering.
5. Granadadagi Algambra va Generalif bog‘larini ta’riflang.

6. *Algambra qasr saroylaridagi Sherlar hovlisiga xos xususiyatlarni ta'riflang.*
7. *Mirt hovlisining landshaft yechimini ta'riflang.*

## **2.3. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarinig o'rta asrlaridagi bog'-park san'ati**

### **Old Osiyo va o'rta osiyo bog'-parklari**

#### **Dars rejasি**

1. *Eron va islom mamlakatlarining o'rta asrlardagi bog'-parklari.*
2. *Isfaxondagi «Maydoni Shox» va «Shahar bog» bog'-ansamblari.*
3. *Sherozning pog'onali bog'lari.*
4. *Movarounnahr: Samarqand va Buxoroning Temur va Temuriylar davri bog'-saroylari.*
5. *Hirot bog'-parklari.*
6. *«Chorbog» uslubidagi bog'larga xos me'moriy-landshaft xususiyatlar.*

#### **Eron va islom mamlakatlarining o'rta asrlardagi bog'-parklari.**

Boshqa mamlakatlardagi kabi Islom dunyosida ham eng go'zal bog'lar hukmdorlar sinfiga tegishli bo'lgan. Islom mamlakatlari bog'lariga xos an'anaviylik, bu avvalombor, ularning muntazam simmetrik rejada ishlanganligidir. Muntazamlikni «Chor unsur» falsafasi va bog' o'simliklarini tejamkorlik bilan sug'orish zaruratidan kelib chiquvchi «chorbog» uslubi tashkil qilgan. «Chor bog» uslubidagi bog' rejasi bir yoki bir necha kvadratlardan tuzilgan. Katta kvadrat to'rtta kichik kvadratlar «chorchamanlarga», ular ham o'z navbatida yana mayda kvadratchalar — «chamanlar»ga bo'lingan. Bu bo'linmalar nafaqat yo'laklar va xiyobonlar orqali, balki bog'ni sug'orish tizimiga kirgan ariqlar yordamida ham hosil qilingan. Chorbog' yoki chorcharmanlarning markazida bog' hovli-sini namlik bilan ta'minlovchi favvoralar yoki mo'jaz favvorachalari bo'lgan hovuzlar joylashgan. Nozik tizgin favvoralar, yarqiroq marmar ariqlardan sokin shildirab oqqan suvlar o'ziga xos holis bog' muhitini yaratgan. Manzarali va mevali daraxtlar, xushbo'y hidli chaman gullar, hovuzlardagi o'rdak-g'ozlar, bog'dagi tovuslar, go'zal ohular bog'ni yanada maftunkor etgan.

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bog'laridagi alohida e'tiborga loyiq narsa — bu suvg'a bo'lgan munosabatdir. Ayniqsa, iqlimi

issiq terqiyosib musulmon mamlakatlarining bog'lar suvgaga o'ta ohriyotkorlik va tejamkorlik munosabatida shakllanganki, issiq va quruq iqlim sharoitida bog'larining barpo etilishi, asosan, ana suvga bog'liq bo'lgan. Nataqat bog'ning, balki bu o'lkalarda insonlar tuyotti ham ko'pi jihatdan suvga bog'liq holda kechgan. Issiq iqlimli arbiy mamlakatlari va Eron, Afgh'oniston, Hindistonda suv va bog' tomonidan hujur halovat va baxt keltirgan. Asrlar davomida insonlar bog'ni avaytlab, gazinadek saqlab kelgan. Shuning uchun ham Ispaniyadagi tortib to Hindistoniga keng tarqalgan musulmon dunyoni bog'larining tuzilishi, kompozitsiyasi va shakl-u shamoyili huqidagi ma'lumotlar bizgacha yaxshi saqlanish qolgan.

Isfaxondagi «Maydoni Shox» va «Shahar bog'» bog' ansamblari, Eron shohi shoh Abbas XVI-XVII asrlarda poytaxt Isfaxonni obodenlaqtirish va ko'kalamzorlashtirish maqsadida ulkan «Maydoni shoh» xiyobonini tashkil etadi. Uning atrofmi go'zal imoratlar bilan bezab, yashil ko'kalamzorlar, soyabonlar bunyod etadi.


Maydoni shoh Isfaxon shahriting yangi jamoa markazi park turida qurilib, u shimoliy janubga qarab 510 m, eni 165 metrlik muntazam rejali ulkan ochiq ko'kalamzor maydonni tashkil qiladi (2.3.30-rasm). Maydon atrofi zanjirqator savdo do'kon ravvoqlari bilan chegaralangan. Ravvoqlar yonidan soyabop daraxtlar ekilib, ang'orish uchun ariq o'tkazilgan. Maydon uzra tekis maysazor tashkil etilib, u milliy marosimlar, tantanalar o'tkazish va chavg'on o'yiniga mo'ljallangan.

Maydoni shohni bunyod etish tajribasi o'rta asr eron me'morlari va shaharsozlariga Isfaxonning quruq va issiq iqlim sharoitida an'anaviy «chorbog'» uslubidan keng foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Natijada maydondon yarim kilometrlar g'arb tomonda shaharning yangi bosh xiyoboni va istirohat bog'i – «Shahar-bog» bunyod etilib, u o'zining g'aroyib bog' saroylari va muntazam sayrgohlari bilan Maydoni shohga «Ali-Kapu» («Baland darvozalar») orqali tutashtirildi (2.3.31-rasm).

Chexel-sutun, Xasht-Bexisht va Talar-Ashraf kabi go'zal saroylarga ega bo'lgan «Shahar-bog» yonlariga sakkiz qator chinor va tol ekilib, favvoralar, hovuzlar, kanallar va gulzorlar bilan bezalgan uchta keng sayrgohlari tashkil etilgan. Bosh xiyobon «choxar-bog» esa janubga Zanderud daryosi tomon 1650 metrga cho'zilib, keyin




**2.3.30-rasm. Eron. Koshondagi Bog‘i Fin saroyi hovlisining landshafti.**



**2.3.31-rasm. Isfaxondagi «Chilustun» bog‘ saroyi.**


yana shahardan 3 km tashqaridagi Xazori Jerib bog‘lariga qo‘silib ketgan. Shahar-bog‘ va Maydoni-shoh O‘rta Sharq o‘rta asr xalqlarining shaharsozlik, landshaft arxitekturasi va xususan, bog‘-



2.3.32-rasm. Koshondagi Bog'i Fin saroyi va uning suv qurilmalari.

park san'ati bobida qo'lga kiritgan ilg'or tajribalarining Erondagi eng go'zal namunalaridan hisoblanadi (2.3.32-rasm).

Bog'-istirohatchilik amaliyoti Sharqda muqaddas san'at darajasigacha ko'tarilgan. Bog'larning soyapar daraxtlari, gulzorlari, hovuzlari va zilol oqar suvlari go'yo jannat ramzini ifodalaydi. Eron istirohat bog'larida qatiy muntazam tartibot, simmetriya va uyg'unlik mavjud. To'g'ri burchaklar asosida qurilgan bog'ning markaziy o'qida bosh va yonbosh xiyobonlar kesishgan, markazda bog' saroyi va hovuz joylashgan, aksariyat bog'larda saroy sun'iy tepalik ustiga qurilgan, chortaraf esa zilol suvgaga to'la keng kanallar bilan chegaralangan. Kanallarga bosh xiyobon bo'ylab o'tkazilgan o'q ariq kelib qo'shilgan, undagi favvoralar va hovuzlardan suv tizgini otilib turgan. Hovuzlarga saroy ustunlari va daraxtlarning aksi tushib turgan. Hovuzlar shakli turlichcha: kvadrat va to'g'ri to'rtburchakdan xoch shakligacha, olti va sakkiz qirradan murakkab gulchanoqqacha ko'rinishlarda bo'lgan. Qiyalikda joylashgan bog'lar pog'onalarga bo'linib, suv yuqorida pastga sharshara bo'lib oqqan, hovuzlar va kanallar marmardan, zinalar esa toshdan ishlanib, ayrim hollarda asosiy hovuzlar moviy rangli koshinlar bilan bezalgan.



2.3.33-rasm. Isfaxondagi Maydoni Shox bog‘-kompleksi.

Bosh xiyobonlar va sayrgohlar bilan chegaralangan muhit to‘g‘riburchakli kichik kataklarga bo‘linib, ularning har birida alohida navli mevali daraxtlar (o‘rik, anor, pista, bodom, anjir, olcha, olxo‘ri, uzum va sh.o‘.) ekilgan. Ularning chegaralariga tol,

chinor kabi manzarali daraxtlar qatorlab ekilgan. Daraxtlar orasi va xiyobonlarga gullar (binafsha, nargiz, lola, gulxayrilar) ekilgan. Daraxtlar ichida alohida e'tiborlisi sarv hisoblansa, gullar ichra atirgul e'zozlangan.


XVII–XVIII asr Eron bog‘-istirohatlari ichida Isfaxon shahri yonida Zanderud daryosi bo‘yida bunyod etilgan Xazori Jerib bog‘i va Kaspiy dengizi sohilida qad ko‘targan Eshref bog‘lari va saroylarini ham eslatib o‘tish zarur. Eshref bir necha bog‘ va bog‘-saroylardan tarkib topib, ulardan asosiyilari – Bog‘i-shoh, Bog‘i-chashma va Bog‘i-sohibzamonlar dengiz sohili qiyaliklarda pog‘onalar va sharsharalar tizimini shakllantirgan.

Isfaxon shahri atrofida kanallar bilan sug‘oriladigan mevali bog‘lar – «bo‘ston»lar ham ko‘p bo‘lib, ularda shaftoli, bodom va behilar o‘stirilgan. Shoh Abbas davrida Kaspiyga yaqin Mozondaron viloyatining Amol, Barfurush, Ferixobod, Eshref va Sernobod shaharlarida ham ko‘plab bog‘lar qurilgan. Amoldagi bog‘ ulkan kiparislari bilan mashhur bo‘lgan.


**Sherozning pog‘onali bog‘lari.** Sheroz esa o‘zining pog‘onasimon istirohat bog‘lari bilan ajralib turadi. Shahardan sharq tarafda Bog‘i-Tagusha, Bog‘i-Jahonnamo, Chaxil-Ben va Xafttan, shimaliy-g‘arbda esa Bog‘i-Taxt joylashgan. Bog‘i-Taxt 7 pog‘onalik bog‘dan tashkil topib, ulardan pastdagи suv havzasи va artof-muhitga go‘zal manzaralar ochilgan (2.3.33-rasm). Bunday jamoat bog‘lari Sherozda so‘ngi o‘rta asrlarda 20 dan ziyod bo‘lgan. Bu bog‘larda ulkan chinorlar, kiparislari, qorag‘aylar o‘sgan (2.3.34; 2.3.35; 2.3.36; 2.3.37-rasmlar).

XVIII asr oxirida Tehronda ham qator bog‘lar bunyod etilib, ular ham Eronning boshqa bog‘lari kabi an‘anaviy «chor-bog» uslubida, simmetrik muntazam kompozitsiyalarda ishlangan. Bu bog‘larda suv va soya yetakchi o‘rinni egallagan.


**Movarounnahr: Samarqand va Buxoroning Temur va Temuriylar davri bog‘-saroylari.** Bog‘lar bunyod etish va ularga oroyish berish san’ati O‘rta Osiyoda juda qadim zamonlardan boshlab shakllanib kelgan. Bunga O‘rta Osiyoning o‘ziga xos iqlimi, serquyoshligi, uzoq issiq yozning o‘tkir ta’siridan saqlanishga qaratilgan harakat ham sabab bo‘lgan. Badavlat odamlar dastlab mo‘jaz oromgohlar bunyod etib, jazirama yoz kunlarida soya-salqin




2.3.34-rasm. Isfaxon. «Shahar-bog‘»dagi Chilustun saroyi va uning oldidagi suv va soya uyg‘unligiga asoslangan ulkan hovuz.



2.3.35-rasm. Eron. Sherozdag‘i 7 pog‘onali jannatmakon Bog‘i-Taxtning suv havzalari va landshaft ko‘rinishi.



**2.3.36-rasm. Chorbog' uslubidagi bog' rekonstruksiyasi.  
(D.A. Nozilov bo'yicha).**




**2.3.37-rasm. Qadimgi Xorazm. Qadimgi shaxriston atrofi  
va ichida barpo etilgan muntazam rejali bog'larning tarhi.**

bog'larda, hovuzlar qoshidagi supali shiyponlarda, shabboda joylarda dam olishgan. Bunday oromgohlarda, odatda, sersoya manzarali dov-daraxtlardan tashqari turli-tuman mevali daraxtlar, gullar, xo'jalik uchun toqlar va boshqa ekinlar ham ekilgan. Bunday bog'lar ko'pincha shahar atroflarida, tog' yonbag'irlaridagi qiyaliklarda, buloq bo'yalarida buniyod etilib, yoz kunlari ularga ko'chib o'tilgan. Ekinlar uchun yer tekislanib chellar ishlangan, ariqlar olingan, hovuz, shiypon, ayvonlar, supalar, ular oldida mo'jaz gulzorlar tashkil qilingan. Hokim va amaldorlarning shahar chetlaridagi bunday oromgohlari atrofi paxsa devorlar bilan aylantirilib, darvozalar ishlangan. Ular yozgi qo'rg'oncha bog'lar ko'rinishini olgan. Bunday bog'lar sahni o'q ariqlar bilan bir necha, odatda, to'rt qismga bo'linib, «chor-bog'» hosil qilingan. Badavlat oilalar o'z chorborg'lari ichiga chiroyli shiyponlar qurib, yoz oylari mehmonlarni shu bog'larga taklif qilishgan. Bunday mo'jaz qo'rg'oncha-chorbog'lar suv manbalariga yaqin, nisbatan tekis joylarda buniyod etilgan.

Yozgi qo'rg'oncha-chorbog'lardan tashqari shaharlar ichida sersoya xiyobonlar, mo'jaz yashil maydonlar ham tashkil qilingan. X asrda Samarqandga sayyohatga kelgan arab geografi Ibn Xavkal shahardagi yashil maydonlar va ulardagi turli xil oroyishlar haqida quyidagilarni yozadi: «Shahar bog'larga burkangan, agar unga yuqoridan qarasangiz hatto uylar ko'rinnmay ketgan», deydi.

Xerman Vamberi o'zining «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» kitobida Samarqandni mo'g'ullar istilo qilganda (1221-y.) bu yerdagi «usta bog'bonlar uzoq Sharqqa, mo'g'ullar yurtiga yuborilgan edi» degan fikrni bildiradi. Ma'lumki, mo'g'ullar Samarqandni bir yarim asrga yaqin davr ichida mustamlaka qilib turgan. Ana shu uzoq yillar davomida Samarqand va Movarounnahrda deyarli to'xtab qolgan bog'chilik san'atini Amir Temur qaytadan rivojlantirdi. Endi u qo'rg'oncha ko'rinishidagi bog'lar va shahar ichi maydonlaridagi mo'jaz bog'lar bilan chegaralanmasdan, shahar atroflaridagi xushmanzara joylarda katta-katta istirohat bog'-saroylarini va ulardagi turli xil go'zal oroyishlar va bog' ziynatlarini avj oldirdi.

Amir Temur buniyod etgan istirohat bog'-saroylari o'zlarining keng ko'lami, xush havosi, go'zal manzaralari, ertaknamo saroy



### 2.3.38-rasm. Temur va temuriylar yaratgan bog'larning Samargand shahri atrofida joylashishi:


- a – Bog'i Baland;
- b – Bog'i Maydon;
- d – Bog'i Naqshi Jahon;
- e – Bog'i Amirzoda Shoxrux;
- f – Bog'i Buldo’;
- g – Bog'i Zog'on;
- h – Bog'i Dilkusho;
- i – Bog'i Jahonnoma;
- j – Bog'i Davlotobod;
- k – Bog'i Chinor;
- l – Bog'i Behish;
- m – Bog'i Shamol;
- n – Bog'i Nav;
- o – Bog'cha (Ulug'bek bonyod etgan).

va ko'shklari, g'aroyib hovuz va favvoralari, beozor jonzotlari bilan mo'jaz qo'rg'oncha – chorborg'lardan ajralib turgan (2.3.38-rasm). Ammo istirohat bog'lari ham qo'rg'oncha-chorborg'lar kabi atroflaridan baland devorlar bilan aylantirilib, darvozalar orqali kirib chiqilgan. Temur bonyod etgan ayrim istirohat bog'larining maydoni juda katta bo'lib, ular ichida sersoya daraxtzoqlar, turli mevali bog'lar, hovuzlar, gulzorlardan tashqari maysazorlar, hatto o't-yalangliklar bo'lgan.

Temurning shahar Arki ichida Bo'ston saroy qoshida mo'jaz chorborg' ham tashkil etganligi haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, manbalarda shahzoda Muhammad Sulton qurdirgan madrasa (hozirgi Go'ri Amir) atrofida «Bir nechta uyni buzib jannat misol bir bog'cha» yaratilganligi ham eslatib o'tiladi. Ammo, bog'larning asosiy qismi shahar atroflarida, xisordan tashqarida mahobatli istirohat bog'-saroylari tarzida bonyod etilgan.

Temur ushbu istirohat bog'-saroylaridan tashqari Shahrisabzdagi Oqsaroy qoshida, shuningdek, Yassadagi Xoja Ahmad maqbara majmuasi.

**Hirot bog'-parklari.** Temur va temuriylar davrida Xuroson poytaxti Hirotda ham Samarqand bog'lariga o'xashash go'zal bog'-rog'lar bonyod etiladi (2.3.39-rasm). Hirot shahri atroflarida Temur davriga qadar ham mahalliy zodagonlar qurgan bir necha bog'lar



2.3.39-rasm. Hirot bog'larining miniatyurlardagi tasviri.

bo'lib, ulardan Bog'i Baland, Bog'i Zog'on, Bog'i Safedlar Shohrux davrida sultanatning yozgi qarorgohi va xalq sayillarini o'tkazib turish uchun foydalanilar edi. Shohrux o'z hokimiyatining dastlabki yillarda Bog'i Safed hududini ancha kengaytirib, bog'ni qayta quradi va unda tasviriy san'at asarlari bilan ziynatlangan munaqqash bir saroy bunyod etadi.

Sulton Xusayn Boyqaro davrida Hirot atroflarida bir necha bog'-saroylar va xiyobonlar mavjud edi. Ular ichida eng yirigi Xusayn Boyqaro bunyod etgan Bog'i Jahonaro hisoblangan. Bu bog' salkam bir kvadrat kilometr (100 hektar) joyga ega bo'lib, bog'ning o'rtaida mahobatli baland saroy qurilgan. Saroy oldida gulzor, mevali va manzarali yam-yashil daraxtlar bilan bezatilgan chorborg' va chorchaman hamda xiyobon uslublarida tashkil etilgan to'rtta bog' bo'lgan. Bog'ning shimoliy atrofidagi keng hovuzning to'rt tomonida to'rtta ziynatlari shiypon va kamondan nishonga yoy otib, mashq va musobaqlar o'tkazishga mo'ljallangan maxsus bino — sadafxona ham bo'lgan. Bog'da qatorlab ekilgan turli xil mevali daraxtlar, tokzor, sarv, oqqarag'ay, majnuntol, chinor, shuningdek, turli-tuman gulzorlar bo'lgan.

**«Chorbog'» uslubidagi bog'larga xos me'moriy-landshaft xususiyatlar.** Temuriylar o'zlarining bog'larini dil ochuvchan va ertaknamo bo'lishligi uchun ularni chiroyli hayvonotlar bilan bezaganlar. Bog'da sayr qilib yurgan ohu va tovuslar, hovuzlarda suzib yurgan o'rdak va g'ozlar shular jumlasidandir. Klavixo ham



2.3.40-rasm. Hovuzga dominant (yetakchilik) roli berilgan «ichki» va «tashqi», «chorbog»larning ko‘rinishlari.

Temurning Samarqanddagi Davlatobod bog‘ida ohu va tustovuqlar bo‘lganligidan dalolat beradi. Bog‘lardagi hayvonot olamini ko‘pgina nafis sur’atlarda ham uchratish mumkin. Hirot bog‘larining birini maxsus Hovuzi Moxiyon – Baliqlar hovuzi bezagan. Bunday jonzotlar Sharq bog‘lari husniga husn qo‘shtigan (2.3.40-rasm).

Klavixo Temurning Shahrisabzdagi Oqsaroyi qoshida bunyod etgan bog‘ida tillodan ishlangan sun’iy daraxtni ko‘rib, uning mevalari billur toshlar bilan bezatilgan edi, deb yozadi. Bunday g‘aroyib mo‘jizani yaratgan o‘rta asr ustalari mahalliy xalq vakillaridan yoki o‘zga yurtlardan edimi, bundan qati nazar, bu hol sun’iy landshaft yaratish va dizayn uslubi Sharq xalqlariga azaldan xos ekanligini ko‘rsatadi.

Bu bog‘larni yaratgan me’mor va bog‘bonlar ularda o’sha davr bog‘-istirohatchilik san’atining eng yaxshi namunalarini aks ettirishga intilganlar. Temuriylarning bog‘lari uchun ko‘proq ilga-

ridan mavjud manzilgohlar, suvi yetarli kichik bog'lar, xushmanzara daraxtzorlar, o't-o'lalnlar qo'shib olinib, qaytadan rejalanigan yoki maxsus loyihalangan. Faqat ayrim bog'lar yangitdan ishlangan. Har ikkala holda ham ular uchun mavjud manzaraga boy joylar tanlangan. Ayni paytda, Mavarounnahrda tabiiy noqulay bo'lgan, masalan, botqoqlik joylarda sun'iy ishlangan bog'lar ham uchraydi.

Amir Temur va Temuriylar davri istirohat bog'larining qiyofasi ikki xil: 1) simmetrik reja asosida to'g'ri handasaviy shakllardan tuzilgan tartibli muntazam ko'rinishda va 2) jonli tabiat manzalaridan tashkil topgan tabiiy erkin ko'rinishlarda shakllangan.

Temur va temuriylar buniyod etgan bog'larning ko'pchiligi birinchi xil ko'rinishdagi bog'lardan tashkil topib, ularning tuzilishi an'anaviy «**Chorbog'**» **tartibiga** bo'ysundirilgan. Chorbog'lar rejasি, asosan, to'g'ri to'rtburchak yoki to'rtburchak shaklidagi devorlar bilan o'ralgan to'rt va undan ko'p qismidan iborat bog'lar bo'lgan. Ularning o'rtasidagi saroyga boriladigan xiyobonlar, odatda, chorborg' maydonini simmetriya yoki shunga yaqin holda joylashgan birtalay to'rtburchak «chorchaman»larga bo'lgan.

Chorbog' tartiboti alohida qoida sifatida e'lon qilinib, bog'-dorchilikda unga amal qilish an'ana qatoriga kirgan. Bu an'ana asrlar davomida bog' ustalari va me'morlar tomonidan aniq ijtimoiy va tabiiy sharoitlarni hisobga olgan holda turli ko'rinishlarda rivojlantirib kelingan. Buxorodagi Sitorai Moxi Xossa bog'ining (XIX–XX asr) tuzilishi bunga misol bo'la oladi. U XIX–XV asrlardagi Samarcand va Hirot bog'lariga o'xshash chorborg'lar shaklida rejalanigan. Bog' sahni bir-biriga ko'ndalang yo'laklar bilan kesishuvchi chorchaman maydonlarga bo'lingan.

**Tartibli muntazam handasaviy ko'rinishdagi chorborg'lar** ko'proq nisbatan tekis yerlarda joylashgan bog'larga mos kelsa, erkin manzarali ko'rinishdagi bog'lar baland-pastlikda, qiyaliklarda joylashgan keng maydonli sayrgoh istirohat bog'lari va bog'-qo'riqxonalar uchun mos kelgan. Amir Temur buniyod etgan Bog'i Jahonnamo, Bog'i Naqshi Jahon, Bog'i Taxti Qoracha bog'lari ana shunday erkin tabiat manzarasi ko'rinishidagi bog'lar turiga kirgan. Bu bog'lardagi bog' saroyi atroflari, unga boriladigan markaziy xiyobon va bog' darvozasi oldilari, muntazam tarhlik rejalarda shakllantirilgan. Bog'ning qolgan qismlari, asosan, erkin tabiat

manzarasi ko‘rinishida qoldirilgan. Temuriylar bunyod etgan bog‘lar, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, maydonlarining kattaligi, go‘zal mahobati-yu, munaqqas zeb-u ziynatlari, ertaknamo ko‘shksaroylari (2.3.41-rasm), mevali va manzarali daraxtlari, rang-barang gullari, g‘aroyib suv inshootlari va manzaralari, hayvonot dunyosi bilan ajralib turgan.



*2.3.41-rasm. Temuriylar bunyod etgan Chorbog‘lardagi ko‘shklar, o‘simliklar va hovuzlar.*

Sharafiddin Ali Yazdiy Temurning «Bog‘i Jahonnamo»si haqida yozarkan, unda to‘satdan me’morning oti yo‘qolib qolganligi va uni bog‘dan izlab topishga bir oy sarf bo‘lganligi haqidagi latifani keltiradi. Bog‘i Dilkusho va Bog‘i Nav **bog‘larining o‘lchamlari** 1500x1500 gaz (1000x1000 metrlar chamasi) atrofida bo‘lgan. Davlatobod Bog‘ining tarhi esa to‘g‘ri to‘rtburchak ko‘rinishida (900x1350 metr) bo‘lib, bog‘ning o‘zi ikki qismdan: bog‘-saroy

joylashgan istirohat bog‘i (900x900 metr) va bog‘ uzumzoridan (900x450 metr) iborat bo‘lgan. Yangi bog‘lar ko‘pincha, ilgaridan mavjud bog‘lar hududlarini kengaytirish hisobiga barpo etilsa-da, ekiladigan daraxtlar turi alohida e’tibor bilan tanlangan. Bog‘ devorlari yonidan tortilgan ariqlar bo‘ylab mirzateraklar ekilgan.

Ular ichida «Safedor Samarqandiy» turi o‘zining go‘zal rangi va shakli bilan boshqa teraklardan ajralib turgan. Chorbog‘ xiyo-bonlari, hovuzlar va ariqlar bo‘ylab *manzarali daraxtlardan* tol, terak, chinor, sarv, archa, majnuntol kabilar ekilgan. *Mevali daraxtlardan* olmalarning turli xil navlari, o‘rik, shaftoli, anor, nok, olcha, anjir, tut va bodomlar doim e’tiborda bo‘lgan.

Gullarni tanlashda ularning ochilish mavsumiga e’tibor berishgan. Ular chorcharmanlarda shunday tartibda ekilganki, biri ochilib tugasa, ikkinchisi gullay boshlagan. Shunday gullardan ayrimlarini sanab o‘tamiz: hamisha bahor, atirgullar, binafshalar, savsan, nargis, gulira’no, nilufar, shabbo‘y, gultojixo‘roz, argun, sadbarg, xanjariy. Bog‘larda qo‘lga o‘rgatilgan ohular, tovuslar, bedona va kakliklar, hovuzlarda esa g‘oz va o‘rdaklar, baliqlar suzib yurgan. Temuriylar qurdirgan ayrim bog‘larda (jumladan, Bog‘i Davlatobod, Bog‘i Bexisht, Bog‘i Chinor) saroylar baland tabiiy yoki sun’iy tepaliklar ustiga qurilgan bo‘lib, ular bog‘ning turli tomonlaridan, ayniqsa, ularga eltuvchi xiyobonlardan yaqqol ko‘zga tashlanib turgan. Go‘zal saroylar qurilgan tepaliklar yoniga ushbu saroylarning aksi tushib turuvchi sun’iy suv havzalari ishlanib, ular chir aylana keng ariq yoki hovuz favvoralar tarzida bo‘lgan. Bu kabi memoriy uslublar bog‘ni yanada go‘zal va tarovatli qilgan, dam oluvchilar dilini zavq-shavqqa to‘ldirgan.

## Hindistonning Boburiylar davri bog‘lari

### *Dars rejasি*


1. Hindistonda Bobur, Akbar, Jahongir, Shohjahonlar hukmronligi davrida bog‘dorchilikning rivoj topishi.
2. Boburiylar davrida Hindiston bog‘-park san’atida yangi yo‘nalishning vujudga kelishi. Bog‘lar tipologiyasi.
3. Lahordagi Shalimar bog‘ining me’moriy landshaft yechimi.
4. Kashmirdagi Dal ko‘li sohilidagi Shalimar bog‘ining me’moriy-landshaft yechimi.
5. Hindistonning maqbara-bog‘lari. Toj-Mahal maqbara bog‘-saroyi.

**Hindistonda Bobur, Akbar, Jahongir, Shohjahonlar hukmronligi davrida bog‘dorchilikning rivoj topishi.** O‘rtalas Sharq mamlakatlari bog‘lariga xos an‘analar Shimoliy Hindistonda, Bobur va boburiylar hukmronligi davrida (XVI–XVII asrlarda) yanada taraqqiy topdi. Boburiylar yaratgan bog‘lar nafaqat hozirgi Hindistonda, balki Pokistonda ham saqlanib qolgan. Dehli, Agra, Fatepur-Sekri, Shohjahonobod (eski Dehli), Lohur, Kishmir shaharlaridagi Boburiylar qurban bog‘lar nafaqat Hindistonning, balki butun Islom dunyosi o‘rtalas bog‘-parkchilik san‘atining ham javohirlari qatoriga kiritilgan.

**Boburiylar davrida Hindiston bog‘-park san‘atida yangi yo‘nalishning vujudga kelishi.** Bog‘lar tipologiyasi. Boburiylarning bobolari Amir Temur va Temuriylar chorborg‘larni shahar atrofidagi tabiatan nafis joylarda bunyod etgan bo‘lsalar, Boburiylar chorborg‘ uslubini nafaqat nafis tabiat quchog‘iga, balki shahar ichiga me‘moriy obidalar majmuyi: saroylar, qasrlar, ko‘shklar, maqbaralar muhitiga olib kirib, bu san‘atning yangi yo‘nalishini yaratdi. Ana shunday me‘moriy obidalar bilan hamohang tarzda yaratilgan chorborg‘ni Dehlida, Akbarshoh otasi Xumoyunga atab 1566-yilda qurdirgan maqbara-bog‘da ko‘ramiz. Maqbaraning chir atrofida simmetriya tarzida suv havzalari, ariqlar, xiyobonlar va chamanlar barpo etilgan. Chopbog‘ bu yerda maqbara uchun manzaraga boy, jozibador, dilni yayratadigan me‘moriy yashil muhit-peyzaj vazifasini bajargan. Agradagi Akbarshoh maqbara-bog‘i ham ana shunday orombaxsh bog‘lardandir. Akbarshoh maqbarasi bog‘ning geometrik markazida joylashgan. Bog‘ning to‘rt tarafida to‘rtta ulkan darvoza, bog‘da sersoya daraxtlar, maymunlar, tovuslar va ohular mavjud.

**Lahordagi Shalimar bog‘ining me‘moriy landshaft yechimi.** Shohjahonning Lohurdagi Shalimar bog‘i haqida alohida to‘xtash joizdir. Bog‘ 1641–42-yillarda bunyod etilgan. U qiyalikda joylashgan bo‘lib, maydoni pog‘onali uch tekis sahnga bo‘lingan. Cho‘zinchoq to‘g‘ri to‘rtburchakli muntazam rejadagi bog‘ atrofi baland devor va darvozalar bilan o‘ralgan. Meridional yo‘nalishdagi bog‘ o‘qi bo‘ylab markaziy xiyobon va o‘rtada o‘q ariq, ikki yondan esa unga parallel yonbosh xiyobonlar o‘tkazilgan. Xiyobonlarni ko‘ndalang kesgan parallel yo‘laklar va ariqlar bog‘da kvadrat shaklidagi «chorchaman»larni hosil qilgan. Bog‘ maydoni 16 gektarga

yaqin. Xiyobonlar va yo'laklar kesishgan joylarga turli shakldagi favvoralar yoki shalolalar buniyod etilgan. Quyi va yuqori pog'onalarning tarhi bir-biriga o'xashash chorborg' ko'rinishida bo'lgan. Chorchamanlarda mevali daraxtlar, gulli butalar va gulzorlar mavjud. O'rtadagi sahnning maydoni nisbatan kichik, unda ulkan kvadrat hovuz, uning markazida esa marmar supa joylashgan. Bog'ning sharqiy va g'arbiy devorlari bo'ylab bir-biriga c'xashash bir oshyonli saroylar va yordamchi xonalar qurilgan (2.3.42-rasm).



**2.3.42-rasm. Laxurdagi Shalimar bog'i landshaftlarining ko'rinishi.**

Bog'ning asosiy binosi-ikki qavatli saroy o'rtadagi hovuz yonida joylashgan. Hovuzning qolgan uch tomonida marmar shiyponlar qad ko'tarib turibdi, hovuz markazidagi marmar supa esa bog' bilan tosh ko'priklar orqali bog'langan. Hovuzdagi qator mitti favvoralar havoga rohatbaxsh suv purkaydi. Bog'ning sharqiy qismidagi ravoqlar bilan bezalgan xonalarda dastlab shohning harami joylashgan bo'lib, unda asosiy xonalardan tashqari hammom va cho'milish uchun hovuz ham bo'lgan. Tevarak-atrofni to'ldirib turgan atirgullarning muattar hidi, qafasdagi rangorang to'tiqushlar

dilga surur bag'ishlagan. Shalimar bog'i endilikda Loxur shahri bilan qo'shilib ketib, oddiy xalq va sayyoohlar dam oladigan go'zal go'shaga aylantirilgan. «Shalimar» so'zi har xil tarjima qilinib, «Sevgi maskani» yoki «Huzur-halovat va go'zallik maskani» degan ma'nolarni bildirar ekan.

**Kashmirdagi Dal ko'li sohilidagi Shalimar bog'inining me'moriy-landshaft yechimi.** Akbarshohning o'g'li Jahongirshoh (1569–1627) ham Agra va Loxur shaharlarida, shuningdek Hindistonning eng go'zal joylarida: Kashmir va G'arbiy Pokistonda qator bog'lar yaratgan. Uning Kashmirdagi Dal ko'li sohilida joylashgan Shalimar bog'inining rejasi cho'zinchoq to'g'ri to'rtburchak shaklida (500x200 metr) bo'lib, ketma-ket uch qismidan: tashqi bog', markaziy bog' va ichkari bog'lardan iborat. Tashqi bog'ning me'moriy ochiq maydoni va ulkan shiyponi bo'lib, u podshoh qabulxonasi bilan tutashgan. Markaziy bog' sahni esa ikki pog'onali bo'lib, o'rtasida shoh saroyi va qabulxonasi joylashgan. Ichkari bog' shoh oilasi uchun mo'ljallangan, bog'dagi saroylar qorli, ulug'ver Maxadev tog'lari etagida joylashgan. Ana shu tog' qoyalaridan boshlangan kengroq ariq Shalimar bog'ini uzunasiga kesib o'tib sharshara va savvoralar, har ikki yondan esa xiyobonlar hosil qilgan. Xiyobonlar chetiga chinorlar ekilgan (2.3.43-rasm).

Kashmirning Shalimar bog'i bir tomondan ko'l suvining maftunkor manzarasi, ikkinchi tomondan baland tog' landshaftiga uyg'unligi bilan boshqa bog'lardan ustun turadi.

Kashmirdagi Dal ko'li havzalarida suv ustida suzib yuruvchi g'aroyib bog'lar shakllantirilgan. Buning uchun quruq qamishdan to'kilgan yengil «gilam» suv ustiga to'shalgan. Suvostida o'suvchi turli o'simliklar tomirlari va loyi bilan ushbu gilam ustiga yozilgan. Bu narsa qisqa vaqt ichida hosildor qatlampga aylangan. Unga tashlangan don tez orada o'sib chiqqan. Avloddan-avlodga o'tib ketgan bu suzuvchi bog' qatlami yangidan qo'shilgan cho'kindilar yordamida mustahkamlangan, asta-sekin pastga o'sib, suv tagiga yetgan va yaxlit yer massasiga aylangan. Bu massaga tashqaridan tushgan turli chiqindilar uming sathini suv yuzasidan ko'tara borgan va natijada inson qo'li bilan yaratilgan quruq sun'iy yer qatlami hosil qilgan. Bu qatlam ustiga nasaqat bog'lar, balki uylar, imoratlar ham qurish mumkin bo'lgan.



2.3.43-rasm. Kashmirdagi Shalimar bog‘ining  
kirish joyi va landshafti.

**Hindistonning maqbara-bog‘lari. Toj-Mahal maqbara bog‘-saroyi.** Hindistondagi maqbara-bog‘lar orasida eng mashhuri – bu Agradagi Toj-Mahaldir (XVII asr). Uni Boburiy Shoh Jahon rafiqasi Orzumandbonu (Mumtoz Mahal) ning so‘nmas xotirasiga uchun qurdiradi. Toj-Mahal ham boshqa maqbara-bog‘lar kabi chorbog‘ uslubida rejalgangan. Biroq undagi maqbara binosi Xumoyun va Akbarshoh maqbaralari kabi bog‘ markazida emas, balki uning to‘rida joylashtirilgan. Natijada maqbara-bog‘ g‘oyasini o‘zida mujassamlashtirgan ertaknamo obida va unga poyandoz tushgan go‘zal chorbog‘ hosil bo‘lgan. Bosh xiyobon bo‘ylab o‘tkazilgan keng ariqlar va hovuzlarga tushgan maqbara-saroy aksiga bog‘ muhitiga yanada maftunkor fayz baxshida etgan. Toj-Mahalni ko‘rishga kelganlar chorbog‘ darvozasidan kirib to maqbara binosiga borguncha ko‘z o‘ngida ming turfa jilo berib tovlanayotgan obidaning jamoliga to‘ymay, bu jannatmakon bog‘ni kengroq mushohada etishga shoshiladi (2.3.44-rasm).

Hindistonning Auranobod shahrida ham me’moriy-rejaviy kompozitsiyasi jihatidan Toj-Mahalga juda yaqin bo‘lgan Bibi-Kamakbar maqbara-bog‘i (XVII asr) saqlanib qolgan.



2.3.44-rasm. Agradagi Toj-Mahal maqbara bog'-saroyi.


Hindiston va Pokistonda XVII asrda go'zal Ximolay tog'lari etaklarida bonyod etilgan «Shalimar» va «Nishat» bog' deb nomlangan bir nechta bog'lar mavjud. Bularning aksariyati Boburiylar tomonidan Lal ko'li atrofidagi xushmanzara joylarda qurilgan (2.3.45-rasm).

Bu bog'lar hududini· tog' etaklarida sun'iy tashkil qilingan kvadratsimon pog'onalar, tog'lardan oqayotgan suvga to'la shalolalar, ariqlar, katta-kichik hovuzlar, gulzorlar, xiyobonlar tashkil qiladi. Bu bog'lar kompozitsiyasi sof muntazam simmetrik rejada chorbog' va chorchaman uslublarida qurilgan.

Bobur va uning avlodlari yaratgan bog'larning ayrimlari bizning davrimizgacha saqlanib kelmoqda. Kobuldag'i Bog'i Bobur, Istolifdagi Bog'i Istolif, Agradagi Bog'i Nurafshon (Pombog') bog'-saroylari, Toj-Mahal, Dehlidagi Xumoyun va Sekridagi Bog'i Akbarlar, Srinar va Lahordagi Shalimar bog'lari shular jumlasidandir (2.3.46; 2.3.47; 2.3.48-rasmlar).

#### Mustahkamlash uchun savollar

1. Movarounnaharda Temur va temuriylar davri bog'-saroylari haqida tushuncha bering.
2. Temur davri Chorbog'lariga xos xususiyatlarni tushuntirib bering.



**2.3.45-rasm. Lal ko'li atrofidagi Boburiylar bog'larining joylashish sxemasi.**



**2.3.46-rasm. Kashmirdagi Shalimar bog'ining landshafti.**



1



2

### 2.3.47-rasm. Boburiylar yaratgan bog'larining landshaft ko'rinishlari:

1 – Kashmirning pog'onali bog'larida qo'llanilgan «chodor» (sun'iy shalola); 2 – Fatexpur Sekridagi saroy-bog'i favvoralari.

3. Erondagi «Maydoni shox» va «Shahar bog»ning me'moriy-landshaft yechimlari qanday tamoyillarga asoslanadi?
4. Hindistondagi Bobur va Boburiylar davri bog'-parklarining tipologiyasini aytib bering.
5. Boburiy qurgan bog'lar Temuriylarning Samarcand, Xirot va Qobul bog'laridan nimalari bilan farq qiladi? Ular orasidagi umumiylilik nima?
6. Shalimar va Nishat bog'lari qanday maqsadlarda qurilgan?
7. Hindistondagi maqbara bog'larining eng rivojlangan ko'rinishini aniqlang.



b)



2.3.48-rasm. Boburiylar yaratgan bog'larning landshaft  
ko'rinishlari:

- a — Akbarshohning Agradagi saroy-bog'i;
- b — Fatexpur Sekridagi saroy-bog'i hovuzi.

## 2.4. Uzoq Sharqning bog'dorchilik va bog'-park san'ati

### Xitoy bog'-park san'ati

#### Dars rejasি

1. Qadimgi Xitoy bog'lari.
2. Xitoy bog'larining diniy-falsafiy asoslari.
3. Xitoy bog'-parklarining me'moriy tipologiyasi va turlari.
4. Xitoy bog'lariga xos asosiy me'moriy-landshaft xususiyatlar.
5. Pekindagi imperator bog'-saroylari va parklari. Ixeyuan bog'-park ansamblи.
6. Xitoy Venetsiyasi. Suchjou shahrining «Allomalar» yoki «Adabiyot» bog'lari.

**Qadimgi Xitoy bog'lari.** Xitoy tadqiqotchilarining ma'lumotiga ko'ra, Xitoyning bog'-parkchilik san'ati uch ming yildan ko'proq tarixga ega. Eramizgacha XII asrga mansub bo'lgan turli yozma

manbalarda Qadimgi Xitoyning ilk parklaridan birini yaratgan Cheu qirolligi haqida gap boradi. Cheudan keyingi hukmdor My Uang esa turli inshootlari bo‘lgan hashamador va xushmanzara bog‘larni vayron qiladi. Imperator Szin Xi-Xoang o‘zining 41 yillik hukmronligi davrida maydoni ming gettardan ziyod bo‘lgan ulkan istirohat parkini bunyod etadi va unga qancha qirolliklarni zabit etgan bo‘lsa, o‘shancha saroylar qurdiradi.

Xitoyning «Qo‘shiqlar kitobi» nomli eposida imperator Ven Vang bunyod etgan «Bilimlar bog‘i» haqida gapiriladi. Eramizgacha 1150-yilda qurilgan ushbu bog‘ maydoni 375 hektarni tashkil etgan. O’sha kitobda imperator Shi Xang-Ti bunyod etgan ulkan park haqida ham gapirib, uning perimetri 120–130 kilometr ekanligi aytilgan. Ushbu suloladan bo‘lgan imperator Uang Ti eramizgacha 197-yilda maydoni 3000 hektar keladigan ulkan park bunyod etadi. Biroq, afsuski, Qadimgi Xitoy parklarining arxitekturasi haqidagi ishonchli ma’lumotlarning kamyobligi tufayli bu sohadagi bilimlarimizni mazkur o‘lkalarda tarixan keyinroq bunyod etilgan bog‘lar yordamida to‘ldiramiz degan umiddamiz.

**Xitoy bog‘larining diniy-falsafiy asoslari.** Ushbu mintaqaning o‘rta asr bog‘-parkchilik san’ati Islom mamlakatlari bog‘chilik san’atidan ancha farq qiladi. Biz yuqorida ko‘rdikki, Islom mamlakatlari bog‘-parklariga muntazam rejali simmetrik kompozitsiyali yechimlar o‘ta mosdir. Xitoy mintaqasida muntazam rejadan farqli o‘laroq, park qurilishi va dizaynining tabiiy landshaft yoki peyzaj uslubi keng rivojlangan. Bu esa uzoq Sharq xalqlari o‘rta asr diniy falsafasiga bog‘liq bo‘lib, bu falsafa o‘z navbatida tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi ibridoiy animistik (har bir narsaning joni, ruhi bor deyuvchi) maslaklar bilan birligida shakllanib borgan. Uzoq Sharqning yirik mamlakatlari – Xitoy va Yaponianing milliy bog‘lari bu jihatdan alohida qiziqarlidir.

Bu mamlakatlardan amaliyotidagi tabiat go‘zalligini mutloqlashtirish g‘oyasi inson faoliyatining tabiat qonuniyatlariga bo‘ysunishga olib kelgan. Uzoq Sharqning landshaft arxitekturasi va bog‘-park ustalari o‘z ijodlarida ushbu tamoyilga qadimdan amal qilib, jonli erkin tabiat manzaralarini aks ettiruvchi milliy bog‘larni yaratgan.


**Xitoy bog‘-parklarining me’moriy tipologiyasi va turlari.** Xitoyda bog‘-parklarning olti xil turi mavjud: imperator bog‘lari, imperator

qabrlari qoshidagi bog‘lar, ibodatxona bog‘lari, tabiiy peyzajli bog‘lar, hovli bog‘lari, allomalar (yoki adabiyot) bog‘lari. Bog‘larni bunday turlarga bo‘lish o‘ta shartli bo‘lib, u bog‘larning me‘moriy kompozitsion jihatlariga ko‘ra ko‘proq lirik xususiyatlarini ochib beradi. Bog‘lar, albatta o‘zlarining ko‘lami, rejaviy tuzilishi, shaharlar muhiti yoki tabiiy muhitda joylashishiga qarab bir-biridan farqlanadi.

**Xitoy bog‘lariga xos asosiy me‘moriy-landshaft xususiyatlar.** Xitoy bog‘lariga xos umumiy xususiyatlar mavjudki, bularga kulrang toshli qirg‘oqli suv havzalari, shunday toshli ishlangan «qoyalar» kompozitsiyasi, suv sahniga deyarli tekis yoki yoy shaklini olgan mo‘jaz ko‘prikchalar, g‘isht rangiga o‘xashash qizil ustunlarga o‘rnatilgan qiya tomli shiyponcha (pavilon)lar, uzundan-uzoq, cho‘zilgan soyabon (galeriya)lar, nafis to‘shamali yo‘laklar, g‘aroyib shakllarga ega ekzotik daraxtlar kiradi. Shu va shunga o‘xashash muhim xususiyatlar Xitoy manzaraviy bog‘larini bexato aniqlashga imkon beradi. Xitoyda atigi bundan uch asr avval bunyod etilgan bog‘lar ham eng qadimgi bog‘larga xos an‘analar asosida qurilgandir.


Xitoydagagi eng mashhur va ulkan bog‘lar – bu imperator bog‘laridir. Bu bog‘larning erkin rejaviy yechimlari, to‘g‘riburchakli hovlilar zanjirini tashkil qilgan qatiy simmetrik kompozitsiyali saroy binolari bilan qorishib ketgan. Bunday zanjir qator hovlilar o‘z navbatida nafis ishlov berilgan tabiat landshaftidagi ko‘l va qirliliklar quchog‘iga uyg‘unlashib ketgan. Bog‘ landshaftining eng jozibador sun‘iy elementlari hisoblangan qavariq ko‘priklar, odatda, yorqin qizil, yam-yashil, sariq va boshqa ranglarga bo‘yalgan shiyponlar bilan jonlantirilgan.

**Pekindagi imperator bog‘-saroylari va parklari. Ixeyuan bog‘-park ansamblı.** Imperator parklari qurilishining yirik markazi Pekin hisoblanadi. Bu yerda ichki shaharning g‘arbiy devorlari ortida joylashgan Beyxay, Chjunxay va Nonxay ko‘llarida XII asrda qurilgan imperator parklari yastanib yotgan. Bu parklar shaharning Gugun imperator saroyi va undan shimolroqdagi go‘zal ko‘rinishli Szinshanning sun‘iy qirlilikleri va Pekin shahrining to‘qqiz kilometrlik katta o‘qi bo‘ylab joylashgan boshqa binolardan iborat landshaft kompozitsiyasining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etgan. Bu yerda me‘moriy geometrizm mohirona ishlangan sun‘iy manzaraviy kompozitsiyalar bilan o‘ta uyg‘unlashib ketgan (2.4.1-rasm).




**2.4.1-rasm. Xitoy imperator bog‘larining namunasi.  
Imperator saroyi va bog‘ aksanometriyasi.**

Imperator bog‘larining ko‘pchiligi XVII–XVIII asrlarda Pekin shahriga yaqin joylarda, asosan, shimoliy va g‘arbiy tomonlarda joylashgan. Bu bog‘larning ko‘pchiligi saqlanmagan, ulardan eng yirigi Yuanminyuan esa qisman saqlangan, xolos. Bizgacha yaxshi holatda saqlangan imperator bog‘laridan biri – bu shahar oldi bog‘-park ansamblisi – Ixeyuan yozgi saroyidir (2.4.2-rasm). U 330 hektar joyni egallagan. Ixeyuan bog‘-park ansamblining kompozitsion markazini bu parkda sun’iy tarzda yaratilgan ulkan Kunminxu ko‘li tashkil qiladi. Uning suv yuzasi 250 hektardan ziyod va bir nechta orollar va bandlardan iborat.



**2.4.2-rasm. Pekin shahri yonida joylashgan Ixeyuan  
imperator-ansamblining bog‘ tarhi.**

**Xitoy Venetsiyasi. Suchjou shahrining «Allomalar» yoki «Adabiyot» bog‘lari.** Xitoy bog‘-parklariga xos falsafiy g‘oya ko‘proq «allomalar» yoki «adabiyot bog‘lari» deb ataladigan mo‘jaz manzaraviy bog‘larda o‘z aksini topgan. Ana shunday bog‘lar bilan Shanxay yaqinidagi Suchjou shahri rayonlari mashhurdir. Suchjou bog‘larida (ularning soni hozir 60 dan ziyod) imperator parklaridagi kabi rasmiy dabdababozlik yo‘q. Bu bog‘lar xilvatda hordiq chiqarib dam olish, o‘yga cho‘mish, aql-zakovat, ya’ni tafakkur bilan shug‘ullanish uchun yaratilgan (2.4.3-rasm, 1–4). Shu boisdan ular «allomalar» yoki «adabiyot bog‘lari» deb nomlangan. Bunday bog‘larga xos elementlarni baland qavariq ko‘prikli uncha katta bo‘limgan ko‘llar, sopol tomli shiyponlar, pagodalar, tabiiy toshlardan shakllangan kompozitsiyalar tashkil qiladi. Yashash xonalaring davomi hisoblangan va butkul tashqi dunyodan to‘silgan bu mo‘jaz bog‘lar o‘zida halovat dunyosi, osoyishtalik va tabiat go‘zalligini mujassam etgan.



2.4.3-rasm. Xitoy bog‘-parklariga xos peyzajlar: 1–2 – allomalar bog‘lariga misollar; 3–4 – Ixeyuan parkining ko‘rinishi va peyzaji.

Suchjou shahri parklari va kanallarining ko‘pligidan «Xitoyning Venetsiyasi» deb ham nom organ. Suchjouning tarixiy mo‘jaz bog‘-lari — Lyuyuan («Sokin o‘tgan vaqt»), Vanshiyuan («To‘rlar ustasi bog‘i»), Chjo-ujenyuan («Kamtarin ma‘murning bog‘i») va boshqalar XVI—XVII asrlardan yoki yana ham avvalgi davrlardan beri mavjuddir. Xitoylklarning o‘rta asrlar bog‘-park inshootlari arxitekturasi va dizaynini, ya’ni ko‘priklar, darvozalar, ochiq muhitdagi haykallar yaratishdek yuqori malakasini ham alohida e’tirof etish zarurdir. Jumladan, Pekin yaqinidagi Min sulolasi xilxonasining yo‘li odamlar va hayvonlarning qator tuzilgan husendor haykallari bilan bezatilib, ko‘p ustunli oraliqli darvozalar bilan yakunlangan. Parklar va saroy ansambllari tizimiga kirgan yelkasiga yassi tosh ko‘targan toshbaqalarga o‘xshash «ajdar bolalari»ning haykallari, sherlarning stillashtirilgan shakllari, naqshinkor ustunlar va to‘sıqlar ajib va mo‘jizakordir. Ayniqsa, parklarning eng muhim tomoshagoh kompozitsiyaviy nuqtalariga joylashtirilgan shiyponlar va ko‘priklar o‘ta mohirona va o‘ziga xos tarzda ishlangan. Tabiat landshafti quchog‘ida sun’iy inshootlarni loyihalashning zamonaviy timsoliga Buyuk Xitoy devorini ham misol qilib keltirish mumkin, chunki bu devor o‘zi joylashgan tabiat manzarasiga xuddi uzukka qo‘yilgan gavhardekk mos tushgan.

## **Yaponiya bog‘-park san’ati**

### **Dars rejası**

1. Yapon bog‘ining mantiqiy va diniy filosofiyasi.
2. Yapon bog‘larining asosiy sifatlari va belgilari. Yapon bog‘larida simvolizm (timsollik) ramzi.
3. Yaponiya bog‘larining tarixiy turlari: imperator saroylari, ibodatxonalar, monastirlar va turarjoyolar qoshidagi bog‘lar.
4. Yapon bog‘larining zamonaviy turlari: ommaviy parklar, jamoat binolari va xususiy turarjoylarning hovli bog‘lari.
5. Yapon bog‘larining o‘simliklari.
6. Yaponiyaning quruq peyzajli (toshloq) bog‘lari.
7. Yassi, qirqiq va past-baland bog‘lar, ularning to‘liq (sin), yarim (so) va qisqargan (ge) shakllari.

**Yapon bog‘ining mantiqiy va diniy filosofiyasi.** Yaponiya bog‘-park san’atining g‘oyaviy falsafiy asoslarini chuqurroq tushunmoq uchun bu mamlakatning o‘ziga xos geografiyasi va tabiiy-iqlim

sharoitlariga hamda yapon xalqining diniy va dunyoviy tafakkuriga nazar solmoq kerak. Tog‘-u toshlar, qoyalar, sharsharalar, ko‘llar, dengizlar tabiiy irmoqlar, Yaponiyaga xos o‘simlik va suv dunyosi, ya’ni ona tabiat qanday yaratilgan bo‘lsa, yaponlar ularni o‘z bog‘-larida shunday mazmunda, faqat kichiklashtirilgan va ramziylash-tirilgan shakllarda ko‘rishga odatlanganlar. Yaponiya dini – dzen-buddizm va sintoizm ham yapon xalqini aynan ana shunga, ya’ni ona tabiat go‘zalligini yaxlit holda ko‘ra bilishga, uni sevishga, uning elementlari orasidagi mutanosiblikni sezish, uni tushunish va to‘liq his qilishga undaydi. Bu ularning turmushini go‘zal, hayotga ishtiyoqini mustahkam, ruhini quvnoq, dilini baxtiyor qiladi, deb tushuntiradi. Bu esa bizga yapon bog‘lariga xos ramziylik, mazmuniylik va an’anaviylikni tushunishga yordam beradi. Demak, Yaponiya milliy bog‘larining uslubiyati yaponlarning ona tabiatini, milliy mafkurasi va diniy dunyoqarashlaridan kelib chiqadi.

**Yapon bog‘larining asosiy sifatlari va belgilari. Yapon bog‘larida simvolizm (timsollik) ramzi.** Dzen-buddizm ona tabiatni inson o‘zining barcha sezish a’zolari bilan, ya’ni nafaqat ko‘rib va ushlab, balki hidlab, eshitib va ta’mini totib ham o‘rganishga undaydi. Faqat shundagina inson ona tabiatni yaxshi tushunadi, sezadi va sevadi.

Ona tabiatdagi tog‘-u toshlar, qoyalar, sharshara, irmoqlar, daraxt va o‘simliklar hamda havzalarning modellashtirilgan ko‘ri-nishlari yaponlarning jon-u dili. Ular o‘z bog‘larini ana shulsarsiz, o‘zlarini esa bog‘larsiz tasavvur etolmaydi. Bu yapon bog‘lariga xos eng birinchi va asosiy omilidir. Ikkinchisi bu jonli tabiatning ushbu tarkibiy elementlari tabiatda qanday mutanosiblikda bo‘lsa, bog‘larda ham shunday holatlarda timsollahtirilishi shart (2.4.5-rasm). Yaponiyada inson jonli tabiatning bir qismi, uning tashqarisidan emas, ichidan joy olgan uyg‘un organizmi hisoblanadi. Shu boisdan ham yaponlar tabiatni egallahsga emas, balki har doim u bilan uyg‘unlashishga harakat qiladi. Tabiatga mavsumiylik, vaqtga ko‘ra doimiy harakatchanlik tushunchalari xos. Bu tushunchalar ham yapon bog‘larida o‘z aksini topgan. Daraxt va butalar, ularning gullari hamda mevalari mavsumiylikni bildirsar, tosh va qirlar doimiylikning, yapon tog‘larining ramzidir. O‘simliklar hayoti va suv oqimi esa vaqt va harakat ramzidir. An’anaviy yapon

bog'lariga xos yana bir narsa – bu ochiq va yopiq yashil muhitlar kontrastidir.

Buning ma'nosи shulki, yaponlar bog'larini tabiat elementlari (tochlар, qirlar, o'simliklar, suvlar) bilan to'ldirilib tashlash emas, balki ochiq muhitlar va ularda turgan tabiiy urg'ular orqali ham tasvirlashni yoqtirishadi. Bog'larning oldingi, o'rtalik va orqa manzaralarini bo'lishligi va ularni sayr yo'laklaridan ko'rish imkoniyatining yaratilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar Xitoyda bog'lar mavjud tabiatning husundor joylarini yanada takomillatirish, ularga badiiy-estetik ishlov berish orqali yaratilsa, yapon bog'-parkchilik san'ati tabiat dunyosini oldindan o'ylanib belgalangan kichik miqyoslarda asliga o'xshatib ifodalashga asoslangandir. Xitoya juda qadim zamonlardan ma'lum bo'lgan daraxtlar turini mo'jaz ko'rinishlarda o'stirish san'atining g'aroyib tajribalariga aynan Yaponiyada erishilgan. «Ban-say» deb nom olgan bu san'at daraxtlarning ko'pgina turlarini, jumladan, an'anaviy – yapon olchasi – sakurani ham miniatyuraviy ko'rinishlarda yaratishga imkon bergen (2.4.4-rasm).

Yaponiyada ham bog'lar dastlab o'rta asr feodal davlatlaradagi kabi zodagonlar saroylari, ibodatxonalar va monastirlar qoshida yaratila boshlagan. Hozirgacha saqlanib qolgan yapon bog'larini bu yerdagi qadimiy bog'-park sana'tining ko'p asrlik milliy an'analari asosida vujudga kelgan.


Yaponiya bog'-park san'atining yirik markazi davlatning qadim poytaxti Kioto hisoblanadi. Bu yerdagi saroylar qoshida qurilishi XIV–XV asrlardan, ehtimol undan ham avvalroq boshlangan va hozirgacha o'zining asosiy kompozitsion tamoyillarini saqlab qolgan manzaraviy bog'lar joylashgan. Ular orasida Dzito-dzi (Kumush ko'shkli bog'), Kinkaku-dzi (Oltin ko'shkli bog'), Sayxo-dzi (Mox bosgan bog') hamda Rean-dzi monastir bog'idagi mashhur «toshloq bog'» keng tanilgan. Ayniqsa, Rean-dzidagi «toshloq bog'» to'lig'icha Yaponcha kompozitsiyaga ega. Manzaraviy bog'da o'mashgan monastir xujralari oldida sati 12x25 metrlik tekis maydon joylashgan bo'lib, unga qum aralashtirilgan mayda shag'al to'shalgan. Shag'al ustida yirik tabiiy toshlarning bir necha guruhi joylashtirilib, u go'yo dengiz timsolini bergen va quruq peyzajli jozibador kompozitsiya hosil qilingan (2.4.6-rasm).



2.4.4-rasm. Daraxtlarga mo‘jaz ko‘rinishlar berish — «Bansay san’ati».



2.4.5-rasm. Hududi uncha katta bo‘limgan bog'larda Yaponiya tabiatiga xos miniatyuralashtirilgan ko‘rinishlarning aks ettirilishi. Yuqorigi va pastdagi rasmlarda Yaponiya tabiiy sharsharalari, o‘rtadagi rasmida esa past-baland toshloq hovli bog‘lari aks ettirilgan.



**2.4.6-rasm. Kioto. Rean-dzi monastirining toshloq bog'i.**

Aytishlaricha, ushbu bog' Dzen buddizmining falsafiy ramzi hisoblanar ekan. Yapon olimlari bog'ning ilk asoslanish davrini aniqlashga qiynalib, uni XIV—XVII asrlarga bog'laydilar. Har qalay Rean-dzi toshloq bog'i ushbu uslubda yaratilgan bog' kompozitsiyalarining eng qadimgilaridan biri hisoblanib kelmoqda.

Umuman Rean-dzi monastir bog'ining rejasi yapon bog'ining muayyan xususiyatini aniqlashga, uni xuddi o'shanday tabiatga munosabat falsafasiga asoslangan Xitoy bog'laridan farqlashga imkon beradi. Yaponiyada bog' yig'noq, odatda, simmetrik tuzilgan binolar guruhi atrofida shakllantirilgan. Xitoy bog'larini tarkibiga esa bir o'q bo'ylab joylashgan, odatda, ichki hovlili simmetrik binolar guruhi qo'shilgan. Xitoy bog'larida eng jozibador asosiy manzarali nuqtalar shiyponlar, darvozalar, go'zal oy shaklidagi aylanmasimon eshiklar bilan bezatiladi. Yapon bog'laridagi maftunkor manzaralar, bog' ko'rinishlari o'zgaruvi, doimiy bo'lmay, ular maxsus sayrog'i yo'llar bo'ylab loyihalanadi. Bu xususiyat, ayniqsa


Xeyyan-dzingu (Xeyyan-Kioto shahrining eski nomi) monastir bog‘ida yorqin ifodalangan.

Yaponiyada o‘rta asr feodal davriga mansub imperator bog‘lari va monastirlar qoshidagi manzaraviy bog‘lardan tashkari turarjoylar qoshida ham mo‘jaz bog‘lar yaratish san’ati keng tarqalgan. Bunday bog‘lar ayrim hollarda, hatto, bir necha kvadrat metr joyni egallaydi, xolos. Biroq, bunday bog‘chalarda yapon bog‘ining zarur elementlari – mo‘jaz tabiiy ko‘rinishli havzalar, «yovvoyi» toshloqlar, tosh chirog‘lar, pagoda, daraxtlar, yo‘laklar, gullar mavjud. Kiotolik-larning an’anasiga ko‘ra ana shunday mo‘jaz hovli bog‘larining uch xil turi mavjud; «ke» – ichki ro‘zg‘or ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan bog‘; «hare» – an’anaviy ramziy marosimlar o‘tkazishga xizmat qiluvchi bog‘; «suki» – faqat estetik funksiyalarga mo‘ljallangan nafosat bog‘laridir (2.4.7-rasm). Ayrim hollarda bir bog‘ning o‘zida «ke» va «hare» yoki «hare» va «suki» funksiyalari mujassamlantirilgan. Ehtimol, aynan ushbu mujassamlikdan XVI asrda yaponlarning maxsus choy marosimiga bag‘ishlangan milliy bog‘lari vujudga kelgandir.

Ta’kidlash kerakki, yapon bog‘lariga favvoralar deyarli xos emas, biroq aksariyat Yapon bog‘larini sharshara va irmoqlarsiz tassavur qilib bo‘lmaydi.

Sayr yo‘laklari bo‘ylab bog‘ ssenariyalari (manzaralari)ning doimiy o‘zgarib turishi murakkab kompozitsion tuzilishli katta bog‘lariga xos asosiy alomatdir. Keng bog‘ maskanlari uzra sayr qilish, unda ona tabiatning jonli ramzları – qirlar, ko‘llar, shalolalar, orolchalar, qirg‘oq, qoya, irmoq va yashil dunyoni tomosha qilish, yaqin va uzoq manzaralardagi tabiat urg‘ulariga razm solmoq va, umuman, inson hamda tabiat uyg‘unligi, hamohangligiga erishmoq bunday bog‘larning asosiy funksiyasi va g‘oyaviy mazmunidir.

Butun dunyo bog‘-park tajribalaridan kelib chiqib, bugungi kunda Yaponiya shaharlarida ham ommaviy foydalanishga mo‘ljallangan parklar va bog‘lar yaratila boshlandi. Biroq, bu bog‘lar biz Yevropa va Rossiya shaharlarida ko‘rishga odatlangan madaniyat va istirohat bog‘laridek katta bog‘lar emas. Yaponianing Tokio, Kioto va boshqa shaharlarida piyodalar ko‘chalari muhitini, binolarning tashqi devorlariga tutashgan trotuarlarni, binolarga kirish joylarini konteyner qutilarga ekilgan tuvak gullar va boshqa



**2.4.7-rasm. Yaponiya hovli bog'larining landscape ko'rinishlari.**

manzaraviy o'simliklar bilan faol tarzda ko'kalamzorlashtirish tajribalari to'plangan. Hajmi unchalik katta bo'limgan bunday nufuzli maskanlar mikroiqlimiga konteyner o'simliklarining ta'siri ancha katta. Bu o'simliklar nafaqat atrof-muhit havosini tozalashi va uni kislorod bilan boyitishi, balki unga tabiiy go'zallik baxshida etishi bilan ham muhimdir.

Yaponiyada zamonaviy turarjoy maskanlarini ko'kalamzor-lashtirishning o'ziga xos shakli sifatida yana xususiy uylar tarkibida yaratilayotgan mo'jaz bog'larni ko'rsatish mumkin. Yashash muhit bilan uyg'unlashib ketgan bu mo'jaz bog'larda kishi o'zini go'yoki uyda emas, balki tashqarida, ochiq muhitda yurgandek his qiladi. Tabiiyki, bunday mo'jaz bog'lar maxsus loyihalangan xususiy turarjoylar tarkibida yaratilgan. Bunday bog'larda yaponlar milliy choy ichish marosimini o'tkazishni yoqtirishadi va shu boisdan ular ayrim hollarda «Choy bog'lari» deb ataladi.

Yaponiya bog'larida o'sadigan o'simliklar ichida doim yashil manzaraviy o'simliklar yetakchi o'rinni egallaydi. Ular safida eng an'anaviy daraxtlar va butalardan yapon qarag'ayi, yapon zarangi, kameliya, azaliya, magnoliya, yapon olchasi, sakura, olxo'ri, bambuk, safora va bereskletlarni ko'rsatish mumkin.

Yaponlarning tushunishicha, o'simlik dunyosining «to'rt ziynati»ni xrizantema, olxo'ri, orxideya va bambuklar tashkil qiladi. Suv havzalari lotos gullari, ularning qirg'oqlari esa irislar bilan bezatiladi. Gul o'simliklari juda kam, ayrim hollarda umuman qo'llanilmaydi. Yaponiya hovli bog'larida banan daraxtini ekish ham odat tusiga kirgan. Maysa o'muga yer yopar o'simliklar keng qo'llaniladi. Uncha katta bo'limgan zamonaviy shahar bog'larida daraxtlarga bondaj yordamida turli xil g'aroyib sun'iy shakllar burish ham an'anaviy tusga kirgan.

Yaponiya bog'larida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, suv turli shakllarda: ko'l, havza, irmoq yoki sharsharalar ko'rinishida uchraydi. Biroq, Yaponiyada suvsiz bog'lar ham mavjud.

Yaponiya zamonaviy bog'-park san'atining ana shunday muhim an'anaviy milliy ko'rinishlaridan biri — bu «toshloq bog'lar» yoki «quruq peyzajli bog'lar»dir. Bu yo'nalish Yaponiyada qadimdan an'ana hisoblanib, hozirga qadar ham davom etib kelmoqda.

Bunday bog'larda toshlar, mayda shag'al, qum, mox, tosh chiroqlar alomatli elementlardir. «Quruq» bog'larda shag'al yoki qum yordamida tabiiy irmoq sun'iy ko'rinishga keltirilib, u «oqar» suvgaga taqlid qilinadi, ya'ni aynan o'xshatiladi. Toshloq yoki quruq bog'larning kelib chiqishi yapon dini dzen-buddizmning dunyoviy g'oyaligiga asoslanib, bu bog'larda toshlar, odatda, buddizm uchligiga taqlid qilinib, alohida guruhlarda uchtadan joylashtiriladi.

Toshloq bog'lar kishini dunyoviy tashvishlari va turmush taraddudlaridan holi qilmoq, xilvatga chekinmoq va milliy meditatsiyalar uchun mo'ljallangan. Bunday bog'lar g'oyasi oddiy tabiat go'zalligini his qilish va u bilan uyg'unlashishdan iboratdir.

Toshlar Yaponiyada nafaqat «toshloq bog'lar»ning, balki umuman yapon bog'lar, ibodatxonalar qoshidagi va jamoat bog'lar, yususiy turarjoy va jamoat binolari tarkibidagi bog'larning ham eng muhim tarkibiy alomatlaridir. Boshqacha aytganda, yapon bog'larini umuman toshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi (2.4.8; 2.4.9; 2.4.10; 2.4.11-rasmlar).

Yapon bog'i monoxromli yoki polixromli ranglarda bo'ladi. Toshloq bog'lar yoki quruq peyzajli bog'lar monoxromli bog'larga kitsa, peyzajli yoki manzarali bog'lar polixromli bog'larga kiradi.


Relyefining holatiga ko'ra yapon bog'lar uch xil: qirlik, yassi va past-baland bog'larga bo'linadi. **Yassi bog'lar** sahni tekis bo'lib, ularning yuzi mayda shag'al yoki qum, bir necha tosh va mox, ayrim hollarda daraxtlardan iborat bo'ladi. Bunday bog'larga, birinchi navbatda toshloq yoki quruq peyzajli bog'lar kiradi. Bunday bog'larning tarixiy prototipi Kioto shahridagi Rean dzi bog'idir.

**Qirlik bog'larga** qirning mavjudligi xosdir. U, odatda, suv havzasи, sharshara va suv oqimi, irmoq bilan to'ldiriladi. Bunday bog'lar ham tosh va daraxtdan xoli emas (2.4.12-rasm).

**Past-baland bog'lar** sahni, odatda, o'nqir-cho'nqir bo'lib, ular Yaponiya tog'lik mintaqalarining mo'jaz modelini o'zida tamziy ma'noda aks ettiradi. Kichikroq ko'l, orolcha, toshloq qirg'oq, toshchiroqlar, toshko'prik va suv ustidagi toshyo'laklar bunday bog'larga xos alomatlardir. Bu bog'lar ham o'simliklardan xoli emas.

Kompozitsion tuzilishining holati va tarkibiy elementlariga ko'ra yuqorida har uchchala bog' ham to'liq shaklda — «sin», yarimqisqargan — «so» va qisqargan — «ge» shakllarida yaratilishi mumkin.


Yapon bog'laridagi to'shamalar va yo'laklarning shakllari, materiali va ranglari ham xilma-xil: kvadrat, to'g'ri to'rtburchakli aylana va boshqa shakllarda. Umuman, Yapon bog'ları va parklariga mahalliy shart-sharoitlar va udumlarning ta'siri katta. Shuning uchun ham ularning o'lchamlari, me'moriy-rejaviy yechimlari va



**2.4.8-rasm.** Yaponiya toshloq bog'larida qo'llaniladigan toshlar va ulardan tuzilgan kompozitsiyalar.




**2.4.9-rasm.** Yapon bog'larida daraxtsimon o'simliklar va toshlardan tuzilgan kompozitsiyalar.



**2.4.10-rasm.** Yaponiya toshloq bog'ining sxemasi.

Tarhi, aksonometriyasi va toshlar turi.




**2.4.11-rasm.** Yapon bog'i sharsharasining sxemasi:

- A – asosiy tik sharshara toshi,
- B, D – yonbosh toshlar;
- E – suv oqimini bo'lувчи tosh,
- F, G – sharshara etagi va hovuzining toshi; H – sharshara suvi va to'lqinlarini ajratuvchi tosh.

funksiyalarida turlicha bo'ladi. Hozirgi vaqtida Yaponiyada milliy landshaft parklarini tashkil qilishning tamoyillari ishlab chiqilgan. Ularga ko'ra ranglar, shakllar, materiallar fakturasi, masshtabi va hajmiy kompozitsiyalar kontrastidan foydalanish bog'-park san'atida eng samarali yo'nalish ekanligi ko'zda tutilgan (2.4.13-rasm). Sharq mamlakatlari bog'-park san'atiga bugungi kunda ham qiziqish sun'yan emas, zero ularda yashiringan sirli falsafiy mushohadalar va tabiatga bo'lgan munosabat kishi e'tiborini o'ziga jalb qilmasdan qolmaydi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Xitoy bog'lari qanday g'oyalarga va tafakkurga asoslanib yaratilgan?
2. Xitoyda bizgacha saqlangan qanday bog'larni bilasiz? Ularning funksional tasnifini keltiring.
3. Xitoy bog'-parklarini joylashishi bo'yicha qanday turlarga bo'lish mumkin?
4. Xitoy bog'larining me'moriy-landshaft tamoyillarini tushuntiring.
5. Nima uchun Suchjou shahri «Xitoy Venetsiyasi» deb ataladi?
6. Yaponiya bog'chilik san'atining falsafiy asoslarini izohlang.
7. Yaponiya bog'-parklarining turlari va xillarini yoritib bering.
8. Yaponiya bog'-parklariga xos xususiyatlarni ta'riflang.
9. Toshloq bog'larning landshaft tuzilishi, vazifasi va mohiyatini yoritib bering.



a)



b)

**2.4.12-rasm.** Yapon bog'larining relyefiga ko'ra umumiy sxematik ko'rinishi:  
a – yassi bog'; b – qırılık bog'.



2.4.13-rasm. Yaponiya bog‘lariga xos landshaft ko‘rinishlar.

## 2.5. Yevropaning uyg‘onish, barokko va klassitsizm davrlari bog‘-park san’ati

**Italiya va Fransiyaning Uyg‘onish davriga xos muntazam (regulyar) rejali barokko uslubidagi bog‘lari**

*Dars rejasি:*

1. Yevropa Uyg‘onish davrining landshaft arxitekturasiga ta’siri.
2. Italiyaning pog‘onali muntazam rejali bog‘lari: Florensiya va Rim viloyatining villa bog‘lari.
3. Italiya Uyg‘onish davri bog‘-park san’atining mumtoz namunalari: Lante, Kaprarola va De Este bog‘lari.
4. Fransiyaning barokko davridagi muntazam rejali parklari.
5. Andre Lenotr ijodi. Vo-le-Vikont bog‘-park ansamбли.
6. Versal bog‘-ansamblining me’moriy-landshaft yechimlari.


*Yevropa Uyg‘onish davrining landshaft arxitekturasiga ta’siri.*

Uyg‘onish davri Yevropa madaniyatida yangi taraqqiyotning boshlanishidan darak beruvchi voqeа bo‘ldi. Uyg‘onish davrining harakatlantiruvchi markazi bo‘lib Italiya maydonga chiqdi. XV asrda Italiya butun tashqi dunyo bilan keng savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygandi. Bu yerda vujudga kelgan burjuaziya hukmdor sinfining ilg‘or dunyoqarashlari amalga kira boshladи. Ayni paytda Italiyada o‘z qo‘lida katta moddiy va ma’naviy boyliklarni to‘plagan katolik cherkovining mavqeyi ham mustahkamlanib borayotgan edi. Bu yerda bir vaqtning o‘zida san’atning barcha turlari, shu bilan birga, landshaft arxitekturasi ham rivojlandi.

**Italiyaning pog‘onali muntazam rejali bog‘lari: Florensiya va Rim viloyatining villa bog‘lari.** Florensiya shahri atrofidagi villa bog‘lari Italiya bog‘-park san‘atining rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. O‘rta asr feodallarining tashqi muhitdan ajralgan yopiq hovli kompozitsiyasi o‘rniga hayotbaxsh, ochiq tabiat bilan bog‘langan keng bog‘-park shakli vujudga keldi. Dastlabki villa bog‘lari yagona kompozitsion yechimga ega bo‘lImagen. Bunga misol tarzida Boboli villasini ko‘rsatish mumkin. Villada yagona tarxiy yechim bo‘lmay, parkning har bir hududi alohida rejaviy kompozitsiyaga ega. Bu park hududining turli davrlarda qisman o‘zlashtirilib borilganidan darak beradi (2.5.1-rasm).

Shahar tashqarasida villalar qurishdek Florensiya badiiy an‘analarini davom ettirgan Rimda bog‘-park san‘ati yanada rivojlandi. Qadimgi Rimda shakllangan «italyancha» pog‘onali bog‘larning an‘analari rivojlantirildi va mantiqan qayta tiklandi. Pog‘onalarda uncha katta bo‘lImagen muntazam parterlar yoki bosketlar shakllantirildi. Villalarning xo‘jalik ahamiyati ikkinchi darajaga ko‘chdi yoki umuman yo‘qoldi.

Kompozitsiya yaxlitligi to‘g‘risida taassurot tug‘diruvchi yangi uslublar paydo bo‘ldi. Villa saroyi bog‘ landshafti bilan aniq bir kompozitsion bog‘liqlikda qaralib, villa arxitekturasi uslubi bog‘ qurilishi va uning shakllarida o‘z aksini topdi. Rim bog‘larining kompozitsion qismlari yagona o‘qqa birlashadi va bo‘ysunadi.




2.5.1-rasm. Florensiya.  
Boboli villasi bog‘larining  
tarhi. XVI asr.

**Italiya Uyg'onish davri bog'-park san'atining mumtoz namunalari: Lante, Kaprarola va De Este bog'lari.** Uyg'onish davridagi Lante, Kaprarola va boshqa pog'onasimon villalarning alohida qismi bilan bir-biri bilan «anfilada» uslubida kompozitsiyaviy bog'langan.

Italiya bog'-parklari qurilishiga arxitektor va rassomlar Bramante, Rafayel, Palladiolaning ijodi katta ta'sir ko'rsatadi va villa bog'larida yanada sifatli kompozitsiyalar paydo bo'ladi. Bunga misol qilib, Tivoli shaharchasining eng go'zal villalaridan biri De Este bog'ini olish mumkin.

Bog' muallifi Qadimgi Rim inshootlariga xos bo'lgan hashamat va tantanavorlikni tiklashga urinib ko'rgan (2.5.2–2.5.4-rasmlar).

1530-yildan boshlab bog'-park san'atiga xuddi arxitekturadagidek Barokko stili kirib keldi. Italiyaning barokko stilidagi eng taniqli villalariga Borgoze va Aldobarandilar (1598–1603-yillar) kiradi. Barokko bog'larining kompozitsiyasi quyidagi tamoyillar asosida qurilgan: fazoviy yechimlarning atayin murakkablashtirilishi, favqulotdagi landshaft effektlari, nozik estetizm va uslublar hamda shakllarning dekorativ uyg'unlashuvi bog' muhitini shakllanishdagi erkinlik. Barokko stili o'zgaruvchan perspektivalar dina-




2.5.2-rasm. De Este villa bog'inining umumiy ko'rinishi. XVI asr.



1



2



3




4



5

#### 2.5.3-rasm. Italiya Uyg'onish davrining villalari:

- 1 — Lante villasining rejasi; 2 — Lante villasining kaskadi; 3 — Karparolla villasining rejasi; 4 — De Este villasining dengiz tomondan ko'rinishi; 5 — De Este villasidagi «Rim tantanasi» nomli favvora.



2.5.4-rasm. Italiya villa bog'larining zamonaviy ko'rinishi:


- 1 — suv ustidagi bog'cha; 2 — faxriy hovlisi; 3 — Borgeze villasining bog'i;
- 4 — Lante suvusti xiyoboni; 5, 7 — Garstmi villasining ko'rinishi;
- 6 — De Este bog'idagi qirol sharsharasi; 8 — villa bog'i; 9 — topiar usulida qaychilangan samshit; 10 — Boboli bog'i. (L.A. Adilovaning internetdan tergan rasmlar montajji).

mikasini, yorug'lik va soya kontrastidan foydalanishni, qirtishlangan ko'kalamzorlar va tig'is o'tkazilgan kiparislari qatorini qo'llashni, bog'ni haykallar murakkab shaklli parterlar va arabeskalar bilan bezatishni talab qilgan. Bu davr bog' yaratuvchilari favoralar va sharsharalardan, rangtasvirli bezatish usullaridan ustalik bilan foydalanib, bog'-park san'atining o'ziga xos xususiyatlari erishganlar.

**Fransyaning barokko davridagi muntazam rejali parklari.** Fransiyada Uyg'onish davri XV asrning 2 yarmidan XVIII asrning boshigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Fransiya qirollari o'rta va mayda dvoryanliklar hamda shahar burjuaziyasiga tayanib, mamlakatning siyosiy yakdilligiga erishdilar. Fransuzlar Italiyaga harbiy yurishlari davrida Italiya Uyg'onish davri madaniyati bilan tanishdilar. Bu ta'sir Fransuz bog'-park qurilishida ham o'z aksini topdi. Fransiya landshafti Italiyaning qir va tog'lik landshaftidan farqli o'laroq, asosan, tekisliklar hamda va yaproqli o'rmonzorlar sokin suzuvchi daryolardan iborat bo'lganligi uchun Fransuz bog'-park ustalari joyning kichik past-balandliklaridan foydalandilar. Shu bois «boulingrin» va «vertyugaden» kabi xarakterli uslublar kelib chiqdi. Boulingrin, ya'ni maysazorning qirtishlangan past parter to'ri tuproqning bir xil ko'rinishiga barham berdi. Fransuz parklaridagi vertyugaden esa Italiyadagi amfiteatr rolini o'ynadi. Unda bog' kompozitsiyaviy o'qini yarimdoira shaklidagi yashil butalar tugallangan, unga kichik pog'onachalar qo'shilib, eng yuqorisi esa tuvaklardagi o'simliklar bilan bezatilgan.

Fransuz parklarida saroy yoki uy oldidagi asosiy joy parterga ajratilgan, u yaxlit yoki qirtishlangan maysazordan iborat bo'lgan. Ba'zan parterga gullar o'tkazilgan yoki qirqilgan butalar ekilgan yashiklar qo'yilgan. Parkning eng katta qismini yopiq bosketlar tarzida, ya'ni uni yashil teatrlardan iborat labirint sifatida foydalanish mumkin bo'lgan. Yopiq bosketlardan tashqari ochiq ekinlar – «kenkos» ham tashkil etilgan.

*Andre Lenotr ijodi.* Fransyaning XVII asr o'rtasidagi bog'-park san'ati arxitektor Andre Lenotr (1613–1700-yillar) ijodi bilan bog'liq. U o'zining uzoq umri davomida arxitekturaning klassitsizm uslubida quyidagi parklarni qurdi va qayta tikladi: Vo-le-Vikont (2.5.5-rasm), So-va-Medon, Shantili va Shuazi, Ninon, Versal, Marli, Parijdagi Emkat va Tyuilri bog'-parklari.



**2.5.5-rasm. Vo-Le-Vikont saroyining parki:**

1 — suv ustidagi saroy; 2 — Satir favorasi;  
 3—5 — maysali va gulli parterlar; 6 — baliq haykali; 7 — nimfa;  
 8 — Vo-Le-Vikont saroyi va atrof  
 landschaftining ko'rinishi. (L.A. Adilovaning rasmlar montaji).



#### *2.5.6-rasm. Versal saroyining parki:*

1–3 – Versal saroyining ichi va tashqi ko‘rinishi, 4–6 – gulli parter, qaychilangan samshit xiyoboni va haykallar, 7, 10 – «Apollon» favvoralari, 8 – Apollon groti «Apollon parilar atrofida» haykal kompozitsiyasi, 9, 11, 13 – «Latona» favvorasi, 12, 14 – gulli va maysali parterlar, 15–17 – «Ez», «Kuz» va «Flora» favvoralari. (L.A. Adilovaning rasmlar montaji).

**Versal bog‘ ansamblining me’moriy-landshaft yechimlari.** Lenotr ijodining eng yorqin namunasi esa Lyudovik XIVning Versal rezidensiyasi parki bo‘lgan. Bu park nafaqat bog‘-park san’atiga, balki shaharsozlikka ham katta ta’sir ko‘rsatdi. U me’morchilik, haykaltaroshlik va bog‘-park san’atlarining ajoyib sintezidir. Lenotr park kompozitsiyasini «uch asosiy nur»da rejalashtirdi. Shahar tomonidan ham uch nur bo‘ylab yo‘nalgan yo‘llar Versal saroyi oldida joylashgan maydonni Lyudovik XIV ning haykaliga olib keladi.

Uch nur kompozitsiyasi «Katta kanal» tepasida uchrashadi va parkni uch qismga bo‘ladi: saroyoldi parteri, asosiy nurning ikki tomonida joylashgan bosketlar va ko‘kalamzorlar. Asosiy bosh nurning atrofida juda katta yashil gilam (25x330 m) loyihalangan. Bu gilam Apollon basseynigacha davom etadi.

Apollon basseynidan so‘ng uzunligi 1600 m, eni 120 m bo‘lgan Katta kanal boshlanadi. Lenotr Katta kanal o‘qini shunday rejalashtirganki, kanal suviga quyosh nuri kun bo‘yi tushib, yarqiragan suv oynasini hosil qiladi.

Parkda juda ko‘p ajoyib va katta suv parterlari, favvoralar, bosketlar va haykallar loyihalangan. Ulardan eng kattalari saroy oldida joylashgan «Neptun» suvoynali parteri. Katta kanal o‘qida joylashgan «Appolon» va «Latona» favvoralari, parkning turli har xil qismlarida joylashgan «Yoz», «Kuz», «Flora» va boshqa favvoralar, oranjereya oldidagi yashil parterlar, «Suv organi», «Qirol» bosketlari va haykallardir (2.5.6-rasm).


## **Angliya va Germaniyaning muntazam rejali parklari**

### ***Dars rejasি***

- 1. Angliyaning barokko davridagi muntazam rejali parklari. Durmon va Xempton Kort parklari.*
- 2. Germaniyaning Xerrenxauz parki va uning me’moriy-landshaft yechimlari.*

**Angliyaning barokko davridagi muntazam rejali parklari. Durmon va Xempton Kort parklari.** Fransuz parklariga xos regulyar kompozitsiya va barokko uslubi Markaziy Yevropa parklariga ham tarqaldi.

Angliyaning barokko davrida muntazam rejaga asoslangan Chasvort (1680-y.), Loglit (1965-y.), Durmon, Xempton Kort (1699-y.) va boshqa bog‘-parklar yaratiladi. Angliyaning eng chiroyli regulyar rejali parklariga Durmon (2.5.7-rasm) va Xempton Kort (2.5.8-rasm) parklari kiradi.



#### 2.5.7-rasm. Durmon parki:

1 – park panoramasi; 2 – topiar qaychilangan landshaft dizayn kompozitsiyasi; 3 – «Krest Svetogo Andre» landshaft kompozitsiyasi; 4–5 – falsafalar bog‘i.

Durmon parkining kompozitsiyasiga ochiq simmetrik parterlar va dov-daraxtlardan shakllangan yaxlit yashil massivlarning qo‘llanilishi xosdir. Park rejasи «Krest Svetogo Andre» («Muqaddas Andre xochi») ordeni asosida yaratiladi. Ichki detallari ham Muqaddas Andre ordenining nusxasini katta masshtabda shakllantirgan.

Xempton Kort saroyi va parkining Temza daryosi bilan chegaralangan qator kichrayib boruvchi uchburchak shaklli gullik parterlari Xempton kortning muhim qismini tashkil etadi. Xempton Kort rejasini A. Lenotr va G. Mollenning shogirdlari ishlab chiqishgan va loyihani G. Vayz amalga oshirdi. Xempton Kort parki tabiiy muhitni butunlay o‘zgacha, sof inglizcha munosabat bilan shakllantirgan. Bu yerdagi barokko uslubining kompozitsiyasi Versaldagidek jonli tabiatga qarshi tarzda qo‘ylgan emas, balki park hududining murakkab shakliga mos ravishda amalga oshirilgan.



**2.5.8-rasm. Xempton Kort parki:**

1 — katta parterni rejalashtirish; 2 — parter dizayni.


Barokko uslubidagi parklar Angliyada keng taraqqiy topmadi. Biroq Markaziy Yevropadagi holat Angliyadagidan boshqacharoq edi. Masalan, Germaniya va Avstriya XVII asrdan to XVIII asrgacha •feodal absolutizm• siyosati va madaniyatiga ega bo‘lib, bu davrda roqulyar parklur ko‘plab yaratilgan edi.

**Germanyaning Xerrenxauz parki va uning me’moriy-landshaft yechimlari.** Germanlyn kurfyurstlarining cheklanmagan hokimiysi tilarga o‘z hukimonligi chegaralarida keng mavqeda bog‘-saroylar qurilishiga imkon yaratdi. Gannover shahridagi mashhur Xerrenxauz parki ikki teng kvadratdan iborat to‘rtburchak shaklga ega bo‘lgan. Park 1666-yilda gersog Yogann Fridrixning yozgi rezidensiyasi Xerrenxaуз qoshida «italyancha» uslubda bunyod


etiladi. 1673-yilda Fransuz bog'boni A. Perron ushbu bog'ni kengaytiradi.

XVII asrning oxirida E. Avgust bu yerda absolutizmning barokko davri didiga mos keluvchi ulkan bog' yaratilishi uchun loyihani iqtidorli bog'bon Martin Sharbonega topshirdi. Sharbone parkning butun qurilishiga ham rahbarlik qilgan.

Germaniyaning boshqa parklaridan Drezden yaqinidagi Grossedlis saroyi (XVIII asrning boshi) va Myunxendagi Nimfenburg, Posdamdagi San Susi parklaridir. Bu parklar o'ziga xos yorqin yechimlarga regulyar park kompozitsiyasiga ega bo'lib, XVIII asr oxirida peyzajli bog'lar bilan to'ldirilgan. Lekin ko'pincha regulyar stilga mos yaratilgan park qismlarida klassik haykallar va favvora-larning eng yuqori san'at darajasiga yetishganligini ko'ramiz (2.5.9, 2.5.10-rasmlar).



2.5.9-rasm. Germaniya barokko davrining parki:  
1-2 – Xerrenxau parkining tarxi va umumiy ko'rinishi.  
(XVII asr oxiri – XVII asr boshi).



**2.4.10-rasm. Drezden yaqinidagi Grossedlits parki:**

- 1 — parkka kirish maydoni;
- 2 — park saroylari (XVIII asrning boshi).

### **Rossiyada barokko va klassitsizm davrining regulyar parklari**

Rossiyadagi barokko va klassitsizm davri bog'-park san'atining eng buyuk asarlari sifatida XVIII asrda Pyotr I davrida qurilgan Yozgi bog' va Petrodvoretsni ko'rsatish mumkin. Pyotr I Fransiya, Hollandiya va Germaniyada bo'lganida, bu mamlakatlarning bog'-park qurilishi bilan qiziqib qoladi. XVIII asr boshida Pyotr I Yevropadan chaqirgan arxitektor va bog'bonlar Rossiya me'morhiligi, bog'-park va landshaft arxitekturasiga muntazamlik va Yevropaga xos yangi barokko uslubini taklif etishadi. Bunday bog'larning birinchisini, ya'ni Yozgi bog'ni Grezini, A.Shlyutter va M. Zemtsov kabi arxitektorlar yaratadi (2.5.11-rasm).

Bog'ning ikkinchisi, ya'ni Petrodvorets saroy-bog' park ansamblini Fin qo'lting'i bo'yida joylashib, uning ilk qurilishi 1714-yili boshlangan. Parkni qurishda taniqli arxitektorlar: J.B. Leblon (Lenotning shogirdi), ota va o'g'il Rastrelli, N.Miketti, A.N. Voronixinlar qatnashadilar (2.5.11-rasm). Parkda tinmay suv harakatlanadi: kecha-yu kunduz (2040 dan ko'p suv qurilmalari) kanallar, shalolalar, basseynlar, favvoralar ishlaydi. Park ikki qismidan iborat bo'lib, yuqorigi parkda bir necha katta suv parterlari joylashgan. Ularning atrofida haykallar bilan bezatilgan gulli parterlar joylashtilgan, ko'klamzor galereyalar ulkan maysazorlar bilan o'ralgan. Shovqinli favvoralar va katta sharshara pastki bog'dagi sokin kompozitsiyadan so'ng ajoyib kontrast ko'rinishini olgan.

Favvoralar 22 kilometr masofada joylashgan Ropshinsk tepaliklaridan oqib keluvchi suvning tabiiy bosimi bilan ishlaydi. Park kompozitsiyasining asosini katta saroy binosi qoshidagi yuqorigi bog' va saroyning orqa tomonidagi quyi pog'onada joylashgan pastki bog' egallaydi. Parkning umumiy maydoni 100 gettardan ziyod. O'zining uslubiy xususiyatiga ko'ra, katta saroy binosi ham, park kompozitsiyasi ham rus barokko uslubining eng yaxshi namunalari qatoriga kiradi.

Pastki bog' o'zicha alohida kompozitsiyaga ega bo'lsa-da , yaxlit park ansambl bilan uzviy bog'langan. Ansambl markazini tanta-navor katta shalola va «Samson» favvarasi egallaydi. Sher og'zini kuch bilan ochayotgan Samson Rossiyaning Shvetsiya ustidan qilgan g'alabasining ramziy ifodasıdir.

«Samson» favvarasi «Samson hovuzi»ga oqib tushadi. «Mener», «Rim», «Adam», «Yeva», «Zont», «Piramida» va boshqa favvaralar parkning asosiy qiyofasini «Samson» bilan bog'laydi. Katta sharsharadan tashqari parkda yana ikkita: Oltin shalolasi va Shaxmat shalolasi joylashgan. Shaxmat shalolasining ustki qismi xitoy stilida yaratilgan rangli maxluqlarning haykallari bilan bezatilgan.


Biroq Rossiyada eng avval, qurilgan bog'-saroy ansamblari ham o'zlarining fransuzcha, italyancha, nemischa timsollaridan ancha farq qiladi. Bu farq avvalo, tabiat atrof-muhiti, dengizning yaqinligi, qurilish materiallarining o'ziga xosligi va bog'larning yashil kompozitsiya qismlarida ishlangan rus an'anaviy naqshlarida tasvirlangan.




2.5.11-rasm. Yozgi bog' landshafti (1704–1725-y.y.):  
(L.A. Adilovaning internetdan olgan rasmlar montajı).

XVIII asrning birinchi yarmiga kelib, shahar atrofi bog‘-saroy ansambllarining qurilishini rus me’morlari va bu yerga kelgan chetellik arxitektorlarning avlodlari davom ettirdilar. XVIII asrda Peterburg shahri atrofida «Oraniyenbaum», «Tsarskoye selo» (2.5.12-rasm), «Arxangelskoye» va boshqalarda ulkan regulyar maysazor parklar tashkil etildi. «Arxangelskoye» parki italyan ustalarining haykallari bilan bezatilgan. Bu yerda 200 dan ortiq original asarlar park haykalgohida to‘plangan (2.5.13-rasm).



Bulardan tashqari, Moskvada ko‘pgina saroy bog‘-park ansambllari yaratilgan. Masalan, Kolomenskoye, Ostankino va boshqalar. Rossiyaning muntazam rejaviy stilga ega bo‘lgan bog‘-parklari, maysazorlar, gulli parterlar, favvoralar, shalolalar, haykallar va boshqa elementlar bilan bezatilgan.



2.5.11-rasm. Tsarskoye selo bog‘-park ansamblining tarhi.



**2.5. 12-rasm. Petrodvorets parki. Sankt-Peterburg.**  
(L.A. Adilovaning originaldan tushirilgan va internetdan  
olgan rasmlar montaji).



*2.5. 13-rasm. Arxangelskoye saroy-bog'ining terrasalari,  
atrof landshafti va tarhi.*

## **2.6. Yevropaning XVIII—XIX asrlar peyzaj va romantik uslubdagi parklari**

### **Dars rejasি**

- Angliyaning romantik peyzaj parklari.*
- Germaniyaning peyzaj parklari.*
- Rossiyaning peyzaj parklari.*

**Angliyaning romantik peyzaj parklari.** XVIII asr o‘rtalariga kelib klassizm bilan bog‘liq yangi estetik g‘oyalalar bog‘-parkchilik san’atida ham to‘liq hukmronlik qila boshladи. Agar muntazam rejali barokko bog‘lari, eng avvalo, Fransiya bilan bog‘liq va «fransuzcha» bog‘lar deb nomlangan bo‘lsa, klassitsizmning tabiiy peyzajlarga boy bog‘lari shubhasiz Angliyaga tegishli bo‘lib, «inglizcha» bog‘lar nomini olgan edi.

Klassitsizm uslubi asosida bir qancha omillar yotardi. Eng avvalo, bu antik davrni ideallashtirish va qadimgi davrdayoq vujudga kelgan naturfalsafiy g‘oyalarni rivojlantirish bo‘ldi. Rangtasvir, poeziya, landshaft arxitekturasida klassitsizm romantizm bilan, jonli tabiat va uning tabiiy estetik sifatlarini timsollashtirish bilan uzviy bog‘lanib ketdi.

Yangi g‘oyalalar XVIII asr boshida Angliyada keng taraqqiy eta boshladи. Fransuz bog‘chilik san’atining timsoli tarzida XVII asr o‘rtalarida maydonga chiqqan Andre Lenotr kabi XVIII asrning 30-yillarda Angliyada arxitektor va mussavir Vilyam Kent landshaft arxitekturasi va bog‘-park san’atidagi yangi uslubning buyuk mutaxassisи bo‘lib tanildi.

Kent, ayniqsa, Londondan yuz kilometr masofada joylashgan Stouv parkidagi ishlari bilan keng tanildi (2.6.1; 2.6.2; 2.6.3-rasmilar). Bu yerda 1714-yilda barokko uslubida park bunyod etilib, unga manzaraviy rejali elementlar ham kiritilgan edi. 1738-yilda Kent parkni to‘lig‘icha qayta rejalaشتirib chiqди. Yangi reja muntazam «fransuzcha» bog‘larning butkul aksini tashkil etdi. Sof muntazam tarzda rejalaشتirilgan parterlar, bosketlar, hovuzlar o‘rniga barcha element va qismlarni go‘yoki tabiatning o‘ziga shakllantirgandek erkin peyzajli manzaraviy bog‘ yaratildi. Parkning puxta o‘ylangan yo‘llari tizimidan yurgan kishi ko‘z o‘ngida go‘zal peyzajlar, xiyobonlar, manzaraviy ko‘rinishlar, saroy va park



**2.6. I-rasm. Stou parki peyzajli qismining landshaft ko‘rinishlari:**  
(L.A. Adilova internetdan tergan rasmlar montaji).

inshootlarining birin-ketin almashib borishini kuzatardi. Parkda inglizcha sof zumradrang maysazorlardan iborat ochiq maydonlar va turli daraxtlardan tuzilgan baland yopiq daraxtzorlar nisbati shakllantirildi.


1803-yili ingliz arxitektori Xemfri Repton park qurilishi bo‘yicha ko‘pchilikka ma’lum «Landshaft bog‘dorchiligi bo‘yicha maslahatlar



**2.6.2-rasm. Stou parkining haykallari:**  
 (L.A. Adilova internetdan tergan rasmlar montaji).

va lavhalar» traktatini yozdi. U katta amaliy ish tajribasiga ega edi. O'z parklarida u peyzaj kompozitsiyasini regulyar elementlar bilan muvofiqlashtirdi.

Reptonning XIX asr boshlarida arxitektor Jono Nesh bilan bajargan eng mashhur ishi Londondagi «Rijent parki» edi. To'g'ri chiziqli o'qlar va doiraning suv va ko'kalamzorning erkin peyzaj rejasи bilan keskin uyg'unligi bu parkni yanada ifodalı qildi. Peyzaj parklari qurish, ayniqsa, XIX asrda keng rivojlandi. Londondagi Gayt-park va Kesington parklari shular jumlasidandir.




**2.6.3-rasm. Stou parkining panoramasi va tarhi.**  
V. Kent, X. Repton va boshqalar. 1738–1803-y.y.

**Germaniyaning peyzaj parklari.** Manzaraviy parklarni qurish ayniqsa, XIX asrda keng rivoj topdi. Bu sohada asr boshidayoq birinchi o‘ringa nemis maktabi chiqib oldi. Uning vakillari P. Lenne va G. Pyukler hozirgacha yaxshi saqlangan ajoyib landshaft kompozitsiyalarini yaratdilar. Lenne ijodida Podstamdag‘i mashhur park «San Susi» markaziy o‘rinni egallaydi (2.6.4; 2.6.5-rasmlar).


Unga 18 asrda barokko stilidagi saroylar va uning qoshidagi kichik regulyar bog‘lar qurilishi paytida asos solingan edi. XIX asr boshida Lenne ansamblni tugatdi. U saroylarni birlashtiruvchi markaziy xiyobon atrofida maydonchalar va daraxtzorlar tizimini yarattdi. Bu tizimga Sharlottenxof saroyi, «Rim termlari», xitoy pavilyoni va park haykallari uyg‘unlashgan holda kiritilgan.

Jozibali maydonchalar kompozitsiyasi, yashil massivlar, guruqlar va soliter kompozitsiyalar, tepaliklar, Neyse daryosi qirg‘og‘i va vodiysi bo‘ylab sayr yo‘laklarini qurish uchun 30 yilga yaqin vaqt kctdi. Pyuklerning sentimental romantizmi Barntis shahri yaqinida joylashgan katta bo‘limgan parkda o‘zining yorqin ifodasini topdi. Bu sehrli rangtasvirli parkda Pyukler ikkita piramidan joylashtirdi, ularning birinchisi ko‘l ichida, ikkinchisi sohil bo‘yida edi. Piramidalar Pyukler va uning mahbubasi uchun qabr usti bo‘lib xizmat qildi.

Lennenning davomchisi knyaz Pyukler-Muskau bo‘ldi, u butun umri va boyligini erkin tabiat ko‘rinishidagi peyzajli parklarni qurishga bag‘ishladi. Pyukler Neyse daryosi vodiysidagi Muskau shahri atrofida «Muskau» parkini yaratdi (2.6.6-rasm).



**2.6.4-rasm. Germaniyadagi Podsdam shahrida joylashgan  
San Susi saroy-parki.  
(L.A. Adilovaning originaldan tushirilgan rasmlar montaji).**



2.6.5-rasm. San Susi parkining regul'yar qismi:  
(L.A. Adilovaning originaldan ishlangan rasmlar montaji).




**2.6.6-rasm. Muskau parki.**  
(L.A. Adilovaning internetdan tergan rasmlar montaji).

**Rossiyaning peyzaj parklari.** XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida Rossiya bog'-park san'atida markaziy o'rinni peyzajli parklar egallaydi. Bu parklarda barokko va klassitsizm regulyar kompozitsiyalardan butunlikdan ajralmasdan landshaftli peyzaj kompozitsiyalar bilan mo'jizaviy bog'lanib, garmoniyani tashkil etadi. Peterburgga yaqin Pushkin shahridagi «Tsarskoye selo» bog'-saroy park ansamblini tamoman o'zgachia xususiyatlarga ega. Bu yerdagi asosiy parklar Yekaterina va Aleksandrov parklari yaxlit umumiyligiga ega. Kompozitsiyaning markazini Yekaterina saroyi tashkil etgan.

Ansamblning bosh o'qi muntazam rejali barokko uslubida ishlangan Yekaterina parkining saroy markazi orqali o'tib, Aleksandrov parkining muntazam qismi va serhasham saroy hovlisini kesib o'tadi va hayvonlar joylashgan yashil massiv bilan tugaydi. Bu yerdagi Yekatirina saroyi va muntazam parkning muallifi arxitektor Rastrelllidir, arxitektor Kameron esa bu yerdagi peyzajli parkni, arxitektor Kvarengi Aleksandr saroyi va parkini yaratganlar. Shu munosabatda, «Tsarskoye selo»dagi saroy va parklarning yechimi yaxlit bir uslubga, ansamblning umumiyligiga reja viy kompozitsiyasiga uyg'unlashlib, yagona uzviy tizimni tashkil etgan (2.6.7-1 rasm).

Rossiya peyzajli parklarining yana bir o'ziga xos ajoyib asari Pavlovsk saroyining peyzaj parkidir. Pavlovskni 1780-yilda arxitektor Charlz Kameron loyihalagan va uni 1786-yilgacha amalga oshirgan. Pavlovsk parkining kompozitsiyasi kichik

Slavyanka daryosi sohillari va uning irmoqlari bo'ylab shakllantirilgan. Bu yerdagi o'simliklar guruhi, yo'laklar, qurish maydonchalari, kichik me'moriy inshootlar yordamida ustalik bilan lirik-romantik xarakterga ega bo'lgan peyzajlar zanjiri shakllantirilgan (2.6.7-2 va 2.6.8-rasmlar).



#### 2.6.7-rasm. Rossiya peyzaj parklarining tarhi:

- 1 – «Tsarskoye selo» bog'-saroyining Yekaterina va Aleksandr parklari;
- 2 – Pavlovsk parkining tarhi: parkning o'tasida Slavyanka vodiysi, uning yuqorisida kichik Yulduz va pastida katta Yulduz zonalari joylashgan.

Parkning rejaviy yechimida Slavyanka daryosining ikki tomonidan katta va kichik Yulduzlar zonalariga bo'linadi, lekin parkning asosiy landshafti erkin tabiat ko'rinishida lirik-romantik xususiyat-dagi peyzaj uslubiga asoslangan. Daryo bo'ylab yastangan asosiy sayilgoh qismiga Katta Yulduz va Yangi Sevilya, Oqqayin park kompozitsiyalari qo'shilib, sezilmash holda tabiiy park landshaftiga aylanib ketadi.

Peterburdag'i Gatchina bog'-park ansambli ham peyzaj uslubida yaratiladi (2.6.9-rasm). Har ikkala, Pavlovsk va Gatchina parklarida ham kompozitsiya markazini park saroyi hamda ular qoshidagi sohillar va tabiiy ko'l tashkil qiladi.


Bu parklardagi barcha elementlar: yo'laklar, mo'jaz me'moriy shakllar, bino va park inshootlari, yashil guruqlar, gulzorlar, parter maysazorlar va o't-o'lanlar parkda mo'jizakor romantik tabiat



*2.6.8-rasm. Pavlovsk parkning peyzajlari:  
(L. A. Adilovaming originaldan tushirilgan rasmlar montaji).*

ko‘rimdbihari izimini vujudga keltirgan. Faqat park saroylari qoshidagi maydonlарига qisman muntazam rejaviy yechimlarga ega.

Ayni paytda, har ikkala park ham bir-biridan o‘zining emotsional o‘stetik ko‘lamи bilan ajralib turadi. Agar Gatchina o‘zining ma‘yus va vazmin saroyi, tekis va baland dov-daraxtlari, mahobatli imoratlari bilan qandaydir sirlи va vazmin muhit hosil qilsa, Pavlovsk muhitи aksincha, yorug‘, quvnoq va ochiq yashil kompozitsiyaga, dilkash park imoratlariga ega. Shuning uchun ham



2.6.9-rasm. Peterburg atrofidagi Gatchina saroyining peyzaj parki:  
(L.A. Adilovaning originaldan tushirgan rasmlar montaji).

Pavlovsk bog‘-park ansambl nafaqat Rossiyaning, balki Yevropaning ham eng yaxshi peyzajli parklari sirasiga kiradi. Pavlovskda har bir park elementi o‘zining me’moriy va landshaft yechimi bilan takomiliga yetkazilib, parkning umumiy romantik g‘oyasiga bo‘ysundirilgan.

Peterburg va uning atrofidagi qator bog‘-park ansamblarida amalga oshirilgan yangi g‘oyalar XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida butun Rossiya bo‘ylab tarqaldi. Bu davrdagi eng yetakchi bog‘lar shahar ichi va shahar atrofida usadba bog‘lari hisoblanadi. Shahar usadbalarining uylari ko‘chadan serhasham va tantanavor hovli (kurdoner) bilan ajratiladi. Bog‘ esa usadba uyi orqasiga joylashtiriladi. U ko‘pincha daryo sohili yoki suv havzasasi bilan tugatiladi. Shahar atrofi usadbalarini ham shunday tuzilishda, faqat tantanavor hovliga ko‘chadan emas, balki yo‘ldan, ko‘pincha cho‘zinchoq xiyobon orqali kirib kelinadi.

Moskva shahri usadbalarining eng yaxshilariga Pashkov uyi (arx. Bajenov) va Golitsin kasalxonasi usadbalarini (arxitektor M. Kazakov) kiritish mumkin. Pashkov uyi qoshidagi usadba Kreml hududiga va Neglinka daryosiga chiqqan. Golitsin kasalxonasi bog‘i esa terrasalar orqali pastki havzalarga tutashgan va so‘ngra Moskva daryosiga kelib qo‘shiladi. Biroq, Pashkov va Golitsin usadbalarining bog‘lari boshqa usadbalaridan farqlanadi – ular jamaa va kasalxona bog‘laridir.

XVIII asr oxiriga kelib rus usadba bog‘larining shakllanishi niyhoyasiga yetkaziladi. Uning markazini usadba uyi, uyning atrofini esa xo‘jalik imoratlari, polizlar va xo‘jalik bog‘lari egallaydi.

Usadbada uyi yonida muntazam rejali «Fransuzcha» – parter, atrof cheti esa «inglizcha» peyzaj parkka aylanib ketadi. Usadbalarining o‘lchamlari va rejaviy tuzilishi cheksiz tarzda o‘zgarib turgan.


Soddaroq usadbalarining «Fransuzcha» qismi klumba bilan chegaralanusa, «inglizcha» qismi uy oldida daraxtlarga ko‘rinish beruvchi maysazor bilan chegaralanadi. Shahardagi boy zodagonlarga qarashli katta usadbalar o‘zlarining ko‘lami va serhashamliligi bilan Peterburg atroflaridagi saroy bog‘lariga tenglashadi.

Ular qatoriga Moskva atrofida qurilgan Kuskovo (2.6.10-1-rasm), Ostankino, Saritsino, Arxangelskoye va boshqa ellikdan ortiq usadba bog‘lari kirgan.

Peterburg va Moskva atroflarida shakllangan Rossiya uchun yangi bo‘lgan bog‘-park san’atining g‘oyalari, XIX asrning birinchi yarmida nafaqat Rossiyaga, balki Ukrainaga ham tarqaladi.

Bunga misol tarzida Ukrainianing Uman shahridagi Sofiyevka, Aleksandriya va boshqa parklarni keltirish mumkin (2.6.10-2-rasm).

Aziz talaba, Siz ushbu bobda keltirilgan ma‘lumotlar orqali bog‘-park san’ati va landshaft arxitekturasining turli mamlakatlar hamda davrlarda turlicha shakllanib va rivojlanib kelganligini, ularning turli xil ijodiy yo‘nalishlar hamda badiiy estetik tuyg‘ular asosida taraqqiy etganligini ko‘rdingiz va bu san’atning sermazmun va boy tarixiy tajribalari bilan tanishishga musharraf bo‘ldingiz. Bu olgan bilimlaringiz sizni keljakda Respublikamiz tuman va qishloqlarida mo‘jizaviy bog‘lar hamda landshaft arxitekturasi obyektlarini yaratishga da‘vat etsa ajab emas.



2.6.10-rasm. Rossiya va Ukraina parklarining tarhlari:

- 1 – Moskvadagi Kuskovo peyzaj parki;
- 2 – Ukrainadagi Sofiyevka peyzaj parki.

### *Mustahkamlash uchun savollar*

1. Qadimgi Misr bog'larining turlari va ularga xos xususiyatlarni tushuntirib bering.
2. Semiramida (Bobil) «osma» bog'larining qurilishi tamoyillari va bog'ni grafik ta'mirlash variantlari haqida gapirib bering.
3. Qadimgi Eron shohlarining saroylari qoshidagi bog'lar – «Chorbog»lar va bog'-'go'riqxonalari (payrijezlar) haqida tushuncha bering. Chorbog' payridezlardan qanday farq qilgan?
4. Qadimgi Samarqand atrofidagi «Bazayra-Bog'iston» haqida tushuncha bering. U qanday bog' bo'lgan?
5. Rim bog'larining xillarini tushuntirib bering. «Topiar» san'ati deganda nimani tushunasiz?
6. Yevropaning qal'a saroylari qoshidagi mo'jaz bog'lari haqida tushuncha bering.
7. Kluatr va labirintlar nima va ular qanday vazifalar mo'ljallagan?
8. Ispaniyadagi Mavritan bog'ları haqida umumiy tushuncha bering.
9. Granadadagi Algambra va Generalif bog'larini ta'riflang.
10. Temur davri Chorbog'lariga xos xususiyatlarni tushuntirib bering.
11. Erondag'i «Maydoni shox» va «Shahar bog'»ning me'moriy-landshaft yechimlari qanday tamoyillarga asoslanadi?
12. Hindistondagi Bobur va Boburiylar davri bog'-parklarining tipologiyasini aytilib bering.
13. Boburiy qurgan bog'lar Temuriylarning Samarcand, Xirot va Qobul bog'laridan nimalari bilan farq qiladi? Ular orasidagi umumiylilik nima?
14. Hindistondagi maqbara bog'larining eng rivojlangan ko'rinishini aniqlang.
15. Xitoy bog'ları qanday g'oyalarga va tafakkurga asoslanib yaratilgan?
16. Nima uchun Suchjou shahri «Xitoy Venetsiyasi» deb ataladi?
17. Yaponiya bog'-parklarining turlari va xillarini yoritib bering.

### III bob

## LANDSHAFT ARXITEKTURASINING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

---

### 3.1. XX asrdagi va XXI asr boshi landshaft arxitekturasining taraqqiyot yo'llari

#### *Dars rejasi*

1. Eng yangi zamonaviy bog'lar.
2. «Art-landshaftlar» va ularning turlari.

**Eng yangi zamonaviy bog'lar.** Ushbu mavzuga bag'ishlangan adabiyotlar va ilmiy ishlanmalar nafaqat bizda, balki xorijda ham juda oz sonlidir. Jumladan, Paum Kuper o'zining «Yangi texnologiyalarning bog'lari» degan kitobida bunday bog'larning yaratilishini «modernizm» stilining takomillashuvi bilan bog'laydi. Modernizm, ma'lumki, XIX asr oxiri XX asrlar san'atida an'anaviy realizmga muxolif chiqqan badiiy oqimning umumiyligi nomidir.

2005-yilda Moskvada E.V. Zabelinaning arxitektorlarga mo'ljalangan «Поиск новых форм в ландшафтной архитектуре» nomili o'quv qo'llanmasi chop etildi. Bu kitob ikki qismiga: zamonaviy bog'lar; «Art-landshaftlar» va ularning turlariga bag'ishlangan bo'lib, biz mazkur paragrifni yozishda aynan ana shu kitobga asoslandik.

Ma'lumki, XX asr san'ati turli xil badiiy yo'naliishlar va oqimlarga boyligi bilan ajralib turadi. Ular orasida oldingi davrlar san'atidagi ilg'or an'analarni davom ettiruvchi, antik va uyg'onish davri san'ati tajribalariga taqlid qiluvchi va, nihoyat, avvalgi davrlarga xos shakllarni rad qiluvchi kuchli oqim — «modernizm» va uning turli yo'naliishlari: avangard, dadaizm, pop-art va boshqalar shakllandiki, ular zamonaviy landshaft arxitekturasi rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Aynan ana shunday o'zaro ta'sirlar, ilm-u fandagi texnik innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va materialllar, tasviriy san'atdagi yangi oqimlarni vujudga keltirdi. Buning oqibatida XX asr oxiri va yangi XXI asr ijodkorlari (rassomlar, arxitektorlar, haykaltaroshlar, san'atkorlar), inson turmush tarzi, uning rekreatsiyasi va badiiy tafakkuridagi o'zgarishlarni, eng avvalo,

landshaft arxitekturasida va uning yangi tarmog‘i hisoblangan «Art-landshaftlar» bilan bog‘liq yangi bog‘larda ko‘ra oldilar.

Biroq bunday yangi bog‘larni shakllantirish va yaratish jarayoni ham osonlikcha amalga oshmadi. Ular hozirgi davr landshaft arxitekturasi tarixining alohida bugunini tashkil qiladi.

Oxirgi 20 yillikda binolar va landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalashda tabiat va inson ekologiyasini uyg‘unlashtirish harakati shakllandi. Bu g‘oya va yo‘nalishda qator yangi bog‘lar yaratilib, ular «Zamonaviy ekologik bog‘lar» nomini oldi. Ularni E.V. Zabelina quyidagi guruhlarga bo‘ladi:

1. Loyihalanayotgan joy tabiatining bir qismi tarzida yaratilgan bog‘lar.


2. Loyihalanayotgan bino muhandislik tizimining bir qismi sifatida shakllantirilgan bog‘lar.

3. «Yashil arxitektura» tarzida, ya’ni bino va bog‘ mush-tarakligida yaratilgan bog‘lar.

#### **Loyihalanayotgan joy tabiatining bir qismi tarzidagi bog‘lar.**

Bu guruhga kírvuchi bog‘larda loyihalanayotgan joy tabiatining go‘zalligi, asosan, ushbu joyga xos mahalliy o‘simliklar landshafti hal qiluvchi kuchga ega bo‘ldi. Bunday bog‘larda parvarishi qiyin, qo‘sishimcha energiya va kuch talab qiladigan, mazkur joyga xos bo‘lgan o‘simliklar qo‘llanilmaydi. Masalan, iqlimi juda issiq va quruq bo‘lgan joylardagi bog‘larda maysalar o‘stirish, yashil maysazorlarni shakllantirish hamda parvarishlash qiyin va ko‘p kuch talab qiladi. Bunday hollarda ushbu joylar tabiatiga azaldan xos va an‘anaviy bo‘lgan yovvoyi yeryopar o‘simliklarni, issiqqa hamda quruqlikka chidamli daraxt va butalarni qo‘llash maqsadga muvofiq deb topilgan. Xullas, bunday bog‘larda atrof-muhit go‘zalligi va mahalliy jonli tabiat florasidan foydalanish birlamchi ahamiyatga ega. Mazkur bog‘larda inson va landshaft tabiatning bir qismi, uning davomchisi deb qaraldi (3.1.1-rasm).

Zamonaviy bog‘larning shakllanishiga turli-tuman omillar: yangi innovatsion texnologiyalar va materiallardan tortib, tojamiyatdagi siyosiy xotirjamlik va tinch-totuvlik, o‘ziga to‘q yangi avlodning milliy sinfi, yangi dunyoviy tafakkur va yuksak estetik chtiyojlar, shuningdek, landshaft arxitekturasining rivoji va takomillashuviga hozirgi zamon san‘atining ham ta’siri kattadir.



*3.1. I-rasm. Loyilanayotgan joy tabiatining bir qismi tarzida yaratilgan bog'lar landshafti. Angliya. Chelsidagi bog'lar shousi, 2003-y.*

O'tgan asrning oxiri va hozirgi davrda shakllanayotgan turli xil bog'lar ichida bizning bog'lar haqidagi an'anaviy tushunchamizdan keskin farq qiladigan alohida yo'nalishdagi bir guruh bog'lar borki,

ular aksari zamonaviy mutaxassislar tomonidan «Art-landshaftlar» deb nomlangan. Bunday bog‘lar, asosan, xorijda: AQSH, Yaponiya, Yevropa davlatlarida ilk shakllana boshlagan. Bu guruhdagi bog‘larda odatiy bog‘lar ramzlarining tili qo‘llanilsa-da, ularning shakli va tuzilishi XX asr notasviriy (predmetsiz), ya’ni san’at asarlarining ochiq muhitdagi ko‘rgazmasiga o‘xshab ketadi. Bu bog‘lardagi g‘oya tushunchasi va uning mohiyati an’anaviy bog‘larga xos xususiyatlardan ustun turadi. Ularda odatiy bog‘larning atributlari emas, balki yangi texnologiyalar va materiallar qo‘llanilgan.

Xullas, «Art-landshaftlar»ga xos asosiy xususiyatlarni quyidagicha izohlash mumkin:

- bunday bog‘larda san’atning xilma-xil turlari (musiqa, rangtasvir, teatr dekoratsiyalari, haykaltaroshlik va mo‘jaz me’moriy shakllarning landshaft arxitekturasidagi o‘zaro birikuvlari va assotsiativ tarzda bog‘lanishi aks etgan;
- bog‘ning shakllanishiga yangicha dunyoviy tafakkur bilan yondoshilgan. Turli davlatlar, xalqlar madaniyatni, an’analarning bir-biriga yaqinlashuvi, mushtarakligi, ular orasidagi masofalar va chegaralarning nisbiyligi bunday bog‘larni loyihalashdagi xalqaro dunyoviy yondoshuvni ta’minlagan;

— «Art-landshaftlar» eng so‘ngi dunyoviy texnik yutuqlar, texnologiyalar, materiallar va ilg‘or san’at asarlarining mushtarakligini o‘zida aks ettirganligi bilan a’anaviy bog‘lardan ajralib turadi.

Chunki hozirgi tezkor va texnik asrimiz hamda madaniyatimizda qator ijodiy badiiy yo‘nalishlar va oqimlar vujudga kelmoqdaki, ular bir-biriga ta’sir qilib, almashinib turishga moyildir. Endi qotib qolgan moybo‘yoqlar va shakllar asri o‘tdi, uning o‘rnini makon hamda zamonda tezkor o‘zgaruvchan va harakatlanuvchan xususiyatiga ega bo‘lgan yangi san’at turlari va texnik imkoniyatlar egallamoqda. Insoniyatning ochiq tabiat landshaftida dam olishga bo‘lgan azaliy ehtiyoji ana shunday texnika, san’at va ilm-u fan rivojlanib, tezkor yangilanib borayotgan hozirgi zamonda «Art-landshaftlar» guruhiga kiruvchi eng yangi zamonaviy bog‘larga bo‘lgan ishtiyoyqini yanada oshirib yubormoqda. Xalqimizning obod va sog‘lom turmush tarzi, ta’minlangan yangi avlod insonlari milliy sinflining shakllanishi ham bu jarayonni yanada tezlatmoqda. Demak, «Art-landshaftlar» guruhiga kiruvchi bog‘larni shartli

tarzda odatiy bog‘larga o‘xshab o‘zining muayyan ochiq muhitiga ega bo‘lgan, biroq mazmuni va mohiyati jihatidan butkul yangicha «Yangi texnologiyalar», «Radikal landshaftlar» yoki yangi zamonaviy ko‘rinishdagi bog‘lar deb tushunishimiz mumkin.

Ana shu jihatdan bu tipdagи bog‘lar uchun tanlangan o‘simliklar an‘anaviy Yapon bog‘larining dendrologik prinsiplariga o‘xshab ketadi, ya’ni ma’lumki, yaponlar o‘z bog‘larida inson bilan tabiat uyg‘unlashuvini va bu uyg‘unlashuvda mahalliy flora va tabiat go‘zalligini aks ettirishni asosiy tamoyil deb bilishadi.

Shunday qilib, birinchi guruh ekologik bog‘lari uchun o‘simliklar, odatda, bog‘ loyihalanayotgan joy tabiatini va botanikasini yaxshi biladigan botaniklar va ekologlar tavsiyasiga ko‘ra tanlanadi. Chunki, bog‘ o‘simliklari mahalliy iqlim va tuproqqa ideal mos kelishi, ammo ekilishi hamda bog‘larda joylashishiga ko‘ra landshaft arxitekturasi va bog‘-park san‘ati qoidalari asosida amalga oshiriladi. Bunday bog‘larning g‘oyaviy kompozitsiyasi va landshafti bog‘ yaratilayotgan yurt yoki o‘lka tabiatidan olinadi.

E.V. Zabelinaning yozishicha, bu tipdagи bog‘larni yaratishning ikki xil usuli mavjud:

- bog‘ loyihalanayotgan joyning yeri, ya’ni tuprog‘ini madaniylashtirish usuli;
- sun‘iy «yovvoyi bog‘» yaratish usuli.

Har ikkala holda ham bog‘ atrofidagi muhit tabiatining bir qismi, ushbu joyning tabiiy go‘zalligini o‘zida ko‘rsatmog‘i va ochib bermog‘i lozim. Bog‘ning rejaviy stili iloji boricha erkin tabiat ko‘rinishida, yo‘laklar va maydonchalar esa tabiiy landshaftga mos tushmog‘i zarur. Agar bog‘ hududi relyefli qiyalikda bo‘lsa, joyning tabiiy landshaftiga mos ravishda bog‘ hududini pog‘onalarga bo‘lib chiqish, tirkak devorlar va zinapoyalar esa mahalliy materiallardan ishlanishi, tanlangan o‘simliklar mahalliy iqlim ta’siriga chidamli bo‘lishi, ular ichida manzarali va mevali daraxtlar, tokzor, butalar va birin-ketin gullovchi gullar, yeryopar o‘simliklar bo‘lishi, biroq bularning barchasi mahalliy yovvoyi tabiatni eslatishi, unga o‘xshamog‘i, uning go‘zalligini yanada bo‘rttirmog‘i lozim. Bunday tur va uslubdagi zamonaviy ekologik bog‘larga hozirda, ayniqsa, Skandinaviya, Germaniya, Niderlandiya, AQSH, Angliya va Rossiya mamlakatlari bog‘ dizaynerlarining qiziqishi katta bo‘lmoqda.

**Bino muhandislik tizimining bir qismi tarzidagi bog'lar.** Zamonaviy arxitekturaning bugungi kundagi eng faol rivojlanayotgan yangi yo'nalishlaridan biri – bu binolar tarkibida bog' tashkil etish va undan, ayni paytda, bino muhandislik tizimining elementlaridan biri sifatida foydalanishdir.


Bunda bog' nafaqat estetik funksiyaga, balki boshqa vazifalarga: issiqlikni saqlovchi qurilma, oqova suvlarni tozalash jarayonida qatnashuvchi, xonalarning shamollatish tizimini takomillashtiruvchi, binoda mikroiqlim yaratuvchi kabi funksiyalarni ham bajarishga qaratilgan. Masalan, Germaniyaning Frankfurt shahrida 1997-yilda balandligi 53 qavat «Kommertsbank minorasi» deb nomlangan bino qurilgan. Uning ichidagi atrium atrofida spiralsimon tarzda butun bino bo'ylab to'rt qavat balandligida bir nechta qishgi bog' loyihalangan bo'lib, ular binoda tabiiy landshaft muhitini yaratishdan tashqari mikroiqlimni yaxshilash, zamonaviy qulay ekologik va estetik imkoniyatlar yaratishga ham xizmat qiladi (3.1.2-rasm).

Tarhi uchburchak shaklidagi bu baland binoning har bir qavati uch qismidan tuzilgan bo'lib, uning 2 tasida bankning ofis xonalari, uchinchisida esa to'rt qavatlari qishgi bog'larning bir qismi joylashgan. Bu bog'lar binoning «yashil oazislari» hisoblanib, har bir qavatdan ularni kuzatish, bog'dagi o'simliklar va bino atrofidagi shahar manzarasi bilan zavqlanish, bino interyerining fitodizayni imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Uch burchakli ichki atrium va spiralsimon o'suvchi to'qqista uzlusiz qishgi bog'larga ega bo'lgan bu ulkan binoning tuzilishi kishiga go'yoki tabiatning tirik organizmlariga mos bo'lgan hujayra shaklini eslatadi.

Bu esa bino mualliflarining katta yutug'idir. Bog'lardagi o'simliklar botanikasi quyidagicha tanlangan:

- sharq tomonidagi 3 ta bog'da Osiyo o'simliklari (astilba, bumbuk, Osiyo zarangi, magnoliya, azaliya, gibaskus);
- janubbdagi 3 ta bog'da O'rta yer dengizi o'simliklari (timyan, oliva daraxti, oleandr, lavanda, anor daraxti, kiparis, sitrusli o'simliklari);
- g'arb tomonga qaragan yana 3 ta bog'da Shimoliy Amerika o'simliklari (zarang, mamont daraxti, sckvoyadendron, rodo-dendron, astra).



**3.1.2-rasm. Germaniya. Frankfurtdagi Kommertsbankning qishgi bog‘lari. 1997-yil.**

To‘rt qavat balandlikdagi fazoviy bu bog‘lar binoning ichki ofis xonalariga keraklicha quyosh nurini yetkazish, bank xodimlarining dam olishi va erkin muloqot qilishini ta’minlashdan tashqari bino xonalari va atriumni tejamli tabiiy shamollatish tizimining bir qismi tarzida ham xizmat qildi.

Yildan-yilga yirik shaharlarda qurilayotgan binolarning qavatlari va tig‘isligi o‘sib bormoqda. Yerning bahosi binoning bahosidan ham oshib borayotgan bunday urbanistik taraqqiyot oqibatida shahar muhitida landshaft tashkil qilish uchun ochiq muhitlar tanqisligi sezilmoxda. Biroq, landshaftdan voz kechish evaziga shahar qurilishini rivojlantirish mumkin emasligi hammamizga ma’lum.

Xo'sh, nima qilish kerak? Bunday sharoitda eng maqbul yechimlardan biri Fransiyada amalga oshirilgan yangi «yashil devor» lar texnologiyasidir. Mazkur texnologiyaga ko'ra o'simliklar endi yerda emas, balki binoning tashqi tik devorlarida o'sadi. Ana shunday texnologiya Parijda Branli daryosi sohilida qurilgan «Yangi dunyoviy madaniyatlar muzeyi» binosining fasadida qo'llanilgan. Bino fasadining oynalardan bo'sh qolgan tik yuzasiga turli xil pastqam o'suvchi gullar va maysali o'tlar ekilgan (3.1.3-rasm).

«Yashil devorlar» endi quyosh nuri tushuvchi baland binolarning interyerlarini ham bezamoqda. Xullas, mo'jaz bog'lar, o'ziga xos gulzorlar endi nafaqat yerda, balki devorlarda, bino fasadlari va interyerlarida ham qishgi bog'lar tarzida o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

**«Art-landshaftlar» va ularning tiplari.** Hozirgi «Art-landshaftlar»ning hududi, aksari hollarda, uncha katta bo'limgan ochiq



*3.1.3-rasm. Parij. Yangi dunyoviy madaniyatlar muzeyi binosida qo'llanilgan yashil devor texnologiyasi.*

muhitlar hisoblanib, bog' ko'rinishiga ega. Ularning ayrimlari butkul yangi texnikaviy g'oyalar ta'sirida shakllanib, binoga sarflanadigan energiya turlarini samarali tejovchi va yopiq texnologik jarayonlarga mo'ljallangan binolar zamonaviy muhandislik tizimining bir qismi sifatida foydalanimoqda. Boshqalari esa zamonaviy notasviriy, ya'ni predmetsiz san'at ta'sirida shakllangan bo'lib, ana shunday san'at asarlarining ko'rgazma bog'lariga aylanib bormoqda.

Ta'kidlash joizki, bunday bog'larning me'moriy hududiy tuzilishi landshaft arxitekturasining o'tmishtagi ko'p asrlik tajribasiga (rejaviy tashkillashtirish, o'simliklarni tanlash, ularni parvarishlash va boshqa usullarga) asoslangan holda shakllantirilmoqda.

Biroq, bunday yangi bog'lar o'zining g'oyaviy yaratilishi va mazmuni jihatidan, zamonamizning eng yangi texnikaviy estetik yo'nalishidagi tasviriy san'at asarlarini ochiq muhitda tomosha qilish, ulardan zavqlanish, tafakkur dunyosiga cho'mish va fikrlash maqsadlariga mo'ljallangan bog'lardir.

Ularga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- 1)hududining katta emasligi tufayli bog' elementlari va dizayning muzeysi ko'rgazmalari tarzida namoyish etilishi;
- 2)asosiy e'tiborning bog' elementlariga qaratilishi;

3)ayrim holatlarda bog'ning faqat sun'iy materiallardan loyihamish: turli xildagi oynalar, metallar, plastiklar, bo'yoqlar, sintetik materiallar va hokazolarni landshaft arxitekturasi san'ati usullari yordamida qo'llash;


4)arkitektorlarning bunday bog'larni yaratishga xuddi san'at asarlarini yaratishdek yondashishi, bog'ning yaxlit kartina, ya'ni san'at kompozitsiyasi tarzida shakllantirilishi.

Zamonaviy «Art-landshaftlar»ning shakllanishiga an'anaviy landshaft usullari ham ta'sir ko'rsatgan: masalan, o'simliklarni ekish, o'stirish usullari o'zgarmay qolgan. Biroq, zamonaviy bog'ni yaratish g'oyasiga butkul yangicha yondoshilgan. Bog' endi ochiq muhitdagi, an'anaviy bog' emas, balki landshaft qo'ynidagi muayyan tugal kompozitsiya asosida ishlangan san'at asarini, muzey eksponatlari yoki haykallar namoyishini eslatuvchi bog'ga o'xshab ketadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, «Art-landshaftlar»ning dastlabki namunalari XX asr oxirida shakllana boshlagan. Aytish mumkinki, bu bog'lar — o'tgan asr san'atidagi yangi izlanishlar mahsulidir.

«Art-landshaftlar» guruhiga kiruvchi bunday bog'lar kompozitsiyasida xuddi o'tgan asr badiiy yo'nalishlari va san'atidagi kabi alohida stilistik yo'nalishlarni ko'ramiz. Bog' kompozitsiyasining qaysi g'oyaviy manbalar (san'at yo'nalishlari)ga asoslanganiga qarab, ularning turlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: kinetik g'oyalarga asoslangan bog'lar; «bog'ga o'yin»; bog'-artefaktlar; bog'-installyatsiyalar; sun'iy elementlarga ega bog'lar.

Quyida biz ushbu bog'lar qatoridagi kinetik g'oyalarga asoslangan bog'larga xos xususiyatlarni amaliyotdan olingan muayyan misollar asosida tushuntirishga harakat qilamiz.

3.1.4-rasmda Yaponiyaning Gifu tog'i etagida qurilgan «Murano-Terras» madaniy va axborot markazining bog'idagi «Tebranayotgan tolalar» kompozitsiyasi ko'rsatilgan. Arx. Makato Sey



3.1.4-rasm. Yaponiyaning Gifu tog'i etagida qurilgan «Murano-Terras» madaniy va axborot markazining bog'idagi «Tebranayotgan tolalar» kompozitsiyasi.

Vatanabe. XX asr oxiri. «Tebranayotgan tolalar» kompozitsiyasi go'yo yerdan o'sib chiqqan o'ta ingichka, balandligi 4 metrlik 150 ta egiluvchan uglerodistik xivichlardan tuzilgan.

Ularning uchlariga kunbo'yi quyoshdan nur oluvchi diodlar joylashtirilgan. Salgina shabada essa ular xuddi maysazorda o'sayotgan baland o'tlar va xivichlar kabi qimirlab, bir-biriga tegadi va tovush chiqaradi. Yomg'ir tomchilaridan esa yengilgina sochilib, yomg'ir tingach yana quyosh sari intiladi. Oqshom payti tola uchlaridagi diotlar o'zlaridan yorug'lik chiqarib, go'yo keng o'tloqda baland xivichlar tebranayotganday bo'ladi. Bu mo'jizakor kompozitsiya kishini ham kunduzi, ham kechasi hayratga soladi.

Ikkinci misol Germaniyaning Myunxen shahrida qurilgan ko'p qavatlari ma'muriy bino hovlisidagi kinetik kompozitsiyali harakatlanuvchi bog'dir. (Arx. Vito Akkonchi) (3.1.5-rasm).

Binoning eng baland tomiga shamol kuchini elektr energiyasiga aylantiruvchi texnik qurilma o'rnatilgan. Elektr kuchi bino



**3.1.5-rasm. Germaniya. Myunxen shahridagi ko'p qavatlari bino hovlisining harakatlanuvchi kinetik bog'i.**


hovlidagi ulkan kinetik bog' sathida joylashgan diskni harakatga hollindi. Diskning aylanish tezligi shamol kuchiga bog'liq. Ko'z oldingizda bog' landshafti sezilarsiz harakatga keladi va sekin-asta o'zgara boshlaydi. Bog'da dam oluvchilar bunday mo'jizaning shohidi bo'ladilar. Tomoshabin o'zi sezmagan holda bexosdan arxitektor-san'atkor yaratgan bog' o'yinining ishtirokchisiga aylanadi, bu esa unga halovat bag'ishlaydi. Ma'muriy bino xodimlari hovsh vaqtini hovlidagi ushbu kinetik bog'da o'tkazadi.

Yaqinda Xitoy bog'larining birida «vaznsizlik holati» deb nomlangan kinetik attraksion ishga tushirilgan. Attraksion qurilma ichida avtomatik boshqariladigan sun'iy biokibernetik muhit yanatilib, unda xohlovchilar hayotda bir marta bo'lsa-da, kosmik kengalarda ro'y beradigan vaznsizlik holatiga tushib o'zini sinab ko'rishlari mumkin.

Hozirgi vaqtida ochiq muhitda namoyish etilayotgan xalqaro ko'rgazmalar va nufuzli bog' festivallarini «kinetik bog'lar»siz tasavvur qilish qiyin. Ularda ko'pincha suvning turli holatdagi harakatlari va o'zgarishlari namoyon ettiriladi. Masalan, 2003-yilda *Chelsi* (Angliya)da o'tkazilgan «*Gulbog' shousi*»da bog'lar suv harakatlari vositasida namoyish etilgan. Ularning birida «yugulayotgan» suv, boshqasida quyilayotgan suv, tomchilanayotgan yoki plyonkali suv va hokazolar aks ettirilgan.

«Noto'g'ri bog'» deb nomlangan bog'da esa tik yorqin oynalar ustidan pastga oqib tushayotgan suv plyonkasi va, ayni paytda qiya yotqizilgan o'shanday oynalar ustidan suv go'yo o'sha qiyaliklar bo'ylab teskari oqayotgandek namoyish etilgan. Aslida esa bilamizki, suv teskari oqmaydi. Bu yerda aslida tekis yuza bo'ylab oqayotgan suvdan ajralib chiqan havo pufakchalar qiya oynaga urilib, tashqaridan qaragan kishiga suv go'yo oyna ustida teskari oqayotganday tuyuladi.

1999-yili Fransiyada o'tkazilgan xalqaro bog' festivallaridan birida «G'oysa» («Ideya») nomli noan'anaviy bog' namoyish etilgan. Undagi trubkasimon fantastik favvorolar turli ranglardagi shaffof elastik bambuk tayoqchalaridan iborat bo'lib, ular bog'ning sug'orish tizimi tarzida foydalaniilgan va, ayni paytda, bog' uchun g'oyatda go'zal yangicha estetik ahamiyat kasb etgan (3.1.6-rasm). Shu bog'ning o'zida mualliflar o'sha bambuk tayoqchalaridan tashqari



**3.1.6-rasm. Fransiyada namoyish etilgan «G'oya» nomli noan'anana viy kinetik bog'ning shaffof favvoralarini.**

ulardan yo'g'onroq va balandroq ustunsimon plastik favvoralarini ham namoyish etganki, ular teskari o'rnatilgan va bir-birining ichiga kiritilgan plastik butilkaldan ishlangan.

Bu butilkalar ustuni suvga to'ldirilib, suv yuqoridan pastga shovullab oqib tushadi va atrofdagi bog' o'simliklarini sug'oradi. Eng muhimi bu plastik butilkalar ustini ichidagi suv og'irligi bilan xuddi bambuk tayoqchalariga o'xshab egiladi va ichidagi suv oxirigacha to'kiladi. Suv to'kilib bo'lgach ustunsimon favvara konstruksiyasi egilib yana o'zining boshlang'ich holatiga keladi va shu zaylda sikl qaytariladi.

Mualiflar Fransiyaning issiq va quruq iqlimi sharoitida bog'ning bir kvadrat metr yuzasini sug'orish uchun haftasiga 20 litr suv zarurligini aniqlaganlar. Hisoblarga ko'ra, 1 kv.m bog' yuzasiga o'rtacha balandligi 1,5 metrli ikkita favvara-ustun kerak bo'lar ekan. Ustunlar baland yoki past ham bo'lishi mumkin. Ko'rib turibmizki, bog'ning bunday sug'orish tizimi bog' landshaftini

shakllantirishda shaffof ustun-favvoralar tarzida qatnashmoqda va ular oddiy tizginli suv purkagichlarga ko'ra kishida o'chmas taassurot qoldirmoqda.

Shunday qilib, XX asr va XXI asr boshlarida shakllangan yangi bog'larda kinetik kompozitsiyalar nafaqat estetik badiiy ahamiyatga, obrazga, balki amaliy, foydali ahamiyatga ham ega bo'immoqda.

### **3.2. Mustaqil O'zbekiston va hamdo'stlik mamlakatlarining zamonaviy landshaft arxitekturasi**

Mustaqillik yillarda sobiq ittifoq davrida qurilgan eski madaniyat va istirohat bog'lari zamon talablariga ko'ra qayta qurila boshlandi (Toshkentda Mirzo Ulug'bek va G'afur G'ulom nomidagi bog'lar, Andijonda Alisher Navoiy, Farg'onada Ahmad al-Farg'oni, Samarqandda Alisher Navoiy nomidagi Markaziy madaniyat va istirohat bog'i va boshqalar) hamda qator yangi mustaqillik davrining bog'lari yaratildi (Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i, «Toshkent-lend» akva-parki, hayvonot bog'i, Samarqanddag'i «Sug'diyona» bog'i, Andijondagi Bobur bog'i va boshqalar).

Bu bog'larda mahalliy iqlim, joy relyefi landshafti, shaharsozlik va iqtisodiy sharoitlar hisobga olinib, milliy an'analarni rivojlantirgan holda manzaralii va mevali daraxtzorlar, gulzorlar, sun'iy havzalar, kanal va favvoralar, sersoya so'lim xiyobonlar barpo etildi.

Barcha madaniyat va istirohat bog'larida (ularning soni respublikada 100 dan ziyod) aholini tabiat bilan bevosita munosabatda bo'lishi, bo'sh vaqtlanmini mazmunli o'tkazish, ko'ngilli hordiq chiqarish, madaniy-ommaviy tadbirlar, milliy va umumxalq bayramlari o'tkazish uchun imkoniyatlар yaratildi (3.2.1-rasm).

Keyingi yillarda Toshkent shahridagi Mustaqillik maydoni, Amir Temur xiyoboni, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i va shahar tumaniylaridagi bog'lar, Yapon bog'i, o'zbek xalqining buyuk allomalaridan Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo, Ahmad al-Farg'oni, at-Termiziy, Ismoil Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Jaloliddin Manguberdilarning, Buxoro, Xiva, Qarshi va Toshkent shaharlarining yubileyalarini xalqaro ko'lamda,



**3.2.1-rasm. Samarqand viloyatining Juma shahridagi «Yoshlar bog'i»ning landshaft ko'rinishlari.**

Tintanavor o'tkazish hamda Toshkent va respublikaning barcha viloyatlarida «Xotira va qadriyat» xiyobonlarini tashkil qilish munosabati bilan qator me'moriy va memorial majmualar loyihalanib, ularning aksariyati amalga oshirildi (3.2.2-rasm). Ta'kidlash joizki, bu ishlarning barchasi Prezident Islom Karimovning e'tiborida bo'ldi va bo'immoqda.

Ana shu bunyodkorlik ishlarida jahon landshaft arxitekturasining badiiy-estetik vositalariga amal qilish va O'rta Osiyoga xos milliy bog'-park san'atining Chorbog' uslubini qayta tiklash masalalariga keng e'tibor berildi.

Bunyod etilgan me'moriy inshootlar, memoriallar va muzeylar, bog'-xiyobonlarining aksariyati muntazam simmetrik rejada ishlaniib, ularning hududi ochiq va yopiq yashil maydonlar, ulardagi favvoralar, sharsharalar, gulzorlar, maysazorlar, xiyobonlar va yo'laklar hamda mo'jaz me'moriy shakllar, buyuk allomalarining timsoli ifoda etilgan ramziy majmualardan iborat bo'ldi. Bu majmualarning hududi nisbatan katta bo'lmay 2 gektardan to 20 gektargacha maydonni tashkil etadi. Ularning har biri rejaviy markazi va hajm-fazoviy yechimiga mos kompozitsiyalarga ega. Ularda qo'llanilgan yashil dunyo va arxitekturaviy qurilish materiallari orasidagi o'zaro uyg'unlik ushbu majmualarga tarovat bag'ishlaydi.

Toshkentdag'i Mustaqillik maydonining arxitekturasi va uning landshaft yechimlari respublikada bog'-park san'ati sohasida amalga oshirilgan ishlarning yuksak namunasidir. «Mustaqillik maydoni» metro bekatidan chiqqaniningizda quyosh nurida chaqnayotgan turnaqator piramidasimon pog'onali favvoralarini ko'rib ko'zingiz quvonadi, go'yo ular tashrifmgizni olqishlayotgandek. Ular orqasida Mustaqillik maydonining darvozalari – Ezgulik darvozasi ko'kka bo'y cho'zgan (3.2.3-a rasm). Bosh darvoza ustidagi laylaklar parvozi Vatanimiz tinehligi va osmonining sofligi, osoyishtaligining go'zal rumzidir. Bu darvozaniing qalqon ustunlari kishiga mustaqil Vtan himoyachilarini eslatadi. Bosh darvoza sizni «Jannat bog'i»ning asosiy xiyoboniga chorlaydi. Bog'da bosh va yonbosh xiyobonlar mavjud. Atrof-chet gulgun tabiat, chamanzor va maysazor. Bosh xiyobon bo'ylab, uning ikki yoniga qator daraxtlar ekilgan.

Uzoqdan baland platforma ustiga qurilgan Mustaqillik monumenti va uning poyiga yarashib turgan «Baxtli ona» siy whole



**3.2.2-rasm. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi  
O'zbekiston milliy bog'ining landshaft ko'rinishlari.**

ko‘zingiz tushadi. Bog‘ning bosh va yon-bosh xiyobonlari tutashgan joyda qad ko‘targan ushbu me’moriy kompozitsiya, ya’ni Mustaqillik monumenti va Baxtli ona haykali Mustaqillik maydonining asosiy g‘oyaviy mag‘zi – kulminatsiyasi hisoblanadi (3.2.3-b rasm).


Bu kompozitsiya dinamik ko‘rinishga ega bo‘lib, baland tagkursida mahobatli qilib qurilgan. O‘rtal Osiyoning Chorbog‘ uslubidagi tarixiy bog‘larida ham bog‘ning asosiy binosi – ko‘shk (saroylar) xuddi shunday baland tagkursida mahobatli va mu-naqqash tarzda qurilgan. Bosh xiyobondan o‘ng tomonga keng yonbosh xiyobon orqali yursangiz, Mustaqillik maydonining yana bir muhim me’moriy kompozitsiyasi – «Xotira va qadriyat» xiyoboniga borasiz. Bu xiyobon to‘rida «Motamsaro ona» haykali va uning oldida mangu olov sarkosasi joylashdirilgan. Xiyobonning bosh o‘qi bo‘ylab simmetrik joylashgan o‘zbekona peshayvonlar va ular oldidagi poki – poyondozi gulzorlar sizga go‘yo «jannah xiyoboni»ni eslatadi (3.2.4-rasm).

Bu yerdagi har bir me’moriy kompozitsiya, bog‘-park va landshaft yechimlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning g‘oyalari va rahnamoligi asosida bunyod etilgan. Mustaqillik maydonining Vazirlar Mahkamasi va Senat binolari joylashgan tomonidan maydonga kirib kelishdagi xiyobonda daraxt va butalardan tuzilgan shunday bir go‘zal firdavsmonand landshaft kompozitsiyalar mavjudki, bunday kompozitsiyani faqat shu yerda uchratish mumkin. Bu «buket guruhi»dir, unda buket go‘yo gullardan emas, balki go‘zal manzarali daraxt va butalardan tuzilgan. Bu ham O‘zbekistonning «Chorbog» uslubiga xos landshaft kompozitsiyalaridandir. Maydonni chegaralab turgan osmono‘par Respublika moliya binosi va Vazirlar mahkamasi binolari orasidagi keng maydonda uzunligi chamasi 100 metr keladigan ulkan favvora va hovuz joylashgan. Favvora tizginlaridan otilib chiqayotgan suv 4 metrlar chamasi balandga ko‘tarilib, 8 metr pastda joylashgan ulkan hovuzga tushadi. Sharshara tovushi va undan hosil bo‘lgan mikroiqlim kishi qalbini zavq-u shavqqa to‘ldiradi. Bunday favvora turi O‘rtal Osiyoda hozircha yagonadir. Favvora yonida suv bug‘iga to‘yingan shabadadan nafas olib, favvora poyidagi ko‘priidan o‘tar ekansiz, o‘zingizni «jannah bog‘i»da yurganday sezasiz. Xullas, Mustaqillik maydoni, undagi bog‘-park san’ati va landshaft kompo-



**3.2.3-rasm. Toshkent. Mustaqillik maydoni:**  
**a – maydon bosh darvozasi – Ezgulik arkasi;**  
**b – Mustaqillik monumenti.**

zitsiyalarining go‘zal namunalarini hamda bu yerdagi ma’muriy binolar va mo‘jaz me’moriy shakllarni tom ma’noda O‘zbekiston arxitekturasining «imidji» deb hisoblash mumkin.




3.2.4-rasm. Toshkent. «Xotira va qadriyat» xiyoboni.

Andijondagi Bobur milliy bog‘i majmuasini bunyod etishda ham an'anaviy «Chorbog» uslubi tamoyillari e’tiborga olingan. «Bog‘i Bobur» deb ataladigan bu bog‘ mustaqillik yillarda Qobul shahridagi «Bog‘i Bobur»ga qiyoslab, qirlik joyda yuriladigan yo‘llar, imoratlar pog‘onasimon sahnarda qurilgan. Bog‘ maydoni 300 hektar. Sharqona marmar darvozadan kirilgach, bog‘ yo‘li yuqoriga bиринчи sahndagi supaga ko‘tariladi. Unda Boburning ulkan haykali o‘rnatalilgan. Undan yuqoridagi pog‘onada «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi qad ko‘targan (3.2.5-rasm).

Muzeyning ikki yonidan o‘tgan marmar zinali yo‘ldan yana ham yuqoriga, so‘nggi sahnga chiqiladi. Bu yerda Boburning ramziy qabr-sag‘anasi (Qobuldag‘i Bobur qabriga aynan tarzda) o‘rnatalilgan.

Ramziy qabrdan yuqoriga ketgan yo‘l bolalar o‘yin maydon-chalariga olib chiqadi. Pastdan Bobur chorborg‘ining yuqorisiga osma yo‘l (2 km) o‘tkazilgan. Bog‘da hunarmandchilik buyumlari do‘kon, shuningdek, choyxona, oshxona va boshqalar dam olish joyida konsert ko‘rish sahnasi, kurash va boshqa milliy sport musobaqalari o‘tkaziladigan maydon qurilgan. Bog‘da 20 xildan ortiq mevali (yong‘oq, uzum, olma, anor, anjir, gilos va boshqalar



3.2.5-rasm. Andijon. Bobur nomidagi istirohat bog‘ining umumiy ko‘rinishi.

10 dan ortiq manzaralari (archa, chinor, eman, chakanda, majnuntol, mirzaterak) kabi daraxtlar ekilgan. Bog‘ nihoyatda xushmanzara va obod maskanga aylangan. Bu yerda Navro‘z va Mustaqillik kunlari xalq sayllari ham o‘tkaziladi.

Bu sohada Samarqandda va Respublikamizning boshqa viloyatlarida ham e’tiborli ishlar bajarildi. Samarqanddagi Registon me’moriy ansamblining maydonini qayta tiklash loyihasiga ko‘ra ansambl atrofidagi tarixiy shakllangan jamoat binolari bузib tashlanib, ularning o‘rniga bog‘-park hududi, xiyobonlar va ochiq gulzorlar vujudga keltirildi (3.2.5; 3.2.6; 3.2.7-rasmlar).


Samarqandda 2002-yilda ilgaridan mavjud «Ozero» parki qayta ishlanib, zamonaviy bolalar akvoparkiga aylantirildi. U o‘zining jo‘shqin me’moriy shakllari, suv attraksionlari va haykallari bilan ajralib turadi.

Buxoro shahrida Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi va rahnamoligida bunyod etilgan yangi madaniyat va istirohat bog‘i ham an’anaviy chorbog‘ uslubini respublika bog‘-park amaliyotiga joriy qilish yo‘lidagi say’-harakatlarning biridir. Ushbu bog‘ning kulminatsion markazini «Ko‘hna va boqiy Buxoro majmuasi» tashkil qilib, undan ufqning to‘rt tarafiga yo‘naltirilgan xiyobonlar bog‘ tarhida an’anaviy chorbog‘ ko‘rinishini ramziy aks ettirgan. Bosh

a)



b)



3.2.6-rasm. Samarqand shahrining Mustaqillik yillari landshaft arxitekturasi:  
a — bolalar akvoparki;

b — Registon maydonidagi «Yo‘lbarslar xiyoboni» favvorasi.

xiyobonlarning biri bog‘ning bosh darvozasidan boshlanib, markazda joylashgan «Ko‘hna va boqiy Buxoro majmuasi» orqali bog‘ni kesib o‘tadi va uning ikkinchi darvozasigacha davom etadi. Ushbu xiyobonga ko‘ndalang joylashgan yonbosh xiyobonlarning biri bog‘ markazidan yoshlar anfiteatrigacha, ikkinchisi esa unga qaramaqarshi tomonda joylashgan teatr binosigacha davom etadi. Mazkur teatr binosi bog‘ markazidagi monument kabi baland platforma



**3.2.7-rasm. Samarqand. Sug‘diyona bog‘ining bosh darvozasi  
va landshaft ko‘rinishlari.**

(takkursi)da joylashgan bo‘lib, an’anaviy chorbog‘larga xos bo‘lgan bog‘-saroyining joyi va mavqeyini egallagan. Natijada butun bog‘ hududi yirik to‘rt qismga bo‘linib, ularning har biri alohida bog‘ yo‘laklari va chamanlarni tashkil qilgan. Bog‘ hududi va bosh xiyobonlar bo‘ylab soyapar daraxtlar, butalar va gulzorlar ekilgan. Xiyobonlar tutashuvida joylashgan favvora va mo‘jaz hovuzlar, atrof-chetdagi yam-yashil maysazorlar bilan qo‘silib, bog‘ landshaftini jonlantirib yuborgan. Biroq bog‘ning eng asosiy g‘oya-viy markazi, bu «Ko‘hna va boqiy Buxoro» monumentidir (3.2.8-rasm). Unga ko‘hna va navqiron Buxoro tarixi haqida so‘zlovchi mashhur me’moriy yodgorliklar, Buxoro allomalari va kelajak hayot ravnaqini o‘zida aks ettiruvchi ramziy baralyeflar ishlangan. Bog‘ zamonaviy avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimi bilan ta‘minlangan.

Mutaqillik yillarida O‘zbekiston landshaft arxitekturasining rivoji uchun yaxshi imkoniyatlar yaratildi.

Yangidan qurilgan va qayta tiklangan ko‘rkam jamoa binolari va ansamblari egallagan hududlar, ayniqsa, ularning bosh tarzları qoshidagi me’moriy muhit ushbu binolar vazifalariga moslashtirilgan holda mo‘jaz bog‘larga aylantirildi. Quyosh nurida yarqiragan suv yuzalarini yaratuvchi favvoralar, pog‘onali, bir-biridan go‘zal shalolalar, yam-yashil tekis maysazorlar, ular uzra yastangan gilamnusxa gulzorlar, guldor butalar, mo‘jaz me’moriy shakllar, did bilan ishlangan o‘rindiqlar, tekis va jozibador, nafis to‘shamalar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston zamonaviy bog‘-park san’atini rivojlantirishda Navoiy, Namangan, Farg‘ona, Urganch, Termiz kabi shaharlarda ham e’tiborga loyiq ishlar bajarildi. Navoiy shahrida dastlab 16 hektarlik «Janubiy bog‘» istirohatiga asos solinib, tez orada u shahar aholisining hordiq chiqaradigan ko‘ngilochar maskaniga aylandi. Bog‘ ichida o‘yin maydoni, qishda isitiladigan ochiq suzish hovuz-chasi, qishlik va yozlik kinoteatrлar, muzqaymoq, mehmonxona, xullas, yosh shahar navqiron avlodining jo‘shqin turmushi va hayoti uchun barcha zaruriy inshootlar joylashgan. Shahar o‘sishi bilan yangi «Shimoliy boq»qa asos solindi. Bu bog‘ 70 hektarlik maydonni egallagan bo‘lib, uning qoq o‘rtasida 20 hektarlik sun’iy ko‘l mavjlanib turibdi. 200 mingdan ziyod aholiga ega bo‘lgan shaharning asosiy istirohatgohi endilikda ana shu «Shimoliy bog‘» bo‘lib



**3.2.8-rasm. «Ko'hnha va boqiy Buxoro» bog' majmuasidagi monument va teatr binosi.**

hisoblanadi. Bog'dagi ko'l cho'milishga kelganlarni ham, suzuvchi g'avvoslar, sportchi va havaskor eshkakchilarini ham bermalol bag'riga sig'dira oladi. Ko'lning zilol suviga havasing kelmay ilojing yo'q, yozning jazirama kunlari mazkur ko'l Qrim va Kavkazdagi «oltin sohillar» bilan bermalol bellasha oladi.

Mustaqillik yillarda bu bog' yanada takomillashtirilib, uning sharqiy qismida Alisher Navoiy haykali o'rnatilgan ulkan xiyobon tashkil etildi. Xiyobon chorborg' uslubida ishlaniib, u bir nechta chorchamanlar, favvoralar va gulzorlardan iborat. Hozirgi kunda «Shimoliy bog» Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog'iga aylantirilgan. Undagi ko'l esa Toshkentdagi O'zbekiston milliy bog'idagi ulkan ko'lga qiyoslanadi (3.2.9-rasm).



**3.2.9-rasm. Navoiy. Shahar ko'chalarining landshafti va shahardagi madaniyat va istirohat bog'ining ko'li.**



*3.2.10-rasm. Toshkent shahridagi bog‘-rog‘larga burkangan binolar atrofining landshafti dizayni.*



*3.2.11-rasm. Samarqand shahridagi «Yo‘lbarslar xiyoboni» landshafti.*

Xullas, mustaqil O'zbekiston Respublikasining landshaft arxitekturasi va bog'-park san'atining zamonaviy qadamlari bugungi kunda g'ayritabiyy va shoshilinch uslublar bilan emas, balki, bosqichma-bosqich tashlanayotgan bo'lsa-da, uning istiqboldagi taraqqiyoti porloq bo'lishligi uchun to'liq imkoniyatlar mavjud. (3.2.10; 3.2.11-rasmlar).

#### ***Mustahkamlash uchun savollar***

1. XX asr landshaft arxitekturasiga xos xususiyatlarni tushuntirib bering.
2. XX asr landshaft arxitekturasining asosiy ijodiy yo'nalishlariga nimalar kiradi?
3. XXI asr boshi landshaft arxitekturasiga xos xususiyatlarni ta'riflab bering.
4. XXI asr boshi landshaft arxitekturasining asosiy yo'nalishlariga nimalar kiradi?
5. Mustaqil O'zbekistonning zamonaviy landshaft arxitekturasi qanday tamoyillar asosida rivojlanmoqda?
6. Mustaqil O'zbekiston landshaft arxitekturasining tipologiyasi qanday obyektlarni o'z tarkibiga oladi?
7. Zamonaviy O'zbekiston landshaft arxitekturasining sobiq ittifoq landshaft arxitekturasidan farqli tomonlarini tushuntirib bering.
8. «Artlandshaftilar» tushunchasiga izoh bering.
9. Artlandshaftilar guruhiга kiruvchi eng yangi bog'larning turlarini tushuntirib bering.
10. Ekologik bog'lar deb qanday bog'larga aytildi?

**IV bob**  
**LANDSHAFT ARXITEKTURASINING**  
**SHAHARSOZLIK ASOSLARI**

---

**Dars rejasি**

- 4.1. Qishloq aholi punktlari landshaft arxitekturasiga qo'yiladigan asosiy talablar.**
- 4.2. O'simliklarning shaharsozlik va landshaft arxitekturasidagi roli va o'rni.**
- 4.3. Shahar va qishloqlarning ko'kalamzorlashtirish tizimi va me'yorlari.**
- 4.4. Aholi yashash joylarini landshaft rejaviy tashkil etishning asosiy tamoyillari va vazifalari.**

**4.1. Qishloq aholi punktlari landshaft arxitekturasiga  
qo'yiladigan asosiy talablar**

Davlatimiz tashabbusi bilan 2009-yilning mamlakatimizda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qilinishi va «Qishloq taraqqiy topsa, yurtimiz obod, hayotimiz yanada farovon bo'ladi», degan ezgu g'oyani o'zida ifoda etgan maxsus Davlat dasturining ishlab chiqilishi va ularning izchillik bilan hayotga joriy qilinishi bu sohada yangi davrni boshlab berdi.

Mazkur dasturga binoan qishloq aholisi hayotining sifatini yanada yaxshilash maqsadida qishloqlarimizning arxitektura, shaharsozlik va landshaft nuqtayi nazaridan rejalshtirilishini tashkil etish, ularda uy-joy, ijtimoiy va ishlab chiqarish obyektlarining kompleks qurilishini tashkillashtirishga qaratilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

O'tgan vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloqlarini kompleks rivojlantirish, qishloq aholisining hayot sifati va darajasini yuksaltirishga qaratilgan ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, davlatimiz rahbarining 2009-yil 21-yanvarda qabul qilingan qaroriga muvofiq «Qishloq qurilishloyiha» loyiha-tadqiqot instituti tashkil etildi.

Mazkur institut tomonidan qishloq joylarida barpo etiladigan uy-joylar, ijtimoiy inshootlar, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarining namunaviy loyihalari ishlab chiqildi.

2009-yilning sentabr oyida va 2010-yilning oktabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan ko'rgazmalarda bu loyihalar keng jamoatchilikka namoyish etildi, ular atroflicha muhokamalardan o'tkazilib yanada takomillashtirildi.

2010-yil 17-iyunda Prezidentimizning «Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida xususiy uy-joy qurilishini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Mazkur hujjatga muvofiq yakka tartibdagi uy-joylarning namunaviy loyihalariga jiddiy o'zgartish va tuzatishlar kiritildi. Jumladan, qishloqlarda har bir uy-joy quruvchiga 4 sotix o'mniga 6 sotix hajmida yer uchastkasi ajratish belgilandi.

Qishloq aholi punktlari hududlarining nisbatan uncha katta bo'limgan o'lchamlari va qishloqlardagi ishlab chiqarish, turar-joy hamda jamoat binolari tiplari va turlarining hamda qavatlar sonining chegaralanganligi qishloqlarda qurilayotgan har bir bino yoki inshootning arxitekturaviy yechimi va hajmiy kompozitsiya-siga, uning joylashishi, qavati va funksiyasiga, qishloq hududining landshaft yechimiga bo'lgan talabni, me'morlar va quruvchilardagi javobgarlik hissini oshiradi.

Bugungi kunda qishloqlarimiz arxitekturasi nafaqat ularda yangi takomillashtirilgan me'moriy loyihalarni qo'llashga, balki, qishloqda qurilayotgan binolarning me'moriy turkumlashuviga, ya'ni qishloq qurilishining ansambllashtirilishi va komplekslashtirilishiga ham bog'liqdir.


Chunki, aynan ana shunday kompleks va ansambl, tugal landshaft ko'rinishidagi qurilishlargina qishloqlarimiz fayziga fayz, chiroyiga chiroy bag'ishlaydi va qishloq qurilishining go'zalligini yanada oshirish va takomillashtirishga imkon yaratadi.

Arxitektura xuddi ko'zgu kabi o'zida qishloqliklar hayotini, ularning ayni davrdagi turmush darajasi, ijitimoiy-iqtisodiy ta'milinganlik holati, qishloq jamiyatining qay darajada rivojlanganligi va nihoyat, ularning qurilish madaniyatini o'zida aks ettiruvchi voqelikdir.

Landshaft arxitekturasi esa, hamma vaqt, turli makon va zamonlarda jamiyatning moddiy, ma'naviy-madaniy qadriyatları, estetik qarashlari va boyliklarini o'ziga singdirib, aks ettirib kelgan,

o'sha makon va zamon ta'sirida yashab ijod va mehnat qilgan insonlarning buniyodkorlik faoliyatining mevasidir. Insonning qilayotgan ijodiy omili esa hamma vaqt me'morlarning buyurtmachilar va quruvchilar bilan hamohang hamda uyg'un tarzda ishlashida, ularning ustakorligi, iqtidori, malakasi, madaniyatida aks etgan, bu esa o'z navbatida ularning ma'lumotiga, kasbiy saviyasi va tajribasiga bog'liq bo'lgan.

Quyidagi modelda qishloq aholi punktlari arxitekturasi va landshaftining shakllanishiga ta'sir qiluvchi mintaqaviy omillar kompleksi ishlab chiqilgan (4.1.1-rasm).



4.1.1-rasm. Qishloq aholi punktlarining arxitekturaviy va landshaft shakllanishiga ta'sir qiluvchi mintaqaviy omillar kompleksi (modeli).

Hozirgi vaqtida va Respublikamizning istiqbolli qishloq aholi punktlaridagi tarkibiy hududiy tuzilmalari va ularning joylashishini o'rganish O'zbekiston qishloqlarining quyidagi hududiy qismlardan tashkil topganligini ko'rsatdi:

- ma'muriy tuman (tuman markazi hududi);
- qishloq fuqarolar yig'ini markazi hududi (qishloq kengashi);
- qishloq xo'jaligi korxonalarini hududi;
- qishloq aholisi yashash punktlari (qishloqlar, ovullar, posyol-kalar).

Harakatdagi shaharsozlik me'yorlari va qoidalariga ko'ra O'zbekiston qishloq aholi punktlarining aholi soni hisobiy muddat davri bo'yicha quyidagicha guruhlarga bo'linadi.

<b>Nº</b>	<b>Qishloq aholi punktlari</b>	<b>Aholisining soni</b>
1.	Yirik qishloqlar	5000 dan ko'p
2.	Katta qishloqlar	3000 dan 5000 gacha
3.	O'rtacha kattalikdagi qishloqlar	1000 dan 3000 gacha
4.	Kichik qishloqlar	100 dan 1000 gacha

O'zbekiston qishloq aholi punktlarining yuqorida keltirilgan hududiy tarkibi va tizilmalariga binoan landshaft arxitekturasi va dizayniga doir masalalarni hal qilishda quyidagilar e'tiborga olinishi zarur:

- hududiy joylashtirishning tarixiy qaror topgan tizimining ijobjiy jihatlari va kamchiliklarini hamda u bilan bog'liq asosiy elementlarni, yaqin kelajakda qishloq agrosanoat komplekslarini shakllantirish va xo'jalikni kompleks rivojlantirish jihatdan tashkil etilishini hisobga olish;
- aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va dam olishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlash;
- aholining istiqbolda qishloq turarjoylari bilan ta'minlanishining o'sishini hisobga olish;
- aholi punktlarining hududlarini me'moriy-landshaft rejalash-tirish va tashkil qilish, ularni muhandislik uskunalarini bilan jihozlash va obodonlashtirish;

— amaldagi sanitariya-gigiyena, tabiatni muhofaza qilish, mikro va makroiqlimni yaxshilash, ekologik va boshqa me'yorlar hamda talablarga rioya qilish;

— viloyatlar tumanlarida tashkil etilgan va etilayotgan o'rmon xo'jaliklarining aholini yashil o'simliklar bilan ta'minlash imkoniyatlarni hisobga olish.

Qishloq landshaftlari arxitekturasi va dizayni rivojlantirish istiqbollari qishloqlardagi qishloq xo'jalik korxonalarining ixtisoslashuvi, qishloq yer qurilishi sxemalari va loyihalari, tumanning shaharsozlik-landshaft rejalshtirilishini hisobga olgan holda, qishloq agrosanoat komplekslarini shakllantirish bilan uyg'un tarzda belgilanishi lozim.

Qishloqlardagi aholiga xizmat ko'rsatish korxonalari va muassasalarining tarmoqlari barcha posyolkalar, ishslash joylari va aholining dam olish zonalarini qamrab oladigan yagona tizimdan iborat bo'lishi ko'zda tutilishi zarur.

Qishloq posyolkalarining hududlarini shaharsozlik-landshaft rejalshtirish tuzilishini shakllantirishning umumiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasi hududining iqlimga doir tumanlashtirilishi (sahrolar, sahrolar qurshovidagi vohalar, tog' etaklaridagi vohalar, yangidan o'zlashtirilayotgan yerlar va tog'lar)ni hisobga olgan (QMQ 2.01.01-94 «Loyihalashtirish uchun iqlimi va fizik-geologik ma'lumotlar»ga muvofiq) hal qilinishi kerak.

Qishloqdagi posyolkalar va qishloq xo'jalik korxonalarining rejalshtirilishi hududiy funksional zonalarning muxtasar holda joylashtirilishi va o'zaro bog'liq bo'lishini, hududning jamoatchilik markazlari, muhandislik-transport infrotuzilmasi bilan uyg'un tarzda oqilona rejalshtirilishini, hududning shaharsozlik jihatidan mavqeyiga qarab undan samarali foydalanishni, xalqimiz tarixiy arxitektura-shahasozlik an'analarining, tabiiy iqlim, landshaft, milliy maishiy va boshqa mahalliy o'ziga xos xususiyatlarning kompleks tarzda hisobga olinishini ta'minlash lozim bo'ladi.

Respublikamiz qishloqlari sharoitida ochiq muhitlar va hududlarning rejaviy yechimi va qurilish uslubi, turarjoylarning qulay mikroiqlimini ta'minlash, qishloqdagilarning yashash va turmush jarayonlarini ko'ngildagidek o'tkazish uchun qulaylik yaratilishi, ularga shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritishi uchun optimal sharoitlar

yaratib berilishi va qo'llanilayotgan uslublarning tejamkorligi bilan bir qatorda yuksak me'moriy-badiiy sifatga ham ega bo'lishi talab etiladi.

Qishloqlar va turarjoylar hududi uchun tabiiy suv manblariga, xushmanzara daraxtzorlarga yaqin, landshafti ko'rkan, bahavo, yog'in suvlar yig'ilib qolmaydigan balandroq, kungay joylar tanlanishi lozim. Qattiq bo'ron va shamolli tumanlarda ularni to'sish uchun turarjoylar atrofiga baland o'sadigan daraxtlar ekish yoki bu maqsadda o'rmon va dov-daraxtlar ko'p bo'lgan joyni tanlash maqsadga muvofiqdir. Bu omillar turarjoylar hududini chang va to'zon, qumdan,sovuj va quruq issiq shamollar ta'siridan saqlashda, atmosfera havosi hamda muhitning musaffo bo'lishida katta rol o'ynaydi. Qishloq landshaft arxitekturasining muhiti, me'moriy-manzaraviy sifatini boyitishda joyning tabiiy-iqlim sharoitlaridan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda loyihalangan muhit kompozitsiyasiga joydagi bor yashil daraxtlarni, ochiq suv havzalarini, joy relyefming chiroyli qiyaliklarini kiritish, ayniqsa, muhimdir. Uylar, proyezdlar (transport o'tish yo'llari), ko'chalar va xonardonlarning tarhiy yechimida ana shu tabiiy sharoitlar e'tiborga olib loyihalanganda qishloqlar manzarasi va landshafti yanada go'zallashadi.

Ochiq muhitlar hududi ichida aholining dam olishi va ommaviy bayram tadbirlarini o'tkazish uchun yashil zonalarni tashkil qilish, shunday zonalar hamda ko'cha va turarjoy muhitini me'moriy-manzaraviy va dizayn jihatdan obodonlashtirish, ularga badiiy-estetik tus berish, umumiylar dam olish zonalarini turarjoy mahallalari bilan soya-salqin piyoda yo'laklar orqali bog'lash kabi ishlar yuqoridaq usullar bilan birgalikda qishloq turarjoylar dahasi va butun qishloq arxitekturasiga manzarali landshaft tus beruvchi omillar sifatida ro'yobga chiqishi mumkin.

Ana shu nuqtayi nazardan, ayniqsa, respublikamiz sharoitida tabiiy iqlim talablariga muvofiq piyoda yo'llar va umumiylar foydalaniuvchi ko'kalamzorlar dam olish zonalarining soya-salqin bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Buni qulay landshaft va iqlim sharoitli tumanlarda ko'kalamzorlashtirish va har xil landshaft qurilmalari yordamida amalga oshirish mumkin bo'lsa, cho'l hamda lalmikor yaylovli tumanlarda turli-tuman mo'jaz me'moriy shakllar

va qurilmalar (soyabonlar, ishkomlar, galereyalar, ko'cha ko'lami ustidan ishlangan voishlar, yaxlit hajmlar va boshqalar) yordamida bajarish mumkin.

Turarjoy hududining rejaviy yechimi muayyan muhandislik omillariga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Masalan, qishloqda ochiq suniy sug'orish tizimi – ariqlar qazilsa, turarjoy hududining rejaviy yechimi to'g'ri chiziqli ko'rinishga ega bo'ladi. Bu omil tog' etagida joylashgan qishloqlarda o'z ta'sirini yo'qotadi, chunki qiyalik joylarda sug'orish shoxobchalari joy relyefiga muvofiq egri chiziqli qilib o'tkaziladi va turarjoy rejasiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Kelajak sug'orish sistemalari yopiq (truboprovodlar bo'ylab) avtomatik sug'orish shoxobchalaridan foydalanilganda turarjoylar rejaviy yechimi mazkur omilga bog'liq bo'lmay, istalgan ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Qishloq turarjoy qurilishiga xos bo'lgan qiyofalardan biri ko'cha perspektivasining uzlusizligi, shakllarning izchilligi, siluetning oddiyligidir. Ko'cha qurilishining xarakterli o'xshashligida unga xos bo'lgan bunday qiyofani boyitish maqsadida xalq me'morchiligi turarjoy binolari qurilishida qo'llanilgan har xil urg'u (aksent)lar kiritish hisobiga amalga oshirilishini taklif qilamiz. Xalq me'-morchiligiga xos qishloq uylarida darvozaxona, unga o'rnatilgan eshik yoki ko'cha eshigi hamda ularning chetlariga ziynatli bezakdor elementlar bilan sayqal berilganligini ko'ramiz. Ko'pincha darvoza ustidan ikkinchi qavatda dam olish xonasi – boloxona qurilib, kirish joyiga savlatli tus berilmoqda.

Qurilishda sifat va sur'atni oshirish, qurilish xarajatlarini kamaytirish hamda qiyamatini yanada arzonlashtirish maqsadida mahalliy qurilish materiallari va noan'anaviy xalqchil uslublar asosida qurishga mo'ljallangan uylarning loyihalarini ishlab chiqish ko'zda tutilishi kerak. Bunday loyihalarda uylarning muhandislik jihozlari va santexnika xonalarining turli xil variantlarda ishlanishiha, oila a'zolari sonining o'sishiga qarab uy-joyning kengayishi va yashash xonalarining ko'payishini hisobga olishga erishish lozim. G'ishtin va yaxlit keramzit beton uylar bilan bir qatorda loydan quriladigan yaxlit konstruksiyalı uylarni shaxsiy uy-joy qurish uchun loyihalash, xalq binokorlik texnologiyasidagi kabi foydalanishga qulay, sodda va mexanizatsiyabop qurilish texnologiyasini

hamda qolipini ishlab chiqish va amalda tatbiq qilish katta ahamiyatga egadir. Turarjoy fasadlarini har xil variantlardagi yechimlari bilan ta'minlash, uyni me'moriy bezaklar bilan bezash, rang qo'llash ishlariga ham katta e'tibor berilishi kerak.

Viloyat arxitektura va qurilish bo'limlari, tuman arxitektorlarida joylarda aholini qishloq uylarining namunaviy me'moriy bezaklari, ko'chalarni va ommaviy dam olish maskanlari – bog'-parklar va xiyobonlarni ko'kalamzorlashtirish, ularda qo'llaniladigan o'simliklar va landshaft kompozitsiyalari, hovli landshaft dizayni yechimlari bilan tanishtiruvchi grafik-albomlar bo'lishi kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirish, loyihalash va qurish tajribasida ularga amal qilish, qishloq arxitekturasi va, umuman, qishloqlarimiz qiyofasini, landshaft arxitekturasi va dizaynini zamonamiz talablarga mos ravishda o'zgartirishga, qishloqlarimizni qayta qurish sur'atini tezlashtiriga yordam beradi.

#### **4.2. O'simliklarning shaharsozlik va landshaft arxitekturasidagi roli va o'rni**

Shahar va qishloqlarimizda aholi turarjoylarining me'moriy badiiy va estetik ko'rinishini shakllantirishda hamda atrof-muhit ekoliqiyasini muhofaza qilishda daraxt va butalarning roli nihoyatda kattadir. Ular me'moriy qimmatga ega bo'lgan binolar, inshootlar, yodgorliklarga soya berishi bilan bir qatorda, ochiq devorlar, to'siqlar, eski binolar, sanoat obyektlarining noestetik ko'rinishini bartaraf etishga ham xizmat qiladi. O'simliklarni atrof-muhit masshtabi va binolarning me'moriy yechimiga mos ravishda to'g'ri tanlash ularga yanada ko'rakm va go'zallik baxshida etadi (4.2.1-rasm).

Daraxt va butalardan tashkil etilgan bog'-parklar hamda xiyobonlar atrofimizdagi olamning o'ziga xos zaruriy tarkibiy qismi bo'lib, keskin kontinental, issiq quruq iqlimimiz sharoitida atrof-muhit tabiiyligini saqlash va uni sog'lomlashtirish vazifasini o'taydi. Yashil maydonlar havo harorati va namligini mo'tadillashtiradi, daraxt hamda butalar bilan qoplangan yashil maydonlarda havo harorati yilning issiq vaqtlarida atrof-muhit haroratiga nisbatan 7–10°C gacha salqinroq va havo namligi esa 20–30% ko'p bo'lishini

ta'minlaydi. Ayniqsa bizning issiq iqlimli sharoitimizda shaharlarda daraxtlarning bu xususiyatlari katta ahamiyatga egadir.

Ignabargli va keng bargli daraxtzorlarning havodagi gaz almashinuvi jarayonidagi ahamiyati ham juda kattadir. Daraxt va butalarning azot oksidi, oltingugurt, ftorli vodorod, kislota bug'i balansini ushlab turishda ham bevosita ahamiyat kasb etadi. Lekin gaz almashinuvi jarayoni hamma o'simliklarda har xil o'tadi. Ayniqsa kengbargli o'simliklarda bu jarayon ignabargli o'simliklarga qaraganda ancha jadal kechadi. Respublikamiz iqlim sharoitida aholi turarjoylari, ayniqsa yilning issiq davrlarida kuchli darajada changlanishi bilan ajralib turadi va bunda uning cho'l hududlarida esadigan garmsel va afg'on shamollarning atrof-muhitga salbiy ta'siri kattadir. Bunday sharoitda daraxt va butazorlarning chang ushlab qolish xususiyatidan foydalaniladi. Daraxtlar qanchalik zich joylashgan bo'lib, barg yuzasi katta bo'lsa, changni shuncha ko'p ushlab qoladi. Ayniqsa daraxtlarning barglari vegetatsiya davri boshida, changni ushlab qolish intensivligi kuchli bo'lib, vegetatsiya davri oxiriga qarab kamayib boradi. Tadqiqotlarga ko'ra ignabargli daraxtlar har yili o'rtacha gektariga 40 tonna changni ushlab qolsa, kengbargli daraxtlar 100 tonnagacha changni ushlab qoladi. Atmosfera kuchli changlanishi kuzatiladigan hududlarda kengbargli daraxtzorlar va yashil maydonlar barpo qilish atmosfera nisbiy namligini ham oshiradi, nisbiy namlikni oshishi esa atmosferaga chang chiqishini kamaytiradi. Shu sababli yirik shaharlarda, sanoat markazlari yaqinida 500 metrgacha radiusda shahar atroflaridan yirik ignabargli va kengbargli daraxtzorlarni yashil maydonlar bilan birgalikda barpo qilish nisbiy namlikni oshirib, atmoferada chang hamda har xil aerozollar va gazlar miqdorining kamayishiga olib keladi.

Daraxt va butazorlarning sanitار-gigiyenik xususiyati fitonsidlik xususiyati, ya'ni kuchli rivojlangan og'riqlarni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarini yo'q qiluvchi moddalarni chiqarishi bilan ham o'ziga xosdir. Masalan, terak barglari o'zidan ichburug' kasalligini qo'zg'atuvchilarni yo'q qiluvchi moddalarni chiqaradi. Ignabargli daraxtlar esa fitonsid ishlab chiqarishda yuqori o'rnlarda turadi. 1 gektar archazor 1 sutkada 30 kg, qoraqarag'ay va qorag'ay 20–25 kg bakteriotsid moddalarni ajratib chiqaradi. Bunday miqdordagi



4.2. I-rasm. O'simliklarning landshaft arxitekturasidagi o'rni va roli.

fitonsidlar katta shaharlardagi barcha mikroblarni yo'q qilish uchun yetarli hisoblanadi. Manzarali daraxtlardan oq akatsiya, soxta kashtan, oddiy qayin, tatar zarangi, qayrag'och, tol, olma fitonsidlarning eng asosiy manbayidir. Daraxtlarning fitonsidlik xususiyati kurtaklash, gullah fazasida va issiq hamda quyosh faolligi ta'sirida yanada kuchayadi. Shuningdek, ignabargli daraxtlarning atmosferani biologik tozalashdagi yashil filtr vazifasi ham juda kattadir. Masalan, rux, kobalt, xrom, mis va molibden kabi kimyoiy mikroelementlarning miqdori havo yaxshi aylanmaydigan, aholi zinch yashaydigan joylarda, transport va har xil chiqindilar ta'sirida atmosfera havosida ko'payishi kuzatiladi. Bu elementlar miqdorining ruxsat etilgan me'yorida ortib ketishi atrof-muhitning ifloslantirishga olib keladi. Bu esa aholining turli kasalliklarga chalinishiga sabab bo'ladi. Bunday hududlarda daraxtzorlarni barpo qilish zararli mikroelementlar miqdorini kamaytirishga olib keladi, ayniqsa atmosferadagi temir va marganes miqdorini kamaytirishda

soxta kashtan hamda maydabargli jo'ka (lipa), temir va mishyak miqdorini kamaytirda esa terak daraxti, mishyak va oltingugurtni tozalashda zarang daraxtining samaradorligi yuqoridir.

Umuman olganda, igna va kengbargli daraxtlar majmuasi, ulardan tuzilgan yashil kompozitsiyalar atmosfera havosini tozalashning eng yaxshi vositasidir. Daraxt va butalarni ayniqsa igna hamda kengbargli daraxtlarni birgalikda ekish, ulardan turli landshaft kompozitsiyalarni yaratish bizning iqlim mintaqamizda yaxshi samara beradi, chunki ko'pincha ignabargli daraxtlarning quruq issiq davrlarda issiqdan zararlanishi kuzatiladi, chunki bu daraxtlar havoning nisbiy namligiga talabchan hisoblanadi. Havo namligini saqlashda kengbargli daraxtlarning roli kattadir. Bu esa ularning bir-biridagi kamchiliklarni to'ldirib, atrof-muhit musaffoligini ta'minlaydi.

Zamonaviy urbanizatsiyalashuv faoliyatining atrof-muhitga kuchli ta'sir etishi natijasida aholining ruhiy holati keskinlashadi, jismoni kuchlanishi esa og'irlashadi, bunday sharoitda daraxtzor va ko'kalamzorlarning inson salomatligi, ayniqsa yosh bolalar va qariyalar sog'ligi uchun ahamiyati kattadir. Katta shaharlarning markazida yirik bog'-parklarni tashkil etish ekologik nuqtayi nazardan eng lozim bo'lgan ishlardan hisoblanadi. Shu sababli shahar va qishloqlardagi jamoat binolarini, ayniqsa o'quv muassasalari hamda ijtimoiy binolarni loyihalashda yashil maydonlarda daraxt va butalarning turli xil majmualarni shakllantirish va ko'kalamzorlar tizimini to'g'ri tashkil etish atrof-muhitni sog'lomlashtirish va ekologik nuqtayi nazardan katta ahamiyatga egadir.

#### **4.3. Shahar va qishloqlarning ko'kalamzorlashtirish tizimi va me'yorlari**

Shahar va qishloq aholi punktlarining ko'kalamzorlar tizimi foydalanishi va ularning qaysi maqsadlarga mo'ljallanganiga qarab 3 yirik guruhga bo'tlinadi: umumiy foydalanishga mo'ljallangan, foydalanishi cheklangan va maxsus maqsadlarga mo'ljallangan ko'kalamzorlar.

*Umumiy foydalanishga mo'ljallangan ko'kalamzorlarga umum-shahar va tuman markazlarining parklari, qishloq bog'lari, xiyo-*

bonlar, skverlar, bulvarlar, shahar maydonlari hamda ko‘chalarining ko‘kalamzor hududlari va piyodalar ko‘chalaridagi ko‘kalamzorlar kiradi.

*Foydalanishi cheklangan ko‘kalamzorlarga* turarjoylar hududlari, sanoat va ishlab chiqarish komplekslarida joylashgan ko‘kalamzor hududlar kiradi. Bularga qishloq turarjoy kvartallari va turarjoy oldi uchastkalari, maktablar, bolalar bog‘chalari, shifoxonalar, kollejlar, sport komplekslari, sog‘lomlashtirish muassasalari hamda korxonalar va jamoat tashkilotlari hududlaridagi ko‘kalamzorlar kiradi.

*Maxsus maqsadlarga mo‘jallangan ko‘kalamzorlarga* esa ko‘cha va transport magistrallari bo‘ylab ekilgan ko‘kammlar, sanitariya-himoya va suv havzalarini muhofaza qilish zonalari, stadionlar, o‘rmon xo‘jaliklari, qabristonlar, gul va ko‘chatlar yetishtiruvchi xo‘jaliklarning ko‘kammlari kiradi. Aytib o‘tilgan ko‘kalamzorlar shahar va qishloqlar hududida muayyan bir tartibda joylashib, zamонави shahar va qishloq ko‘kalamzorlarning yaxlit tizimini tashkil qiladi.

Ko‘kalamzorlar tizimining boshlang‘ich elementi sifatida qishloq kvartallaridagi mayjud turarjoy guruuhlarining hovli bog‘larini yoki mahallalar markazlari qoshidagi bog‘ni ko‘rsatish mumkin. Agar yana ham ichkariroq kirib borilsa, xususiy uy-joylarning hovli bog‘larini eng boshlang‘ich ko‘kalamzor element tarzida ko‘rsatish mumkin.

Qishloq ko‘kalamzorlar tizimining eng yirik zvenosi bu, albatta, umumiy qishloq markaziy parki va qishloq sport parkidir. Qishloq ko‘kalamzorlari tizimining elementlariga yuqoridaqilardan tashqari yana tuman markazi shaharchasining maydonlari, xiyobonlar, skverlar, bulvarlar, ko‘kalamzor piyoda yo‘llar va sohillar bo‘ylab joylashgan bog‘lar ham kiradi. Bu ko‘kalamzor elementlarning bo‘lish-bo‘lmasligi shaharning katta-kichikligi va strukturaviy tuzilishga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Ko‘kalamzorlar tizimining hajmiy tuzilishi va tashqi ko‘rinishiga qarab ularni shartli ravishda ochiq hamda yopiq yashil ko‘kalamzor muhitlarga bo‘lish mumkin. Ochiq yashil ko‘kalamzor muhitlarga manzaraviy parterlar, gulzorlar, maysazorlar va ochiq xiyobonlar, suv havzalari kirsa, yopiq yashil muhitga yopiq xiyobonlar, daraxt


va baland butalardan tuzilgan yashil guruhlar, massivlar, o'rnmon-zorlar kiradi. Yopiq yashil ko'kalamzor muhit – bu daraxtzorlar ichidagi maysazorlar, yo'laklar, xiyobonlardan va, asosan, soya hamda salqin muhitlardan tashkil topadi. Bunday ko'kalamzor muhitda osmon deyarli ko'rinxaydi, hamma joy soya-salqin bo'ladi. Ochiq yashil muhit esa buning aksi, unda soya bo'lmaydi, muhitga quyosh nuri tushadi, muhitdagi barcha landshaft elementlari va osmon ko'rindi.

Yoz paytida kunduz kuni ochiq yashil muhitdagi havoning harorati yopiq yashil muhit havosiga nisbatan issiq bo'ladi. Ma'lumki, sovuq havo vazni issiq havoga ko'ra yengildir. Buning natijasida yopiq yashil muhitdagi nam salqin havo ochiq muhitdagi yengil issiq havo tomon oqadi va uning joyini egallashga harakat qiladi. Havoning bunday tabiiy oqimi, ya'ni havo siljishi oqibatida yopiq va ochiq yashil muhitlar chegarasida yengilgina shabboda yuzaga keladi (4.3.1-rasm). Bu tabiiy voqelikni biz «shabboda samarasi» deb atadi. Kechasi esa buning aksi, ya'ni ochiq yashil muhit quyosh botishi bilan yopiq yashil muhitga nisbatan tezsovub ketadi va shabboda endi teskari tomonga – yopiq yashil muhit tomon harakatlanadi.

Ochiq va yopiq yashil muhitlar orasida sodir bo'ladigan bunday ijobiy havo harakatining qonuniyatidan ko'kalamzorlarni loyiha-lashda O'zbekistonning issiq va quruq iqlimi sharoitida samarali foydalanishni, buning uchun esa shahar ko'kalamzorlar tizimida tashkil etiladigan ochiq va yopiq yashil ko'kalamzor muhitlar maydonining o'zaro nisbatini 1:1 tarzda olishni tavsiya qilamiz.

Qishloq aholi punktlarida ko'kalamzorlar tizimining joylashishi turlicha usullarda bo'lishi mumkin: a) markazlashgan joylashuv; b) qishloq atrofi bo'ylab joylashuv va d) teng taqsimlanib joylashuv (4.3.2-rasm). Ushbu usullar ichida ko'kalamzorlar tizimining aholi punkti hududida teng taqsimlanib joylashuvi eng samarali usuldir.

**Ko'kalamzlarni me'yorlash** – bu aholi punktlarida odam boshiga to'g'ri keladigan yashil maydonni kv. metrda me'yorlash. Yashil maydon deganda o'simliklar, daraxtlar, butalar, gulzorlar, maysazorlar yoki yeryopar o'simliklar ekilgan maydon tushuniladi. Bunday maydonlarni me'yorlash birinchi navbatda aholi punktinining katta-kichikligi va tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liqdir. Agar qishloq



**4.3. 1-rasm. Ochiq va yopiq yashil muhitlar orasidagi shabboda samarasi.**

shaharchasi yirik yoki katta bo'lsa, odam boshiga umumiy foydalanimuvchi ko'kalamlar egallagan yashil maydonlar ham ko'proq, shaharcha yoki qishloq kichik bo'lsa, bunday ko'kalamlar maydoni ham kamroq bo'ladi.

Shaharsozlik loyihalash me'yorlarida foydalanishi cheklangan va maxsus maqsadlarga mo'ljallangan ko'kalamzorlar maydoni me'yoranmaydi, faqat umumiy foydalanuvchi ko'kalamzorlar hududigina me'yorlashtiriladi, deb ko'rsatilgan.

Umumiy foydalanuvchi ko'kalamlar o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'lingan:

- umumshahar ko'kalamlari;
- turarjoy tumanlari ko'kalamlari;
- qishloq aholi punktlari ko'kalamlari.

Har bir ko'kalamlar guruhi uchun alohida yashil maydonlar me'yorlangan. Masalan, qishloq aholi punktlari ko'kalamlari bir kishiga maksimal 12 m.kv. deb belgilangan (1-jadval).

**Umumiy foydalanuvchi ko'kalamzorlar maydoni  
(kv.m/odam)**

<b>Ko'kalamlar</b>	<b>Yirik va katta shaharlarda</b>		<b>O'rta kattalikdagi shaharlarda</b>		<b>Kichik shaharlar va shahar tipidagi posyolkalarda</b>		<b>Qishloq aholi punktlarida</b>	
	<b>Qurilishning I muddatiga</b>	<b>Hisobiy muddatga</b>	<b>Qurilishning I muddatiga</b>	<b>Hisobiy muddatga</b>	<b>Qurilishning I muddatiga</b>	<b>Hisobiy muddatga</b>	<b>Qurilishning I muddatiga</b>	<b>Hisobiy muddatga</b>
Umumshahar yoki qishloq ko'kalamlari	5	10	4	6	7	7	10	12
Turarjoy tumanlarining ko'kalamlari	7	11	5	8	-	-	-	-

Bu me'yorni quyidagi holatlarni e'tiborga olgan holda 20% u yoki bu tomonga o'zgartirish mumkinligi ko'rsatilgan:

a) iqlimiylar sharoitlar (O'zbekistonning janubiy viloyat va tumanlarida yashil maydonlar me'yori shimoliy viloyat tumanlariga qaranganda ko'proq bo'lishi kerak);


b) yashash uchun noqulay sharoitlar (kuchli shamollar, changto'zonlar, qumlar, qor ko'chkilari mavjud aholi punktlarida ko'kalamzor maydonlar miqdori ko'p bo'lishi zarur);

d) ishlab chiqarish va sanoat korxonalarining ko'pligi (bunday korxonalarining ko'pligi ham bir kishiga to'g'ri keladigan yashil maydonlar miqdorini oshiradi);


c) shaharsozlik rejaviy sharoitlari (masalan, qishloqda qurish uchun nobop maydonlar mavjud bo'lsa, ular yashil ko'kalamzordarga aylantiriladi va bundan yashil maydonlar miqdori oshadi).

Shahar va qishloqlarning sisatli va zarur miqdordagi ko'kalamlashtirilish darajasi – bu aholining yashash madaniyatining oshganligi belgisidir. Qaysi aholi punkti yaxshi va sisatli ko'kalamlashtirilgan


a)



b)



d)



- 
- 1 — .....  
2 —   
3 —   
4 —   
5 —   
6 —   
7 —   
8 —   
9 —   
10 —   
11 —   
12 —   
13 —   
14 —   
15 —   
16 —   
17 —   
18 —   
19 —

#### 4.3.2-rasm. Qishloq ko'kalamzorlarini joylashtirish usullari:

- a — markazlashgan joylashuv; b — qishloq atrofi bo'ylab joylashuv;  
d — teng taqsimlanib joylashuv: 1 — qishloq chegarasi;  
2 — turarjoy qurilishi; 3 — jamaot binolari hududi; 4 — qishloq yo'llari;  
5 — xo'jalik ichi yo'llari;  
6 — qishloq jamoat markazi; 7 — umumfoydalanuvchi ko'kalamzorlar;  
8 — kvartallar ichi ko'kalamlari; 9 — mudofalovchi ixota ko'kalamlari;  
10 — xonadonlar hududi; 11 — kommunal hudud;  
12 — omborxona hududi; 13 — ishlab chiqarish zonasasi; 14 — suv havzasasi,  
15 — avtomobil yo'lli;  
16 — zaxiradagi hudud; 17 — sabzavot ekinlari hududi;  
18 — xo'jalik maydonchalar; 19 — issiqxonlar.

hamda obodonlashtirilgan bo'lsa, o'sha yerga aholining qo'chib kelishi va muhim joylashishi kuzatilmoxda.

O'zbekiston tabiatan kam o'rmonzorli va serquyosh respublika, shuning uchun uning iqlimi hamda tabiatni inson tomonidan yaratilgan ko'kalamzorlar va o'simliklarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bu o'lkada soya va suv o'ta dolzarb masaladir. Shuning uchun ham shahar va qishloqlarimizda kam suv sarflab ko'p soyali va salqin maskanlarga ega bo'lish juda muhim masaladir. Bunga erishishning eng oson va tezkor yo'li – bu aholi punktlarini samarali ko'kalamzorlashtirishdir.

Buning uchun esa aholi yashash joylarini landshaft tashkillash-tirishning quyida keltirilgan asosiy tamoyillari va vazifalariga rioya qilish kerak.

Shaharsozlik normalarida O'zbekiston shahar va qishloqlarida soyali yashil maskanlarni yaratish maqsadida 1 hektar hududga 350–400 tagacha daraxt ekish tavsiya qilingan. Bu miqdor mo'tadil iqlimli zonalardagi shaharlarga nisbatan deyarli 2 marta ko'pdir. Daraxtlar sutka davomida fotosintez jarayoni natijasida o'zidan havoga 200 ta odamning nafas olishiga zarur miqdordagi kislородни chiqarish va, ayni paytda, o'shancha odamning bir soatda nafas olishi jarayonida o'pkasidan chiqaradigan 8 kg karbonat angidrid gazlarni yutish imkoniyatiga ega.

Agar 1 hektarni 200 odam soniga bo'lsak, har bir kishiga 50 kv.m. ko'kalamzor yashil maydon to'g'ri keladi. Bu miqdor inson hayoti uchun zarur bo'lgan havodagi kislородни miqdorini saqlab turish imkonini beradi. Tabiiyki, bu ko'rsatkichga ko'kalamzorlarning barcha turdag'i guruhlari (umumi foydalanuvchi, foydalanishi cheklangan va maxsus maqsadlarga mo'ljallangan) ko'kalamzorlar ham kiradi. Kelajakda bu miqdorning ortib borishi kuzatilmoxda.

Masalan, umumi foydalanuvchi ko'kalamzorlar miqdorini yaqin kelajakda o'rta hisobda 1 kishiga 24–26 kv.m ga, barcha ko'kalamzorlar miqdorini esa 50–60 kv. m ga yetkazish masalasi qo'yilgan. Hozircha bu ko'rsatkichlar mos ravishda 14–16 va 40–45 kv.m ni tashkil qilmoqda.

Bugungi kundagi shaharsozlik me'yorlariga ko'ra har bir aholi punkti hududining kamida 60% barcha turdag'i foydalaniluvchi

ko'kalamzorlar tizimi bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Hozircha bu ko'rsatkich, afsuski, respublikamizning ko'pchilik aholi punktlerida 50 foizni ham tashkil etmaydi.

#### **4.4. Aholi yashash joylarini landshaft rejaviy tashkil etishning asosiy tamoyillari va vazifalari**

Shahar va qishloq aholi punktlarining ko'kalamzorlar tizimini loyihalash va tashkil etishda quyidagi *asosiy tamoyillarga* amal qilinishi zarur:

1) aholi punkti hududi bo'ylab *yirik yashil ko'kalamzorlarni teng maromda taqsimlash va joylashtirish*. Mazkur talab eng avvalo umumiy foydalanuvchi ko'kalamzorlarga taalluqlidir;

2) *yashil ko'kalamzorlar tizimining aholi punkti hududi bo'yicha uzliksizligi va uzviyligini ta'minlash*. Ushbu tamoyil bog' va parklarning yashil hududini bir-biriga ko'kalamzor xiyobonlar, ko'chalar, trotuarlar, skverlar, maydonlar va sohillar yordamida bog'lab, ularning yaxlit va uzliksiz umumiy ko'kalamzorlar tizimini yaratish orqali amalga oshiriladi;

3) aholi punkti ichki va tashqarisida joylashgan *ko'kalamzor yashil hududlarni bir-biriga bog'lash va ularni yagona kompleks yechimga keltirish*. Mazkur talabga aholi punkti ichidagi yashil hududlarni funksional va kompozitsiyaviy jihatlardan uning tashqarisida joylashgan ko'kammlar va manzaraviy bog'-rog'lar hududiga qo'yib yuborib seliteb hududning ichigacha kirib boruvchi o'ziga xos yashil «ponalar, belbog'lar»ni shakllantirish orqali erishiladi.

Ko'kalamzorlar tizimini tashkil etishda quyidagi uch asosiy vazifaning hal etilishi zarurdir:

— *funktional vazifa* — turli maqsadlarga mo'ljallangan ko'kalamzor hududlarni tashkil etish, shu jumladan, aholining qulay dam olishi uchun bog'-parklar va boshqa yashil muhitlar tizimini yaratish;

— *sanitariya-gigiyenik vazifa* — shahar muhitining ekologiyasini sog'lomlashdirish va mikroqilimini yaxshilash;

— *me'moriy-badiiy vazifa* — badiiy jihatdan yaxlit va estetik jozibador bo'lgan arxitekturaviy-landshaft muhitini tashkillashtirish va shakllantirish.

Aholi yashash joylarini ko'kalamlashtirish me'yorlari va tamoyillariga rioya qilish, ularni me'moriy-landshaft tashkil etishning yuqorida ko'rsatilgan tamoyillari hamda shakllariga amal qilish shahar va qishloqlarimizning nafaqat ekologik jihatdan toza, iqlimiylar bo'lishligiga, balki madaniy manzaraviy estetik nuqtayi nazaridan ham yaxshi natijalarga erishishni ta'minlashi mumkin.

***Mustahkamlash uchun savollar***

1. *Qishloq aholi punktlari landshaft arxitekturasiga qanday asosiy talablar qo'yiladi?*
2. *Qishloq landshaft arxitekturasining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?*
3. *O'simliklarning shaharsozlik va landshaft arxitekturasida tutgan o'rni va rolini tushuntirib bering.*
4. *Qishloq aholi punktlarini ko'kalamlashtirish tizimi deganda nimani tushunasiz? Uning elementlarini aytib bering.*
5. *Ko'kalamzorlar funksiyasiga qarab qanday asosiy guruhlarga bo'linadi?*
6. *Umumfoydalanuvchi ko'kalamzorlarga qanday landshaft arxitekturasi obyektlari kiradi?*
7. *Foydalanilishi cheklangan ko'kalamzorlarga nimalar kiradi?*
8. *Ko'kalamlarni me'morlash deganda nimani tushunasiz? Ko'kalamlar qanday me'yorlanadi?*
9. *Aholi yashash joylarini landshaft tashkil etishning asosiy tamoyillarini aytib bering.*
10. *Ko'kalamzorlashtirishning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?*

**V bob**  
**LANDSHAFT ARXITEKTURASINING**  
**NAZARIY ASOSLARI**

---

### **5.1. O‘zbekiston sharoitida landshaft arxitekturasida qo‘llaniladigan o‘simliklar va ularni tanlash tamoyillari**

#### **Dars rejasি**

- 1. Daraxtsimon o‘simliklarning turlari.*
- 2. Daraxt va butalarning tabiiy biologik xususiyatlari.*
- 3. Daraxt va butalarning tabiiy shakllari.*
- 4. Daraxtsimon o‘simliklar barglarining manzaraviy sifatlari.*
- 5. O‘simliklarning tanlash tamoyillari.*

**Daraxtsimon o‘simliklarning turlari.** Ma’lumki, landshaft arxitekturasi amaliyotida, asosan, manzarali o‘simliklardan foydalaniladi. Ularga daraxtlar, butalar, lianalar, gullar, o‘li va yeryopar o‘simliklar kiradi. Daraxtsimon o‘simliklarga, asosan, daraxt va butalar kiradi.

Daraxtlar 3 qism: ildizlari, yerdan o‘sib chiqqan yagona tanasi (stvoli) va yuqoridagi asosiy qismi – bargli shox-shabbalaridan iborat bo‘ladi. Butalarda esa daraxtlarnikidek yagona tana bo‘lmaydi, ular, asosan, 2 qism: yerostidagi ildizlari va yerdan o‘sib chiqqan ko‘p sonli ingichka tanalari va ularga birikkan bargli shox-shabbalardan iborat. Daraxtlar butalarga nisbatan baland o‘sadi, uzoq yashaydi va mustahkam bo‘ladi. Biroq, daraxtlar va butalar o‘rtasiga aniq chegara qo‘yish qiyin, chunki ayrim baland butalar, masalan, safora yoki padub xuddi pastqam daraxtlar kabi o’ssa, ayrim past daraxtlarning bo‘yi baland butalarniki kabitir.

Barcha daraxt va butalar ko‘p yillik o‘simlik hisoblanib, doim yashil va bargi tushuvchi guruhlarga bo‘linadi. Doim yashil daraxt va butalar ham o‘z navbatida xvoy tipidagilar hamda bargi yaproqlilarga bo‘linadi. Xvoy tipidagilar doim ignabargli bo‘ladi va gullah davrida gul o‘rniga g‘udda solishi bilan bargi yaproqli daraxt va butalardan ajralib turadi.

O‘zbekistonda o‘sadigan **xvoy tipidagi ignabargli daraxtlarga** biota vostochnaya, yel kolyuchaya, yel golubaya, kiparis orizonskiy,

kiparis bolotniy obiknovenniy, mojjevelnik verginskiy, mojjevelnik zarafshanskiy, sosna krimskaya, sosna obiknovennaya, sosna eldarskaya, sosna chornaya avstriyskayalar kirsa, ***doim yashil bargi yaproqli manzarali daraxtlarga*** magnoliya va ginkgolarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda o'sadigan ***doim yashil butalarga*** mojjevelnik kazaskiy, mojjevelnik turkistanskiy, beresklet yaponskiy, samshit vechnozelyonyi va daraxtsimon tuya zapadnayalarni kiritish mumkin. Bargi tushuvchi manzarali daraxt va butalarning soni juda ko'p va xilma-xildir.

***Daraxt va butalarning tabiiy biologik xususiyatlariga*** ularning balandligi, tashqi ko'rinishi, shakli va rangi, shox-shabbalarining tig'izligi, gullah davri, gullarining rangi, suvsizlikka chidamliligi, yashovchanlik davri kabi belgilari kiradi.

Navqiron daraxtlar balandligiga qarab 1-, 2- va 3-kattalikdagi daraxtlarga bo'linadi:

***1-kattalikdagi daraxtlar*** balandligi 20 m va undan yuqori. Ularga, odatda, yel kolyuchaya, sosna obiknovennaya, sosna krimskaya, iva belaya, topol beliy, platan vostochniy, dub chereshchatiy, klyon ostralistniy, yasen obiknovenniy, lipa krupnolistnaya va boshqalar kiradi;

***2-kattalikdagi daraxtlar*** bo'yи 10 dan 20 m gacha bo'ladi: sosna eldarskaya, klyon polevoy, mojjevelnik, kashtan konskiy, tuya zapadnaya, yasen amerikanskiy va boshqalar ana shunday daraxtlarga misoldir;

***3-kattalikdagi daraxtlar*** bo'yи 5 dan 10 m gacha. Ularga yel kanadskaya, akatsiya lenkoronskaya, klyon ginnala, bagryannik, iva, boyarishnik, sofora yaponskaya, mojjevelnik obiknovenniy va boshqalar kiradi.

***Bo'yи 5 m dan past daraxtlarni manzaraviy xususiyatlariga*** ko'ra, balandligi 0,5 m dan 5 m gacha bo'lgan butalar guruhiiga kiritish mumkin.

Butalarni esa balandligiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin:

— ***baland butalar*** (2—5 m): mojjevelnik obiknovenniy, kalina obiknovennaya, siren obiknovennaya, amorf, biota vostochnaya, akatsiya joltaya, gordovina va boshqalar;

- *o'rtabo'yli butalar* (1–2 m): pion dekorativniy, biryuchina, siren, beresklet, spireya Ven-Gutta va boshqalar;
- *pakana butalar* (0,5–1 m): mojjevelnik kazasskiy, magoniya, spireya bumalda, spireya yaponskaya, ayva yaponskaya, deysiya, snejnoyagodnik va boshqalar.

Daraxtlar ichida quyoshni yoqtiruvchi, ya'ni *soya joyda yaxshi o'solmaydigan* (beryoz, dub, klyon yasenelistniy, yasen, topol, oddiy sosna, olxa chyornaya va boshqalar) va *soyada o'soladigan*, ya'ni soyaga chidamli turlari (kashtan konskiy, yel tatarskaya, lipa, platan, boyarishnik, jimolost, kalina va boshqalar) ham mavjud.

Manzaraviy samaraga erishishning tezkor usuli — bu loyiha-lanayotgan hududga *tez o'suvchi daraxtlar va butalarni* ekishdir. Evkalipt, topol chyorniy, piramidalniy, kanadskiy, balzamicheskiy, osina, aylant, gledichiya, vyaz, klyon yasenelistniy, iva plakuchaya, yasen zelyoniy, oddiy sosna, akatsiya belaya, biryuchina, buzina, chubushnik, jimolost, lox, smorodina zolotistaya va boshqalar ana shunday tez o'suvchi o'simliklardir. Yerning qiyali joylarida tuproqni mustahkam saqlashga yordam beruvchi, ildizi keng va tarqalib o'suvchi o'simliklar borki, ularga klyon polevoy, tatarskiy, akatsiya joltaya, oddiy leshina, kizilnik, boyarishnik, lox uzkolistniy, gledichiya va boshqalar kiradi.

O'zbekiston sharoitida *daraxt va butalarning namlik (suv)ga bo'lgan ehtiyojini* hisobga olish katta ahamiyatga egadir. Bu jihatdan ularni 3 guruhga bo'lish mumkin:

- 1) namlikka talabchan o'simliklar (bolotniy kiparis, ivalar, lapina, topol turanga, olxa chyornaya va bosh.);
- 2) namlikka talabchanligi o'rtacha o'simliklar (barxat amurskiy, beryoz pushistaya, vyaz gladkiy, klyon yavr, klyon ostrolistniy, lipa melkolsnaya, magnoliya, yasen obiknovenniy, yel kolyuchaya, yel serebristaya, tis yagodniy);
- 3) namlikka kam talabchan o'simliklar (ayva yaponskaya, ayland, karagach, akatsiya belaya, amorfa, bryuchina obiknovennaya, boyarishnik, glidichiya, byota, yel kolyuchaya, mojjovelnik virginskiy, mojjovelnik kazasskiy, sosna krimskaya, sosna obiknovennaya).

*Sho'rxok tuproqlarga chidamli daraxt va butalar* borki, ularni bilish ham foydadan holi emas. Solyankalar, chingil, grebenshchik,

saksoul, milnoye derevo kabi o'simliklar xlorli sho'r tuproqda o'sa olish qobiliyatiga ega.

Yasen, lipa, lavr blagorodniy, maslina yevropeyskaya kabilar hatto ohakli tuproqqa talabchan daraxtsimonlardir. Aylant (xitoy yaseni) esa neft bilan ifloslangan tuproqda ham o'sa oladi. Shunday ekan o'simliklarni o'tkazishda tuproqni yaxshilash imkonli bo'lmasa, eng to'g'ri yo'l bu shu tuproqqa mos keluvchi o'simlikni tanlashdir.

Sho'rxoq tuproqlarda o'suvchi daraxt va butalarga yuqorida ko'rsatilgandek yasen, lipa, lavr blagorodniy, maslina yevropeyskaya, ayland kabilar kiradi.

Ma'lumki, daraxt va butalar hududlarni tashqi ekologik ta'sirlardan himoyalash vazifasini ham bajaradi. Ana shunday paytlarda:

— ***shovqindan himoyalanish uchun*** klyon ostrolistniy, oddiy vyaz, maydabargli lipa, oddiy yel, listvennitsa sibirskaya, jimolost tatarskaya, sariq akatsiya, sibir boyarishniklarini;

— ***gazlardan himoyalanish uchun*** klyon pensilvanskiy, leshina, kashtan konskiy, manchjurskaya, gledichaya tryokkolyuchkovaya, topol seriy va chyorniy, topol kanadskiy, oq akatsiya, biota, shelkovitsa belaya, mojevelnik virginskiy, kazasskiy, oddiy biryuchina, lipa voylochnaya va boshqalarni;

— changlardan himoyalanish uchun vyaz peristovetvistiy, iva belaya plakuchaya, kashtan konskiy, kulrang klyon, klyon tatarskiy, polevoy, topol kanadskiy, topol bolle, shelkovitsa belaya, yasen zelyoni i obiknovenniy, akatsiya jeltaya, oddiy biryuchina, lox uzkolistiy, spireya Van-Guttalarni tanlash tavsiya etiladi.

***Shamolni to'sish va hududni soyalash tirish*** maqsadida esa shoxshabbalari tig'iz o'suvchi dub obiknovenniy, kashtan konskiy, klyon ostrolistniy va polevoy, oddiy yel, dub chereshchatiy, gledichiya, magnoliya, maydabargli lipa va boshqalarni tanlash tavsiya etiladi.

O'simliklarni guruhlab ekish uchun tanlashda ularning me'moriy-badiiy xususiyatlari: balandligi, tashqi shakli-shamoyili, rangi, barglarining xususiyatlari, ayniqsa, guruhdagi daraxtlarning bo'yli va tashqi ko'rinishlarining o'zaro kontrast yoki nyuans munosabatlarda bo'lishligiga asosiy e'tiborni qaratish zarurdir.

Guruhlarni shakllantirishda guruh tarkibiga tanlanayotgan o'simliklarning o'suvchanligi va yashovchanligini hisobga olish

zarur, ya’ni daraxtlarning tez o’suvchi xillarini sekin o’suvchilar yoniga hamda quyoshni yoqtiruvchilarni soya beruvchi daraxtlar ostiga ekmaslik lozim.

Daraxt va butalarni loyiha ishlarida qo’llash, ulardan yashil kompozitsiyalar tuzish va ekish uchun tanlash, ularning dekorativ sifatlarini o’rganish va bilish katta ahamiyatga egadir. Ana shunday xususiyatlardan biri ularning tabiiy shakli-shamoili va shox-barglarining tig‘izligidir.

**Daraxt va butalarning tabiiy shakllari.** Manzarali daraxtlarning tabiiy ko‘rinishiga ko‘ra, umumiy tarzda ikki guruhgaga bo‘lish mumkin: geometrik shaklli va nogeometrik shaklli daraxtlar. Birinchi guruhgaga ko‘rinishi piramidasimon, ustunsimon (sabzisimon), tuxumsimon, sharsimon, oval va sfera shaklidagi daraxtlar kirsa, ikkinchisiga – yonlariga tarvaqaylagan, majnunsimon, soyabonsimon, chodirsimon, ikki tanalik va sochilib o’suvchi daraxtlar kiradi (5.1.1-rasm).

Butalar ham tabiiy ko‘rinishiga ko‘ra quyidagi shakllarga ega: cho‘zinchoq oval (spireya), sharsimon (barbaris tunberga), oval (atirgullar), yonlariga sochilgan (mojjevelnik kazasskiy), yonlariga tekis tarqalgan (kizilnik gorizontalniy), konussimon (tuya zapadnaya).


Daraxt va butalarning shakllari fasllarga hamda ularning yoshiga qarab o‘zgarib turadi. Ularga formovka, ya’ni shox-shabbalarini qirtishlash yo‘li bilan turli xil sun’iy shakllar ham berish mumkin. Biroq, barcha daraxt va butalarni o’rta yoshidagi tabiiy shakl-u shamoyillariga qarab quyidagi bir-biridan farq qiluvchi shakliy ko‘rinishlarga bo‘lish mumkin (5.1.2-rasm):

1) yoyilgan (tarvaqaylagan) daraxtlardan – vyaz, dub, dub chereshchatiy, iva, topol beliy; butalardan – shelkovitsa belaya va boshqalar;

2) piramidasimon (konussimon, ustunsimon) daraxtlardan – dub piramidalniy, klyon ostrolistniy, topol piramidalniy; butalardan – tuya zapadnaya, byota va boshqalar;

3) ovalsimon (ellipssimon) daraxtlardan – kashtan konskiy, klyon va boshqalar;

4) tuxumsimon daraxtlardan – lipa voylochnaya, sosna veymutova;



**5.1. 1-rasm. Daraxtsimonlarning tabiiy ko'rinishlari:**

- 1 — yoyilgan shakli; 2 — piramidasimon: a — konussimon; b — sabzisimon;  
 d — ustunsimon; 3 — oval; 4 — tuxumsimon; 5 — teskari tuxumsimon;  
 6 — soyabon; 7 — sharsimon; a — tanali shar; b — buta shar; 8 — majnuntol;  
 9 — chirmoviq; 10 — yer bag'irlab; 11 — yostiqsimon.

5)teskari tuxumsimon — gibiskus sirisskiy daraxti;

6) soyabonsimon daraxtlardan — aylant, albisiya, sosna italyanskaya; butalardan — sipereya Van Guta;

7)sharsimon (tanali va butali turlari mavjud): daraxtlardan — karagach perestovetvistiy, sofora, yabloniya sibirskaya; butalardan — kalina, beresklet, siren va boshqalar;

8) egik, ya’ni majnun shaklli: beryoza povilaya, iva vavilonskaya va belaya daraxtlari;

9) tirmashgan va chirmashgan ko‘rinishli – vinograd, jimolost, glitsiniya, tekoma va boshqalar;

10) yer bag‘irlab yozilib o‘suvchilar – mojovelnik kazasskiy, kizilnik butalari;

11) yostiqsimon – kiparisovik Lavsona, mikrobiyota, kizilnik skuchinniy.

Ayrim daraxtlar, masalan, dub chereshchatiyning har xil – piramidasimon, sharsimon va egik shaklli ko‘rinishlari mavjud.

Bog‘-park yashil kompozitsiyalarini yaratishda o‘simliklarning tabiiy shakllari va balandligidan tashqari shoxlari va barglarining tig‘isligi, barglarning katta-kichikligi, naqsh va rangi ham muhim ahamiyat kasb etadi.



5.1.2-rasm. Yaproqbargli daraxtlarning tabiiy shakllari.  
(L.A. Adilova bo‘yicha).

*Shox-shabbalarining tig‘izligi*, ya’ni massivligi bo‘yicha daraxt va butalar tig‘iz, o‘rtacha tig‘iz yoki tig‘iz emas (siyrak) ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Tig‘iz ko‘rinishli daraxtsimon o‘simliklar me’moriy imoratlar, haykallar va gullovchi butalarga yaxshi

manzarali fon rolini bajaradi, kuchli shamollar va chang-to'zonlardan himoyalanish, soya-salqin muhitlar yaratishda asqotadi. *Tig'iz shoxli daraxtlarga* qayrag'och, kashtan konskiy, klyon ostrolistniy; o'rtacha tig'izliklarga aylant, barxat amurskiy, iva belaya plakuchaya, vavilonskaya, klyon serebristiy, keder livanskiy, orex gretskiy; siyrak daraxtlarga akatsiya belaya, albitsiya, amorfa, gledichiya, drok, sofara yaponskaya, yasen obiknovenniyalar kiradi.

*Daraxtsimon o'simliklar barglarining manzaraviy sifatlarini* (bargining shakli, katta-kichikligi, rangi, rangining fasllardagi o'zgarishi va shoxlardagi joylashishi)ni bilish ham ulardan foydalananish va ko'kalamzorlashtirishda samarali qo'llash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.


Masalan, alohida ekiluvchi yashil kompozitsiyalar – soliterlar uchun o'simliklar tanlashda daraxtlar va butalarning dekorativ sifatlarini bilish asosiy vazifalardan biridir (5.1.2-a, b; 5.1.3-rasmlar).



5.1.2-a rasm. Doim yashil gullovchi butalar ko'rinishi.



**5.1.2-b rasm. Xvoy tipidagi doim yashil daraxtlarning manzaraviy ko‘rinishlari.**  
(L.A. Adilova fotomontaji bo‘yicha).



5.1.3-rasm. Yaproqli daraxtlar va ularning manzaraviy ko'rinishlari.  
(L.A. Adilova bo'yicha).

Daraxt va butalar barglarining tuzilishi sodda va murakkab, ular ham o‘z navbatida ulkan, yirik, o‘rtacha, kichik va mayda-barglilarga bo‘linadi.

***Ulkan barglilarga*** katalpa, aylant, bunduk, magoniya va boshqalar kirsa, ***yirik barglilarga*** yavor, lipa, orex chyorniy, seriy va gretskiy, yasen obiknovenniy, albitsiya, kashtan konskiylar, ***may-dabarglilarga*** spireya, buksus, grebenshchik, drok ispanskiy, beresklet yaponskiy melkolistniy va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari, barglarning yaltiroq yoki fakturali bo‘lishligini ham bilish maqsadga muvosifqdir.

Masalan, magnoliya, samshit, grusha, orex gretskiy va bosh-qalarning bargi yaltiroq bo‘lsa, qayrag‘och turlarining barglari fakturalidir.

Ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan daraxtsimon o‘simliklarni tanlashda ularning barglaridan tashqari, gullarining manzaraviy sifatlariga e’tibor berish ham muhim ahamiyatga ega. Daraxtlardan magnoliya, kashtan konskiy, akatsiya, butalardan ayva yaponskaya, rozalar, siren, forzitsiya va boshqalar o‘ta chiroyli va samarali gullah qobiliyatiga ega.

Gullarining rangiga qarab daraxt va butalarni quyidagi guruh-larga bo‘lish mumkin:

a) turlicha tonga ega bo‘lgan oqchil rangli gullilar: grusha, desiya, katalpa, kashtan konskiy, lomonos, magnoliya, yasen svetochniy, kalina sadovaya va boshqalar;

b) sariq va zabzi rang gullilar: barbaris, drok, zveroboy, lipa, magnoliya, milno derevo, roza joltaya va boshqalar;

d) qizil, alvon va to‘qqizil rang gullilar: abrikos, ayva yaponskaya, boyarishnik, mindal niskiy va boshqalar;

e) havorang, ko‘kish yoki binafsha rangli gullilar: buddleya, glitsinya kitayskaya, gibiskus sirisskiy, lomonos Jakmana, pyure-rariya va boshqalar;

f) yashil rang gullilar: bunduk, glidichiya, ayland va boshqalar.

**Daraxtsimon o‘simliklarning gullah vaqtini va gullab turish davrini bilish ham ularni maqsadga muvosifq tarzda tanlash va qo‘llashga katta yordam beradi: erta bahordan fevralning oxiri – martgacha forzitsiya, bagryanik kanadskiy; bahorda (aprel – may)-**

atirgullilar; yozda (iyun – avgust) – albitsiya, bryuchina blistyashchaya, dibiskus katalpa, gortanziya, sofora va boshqalar; kuzda (sentabr – noyabr) – roza marshinistaya, sipereya sirene svetnaya, gibiskus; qishda – kameliya, zimasvet.

Bir oydan ko‘p gullaydigan daraxtsimon o‘simliklarga: gortenziya poniklaya – 1,5–2; g ertenziya sadovaya – 1; legestremiya indiyskaya – 2; kameliya yaponskaya – 6; rozi remontatniye – 4–5; o‘rta muddatda gullaydiganlarga: ayva yaponskaya 0,5–1 oy, gortenziya derevovitnaya – 1 oygacha, raketnik dlinnovetvistiy – 3–4 hafta, roza mnogosvetkovaya – 3 haftagacha.

Ko‘kalamzorlashtirishda u yoki bu turdan foydalanish uchun ularning ijobiy imkoniyatlardan tashqari ularga xos bo‘lgan salbiy holatlarni ham bilish zarur. Bularga o‘simliklarning hududni o‘z mevalari bilan ifloslashi (topol, shelkovitsa), signalari yoki barglari bilan ifloslashi (platan, gledichiya, yukka) hamda mevasi va barglarining zaharli bo‘lishi (mojjevelnik kazasskiy) kiradi. Ushbu turlarni bolalar bog‘chalari, maktablar va bolalar parklariga ekish man etiladi.

*O‘simliklarni tanlash tamoyillari.* Aksari shahar va qishloqlarni ko‘kalamzorlashtirish amaliyotiga xos bo‘lgan asosiy kamchilik – bu ekilayotgan o‘simliklarni tanlashda o‘rnatilgan umumiy tartibtizim va tamoyillarga rioya qilmaslikdir. Ayrim hollarda tamoman bir xildagi yoki bir nechta o‘simliklar tartibsiz, ularning ekologobiologik xususiyatlari va manzaraviy sifatlari e’tiborga olinmasdan pala-partish tarzda ekilmoqdaki, bu ko‘kalamlashtirish ishlari sifatining pasayib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Shunday ekan har qanday yashil muhitni shakllantirish, eng avvalo, mazkur muhitning funksiyasi, uning qayerda va qanday tuproqda joylashgani, mahalliy tabiiy iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda mazkur muhitga ekiladigan o‘simliklar (daraxtlar, butalar, gullar va boshqalar) tarkibining qanday tanlanishiga bog‘liqdir.

Daraxtlar va ularning manzaraviy-biologik xususiyatlarini o‘rganuvchi maxsus fan mavjud bo‘lib, u «Dendralogiya» deb ataladi.

Landshaft arxitektorlari va bog‘bonlar o‘simliklarni to‘g‘ri tanlash hamda ko‘kalamzorlarni loyihalash va ularni shakllantirish

uchun dendrologiyani yaxshi bilishi hamda o‘z bilimlarini amalda qo‘llay olishlari kerak.

Arxitektorlar landshaft obyektlari va ko‘kalamzorlarni loyihalashda bu obyektlarning vazifasi va muayyan tabiiy-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, ko‘kalamlarni shakllantirish uchun qanday daraxt hamda butalarni va ulardan qanchasini tanlash, ularni loyihalanayotgan obyektning qayeriga hamda qanday usulda ekish, ya’ni ularni ekishda qanday rejaviy landshaft uslubi va kompozitsiyasini tanlash zarurligini bilishi va loyiha-lashi zarur.

Ekiladigan o‘simliklarning barcha imkoniyatlaridan to‘liq va samarali foydalanish uchun ularni tanlashda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilinishi zarur:

— *tanlanayotgan o‘simliklarning ko‘kalamlashtirilayotgan ochiq muhit-maskanning funksiyaviy maqsadlariga mos kelishi*. Masalan, magistral ko‘chaning trotuar qismiga ekiladigan o‘simliklar, eng avvalo, trotuar bo‘ylab soya-salqin hosil qiluvchi va jozibali manzara berishi shart. Ayni paytda ular avtomobillardan chiqayotgan gaz-larga, chang va shovqinga chidamli bo‘lishi ham zarur. Demak, trotuar uchun tashqi ko‘rinishi keng, yaproqli va shoxlari tig‘iz joylashgan, gaz, chang va shovqinga chidamli daraxtlar tanlanishi shart;

— *biron-bir monument yoki memorial yodgorlik atrofidagi skverni ko‘kalamzorlashtirish* uchun esa aksincha, asosiy yashil material bo‘lib, parter tipidagi manzarali maysa yoki gul o‘simliklari ayrim pastqam butalar bilan qo‘sib tanlanishi mumkin;

— *o‘simliklar ekologik xususiyatlarining ular ekiladigan muhit sharoitlariga mos kelishi*. O‘tkaziladigan joyda oldindan mavjud bo‘lgan dekorativ daraxtlarga (agar ular qoldirilsa) yangi tanلانадиган о‘симликлarning mos kelishi yoki tanlanayotgan daraxt va butalarning bir-biriga o‘zaro biologik hamjihatligi, ya’ni biri ikkin-chisining o‘sishiga zarar yetkazmaslik masalalari qarab chiqilishi shart.

Tanlanayotgan o‘simlik (daraxt yoki butalar)ning mazkur hudud tabiiy-iqlim sharoitlariga mos kelish yoki kelmasligi e’tiborga olinishi zarur.

## 5.2. Daraxt va butalardan shakllantiriladigan yashil kompozitsiyalar

### Dars rejasi

1. Daraxt va butalardan tuzilgan yashil kompozitsiyalarning turlari.
2. Soliterlar.
3. Daraxtlardan tuzilgan guruhlar.
4. Butalardan tuzilgan guruhlar.
5. Yashil massivlar.
6. Qatorlar kompozitsiyasi.
7. Chirmashib va tirmashib o'suvchi o'simliklar.

Daraxt va butalardan tuzilgan yashil kompozitsiyalarning turlari. Ko'kalamzorlashtirish materiallariiga yuqorida takidlaganimizdekk, daraxt va butalar, gullar, maysalar, yeryopar o'simliklar, chirmashib va tirmashib o'suvchi o'simliklar — lianalar kiradi.

Landshaft arxitektorlari ko'kalamzorlarni shakllantirishda nafaqat alohida daraxt va butalardan, balki ularning turli xil turkumlaridan ham foydalaniladi. Daraxt va butalarni o'zaro turkumlash, ulardan turli-tuman (muntazam yoki peyzaj ko'rinishli) manzaraviy kompozitsiyalar yaratishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud bo'lib, ular ilm-fanda **manzaraviy yashil kompozitsiyalar** deb ataladi (5.2.1-rasm).

O'simliklardan tuzilgan bunday kompozitsiyalar turlariga quyidagilar kiradi: soliterlar; daraxtlar, butalar va ularni turkumlashdan tuzilgan manzaraviy guruhlar; yashil massivlar; qatorlar kompozitsiyasi; yashil devorlar; tirik yashil to'siqlar; yashil bordyurlar; daraxt va butalarni kuzab ishlangan sun'iy yashil shakllar; chirmashib va tirmashib o'suvchi yashil shakllar.

Endi ushbu kompozitsiyalarning mazmun va mohiyatiga, ularni shakllantirishning qoida va qonunlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**Soliterlar** – bu yakka tartibda ekilgan va alohida noyob, „o'zining manzarasi, tanasining shakl-shamoyili, gullari, o'lchamlari bilan ajralib turuvchi, xushbichim go'zal daraxt va butalardir. Ularga qo'yilgan talablar: o'ta manzarali va xushbichim bo'lishi, atrof-muhiddan qaralganda yaxshi ko'riniib turishi. Soliter kompozitsiyalarini qo'llash daraxt va butalarning go'zalligini alohida namoyish etish, landshaft kompozitsiyalariga favqulotda urg'u

berish, ularni o'zga turlardan ajratish, muhitga tantanavorlik kiritish kabi ehtiyojlardan kelib chiqqan. O'zbekistonda qadimdan choyxonalar va boshqa dam olish maskanlari hududida ana shunday alohida yakkaxon daraxtlar ekilib, ularga piramidasimon tol, ulkan chinor, sharsimon qayrag'ochlar, majnuntollar kirgan. Hozirgi vaqtida soliter kompozitsiyalari uchun kumush archa, qrim qaraq'ayi, lenkoran akatsiyasi, tyulpan daraxti, magnoliya, ustunsimon tuya daraxti, majnuntut, sharsimon akatsiya, kashtan, chatiy va piramidasimon dub qo'llanilmoqda.


**Daraxtlardan tuzilgan guruuhlar kompozitsiyasi.** Boshqa kompozitsiyalardan alohida ekiladigan, tarkibi 2–3 tadan to o'nlab daraxtlargacha bir xil daraxtlar turkumidan iborat bo'lgan (toza guruhlar) yoki tarkibi har xil daraxtlardan tuzilgan (aralash guruhlar), (5.2.4-rasm) maydoni bir necha o'n kvadrat metr dan to 0,25 getktargacha bo'lgan daraxtlar turkumidan iborat yashil kompozitsiya (5.2.2-rasm).

Daraxtlardan tuzilgan toza yoki aralash guruhlar kompozitsiyasi parklarda, skverlar, bog'lar, mahalla ichi ko'kalamlarida, bulvarlarda, davolash va dam olish muassasalari, madaniy va ma'muriy binolar hududlarida yetakchi o'rinni egallaydi. Daraxtlarning guruhdagi tig'izligi ularning biologik xususiyatlariga yorug'likni yoqtirishi, soyaga chidamliligi, o'lchamlari, tuproq va namlikka munosabatiga bog'liq bo'lib, guruhdagi daraxtlar oralig'i 3 metr dan 12 metrgacha, daraxtlarning tur va navlari esa me'moriy-badiiy va manzaraviy talablar asosida shakllantiriladi (5.2.3-rasm).


Guruhlarni shakllantirishda jozibali ko'rinishi va shakllarga ega bo'lgan, tarkibida bargi tushuvchi hamda xvoy tipidagi daraxtlar va ko'rkam gullovg'chi butalar mavjud bo'lgan manzarali aralash guruhlar kompozitsiyasidan keng foydalanish zarur.

Murakkab tarkibili bunday guruhlar, odatda, ko'p yarusli bo'lib, ularda qo'llanilgan daraxtlar o'zining shakli-shamoyili, tusi va balandligi bilan boshqa kompozitsiyalardan ajralib turadi (5.2.5-rasm).


Bu sifat bunday guruhlarning jozibadorligi va manzaraviyligini oshiradi. O'zbekiston «Botanika bog'i» (Toshkent shahri)da olib borilayotgan ishlar, xususan, ekzotik o'simliklarni O'zbekiston sharoiti va iqlimiga moslashtirish, introduksiyalash ishlarining



5.2.1-rasm. Soliter va klumba aralashmasidan tuzilgan kompozitsiya.




5.2.2-rasm. Manzaraviy maysa foniga ekilgan soliter.



*5.2.3-rasm. Parklarning yashil kompozitsiyalari:*

A – muntazam ko’rinishli yashil kompozitsiyalar: 1 – bosket; 2 – guruh;  
 3 – xiyobon; 4 – soliter; B – peyzaj ko’rinishli kompozitsiyalar: 5 – massiv;  
 6 – guruh; 7 – xiyobon; 8 – soliter.



#### 5.2.4-rasm. Sof va aralash guruhlar ko‘rinishi:


1 – sof guruhlar: a, b – yaproqbargli;

d, e – ninabargli; 2 – aralash guruhlar: f – yaproqbargli;

g – ninabargli; h – aralash.


yutuqlari landshaft arxitektorlari ixtiyoriga bu sohadagi ijodiyot uchun katta imkoniyatlar beradi. Ana shu imkoniyatdan unumli foydalanish uchun biz arxitektorlar dendrologiya fanini, landshaft guruhlari va kompozitsiyalarini, ularni yaratishda qo‘llaniladigan me’moriy-badiiy va landshaft vositalardan unumli foydalana bilishimiz zarur.

Manzarali landshaft guruhlarini yaratishda daraxtlarning o‘lchamlari, shoxlarining tig‘izligi, bargi va fazoviy tuzilishi, ularning davriy rivojlanishidagi xususiyatlari: barglanish va bargsizlanish vaqtini, gullash davrini, kuz davrida qanday tusga kirishini e’tiborga olish zarur. Xullas guruhdagi daraxtlarning o‘zaro uyg‘unligiga, kompozitsiyaning yaxlitligini ta’minlashga, rangsizlik, bir xillikdan qochishga, jozibadorlik va yaqqolikka erishish zarur. ***Guruhning manzaradorligini oshirish uchun*** baland daraxtlarni bo‘yi kichikroq daraxtlar ketidan joylashtirish, barglari zikh va tim yashil xvoy daraxtlarini esa och yashil bargli daraxtlar orqasidan, gullari kamroq daraxtlarni yorqin gullovcilar ortidan joylashtirishga harakat qilish kerak. Shox-shabbalari zikh va barglari yirik daraxtlarni bir-biridan uzoqroq, va aksincha, shoxlari siyrak, barglari kichiklarini o‘zaro



**5.2.5-rasm. Guruhlarni yaratish usullari:**

- a – xorovot guruhi; b – hamkorlik guruhi; d – guldasta (buket);
- e – alohida bir navlik siyrak guruhi; f – turli daraxt va butalardan tuzilgan murakkab guruhi; g – turli butalardan tuzilgan alohida guruhi.



**5.2.6-rasm. Daraxt va butalardan tuzilgan guruhan kompozitsiyasiga misollar:**

- a – bir chiziqda 2 tadan ziyod daraxt joylashmasligi zarur;
- b – guruuhda muayyan tur o'simligi yetakchi bo'lishi lozim;
- d – guruuh chekkalarida bargi va gullari manzarali butalar joylashishi zarur;
- e – bir turdag'i guruhlarni yaratishda xvoy daraxtlar va chiroyli gullovchi daraxtlar qo'shilib ekiladi;
- f–g – guruuhlar nafaqt manzaraviy xususiyatiga ko'ra, balki yashovchanligiga qarab ham tanlanishi kerak.

Bir turdag'i guruhg'a misol:

- f – oqtol (6 dona), g – mayda bargli lipa (8 dona):
- 1 – yaproqli daraxtlar; 2 – xvoy daraxtlar; 3 – butalar.

yaqin ekish zarur. Piramidasimon va konussimon daraxtlarni ularga shakli jihatidan kontrast bo‘lgan sharsimon yoki zontik ko‘rinishi-dagi daraxtlar yoniga ekish maqsadga muvofiqdir. Butalarni daraxt guruhlari atrofiga aylana yoki yarimaylana tarzida ko‘rinadigan tomondan ekish zarur. Ular daraxtlar tanasini yopib, guruhni zich va yaxlit ko‘rinish, uning manzaradorligini oshirish, rang va shakllar uyg‘unligini ta’minlashga yordam beradi.

Landshaft kompozitsiyalarida faqat *butalardan tuzilgan alohida guruhlar* ham qo‘llaniladi. Ular ham daraxtlar guruhiga o‘xshab tarkibi bo‘yicha toza va aralash bo‘lishi mumkin. Butalardan tuzilgan guruhlarni daraxt guruhlari orasidagi bo‘sh joylarga, qurilgan bino burchlari, ko‘chalar chetlari, bulvarlar, bog‘-parklardagi yo‘llar chetiga joylashtirish mumkin. Yirik va mayda bargli butalarni och yashil, to‘q yashil qoramtil, zich va siyrak shoxli butalar bilan yilning turli fasllarida turlicha gullovchi, kuz faslidagi barglariga yangi rang beruvchi butalar bilan guruhlashda xuddi daraxt guruhlarini tuzish va shakllantirishdagi qoida hamda uslublar, me’moriy-badiiy va landshaft vositalaridan foydalanish zarur (5.2.6-rasm). Butalarni ekishda buta oraliqlari ularning o‘lchamlari va shakliga bog‘liq holda 1 metrdan to 3 metrgacha olinadi.

O‘zbekiston sharoitida uzoq muddat (fevraldan to noyabrgacha) gullab turuvchi butalardan tuzilgan guruhlarni yaratish mumkin. Buning uchun forzitsiya, bagryanik, bodom, yapon behisi, magoniya, spireya, deysiya, jasmin, boyaiishnik, siren, buldenej kalinasi, drok, veygelya, barbaris, buryuchina, svidinya, buzina, gartenziya, prutnyak, siriya atirguli, gibiskus, chelepsis, budleya, sumoxlardan foydalaniladi.

Atirgullar butalarning alohida turlarini tashkil qilib, ulardan park atirgullari, poliantovik atirgullar, o‘ralib o‘suvchi atirgullar (pletistiye), chaynogibriz atirgullarini bog‘ va parklarning eng manzarali elementlari sifatida soliterlar yoki guruhlar tarzida hamda ulardan alohida guruhlar – atirgulzor (rozariya)lar tashkil etishda foydalaniladi.


Daraxt va butalardan tuzilgan murakkab guruhlarning ko‘p sonli aralashmasi *yashil massivlar kompozitsiyasini* tashkil qiladi (5.2.7-rasm). Ularni yaratish uchun joy hududining tabiiy geografik va iqlimi sharoitlarini chuqur o‘rganish va eng muhim mahalliy

sharoitlarga moslashgan daraxt navlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

a)



b)



5.2.7-rasm. Daraxt va butalardan tuzilgan yashil massivlar:

a — alohibda qismlardan tuzilgan massiv; b — yaxlit massiv.  
Park muhitlari: 1 — ochiq; 2 — yarimochiq; 3 — yopiq muhitlar.

Qo'llanilayotgan daraxtlarning navlari va turlari iloji boricha keng sonli va mahalliy sharoitlarga moslashgan bo'lishi shart. Aralash guruhlar uzoq yashovchan, himoya funksiyasi yuqori va iqlimni yaxshilash, havoni sog'lomlashtirish xususiyatiga ega. Ularning badiiy landshaft, ya'ni jozibadorlik jihatlari ham yuqori. Biroq, ular tarkibidagi daraxtlarning bosh (asosiy) va yondosh (to'ldiruvchi) turlarini ajrata bilish va qo'llash zarur.

Bosh (asosiy) nav (tur)lar – bu eng foydali va jozibador, ekiladigan o'simliklarga qo'yiladigan barcha talablarga, shu jumladan, mahalliy sharoitlarga ham javob bera oladigan navlardan iborat bo'lib, ular guruhdagi daraxt va butalarning 50–60% idan kam bo'lmasligi kerak.

O'zbekistonda qo'llaniladigan bosh, ya'ni asosiy daraxt turlariga ekiladigan tuman va mintaqalarga bog'liq holda dub chereshchatiy, qrim qarag'ayi, soxta kashtan, yasen obiknovenniy, yapon saforasi, virjin mojevelnigi, katalpa velichestvennayalar kirsa, to'ldiruvchi turlariga – teraklar, majnuntol,sovun daraxti, dala klyoni va aylantlar kiradi. Hozirda bosh navlar qatorini kengaytirish maqsadida ularga kanada bundugi, lola daraxti, beryoza, lipa, klyon yavorlarni kiritish, to'ldiruvchi navlarga esa lenkoran akatsiyasi, boyarishnik va boshqalarni kiritish urfga kirgan.

Yashil massivlar va yirik guruhlarning chetlariga ekish hamda ko'zga tashlanadigan joylarga chiroli yashil manzaralar hosil qilish uchun majnun tut, sharsimon va piramidasimon akatsiya, Pissarda slivasini tavsiya etish mumkin. Daraxtlar oldi va atroflariga go'zal gullvochi butalar ekib, yashil massivlar manzarasining sifatini oshirish mumkin.

**Qatorlar kompozitsiyasi** – ko'chalar, yo'llar bo'ylab ariqlar, kanallar sohillariga park va skverlardagi bulvarlar va xiyobonlarga ekiladigan, ko'kalamzor hududlar chegaralari bo'ylab bir qator va ko'p qator ixota daraxtlarini, sanoat korxonalari, qoramollar fermlari, mexanizatsiya bazalari, turarjoylar qurilishi oraliqlaridagi sanitariya-himoya ko'kalamlarini shakllantirishda qo'llaniladigan manzarali landshaft kompozitsiyasidir. Mazkur kompozitsiya O'zbekistonda azaldan keng tarqalgan. O'rta Osiyo bog'-park san'atidagi an'anaviy «Chorbog» uslubida ham daraxtlar aynan ana shu qatorlar kompozitsiyasida ariqlar, hovuzlar, xiyobonlar atrofiga

ekilgan. Yog‘ingarchilik va suv kamchil, issiq va quruq iqlim sharoitida qatorlar kompozitsiyasining roli kattadir.

O‘simliklarni qatorlab ekishning ham o‘ziga xos qonun va qoidalari mavjud. Qatorlar bir, ikki va ko‘p qatorli hamda xiyobon turlariga bo‘linadi.

Qatorlab ekish kompozitsiyasidan foydalanib, tirik yashil devorlar, yashil to‘siqlar, yashil bordyurlarni shakllantirish mumkin. Qatorlar daraxt va butalardan ishlanishi mumkin. Qatordagi daraxtlar yoki butalar navi bir xil bo‘lishi shart.

Qatorlar kompozitsiyasi uchun tanlangan daraxt yoki butalarning bo‘yi va ko‘rinishi bir xil shaklda va yoshda, ularning qatordagi oralig‘i ham bir xil masofada bo‘lishi shart. Qisqasi har bir qator metrik ritm qonuniyatlariga asoslanishi zarur, ya’ni bir navdagisi o‘simlik bir xildagi masofalarga ekilishi kerak. Qatorlarning kompozitsiyasi va tuzilishi transport yo‘llari va ko‘chalarning kesishuvi yoki razvyazkalarda, ko‘chalarning rejasi va binolar qurilishining o‘zgarishiga qarab o‘zgarishi mumkin.

O‘zbekiston aholi punktlarida ko‘chalar bo‘ylab ekilgan qatorlar uchun quyuq soya beruvchi keng shox-shabbali dov-daraxtlar: dub, soxta kashtan, yasen, yapon saforasi kabi daraxtlar tanlanadiki, ular nafaqat ko‘chalar va xiyobonlarga, balki binolar tarzlariga ham soya beradi.


O‘zbekiston ko‘chalarini va xiyobonlarini ko‘kalamzorlashtirishda Yevropa ko‘chalaridagi kabi uslub, ya’ni to‘g‘ri shaklli (piramida, ustun, konus) ko‘rinishidagi va ko‘chalar ustuni yopmaydigan daraxtlar emas, balki ustti yopiq xiyobonlar va ko‘chalarni shakllantiruvchi soyakor daraxtlarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Yashil qatorlar kompozitsiyasiga qo‘yiladigan yuqoridagi talablar aholi punktlari oralig‘idagi yo‘llarga, ariqlar va kanallar bo‘ylab ekiladigan daraxtlarga ham taalluqlidir.

Yo‘llar, ko‘chalar, parklar va bulvarlar bo‘ylab ikki tomonlama qatorlab ekilgan daraxtlar kompozitsiyasi **xiyobon** deb ataladi (5.2.8-rasm).

Xiyobonlar ochiq va yopiq ko‘rinishlarda bo‘ladi. Ochiq xiyobonlar, odatda, piramida, konus va ustunsimon shakllarga ega, yo‘l ustini yopmaydigan va quyuq soya berolmaydigan daraxtlar bilan shakllantiriladi. Bunday xiyobonlar bilan ufqning sharqiy-

g‘arb, shimoli-g‘arb, janubiy-sharq yo‘nalishlari bo‘ylab joylashgan yo‘llar va yo‘laklarni shakllantirsa bo‘ladi. Chunki bunday oriyentatsiyali xiyobonlarda quyuq soya talab etilmaydi.



#### 5.2. 8-rasm. Xiyobonlarning ko‘ndalang kesimlari:

- 1 – ikki qatorli bir yo‘lakli (a); 2–3 – ikki qatorli bir yo‘lakli butali xiyobonlar; 4 – uch qatorli bir yo‘lakli xiyobon; 5 – to‘rt qatorli bir yo‘lakli;
- 6 – uch qatorli ikki yo‘lakli; 7 – to‘rt qatorli bir yo‘lakli butali;
- 8 – basketli xiyobon; 9 – voyishli xiyobon;
- 10 – uch qatorli ikki yo‘lakli yopiq xiyobon.

Yopiq xiyobonlarga esa, aksincha, yo‘lak yoki yo‘l ustini shox-shabbalari bilan to‘liq qoplab olgan va quyuq soya beruvchi dovaraxtlar ekiladi.

Birinchi ko‘rinishdagi, ya’ni ochiq xiyobonlar uchun piramidasimon tol va dub daraxtlari, konussimon va ustunsimon shaklli xvoy daraxtlari: mojjevelniklar, tuyalar, biotalar, sosnalar yoki uncha katta bo‘lmagan, tana tuzilishi tig‘iz daraxtlar – sharsimon va majnun akatsiya, majnuntut, soyabonlilar – lenkoran akatsiyasi, kanada bagryanigi kabi daraxtlar tanlanadi.

Yopiq ko‘rinishdagi xiyobonlar uchun esa shox-shabbalari atroflariga taralgan tig‘iz, baland bo‘yli, yo‘l ustida 10–12 metr balandlikda yashil ravoq hosil qiluvchi: dub, yasen, safora, yunon va qora yong‘oq, soxta kashtan kabi dov-daraxtlar tanlanadi.

Yashil qatorlar kompozitsiyasining xillariga yana ***manzarali devorlar, tirik to‘silqlar va yashil bordyurlar*** him kiradi. Bu xildagi yashil kompozitsiyalarning vazifasi ularning nomlaridan ham ma’lum, ya’ni, asosan, to‘silqlar vazifasini bajaradi.

Ular yo'llar polotnosini ajratish, transport va piyodalar harakati polosalarini bir-biridan chegaralash, yashil bosketlar o'rnatish, ya'ni maxsus maydonlar (bolalar, raqs, sport, dam olish maydonchalarini) kuzalgan yashil devorlar bilan to'sish, gulzorlar chetiga manzaraviy hoshiyalar ishlash, mo'jaz me'moriy shakllar va bog'-park haykallari uchun yashil fon yaratish kabi vazifalar uchun ham qo'llaniladi.

Yashil to'siqlar, odatda, butun, ya'ni yaxlit ko'rinishda, orasidan o'tib bo'lmaydigan holatda ekilishi kerak.

Shu maqsadda tirik yashil to'siqlar uchun butalarni 2–3 qator qilib, qatorlar orasini 0,4–0,5 m, qatordagi butalar orasini esa 0,2–0,5 m qilib ekish kerak.

Yashil to'siqlar shakl berilib kuzalgan yoki erkin holatda o'sishi mumkin. Erkin o'suvchi yashil to'siqlar uchun, odatda, sekin o'suvchi va ko'rkm Gullovchi butalar, masalan Vangutta spireyi va barbaris kabilari tanlanishi mumkin.

O'zbekistonda xonakilashtirilgan bryuchinadan sun'iy shakllar berilib kuzalgan yashil izgorodlar keng tarqalgan (5.2.9-rasm). Amalda ularga istalgan shakl berish mumkin – parallelopiped, oval, trapetsiya, shar va hokazo geometrik shakllar.

Shakllantiriladigan yashil tirik to'siqlar uchun daraxtlardan: majnuntut, qayrag'och, olcha, qizil bargli Pissarda slivasi, grab; xvoy tipidagi daraxtlardan: tuyalar, turli xil mojjevelniklar; ignali daraxtlardan – boyarishniklar, gledichiya, makklyura, yovvoyi olmalar; butalardan – svidina (kornus), bryuchina, jimolist, yapon behisi, tamariks; ignali butalardan – ingichkabargli lox, Tunberg barbarisi (to'q-qizil bargli), poliantoviy atirgullar, sariq akatsiya, tyorn, shipovnik; doimiy yashil butalardan – shamshod, yapon bereskleti, magonyani tanlash mumkin.

Tirik yashil to'siqlar balandligi bo'yicha: baland – 3 metrgacha, o'rta – 2 metrgacha, pastqam – 1 metrgacha va yashil bordyurlar ko'rinishida – 0,5–0,7 metrgacha bo'ladi.

Yashil to'siqlar tarkibiga ko'ra bir, ikki va ko'p xildagi o'simliklardan shakllantirilib, tuzilishiga ko'ra bir xil balandlikda (tekis) yoki turli balandlikda, ya'ni pog'onali ko'rinishda ishlanishi mumkin. Pog'onali yashil to'siqlar uchun bir necha xil butalar qo'llaniladiki, ular balandligi va rangi bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Tekis yashil to'siqlar ustida o'simlikni kuzash yo'li bilan turli shakldagi ritmik joylashgan yashil manzaraviy hajmlar yaratish imkoniyati mavjud.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, yashil to'siqlarni istalgan joyda va maqsadda emas, balki funksional va estetik jihatlardan zarur bo'lgan joylardagina qo'llash maqsadga muvofiq. O'zbekistonning ko'pgina aholi punktlari, ayniqsa qishloq, tuman markazlarida yashil to'siq (izgorod)larni qo'llashni go'yoki shart bo'lgan qonun «shtamp» shaklida tushunilib kelinmoqda: istalgan maydon yoki bino oldidagi parterlar chegarasi, gulzorlar atrofiga biryuchinadan yashil hoshiya (to'siqlar) ishlangan. Vaqt o'tishi bilan ular o'sib atrof-chet manzarasini yoki yo'laklarni yopib qo'ygan, yovvoyi tabiiy muhit manzarasi vujudga kelgan. Yashil to'siqlarni vaqtida kuzab, ularning baland va yonlariga o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bog'-parklardagi yashil dekorativ devorlar bundan mustasno albatta.


**Chirmashib va tirmashib o'suvchi o'simliklar** – lianalardan foydalanish ham O'zbekistonda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Biroq, ularni qishloq aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirishda qo'llash hozirda keng tus olmagan.

Masalan, bunday o'simliklarni bolalar bog'chalari, xususiy hovlilar, maktablar, bog'-parklar va jamoat binolari hovlilarida qo'llash foydadan holi emas. Bunday o'simliklar qatoriga O'zbekistonda amur toki, yapon toki, beshbargli devichiy vinograd, xitoy glitsiniyasi, yapon jimolisti, jimolost kaprifol, klematis, plyush, tekoma va boshqalar kiradi.

Tekis maysazorlar ustida turli shakldagi qalinroq sim yoki yog'och tirgaklarga chirmashib o'suvchi atirgullar, jakman klematisi, jimolost – kaprifollar manzarasi kishiga zavq bag'ishlaydi. Daraxtlar ostidagi soyalik joylarda plyushdan mayssa, quyosh nuri tushadigan maydonlarda esa puerariya, Vixurayan atirguli, amur toki, klematisdan ekib dekorativ maysazorlar hosil qilish mumkin. Binolar devorlarini yashil o'simliklar bilan bezashda, panjarali to'siqlarni, yopiq xiyobonlar, shiypon va ishkomlarni ko'kalamzorlashtirishda tirmashib va chirmashib o'suvchi lianlarning roli katta.

O'zbekistonda dam olish o'rnlari va maydonlarini ko'kalamzorlashtirishda, ishkom, voish, soyabonlarni yaratishda madaniy

tokning o'rni beqiyos. Umuman, ustakor bog'bonlarning bu sohadagi fantaziyalari cheksiz. Bu maqsadda ular yovvoyi toklar, vinogradovniklar, tekoma (kampsis), chirmashuvchi atirgullar, puerariya, glitsiniyalardan keng foydalanishdi.



5.2.9-rasm. O'simliklarni qirtishlash shakllari.

### 5.3. Gulzorlar va maysazorlar

#### *Dars rejasি*

1. Gulzorlar, ularning tarkibi, turlari va shakllari.
2. Gulzorlarni yaratish qoidalari.
3. Klumba va rabatkalar.
4. Guruhlar va soliterlar.
5. Bordyurlar va parterlar.
6. Maysazorlar.

**Gulzorlar, ularning tarkibi, turlari va shakllari.** Landshaft arxitekturasi obyektlarining aksari qismini gulzorlarsiz tasavvur etish qiyin. Gulzorlar bir necha turlarga bo'linib, ularga klumbalar, rabatkalar, guruhlar, maysazorlar foniga alohida ekilgan yoki guruh va massif tarzida ekilgan gulzorlar kiradi.

Alohida ahamiyatga ega bo'lgan jamoat binolari hududlarini: me'moriy yodgorliklar, memoriallar, muzeylar, teatrlar, madaniyat saroylari, konsert zallarining oldilari va atrofini ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladigan gulli yashil parterlar va boshqa landshaft kompozitsiyalarini shakllantirishda jimjimador yorqin gulzorlar va maysazorlardan foydalanish katta ahamiyatga egadir.

**Gulzor** deganda muhim me'moriy obyektlar atrofi va hovlilarini, maydonlar, bog'-parklarni bir yillik hamda ko'p yillik gullar bilan bezovchi har xil kattalik va shakllardagi kompozitsiyalarga ega bo'lgan landshaft elementlari tushuniladi. Gulzorlar tarkibiga, odatda, gullardan tashqari maysalar, yo'laklar, mo'jaz me'moriy shakllar ham kiradi. Xiyobonlar, trotuarlar, maydonlar, memoriallar atrofi, tinch dam olish joylari, sayr qilish yo'laklari, yo'laklar kesishgan joylar va hovlilarni manzaraviy bezashda qo'llaniladigan gulzorlar shakli kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, ko'pburchak, oval, aylana, segment, tasma va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin.

Gulzorlar yashil maysazorlar fonida ishlanganda turlicha o'lcham va shakllarga ega bo'lgan klumbalar, rabatkalar, miksborderlar va bordyurlardan iborat bo'ladi va tarkibi turli shakllardagi gul o'simliklari, yo'laklar va maysazorlardan tuziladi.

Gulzorlar tarkibiy qismlarining o'zaro nisbati, ya'ni xususan gullar egallagan maydon, yo'laklar va maysazorlar miqdori 3:5:8 nisbatda bo'lishligi amaliyotda keng tarqalgan. Keyingi yillarda katta

mc'moriy muhitlar va shahar maydonlariga manzara beruvchi yirik gulzorlar shakllantirilib, ularda, odatda, maysazorlarga ko'proq, gullarga kamroq joy ajratilgan.

O'tgan asrning 60–70-yillarida yirik jamoat binolari oldilaridagi tekis parter maydonlarida shakllantirilgan gulzorlar ichida gilam-nusxa klumbalar, shakli va tuzilishi murakkab geometrik tarzda tuzilgan gulzorlar (masalan, partiya dohiylarining portretlari va partiyaga shon-sharaflar, murakkab arabeskalar kabi gulzorlar) odat tusiga kirgan edi. Hozirgi vaqtida gulzorlar sodda va yaxlit geometrik tuzilishga ega bo'lib, maysalar fonida yorqin, kontrast rangli manzaralar ko'rinishini olmoqda. Toshkent shahridagi yirik jamoat binolari oldi va atroflari, Amir Temur xiyoboni, Mustaqillik maydoni, O'zbekiston milliy bog'i va boshqa yangi bog'-parklardagi gulzorlar buning isbotidir (5.3.1-rasm).

Gulzorlarni shakllantirishda ularning mashtabi va shakliga e'tibor berish, mayda islamiy elementlardan qochish, ranglar garmoniyasiga erishish va ularni yashil atrof bilan uyg'unlashtirish katta ahamiyatga ega. Gulzorlarda tantanavorlikka erishish uchun



5.3. I-rasm. Gullardan tuzilgan massiv va guruhlar kompozitsiyasi.

fon tarzida sof bir turdag'i maysa o'simliklarini ekish, ularni bir rangdagi guldor bordyurlar (hoshiyalar) bilan bezash tavsija etiladi. Monumentlar, memorial yodgorliklar atrofi va oldilarini gulzor-lashtirishda, gullardan axirantes, begoniya grasilis, seloziya, pelargoniya (geran)ni qo'llash, hoshiyalovchi bordyurni sinerariya primorskiy yoki pileyadan ishlash, maysazor uchun esa yashil alternatera yoki raygras pastbischchniy qo'llansa gulzorlarning tantanavor chiqishi ta'minlanadi. Bajarilishi qiyin va tuzilishi murakkab gul naqshlaridan ko'ra ko'rinishi manzarador oddiy gulzor shaklini amalda qo'llash oson va ko'rklidir.

Petunya, verbenya, yozgi georginiya, kann gullaridan ishlangan yirik massiv gulzorlar tagetes otklonyonniy, perilya, sinerariya primorskiydan ishlangan bordyurlar bilan o'ta manzarali ko'rinish beradi. Baland bo'limgan bir turli toza rangli bir yillik gullar yorqin gulzorlar kompozitsiyasi uchun yaxshi material hisoblanadi.

*Gulzorlarni yaratish qoidalari* mavjud bo'lib, ular, asosan, quyidagilardan iborat:

1. Gulzorlarning eng yorqin, diqqatni o'ziga tortuvchi qismi – bu markaziy klumba hisoblanib, u gulzorning o'rtasida joylashishi shart. Klumbalar yodgorlik, monument va basseynni chegaralovchi yoki maysazor fonida ishlangan alohida landshaft kompozitsiyasi tarzida bo'lishi mumkin.

2. Gulzorlarda qo'llanilgan gul shakllari maydalashib, bir-biriga aralashib ketmasligi kerak, zero ular yaxlitlikni buzishga sabab bo'ladi. Yaxshisi yirikroq rasm va oddiyroq shakllarga ega bo'lgan gulzorlarni shakllantirish zarur.

3. Gulzorlarda guldor shakllarning ko'p sonli bo'lmasligi, atrof-lari ko'proq maysazor va hoshiyalar bilan bezatilishi va holilash-tirilishi kerak.

Gulzorlarni yaratishda ularning barcha turlaridan: klumbalar, rabatkalar, ornamentlar, guruhlar, bordyurlar, massivlar, soliterlar-dan foydalanish tavsija etiladi. Quyida gulzorlarning ana shu turlari ustudi kengroq to'xtalib o'tamiz.

**Klumba va rabatkalar.** **Klumba** – gulzorlarning bir qismi yoki shu nom bilan ataluvchi alohida gulzor kompozitsiyasidir. U turli geometrik tugal shakllarga ega bo'lgan, o'rta qismi va chekkalari atrofidagi maysazor yoki yo'laklardan biroz baland, markazidan

atrollariga qisman qiyalik hosil qiluvchi va sof manzaraviy (turli rangdor gullar, barglari manzarali) o'simliklardan shakllantirilgan gulzordir (5.3.2–5.3.3-rasmlar).

O'zbekistonning quruq va issiq yozgi sharoitida klumbalar doimiy sug'orishni talab qiladi. Shuning uchun ham bizda klumbalar yuzasini, odatda, tekis yoki hatto biroz cho'ktirilgan sathda ishlashadi.

Bunday tekis yuzali klumbalarning o'rta qismi hunuk ko'rmasligi uchun ularning markaziy qismiga bo'yи balandroq gullar va o'simliklar, haykallar yoki sopol vazalar, chet qismlariga esa pastqam manzarali o'simliklar ekiladi.

Klumba chegarasi maysa bilan yoki doim yashil bereskletdan ishlangan bordyur bilan hoshiyalanadi. Hozirgi vaqtida maysazorlar toniga ekilgan chetlari dandona shaklidagi ritmli shlakobeton hoshiyalar bilan chegaralangan romb yoki doira shaklidagi klumbalar keng tarqalgan.


Alohiba tantanavor joylarda (memorial kompozitsiyalar, monumentlar va h.k.) klumbalarning chetlarini dekorativ tabiiy toshlardan, ayniqsa ochiq qizg'ish rangdagi toshlardan ishlangan bordyurlar bilan hoshiyalash an'ana bo'lgan.

Klumbalar ularda qo'llanilgan o'simliklarning qaysi guruhga mansub ekanligiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:


1. Gilamsimon ko'rinishli, ya'ni sathi tekis pastqam gullovchi yoki yaprog'i manzarali turli rangdagi o'simliklar ekilgan klumba. Ularda o'simliklar balandligini bir tekisda tutish va yaqqol figurali gulzor shaklini saqlash maqsadida o'simliklar qirtishlab turiladi (5.3.3-rasm).

2. Gulli klumbalar, tarkibi, asosan, yirik gullovchi o'simliklardan tuzilgan, qisman yaprog'i manzarali, bir yillik va ko'p yillik ochiq muhitda qishlovchi va qishlamaydigan o'simliklardan tuzilgan klumba. Bir yillik o'simliklar ikki xil: tuxumli va tuxumsiz bo'ladi.

O'zbekistonda o'simliklarning gullashi fevral oyining oxiri – mart oyining boshidan (viola, margatirka) to noyabrning o'rtalarigacha (mayda gulli xrizantemalar) davom etadi. Ana shu davr ichida eng muhim obyektlardagi klumbalarga ekilgan o'simliklar uch martagacha (viola, gullovchilar yoki yaprog'i manzarali; mayda gulli xrizantemalar ketma-ketligida) o'zgartiriladi.



5.3.2-rasm. Soat shaklidagi klumba.



5.3.3-rasm. Gulzorlar bilan bezatilgan ulkan maysazor – parter.  
Uning oʻrtasida doira shaklidagi yirik klumba, uning markazida  
esa soliter-butga joylashgan.

**Rabatka** – uzun gryadkalar, tasma ko‘rinishdagi chiziqli gulzor bo‘lib, asosan, gullovchi yoki yaprog‘i manzarali o‘simliklardan ekiladi. Boshqacha aytganda, rabatkalar – bu uzun chiziqli tasma gulzorlar bo‘lib, yo‘laklar va xiyobonlar, maydonlar atrofi bo‘ylab ekiladi (5.3.4-rasm). Ularning eni va uzunligi turlichcha bo‘lib, rabatkalarning qayerga va nima maqsadda ekilganligiga bog‘liq. Rabatka sathi, odatda, tekis bo‘ladi. Rabatka eni 3 metrgacha bo‘lgan tasma ko‘rinishdagi, gulzor ichiga 5–8 qator ko‘p yillik yoki 8–13 qator bir yillik gulli yoki yaprog‘i manzarali o‘simliklar ekiladi (5.3.5-rasm).

Ko‘p yillik o‘simliklardan ishlangan rabatkalar gulzorlar chetlariga, ularga hoshiya-ramka tarzida ekiladi.

Rabatkalar joylashgan joyi va ishlanishiga qarab bir sathli hamda ikki sathli bo‘lishi mumkin. Bir sathli rabatkalar yo‘laklar va xiyobonlar chetlarida zabor yoki imorat yoniga, ikki sathlisi esa xiyobonlarning o‘rtasida joylashgan bo‘ladi.

Uzun rabatkalar zerikarli bo‘lmasligi uchun bir necha bo‘laklar va qismlarga bo‘linadi. Ularning orasiga tarhi kvadrat yoki aylana shaklidagi kichik klumbachalar, yo‘laklar, katta o‘lchamli pastqam o‘simliklar (palma, drasena, banan, agavalar) ekiladi. Ular davomli, uzun rabatkalarini o‘ziga xos ritmlar va aksentlar bilan bezaydi.

**Guruh va soliterlar.** Guruh – bu gulzorlarning bir qismi, gulli o‘simliklarning o‘ziga xos shakli, odatda, bir xil yoki bir navdagisi o‘simliklardan ekilgan guruh kompozitsiyasini tashkil qiladi.



5.3.4-rasm. Maysazor sonidagi rabatka gulzori.



5.3.5-rasm. Yo'l bo'ylab tortilgan ikki yarusli rabatkalar.

Guruhlар uchun aksari hollarda baland o'suvchi gullovchi o'simliklar tanlanib, ular, odatda, bir-biriga yaqin qilib ekiladi.

Guruh kompozitsiyasi maysazorlar fonida yoki gulzor elementi tarzida ekilgan bo'lishi mumkin.


Guruhlар tarkibidagi o'simliklar xiliga qarab toza yoki oddiy, aralash va murakkab tuzilishda bo'lishi mumkin. Bir turdagи gullardan tuzilgan guruhlар oddiy (toza), har xil gullardan tuzilsa aralash deb ataladi (5.3.6 -rasm).

Guruhlар joylashishiga qarab ikki xil:

1. Devor oldi guruhlari – devorlar, to'siqlar, daraxtlarning tanalari va yomon ko'rinaridan predmetlarga yashil manzara berish uchun qo'llaniladi. Buning uchun baland o'suvchi o'simliklar (kleshchevina, qirqilgan bargli rudbekiya, baland o'suvchi kannlar) qo'llanadi.

2. Erkin o'suvchi guruhlар – maysazor ustida erkin tabiiy landshaft holatida yoki muntazam tartibda ekilib, ular uchun balandligi turlichа bo'lgan o'simliklar tanlanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, guruhlар, odatda, bir tur yoki bir navli o'simliklardan zarur hollarda esa bir nechta (2-3) tur va



**5.3.6-rasm. Yashil hoshiyalar bilan bir necha qismlarga bo'lingan gulzorlar guruhi.**

navlardan tuzilib, balandligi, rangi-ro'yi, shakli, shox-shabbalarining tig'izligi va boshqa manzaraviy xususiyatlariga qarab, o'zaro uyg'un, kontrast yoki nyuans bog'lanishlarda yaratiladi (5.3.7-a rasm).

**Soliter** – bir yillik yoki ko'p yillik o'simliklardan maysazor, gulzor yoki maydon fondida alohida ekilgan yakkaxon kompozitsiyadir. U parklar yoki skverlarda, guruhlar, klumba, rabatka, mo'jaz me'moriy shakllardan alohida masofada, yakka tartibda ekiladi.

Soliter kompozitsiyasiga qo'yiladigan talablar:

- soliter uchun tanlangan o'simliklarning har tomonlama go'zal bo'lishi, agar buning uchun manzarali yaproqli o'simliklar tanlansa, ularning tig'iz bargliligi, go'zal qomati, shaklining noyobligi, barglarining rangdorligi, agar gullovchi o'simliklar tanlansa, ular to'la-to'kis va davomli gullab turish kabi xislatlarga ega bo'lishi zarur;

- soliterlar uchun tanlangan joy har tomondan yaxshi vizual ko'rinishidan bo'lishi kerak.




5.3.7-a rasm. O'rmonzor ichidagi gulzorlar guruhi.

Soliter kompozitsiyasi guruuhlar kabi nafaqat gullovochi yoki manzarali bargli o'tli o'simliklardan, balki go'zal va xushqomat daraxt va butalardan ham shakllantirilishi mumkin (5.3.7-b rasm).

**Bordyurlar va parterlar.** **Bordyur** — gulzorlarning bir qismi, gullovochi o'simliklar kompozitsiyasining shakli. Klumbalarning chetlariga, yo'laklar, rabatkalar, maysazorlar, xiyobonlar bo'ylab bir yillik yoki ko'p yillik gullovochi yoki yaproqsimon manzarali o'tli o'simliklardan ekiladigan tasma ko'rinishidagi kompozitsiya (5.3.8-rasm).

Ayrim hollarda, to'g'rirog'i gulzorlar chetlaridagi bordyurlarni hoshiya yoki ramka deb ham atashadi. Ular gulzorlar ko'rinishiga tugal bezak va manzara beradi. Bordyurlarning eni ular uchun tanlanadigan o'simliklarning turlari va bordyurning qayerga ishlanihiga qarab 10–40 sm, o'simliklarning qatorlar soni esa 1–5 ta gacha bo'ladi. Qatorlarga gullovochi, gilamnusxa, bir yillik yoki ko'p yillik, bo'yi pastqam (25–35 sm gacha), bargi manzarali o'tli o'simliklar ekiladi.




5.3.7-b rasm. Maysa fonidagi klumba va soliterlar.

Bordyurlar ko'kalamlashtirilayotgan hududlarni manzaraviy va me'moriy badiiy bezash uchun ham xizmat qiladi. Bunday hollarda ular oddiy va murakkab turlarga bo'linadi (5.3.9-rasm).



**5.3.8-rasm. Oddiy yashil bordyurlarda o'simliklarning joylashishi:**

- 1 – ikki yarusli uch qatorli; 2 – uch yarusli uch qatorli;
- 3 – ikki yarusli uch qatorli; 4 – to'rt qatorli;
- 5 – ikki yarusli to'rt qatorli.



**5.3.9-rasm. Murakkab bordyurlarga misollar:**

- 1 – ilon izli soliter kompozitsiyali bordyur (a);
- 2 – uyali soliterli bordyur (a); 3 – yarimayylanali soliterli (a) bordyur;
- 4 – kontrastga asoslangan kvadrat urg'uli chiziqli bordyur (a).

**Parter** – binolar oldiga, bog‘-parklarga kirish yoki ular hududida qo'llaniladigan tantanali tekis gulzor yoki maysazor kompozitsiyadir.

Parterlar gulzor kompozitsiyasi bilan tashkillashtirilgan va yaxlit birlashtirilgan bir necha elementlardan tuziladi. Parter elementlari – maysazor, maxsus tanlangan manzaralni o'tli va gullovchi o'simliklar, yo'laklar, mo'jaz me'moriy shakllar (5.3.10; 5.3.11; 5.3.12-rasmlar).

Parterlarda o'zining yorqinligi va manzaraviyligini uzoq saqlaydigan klumbali va rabatkali maysazorlar asosiy o'rinni egallaydi.

Keyingi yillarda muhim jamoat binolari yonidagi ko'chalar, chorrahaldargi maydonlar, asfalt va beton yopmalar, to'shamalarni yashil va yorqin ranglar bilan bezash maqsadida muhitga manzaraviy samara beruvchi ko'chma gul vazalari va guldönlar qo'llanmoqda. Bunday guldon va vazalar quymabeton yoki plastmassalardan ishlanmoqda. Ularga, odatda, tayyor o'simliklar ekiladi. Buning uchun O'zbekiston sharoitida pelargoniya, petuniya, xlorofitum, setkreatziya, begoniya, gratsilis, shprenger asparagusi yoki pilelar birgalikda ekiladi.

Gulzorlarning u yoki bu shakli, kompozitsiyasini yaratishda o'simliklarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga egadir. Bu masalada, o'simliklarning biologik – manzaraviy xususiyatlari va agrotexnikasini bilishdan tashqari, arxitektorlar yuksak badiiy did va kompozitsiyaviy ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari zarur.


Parter va gulzorlar uchun o'simliklarni tanlashda ularning balandligiga e'tibor qaratish zarur. Agar gulzor markazida yodgorlik yoki boshqa biror me'moriy tik qurilma turmagan bo'lsa, gulzor markaziga bo'yi baland, ko'rinishi samarali o'simliklar, masalan, agava, palma drasena, banan va boshqalar, gulzorlarning chetroq qismlariga pastroq bo'yli va uning chekkasiga esa eng pastqam o'simliklar tanlanadi. Bunday joylashishda o'simliklar bir-birini to'smaydi va gulzor (klumba) juda samarali ko'rinish oladi.

Gullash davri va vaqtiga ko'ra o'simliklarni tanlashda eng erta gullovchi va davriy uzoq gullovchi o'simliklarni tanlash ma'qul.

Mustaqillik yillarda Toshkentda va viloyat poytaxtlarida oranjereyalar hamda issiqxonalarda oldindan maxsus tuvaklar yoki torfli xaltachalarga ekilgan (pelargoniya, begoniya, salviya, pilian-tovoy atirgullar, axirantes, setkreaziya, xlorofitum, beresklet, shprenger asparagisi kabi) gullar va o'simliklardan foydalanish ularni ekish ishlarining tugashi bilanoq yaxshi manzaraviy samara bermoqda. Guli yoki bargining rangiga qarab o'simliklarni tanlashda eng chiroyli va jimjimador gul manzaralarini beruvchi o'simliklarni tamlash maqsadga muvofiqdir.

Parter uchun gullarni ranglari bo'yicha tanlashda quyidagilarga rivoja qilish tavsiya etiladi:

- a) ranglar kontrasti;
- b) ranglar nyuansi qonuniga;



### 5.3.10-rasm. Parterlarning turlari:

A — tarixiy parklarga xos parterlar; 1 — arabeskali parter; 2 — naqshinkor (ornamental) parter; 3 — inglizcha parter; 4 — gilamnusxa parter;

B — zamonaviy parterlar: 5 — gulzor parter, 6 — maysali parter;

7 — maysali va gulli asimmetrik parter; 8 — modulli parter.

d) neytral tonlar ahamiyatiga.

Ranglar kontrasti qonuniga ko‘ra eng chiroyli gullarning biri-kuviga erishishga harakat qilinadi. Qizil gulni unga kontrast bo‘lgan yashil gul bilan, to‘q sariq gulni ko‘k gul bilan, sariqni binafsha



5.3.11-rasm. Maysali va gulli naqshinkor parter.



5.3.12-rasm. Arabeskali va naqshikor yirik parterlar.

gul bilan yonma-yon ekadi. Qizil, to‘q sariq va sariq gullar eng faol, issiq ranglardir. Ular ichida to‘q sariq eng issiq hisoblanadi. U o‘ta jozibador, diqqatni jalb qiluvchi, issiq muhit hosil qiluvchi rangdir. Yashil, ko‘k, binafsha ranglar esa – passiv, sovuq ranglar hisoblanadi.

Ular ichida ko‘k rang sovug‘idir. Bu kabi tonlar gulzorlarga qat’iylik baxshida etadi.

Konrastlilikni biroz yumshatish uchun kontrast beruvchi gul guruhlari orasiga neytral tonli gullardan ekiladi. Hamma qoramtil (to‘q qizil, to‘q ko‘k, to‘q sariq) rangdagi gullarni tomoshabinga yaqin joylashtiriladi.

Ranglar nyuansi qonuni barcha rangdagi tonlarning sekin-asta o‘zgarib borishini bildiradi, ya’ni ranglar bir-biriga kontrast emas, balki bir rangning turli tonlari, yo to‘qlashib yoki oqarishib boradi. Ushbu qonunga asoslanib, klumbalarni gullar bilan bezashda istalgan rangdagi gulning turli tonlarini qo’llash mumkin.

Klumba gulzori agar unda ekilgan gullarning rangi gulzor chetidan o‘rtasiga qarab to‘qlashib borsa, buning teskarisiga ko‘ra chiroyli va fayzli chiqadi.

Neytral tonlar ahamiyatini ham e’tiborga olmoq kerak. Neytral ranglar – bu oq va qora ranglardir. Oq rang va uning turli tonlari uzoqdan ham yaxshi ko‘rinadi, ularni ko‘pincha konrast ranglarni qisman yumshatish uchun qo’llashadi. Oq rang dissonans ranglarni yumshatadi, disgarmoniyani yo‘qotadi. Masalan, agar qizil va binafsha ranglar o‘zaro to‘qnashsa ular og‘ir, bejirim ko‘rinadi, ular orasiga oq rang qo’shilganda esa bu manzara ancha yumshatiladi, neytrallashadi.

**Maysazorlar** – bu tabiiy yoki sun’iy tarzda yaratilgan, ajir maysa o‘tlar bilan yopilgan yashil maydondir. Maysazorlar funksiyasi va ahamiyatiga qarab ikki xil: manzaraviy va maxsus maysazorlar guruhiга bo‘linadi (5.3.13-rasm).

Manzaraviy maysazorlar guruhiга parter maysazorlar, o‘tloq maysazor va chiroyli gullovlari ko‘p yillik maysazorlar kiradi. Maxsus maysazorlar guruhiга sport maydonlarining maysazori, magistral ko‘chalarda transport va piyodalar harakatini ajratuvchi trotuarlar bo‘ylab tashkillashtirilgan maysazorlar, qiyaliklar va qirlarni mustahkamlovchi maysalar, qabriston maysazorlari va hokazolar kiradi.

Parter maysazorlar, odatda, tekis bo'lib, park va bog'lar oldilari hamda boshqa tantanali joylarni ko'kalamzorlashtirishda hamda gulzor fondini tashkil etuvchi maysalardir. U o'ta sifatli, o'tlari barxatsimon, rangi bir xilda, yuzi o'ta tekis, bo'yи pastqam, barglari tig'iz bo'lishi shart.

O'tloq, ya'ni lugovoy maysalar keng maydonlarni egallaydi. Ularni, odatda, parklar, o'rmonzor parklar (lesoparklar), lugoparklarning keng ochiq yashil maydonlarini va peyzajli qismlarini ko'kalamzorlashtirishda qo'llashadi.

Maysazorlar ikki xil uslubda: maysa tuxumini ekish va chimlashtirish orqali yaratiladi. Tekis joylarni maysalashtirishda maysa tuxumini ekish uslubi, qiya va qirlik joylarni maysalashtirishda esa chimlashtirish usuli qo'llanadi. Maysa tuxumi yaxshi tayyorlangan tekis tuproqqa sentabrdha, oktabr boshlarida yoki erta bahorda — fevralning oxiri martning boshlarida ekiladi. Ekilishi me'yori 1 kv m maydonga 10—12 gramm. Maysa ekilgan joy boshlang'ich



5.3. 13-rasm. Relyefli maysazor ko'rinishi.

ikki-uch hafta davomida muntazam sug‘orilib turiladi. Parter tipidagi maysalar har 2 haftada, lugovoy maysalar esa har oyda bir marta qirtishlab turiladi. Maysa o‘simliklarga O‘zbekistonda, asosan, kanada grin, raygras pastbishniy, ovsyanitsa lugovaya, palchatnik, myatnik lugovoy qo‘llaniladi.

Hozirgi vaqtida maysalar tuxumi magazinlarda maxsus upakovkalarda sotiladi. Upakovkalar ustiga ularni ekish qoidalari va me‘yorlari yozib qo‘yiladi.

Maysalar o‘rniga ko‘p hollarda yeryopar o‘simliklardan ham foydalaniladi. O‘zbekistonda o‘sadigan yeryopar o‘simliklarga beresklet pochvopokrovniy, paprotnik, barvinok, badan, dyusheniya indiyskaya, ofiyapagan yaponskiy, zemlyanika lesnaya, viola gibrnidnaya, barxatsi otklonyonniy kabilar kiradi.

#### **5.4. Bog‘-park kompozitsiyalari va peyzajlarni yaratishning badiiy-me’moriy va landshaft vositalari**

Bog‘-park peyzajlari bog‘da sayr qiluvchilar kayfiyatini ko‘tarish, tabiatdan zavqlanish va his-hayajon tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Peyzajlar hajmiy tuzilishga ko‘ra ochiq, yarimochiq, yarimiyoq va yopiq ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Yopiq peyzaj soya-salqinga boy, dov-daraxtlar bilan ko‘kalamlashgan, osmon yoki bulutlar deyarli ko‘rinmaydigan yashil sayrgoh – o‘rmonzordir. Ochiq peyzaj esa buning aksi, soya unda deyarli yo‘q, tarkibi maysazor, gulzor, suv havzalari va yo‘laklardan tashkil topadi.

Bog‘-park peyzajlarini yaratishda bir xillikdan qochish kerak, ya’ni parkda sayr qiluvchilar turli xil peyzajlar orasidan o‘tishi, park «ssenariya»lari va «kartina»larini tomosha qilishi, ularni ko‘rib ko‘ngli yayrashi lozim.

Umuman olganda, bog‘-park peyzajlari parklarning me’moriy-rejaviy tuzilishiga bog‘liq bo‘lib, ular yuqorida II bobda ta’kidlaganidek, muntazam simmetrik, erkin tabiiy peyzajli yoki aralash yechimlarda ishlanishi mumkin.

Park muntazam simmetrik yechimda shakllansa, unda maysazor va gulzorlardan tashqari ko‘proq qatorlar, xiyobonlar, soliter, guruhlar, massiv kabi yashil landshaft kompozitsiyalari, agar park

peyzaj, ya’ni erkin tabiat uslubida shakllansa guruhlar, xiyobonlar, soliter va massivlar qo’llaniladi.

Bog‘-park peyzajlari, shuningdek, peyzaj ssenariya va kartinalarini yaratishda arxitekturadagi kabi bog‘-park san’atida ham badiiy me’moriy va kompozitsiyaviy vositalardan foydalaniladi. Ularga simmetriya, ritm, qator, kontrast, dominant, perspektiva kabilar kiradi.

**Simmetriya** – bir xildagi bog‘ elementlari va o‘simliklarning rejaviy o‘qlarga yoki shartli tekislikka nisbatan muntazam tartibda barobar joylashishidir. Bog‘-park san’atining simmetrik kompozitsiyalaridagi bunday barobarlikka bog‘ elementlari va ular joylashgan oraliqlarning tengligi tufayli erishiladi.

**Ritm** – takrorlanuvchi elementlar va shakllarning bir-biriga mos kelishligini, takrorlanish tartibi hamda taktini, nazokati hamda maromini bildiradi. Ritm – bir xil tipdagi elementlar, shakllar, o‘simliklar, harakatlar, ranglar, tovushlar yoki jarayonlarning zamon yoki makonda muayyan bir tartibda, davriy takrorlanishi yoki joylashishidir. Ritmdan samarali foydalanish uchun uning turlari va ularga xos xususiyatlarni bilish zarur.

Landshaft arxitekturasida ritmnинг ikki turi mavjud: 1) o‘simliklarning biologik xususiyatlari (barglari, shoxlari, gullari va ularning rangi) bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy ritm va 2) badiiy ritm, ya’ni o‘simliklarning qatorda muayyan tartibda takroriy joylashuvidan hosil bo‘lgan ritm. Biroq, qatorda bir xil o‘simliklarning uzlusiz birday takroriy joylashuvi ham inson medasiga tegishi mumkin. Shuning uchun ham landshaft ritmini badiiy boyitishning quyidagi usullari mavjud:

- takrorlanuvchi elementlar sonini oshirish, ular tarkibiga tabiiy va me’moriy elementlar kiritish, ularning materiali, rangi va fakturasini o‘zgartirish;

- takrorlanayotgan elementlar tuzulishini murakkablashtirish;
- qator kompozitsiyasiga favqulotda kontrast va nyuans elementlar, urg‘ular kiritish.

O‘simliklarning ritmik qatorda takrorlanishi takt deb atalib, umiqdoriy xususiyatga ega. Ritm takti qatorda bitta, ikkita va uchtaлик qismlardan tuzulishi mumkin. Bunda qismlardagi o‘simliklar bir turda, yoshda va shaklda bo‘lishligi shart (5.4.1-rasm).









#### 5.4.1-rasm. Ritm taktlari:

1 – bir qismli; 2 – ikki qismli; 3 – uch qismli taktlar.

Taktning ko‘p martalab takrorlanishi natijasida turli xil ritmik qatorlarni vujudga keltirish mumkin:


– *oddiy qator*, daraxtlar va butalardan shakllantirilib, odatda, xiyobonlar, tirik yashil to‘siq (izgorod)lar, yashil devorlar va o‘rmon qatorlarini yaratishda qo‘llaniladi; qatorda joylashgan o’simliklar oralig‘ini o‘zgartirib, siyrak, zanjir va zich qatorlar hosil qilish mumkin. O’simliklar qatorda tig‘iz joylashsa, qator o‘rniga yashil devor yoki himoya qatorlari shakllanadi (5.4.2-rasm);



#### 5.4.2-rasm. Ritmik qatorlar:

1 – oddiy qator; 2 – siyrak qator; 3 – tutashgan qator; 4–5 – murakkab qator; 6 – daraxt va butalardan ishlangan murakkab qator; 7 – daraxt va lianlardan ishlangan murakkab qator: a – butalar; b – daraxtlar.

- ***murakkab qator*** balandligi har xil bo‘lgan qatorlab ekilgan alohida daraxtlar yoki butalardan yoki daraxtlarning butalar va liianalar bilan aralashmasidan hosil bo‘ladi;
  - ***aralash qator*** o‘simliklardan tashqari haykallar, mo‘jaz memoriy shakllar, park jihozlari elementlarini ham o‘z tarkibiga oladi;
  - ***geometrik shaklli ritmik qator***, o‘simliklarni kuzab-qirtishlab, ularga turli xil yashil geometrik sun’iy shakllar berish orqali hosil qilinadi;
  - ***aksentli, ya’ni urg‘u berilgan qator***, oddiy qator tarkibiga muayyan masofadan so‘ng boshqa xil yoki shakllardagi daraxtlar kiritilib, qatorga manzaraviy urg‘u beriladi;
  - ***«akkordli», ya’ni turli o‘simliklarning o‘zaro mutanosib, hamohang qatori.*** Bunday qator parterlarga va shaharning keng yashil eksplanadalariga xos bo‘lib, ko‘p qismli ritmik taktlarda, masalan, turli balandlik va shakllarga ega bo‘lgan o‘simliklarning uchtalik takrorlanuvchi taktidan iborat murakkab ritm (5.4.3-rasm);
  - ***fasliy dinamik qatorlar***, ya’ni doim yashil va bargi tushuvchi o‘simliklarning qatorda davriy takrorlanishdan hosil bo‘lgan ritm;
  - ***rejaviy kompozitsiyasi bo‘yicha qatorlar*** to‘g‘ri, yoy shakli va aylana shaklidagi ritmik qatorlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin;
  - ***vertikal (tik) yo‘nalishdagi ritmlar*** ham bo‘lib, ular vaqt davomida o‘simlikning o‘sib, ulg‘ayib borishi bilan archa, pixtalar, listvenitsalar va boshqa xvoy tipidagi daraxtlarning novdalarini g‘uj barg qilib kurakcha shaklida o‘stirib yoki daraxtlarni kuzab, ularga qandil, katta shamdon, chilchiroqlar shaklini berish orqali hosil qilinadi.
- Kontrast*** — kompozitsiyada shakl, material, hajm, plastika, faktura yoki ranglar orasidagi yaqqol seziluvchi farq, holat, ko‘rinish (5.4.4-rasm). Aynan ana shunday farq tufayli landshaft kompozitsiyasida yuqori manzarali samaraga erishish mumkinki, shu boisdan ham aksari o‘simliklardan tuzilgan kompozitsiyalarda kontrast vositasidan keng foydalaniлади. Daraxt va butalar ko‘rinishing majnuntol piramidasimon shakllari, ustunsimon ko‘rinishdagi baland daraxtning tekis tom foniga kontrastligi, sharsimon



#### 5.4.3-rasm. Uch qismlik murakkab ritm:


a — butalardan; b, d — daraxtlardan (yuqoridagi rasmda fasaddan ko‘rinishi, pastda tarhdagi ko‘rinishi).

yoki tuxumsimon ko‘rinishidagi daraxtlar va butalarning gotik stilda qurilgan imoratlarning minoralari va shpollariga kontrastligini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Qoramtil yashil o‘simlik oqishroq o‘simlik fonida yaqqol seziluv-chandirki, bu ham kontrastdir.

Qizil gul oq rangli gulga, to‘q ko‘kimir binafsha gul sariq rangli gulga kontrast nisbat beradi.

Majnuntolning oqishroq barglari keng yaproqli to‘q yashil lipaning barglariga, Matsuda majnuntolining ilon izli bo‘toqlari beryozaning to‘g‘ri tik tanasiga kontrast bo‘lsa, tuyu daraxting tik piradimasimon shox shabbalari tarqoq shox-shabbali mojjevel-nikdan keskin farq qiluvchidir va hokazo.



1

2

3

4

#### 5.4.4-rasm. Guruhlarni shakllantirishda kontrastdan foydalanish:

- 1 — shakli bo'yicha: gumbazsimon, ustunsimon, soyabonsimon shakllar kontrastda;
- 2 — shox-shabbalarining manzaraviy tuzilishi bo'yicha kontrast;
- 3 — balandligi bo'yicha kontrast;
- 4 — barglarining rangi bo'yicha kontrast.

Park yoki bog'da sayr qilish davomida turli-tuman kontrastlarni ko'rish mumkin: daraxtlar va butalar kontrasti, o'simliklarning baland-pastligi, shakl-shamoillaridagi farqlar, shox-shabbalarining tig'iz yoki siyrakligi, tuzilishi, barglarining fakturasi, katta-kichikligi va plastikasidagi farqlar kishiga zavq bag'ishlashi muqarrardir (5.4.6, 5.4.7-rasmlar).


Nyuans-kontrastning teskarisi, landshaft kompozitsiyasida o'simliklarning shakllari, hajmi, plastikasi, fakturasi yoki ranglari orasidagi zo'rg'a seziluvchi farq, holat.

**Dominant** shaharsozlik, me'morhilik va landshaft arxitekturasida yuqori badiiy yechimga ega bo'lgan, boshqa me'moriy va landshaft shakllari va elementlarini o'ziga kompozitsiyaviy bo'ysundira oladigan asosiy me'moriy yoki landshaft-me'moriy urg'u.

Dominant biror-bir me'moriy yoki manzaraviy landshaft shaklida, rangda, fakturada yoki g'oyaviy mazmundorlikda ifodalaniishi va aks etishi mumkin.




5.4.5-rasm. Kontrast va nyuans vositasida shakllantirilgan yashil kompozitsiyalar.




5.4.6-rasm. Uzoqdagi qir manzarasini daraxtlar orasidan ko'rsatib, park maydonini kengaytirish uslubi.

a)



b)



d)



**5.4. 7-rasm. Bog‘-park landshafti va peyzajlarini yaratish uslublari:**

- a — parkning aksentli elementlarini ajratib ko‘rsatish; b — uzoqdagagi daraxtlar guruhlarini oldinga ekilgan daraxtlar orqali ko‘rsatish;  
d — bog‘ning chiroyli «kartina»larini ramkalar uslubida ko‘rsatish.

### **Mustahkamlash uchun savollar**


1. Landshaft arxitekturasida qanday rejaviy uslublar qo'llaniladi?
2. Landshaft arxitekturasi qo'llaniladigan me'moriy-rejaviy yechimlar va kompozitsiyalaraga izoh bering.
3. Daraxt va butalardan shakllantiriladigan yashil kompozitsiyalarining turlarini aytib bering.
4. Soliter kompozitsiyasi qanday kompozitsiya va ularga qo'yiladigan talablarni aytib bering.
5. Guruhlar nima, ularning turlarini aytib bering, ular qanday o'simliklardan tuzilgan?
6. Qatorlar kompozitsiyasiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat? Qatorlarning qanday xillari mavjud?
7. Yashil massiv nima va uning qo'llanish sohasini aytib bering.
8. Gulzorlarning qanday xillari bor, ularni bir-biridan farglang.
9. Gulzorlar qanday qoidalar bo'yicha shakllantiriladi?
10. Maysazorlarning xillari va ularni shakllantirish usullarini tushuntirib bering.

**VI bob**  
**LANDSHAFT ARXITEKTURASI OBYEKTTLARI**  
**HUDUDLARINI ME'MORIY-REJAVIY VA LANDSHAFT**  
**TASHKIL ETISH**

---

**6.1. Umumshahar va qishloq tuman markazlarini  
landshaft tashkillashtirish**

Qishloqlardagi hozirgi mavjud tuman markazlari aholisi 5–10 minggacha bo‘lgan zamонави shaharchalar tarzida shakllantirilmoqda (6.1.1-rasm). Kelajakda ular egallagan maydonlar va aholi sonining oshib borishi kuzatilmoqda. Zamонави tumanlar markazlari hududini bog‘lar, parklar, maydonlar, xiyobonlar, piyodalar ko‘chalari va ayrim hollarda qирг‘оq bo‘ylari tashkil etsa, ushbu hududlardagi elementlarni yagona bog‘-park tizimiga birlashtiruvchi va o‘zaro bog‘lovchi – bu piyodalar tizimining tashkil etilishidir 6.1.2-rasm).



6.1. 1-rasm. Estoniya respublikasi qishloq pasyolkasining  
jamoat markazi.  
Tarxi va umumiy ko‘rinishi.

Tuman markazlari landshaftini tashkil etishda markazdagi ochiq maydonlarni funksional zonalarga ajratish landshaftni loyihalashning muhim bosqichi hisoblanadi. Har bir funksional zonaning qay tarzda landshaft tashkil etilishi bu yerdagi piyodalar gavjumligi va harakatiga bog‘liq. Shu boisdan ham tuman markazi hududini

piyodalar harakati bilan bog‘liq tarzda **quyidagi zonalarga ajratib loyihalash maqsadga muvofiq**: ma’muriyat zonası; tranzit harakat; rekreatsiya va bo‘sh vaqtini o‘tkazish; ovqatlanish; ommaviy tadbirlar (bayramlar, shou-konsertlar, diskotekalar) zonası.

Tranzit zona piyodalarning faqat harakat davrida hududda qisqa vaqt davomida bo‘lishiga mo‘ljallangan. Tranzit harakatga mo‘ljallangan ko‘kalamlar bu to‘g‘ri chiziqli xiyobon va yo‘lklar hisoblanadi. Hududda ularning rejali joylashtirilishi aholi tomonidan rekreatsiyaga sarflanadigan vaqtning davomiyligiga bog‘liq. Tranzit harakat zonası gulzorlar va boshqa landshaft kompozitsiyalari bilan mayda qismlarga bo‘linmasligi kerak.

Rekreatsiya va bo‘sh vaqtini o‘tkazish zonalari aholini markazga yaqinlashtirishning ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Dam olish va bo‘sh vaqtini o‘tkazish zonalarini har tomonlama o‘ylab tashkil etish aholi guruhlari orasida o‘zaro muloqot qilish va axborot almashishi uchun sharoitlar yaratadi, jamiyat fuqarolarini jipslash-tiradi.


Zonalarni tashkil etish uchun eng qulay sharoitga ega hududlar – bu daryo yoki sun’iy yaratilgan havzalarning bo‘ylari, ko‘kalamzorlar, bog‘lar, parklar hududi, maydonlar, xiyobonlar, bulvarlar va piyodalar yuradigan ko‘chalardir.

Bu hududlarni landshaft tashkil etish aholi rekratsion faoliyatini tashkil etish ko‘lamlari va tavsifiga bog‘liq. Bog‘-parklar, xiyobonlar, bulvarlar landshafti ularga qo‘yiladigan talablarga muvofiq shakllantiriladi. Ammo maydonlar, piyodalar ko‘chalari, daryo yoki ko‘l sohillaridagi rekreatsion zonalar ushbu hududlarning landshaft xususiyatlariga muvofiq belgilanadi. Barcha rekreatsion hududlar boshqa zonalardan o‘simliklar bilan ajratilishi mumkin.

Maydonlar va piyodalar sayrgohlari rekreatsion funksiyalarni tashkil etish uchun qulay zonalar hisoblanib, ular kunduz payti soyali yopiq yashil maydonlarda yoki yarimyopiq bulvārlarda, bog‘larda, xiyobonlarda, yashil massivlarda amalga oshirilishi mumkin, kechki paytlarda esa aksincha-rekreatsion funksiyalar maydonlarning ochiq joylarida va ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan ochiq yashil zonalarda amalga oshiriladi (6.1.3-rasm).

Sayrgoh zonalarning landshaft tashkil etilishida atrofdagi qurilishning me’moriy uslubi hisobga olinishi kerak, u loyihalanayotgan

## QISHLOQ LANDSHAFT ARXITEKTURASINING TIPOLOGIYASI



**6.1.2-rasm.**  
Qishloq landschaft arxitekturasi obyektlarining tipologiyasi.  
(A.S. Uralov sxemasi).



**6.1.3-rasm. Qishloq markazlarining yopiq va ochiq yashil zonalari.**

landshaft tabiiy muhitiga mos va munosib bo‘lishi zarur. Shunga qaramay, yuqoridagi zonalarning landshaft kompozitsiyasi muntazam, peyzajli yoki aralash ko‘rinishda amalga oshirilishi mumkin.

Landshaftni muntazam tashkil etishda, asosan, maydonlarning ochiq fazolarida joylashtiriladigan to‘g‘ri to‘rburchak, diagonal, aylana, oval va boshqa shakldagi yo‘laklar, o‘tloqlar, chamanlar, rabatkalar ko‘proq bo‘ladi.

Egri-bugri (ilon izi) shaklidagi yo‘laklar esa ko‘pincha erkin yoki peyzaj uslubida rejaliashtirilgan rekreatsion – sayr qilish zonalarida, odatda, bog‘lar, xiyobonlar, massivlar, daryo va ko‘l bo‘ylarining soyali joylarida shakllantiriladi. Manzarali maydonlarning piyodalar yuradigan qismlari bog‘-park majmualari va suv havzasi sohillari bilan birlashtirilishi zarur.

Xiyobonni ko‘kalamlashtirish uning o‘lchamlari va kun mobaynida undan qanday foydalanishga, piyodalarining harakatiga tavsifiga (tranzit, sayr qilish) hamda xiyobon oriyentatsiyasiga bog‘liq holda shakllantiriladi.


**6.1.4-rasmda turli xil holatlar uchun xiyobonlarni rejali tashkil etish va ularni ko‘kalamlashtirishga doir misollar ko‘rsatilgan.** Xiyobon qanchalik keng va uzun bo‘lsa, uning chetlariga shunchalik shakli keng va tez o‘suvchi o‘simlik turlari qo‘llaniladi. Qalin daraxtlar tez birikadi va soya beruvchi to‘siq hosil qilib, piyodani quyosh nuridan himoya qiladi (6.1.4-a rasm).

Bir tur yoki har turli o'simliklar tarkibidan ochiq ritmik uzilishli xiyobonlarni yoki yarimberk turdag'i landshaftni shakllantirishda foydalanish mumkin (6.1.4-b rasm). Mazkur usullar daraxtlarning yaxshiroq o'sishi, hududni shamollatish, landshaft fazoviy kompozitsiyasida aks etuvchi yorug'lik va soyalarning samarali bo'lishi uchun imkon yaratadi. Agar hududlar, asosan, kechki payt foydalaniladigan bo'lsa, u holda xiyobondagi harakatning tez yoki sekin bo'lishidan qat'i nazar, xiyobon landshaftini ochiq shakllantirish maqsadga muvofiqdir (6.1.4-d rasm). Mazkur holda o'simliklarning rejali joylashish holatini me'moriy-landshaftli kompozitsiyaning yo'naliishiga bog'liq holda «cho'ntak»lar (kurdoner), chiziqli yoki boshqa usullarni qo'llab, turlicha bo'lishligiga erishish mumkin.

Xiyobonlar orasiga markazda joylashgan ochiq muhitlarning salobatini ta'kidlovchi maysazorlar, gulzorlar, favoralar, kichik me'moriy yoki badiiy shakllar joylashtirish mumkin. Ammo bu yerda salobatlilik yagona maqsad bo'lmasligi kerakligini ta'kidlash zarur. Markazdagi ko'kalamzor hududlar aholining shahar muhitida dam olishi va bo'sh vaqtini o'tkazishga bo'lgan ehtiyojlariga xizmat qilishi kerak.

Manzarali xiyobon va yo'laklar piyodalar maydonlarini bog'-park majmuasi yoki sohilbo'yи hududlari bilan bog'lashi zarur. Gulzorlar va maysazorlar markaziy ko'kalamzor maydonlar landshaft dizaynining eng ko'p tarqalgan elementlaridan hisoblanib, ular rejada mutazam geometrik yoki erkin peyzajli usullarda ishlanishi mumkin (6.1.5-rasm).


Odatda, bir, ikki turli gullar kishida oddiy erkin kompozitsiyali yirik parter gulzorlar juda kuchli taassurot qoldirishi ma'lum. Yirik maydonlarda landshaft yechimining bir xilligiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bunday maydonlardagi gul ekinlarining asosiy turlari – bu gullab turgan maysazorlar, gul gilamlari, rangli dog'lar ko'rinishidagi maysazor yoki ochiq suv havzalari atrofiga o'tkazilgan gullar, nomuntazam shaklda yakka ekilgan soliter, bir xil yoki aralash guruhdagi gulzorlardir. Kompozitsiyada bir xillik bo'lmaslik uchun uning asosiy qismi qolgan qismlarga nisbatan kuchliroq ifodalangan bo'lishi kerak. Kompozitsiyaning bosh asosiy qismlarini ajratib ko'rsatishga uning detallarini yiriklashtirish va yorqin bo'yoqli baland bo'yli o'simliklarni qo'llash orqali erishish mumkin. Bitta



**6.1.4-rasm. Tuman markazlari va qishloq parklaridagi xiyobonlar  
landshaftini tashkil etish usslari:**

- a — berk turdag'i xiyobon;
- b — yarimberk turdag'i xiyobon;
- d — ochiq turdag'i fazo xiyobon: 1 — baland bo'yli daraxtlar;
- 2 — o'rta bo'yli daraxtlar; 3, 4, 5 — past bo'yli daraxtlar;
- 6, 7 — bordur va gulzorlar; S-gazonlar; 9 — ariq va favoralar;
- 10 — yo'l va yo'laklar. (L.A Adilova sxemasi).

asosiy markaziy klumba va bir nechta ikkinchi darajali klumbalari bo'lgan simmetrik kompozitsiyada bosh klumba qolganlariga ko'ra ancha kattaroq qilib loyihalanadi va uning naqshi ancha murakkab,



**6.1.5-rasm. Tuman markazlarini gullar bilan bezatishning muntazam va erkin uslublarda yaratilgan landshaft kompozitsiyalari. Gnilli klumbalar.**  
**(L.A. Adilova fotomontaji.)**

ranglari yorqinroq qilib ko'rsatiladi. Agar kompozitsiya o'lchamlari bo'yicha katta bo'lmasa va uni yaxlit idrok qilishga mo'ljallangan bo'lsa, ikkinchi darajali klumbalar mutlaqo bir xil bo'lishi mumkin.

Detallari izchil idrok qilinadigan keng kompozitsiyalarda (masalan, sayr qilish maydonlarida) shakli va kattaligi bo'yicha bir xil elementlar (klumbalar, rabatkalar) rasmi yoki rangiga ko'ra farq qilinishi kerak. Xiyobon va yo'lakchalarning ayrim qismlarida rabatkalarini gullar bilan bezatishda detallarning rangi xilma-xil bo'lishi, ammoye bunda bezatishning bir turidan boshqasiga o'tish ketma-ketligini hisobga olish lozim.

Klumba, rabatka va boshqa gulzorlar shaklini aniqlashda «oltin kesim»ning qo'llanilishi yaxshi natija beradi. Shakllar tomonlarining nisbati «oltin kesim»da, masalan 2:3; 3:5; 5:8; 8:13 va shu kabi nisbatlarda bo'lgani ma'qul. Gulzorlarning chetki qismlariga past

hoshiyabop o'simliklar, o'rtaligiga esa baland bo'yli o'simliklar ekilsa, yaxshi samara berishi mumkin.

Suvli qurilmalar ham markazdagi maydonlarning landshaftini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Kompozitsiyada salobatlilikni talab etuvchi maydonlarda, odatda, mumtoz shakldagi favoralar va sharsharalar quriladi (6.1.6-rasm). Landshaft tashkil etishning zamonaviy an'analari suv mavzusini turlicha talqin qilishi, suv havzalarining maydonlar ochiq joylari va piyodalar maydonlarida o'rnatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur usullar issiq quruq iqlimda muhitni sog'lomlashtirish va havo namligini oshirish uchun yaxshi natija beradi.



6.1.6-rasm. Shahar, tuman markazlari va maydonlarida qo'llaniladigan favoralar.

## 6.2. Qishloq ko'chalari va xiyobonlarini landshaft tashkil etish

Qishloq ko'chalari va xiyobonlari joylashgan joyi hamda mavqeyiga qarab turlicha bo'ladi. Uning eni shunga mos ravishda belgilanib, ko'chalarni ko'kalamzorlashtirish va landshaft


arxitekturasi vazifalari ham ularning turi hamda oriyentatsiyasi va joylashgan o‘rniga bog‘liqdir. Ko‘chalar va xiyobonlardagi ko‘kalamzorlarning asosiy vazifasi – bu aholini changlar, shamollar, shovqin va quyosh nuri taftidan himoya qilishdir. Ayni paytda, ko‘chalarning me’moriy-badiiy va landshaft yechimlarining saviyasi ham katta ahamiyatga egadir (6.2.1-rasm).

Ko‘chalarni, asosan, ko‘rinishi muntazam to‘g‘ri shakllarga ega bo‘lgan baland o‘suvchi dov-daraxtlar (lipa, topol, klyon, yasen va boshqalar) bilan ko‘kalamlashtirish tavsiya etiladi. Ko‘chalarni ko‘kalamlashtirishning eng oddiy turi – bu ko‘chaning harakatlanish chetki qismi va trotuar o‘rtasidagi masofa, ya’ni yashil polosaga qatorlab, oralig‘i teng daraxtlar o‘tqazib chiqishdir. Ushbu yashil polosaga bir qator daraxtlar ekilganda uning eni 3 m, ikki qator daraxt ekilsa, 5 m olinadi. Ko‘p qatnovli keng magistral ko‘challarda esa ushbu polosaning eni 7,5 metrgacha bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda ko‘cha tomondan bir qator daraxt ekib qolgan hududni esa xili, o‘lchamlari, bo‘yi va shakllari turlicha bo‘lgan daraxt va butalardan tuzilgan guruhlar yordamida ko‘kalamzorlashtirish mumkin. Ayrim hollarda maysazor fonidan trotuar chetiga yaqin qilib gullar ham ekilishi mumkin (6.2.2-rasm).

Chorrahalar, ko‘chaning burilgan joylari va piyodalar o‘tadigan joylar oldiga ekilgan daraxt va butalar transport haydovchilari hamda piyodalarga yo‘lni hamda harakatlanayotgan transportlarni ko‘rishga halaqit bermasligi, svetoforlarni va yo‘l ko‘rsatkichlarini to‘sib qo‘ymasligi kerak.

Tashqi yoritish fonarlarining ustunlarini esa ko‘cha o‘rtasidagi harakatlanish yo‘llarini ajratuvchi yashil polosada joylashtirish maqsadga muvofiq. Yo‘llarni ajratuvchi yashil polosaga, odatda, yo‘llar eni uncha katta bo‘lmagan hollarda butalar va maysazor, yo‘llarning eni katta (har tomonga 2–3 yo‘nalish) bo‘lgan hollarda daraxtlar va maysazorlar, transportlarning burilish joylarida esa pastqam butalar, maysazor va gulzorlar ekiladi.

Piyoda yo‘llar va trotuarlarning eni katta bo‘lsa, o‘rta qismiga modulli maxsus yashil kompozitsiyalar, rabatkalar yoki alohida gullar guruhi, pastqam miksborderlarni shakllantirish mumkin. Ularni tuproqqa ekishning iloji bo‘lmasa, sopol yoki beton vazalarga, maxsus qutichalarga ekib joylashtirish mumkin. Keng trotuar va



*6.2. 1-rasm. Qishloq parklarida qo'llaniladigan ochiq va yopiq xiyobonlarga misollar.*

piyoda yo'llarning bo'ylama o'qi bo'ylab tanasi tig'iz, soya-salqin beruvchi dov-daraxtlarni maxsus lunkalar bilan ekish tajribasi ham issiq iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan. Bunda lunka qoplamasini o'rnatishni unutmaslik kerak.

Ko'chaning mashinalar harakatiga yaqin ariq bo'ylab butalarni yashil to'siq shaklida ekish tavsiya etilmaydi, chunki ular qishda qor ko'chkilaridan, yozda esa ko'cha axlatlaridan ozor chekadi.

Ko'chalarga ekiladigan butalarning bo'yi 1,5 metrdan katta bo'limgan, yaproqlari tig'iz va yaxshi gullovchi turlari tanlanadi, chunki baland butalar haydovchilarning ko'rish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bunday butalarga spireya, tunberg barbarisi, xenomeleslarning turli xillari kiradi. Butalar qatorlab ekilganda yashil qatorning eni bir qator uchun 0,8 m, ikki qator ekilsa, 1,5 metrdan kam bo'imasligi kerak.

Butalardan tuzilgan guruhlarni baland daraxtlar orasiga yoki qatorlar uzilgan joylarga, ya'ni ko'cha tomonga qaragan jamoat binolari oldiga ekish mumkin. Bunday hollarda butalar foniga ko'pyillik o'simliklarni ekish tavsiya etiladi. Bu ko'chalarni manzaraviy bezashga va bir xillikka barham berishga yordam beradi.

Agar ko'cha eni katta bo'lsa, ko'cha yo'lining cheti va trotuar o'rtasiga bulvar shakllantirsa bo'ladi. Uning minimal eni 10 m. O'rtadan piyodalar uchun yo'lak qilib, o'tirish uchun skameykalarga

joy va yo'lakni daraxtlar qatori bilan ko'kalamzorlashtirish mumkin. Agar bulvar eni katta bo'lsa, daraxtlar va butalardan tuzilgan guruh kompozitsiyalarini shakllantirsa bo'ladi. Ularning foniga esa ko'pyillik gullovchi o'simliklar ekish zarurki, ularning xillari turlicha bo'lsin (akovlegiya, gaylardiya, liliya, floks metelchatiy). Piyoda yo'lakchasi bo'yab miksborder kompozitsiyasini qo'llash lozim.

Xiyobon va ko'chalar oriyentatsiyasiga, ya'ni ufq tomonlariga nisbatan joylashishiga qarab kengliklar yo'nalishida (o'qi g'arbdan sharqqa), meridional yo'nalishda (o'qi shimoldan janubga) va diagonal yo'nalishlarda (o'qi shimoliy-g'arbdan janubiy-sharqqa yoki shimoliy-sharqdan janubiy-g'arba qarab) joylashgan xiyobon va ko'chalarga bo'linadi.

Kengliklar yo'nalishidagi xiyobon va ko'chalarining janub tomonidagi uylar fassadiga quyosh nuri tushmaydi va soyaga muhtoj emas. Bu yerda faqat trotuar soyalantiriladi. Janub tomonda joylashgan uylar ko'p qavatli bo'lganda ulardan tushayotgan soya trotuarni yopadi va trotuar soyalantirishga muhtoj bo'lmaydi. Biroq, ko'chaning shimoliy tarafidagi uylar va trotuarni soyalantirish zarur bo'ladi.

Meridional yo'nalishdagi ko'chalar va xiyobonlarda vaziyat boshqacha bo'ladi. Bunday ko'chalar va xiyobonlarning har ikkala tomonidagi trotuarlar va binolar ham quyosh nuridan himoyalanishga muhtojlik sezadi.

Diagonal yo'nalishli ko'chalarining janubiy-g'arba yoki janubiy-sharqqa qaragan binolari va trotuarlarini ham ostobdan himoyalash zarur. Ayniqsa o'qi bilan shimoliy-sharqdan janubiy-g'arba qaragan ko'chalarda ahvol yanada og'ir bo'lib, tushdan keyin bu ko'chalar trotuarlarini ikki yoqlama qatorlab daraxtlar ekish yo'li bilangina jazirama quyosh nuridan saqlab qolish mumkin. Ko'chalar va xiyobonlarni ko'kalamzorlashtirishda bu holatlarni e'tiborga olmaslik jiddiy xatoliklarga olib kelishi mumkin.

### **6.3. Turarjoy hududlarini landshaft tashkil etish**

Turarjollar qishloq aholi punkti ommaviy turar joylarining birlaimchi bo'lagi hisoblanib, bu yerda aholining maishiy, madaniy-ma'rifiy va rekreatsion ehtiyojlari qondiriladi.

Tarxi	Elementlarning nomi, o'simliklar tarkibi va joylashishi	Umumi ko'rinishi
	Gul o'stiradigan temirbeton guldonlar. Manzarali gullar bilan almashtirib turiluvchi lolagul va atirgullar. Maydonlar, asosiy piyoda yo'llar, parklarda, agrosanoat korxonalarining kirish joylarida	
	Bargi manzarali, gullovchi o'simliklardan ishlangan tasmasimon arabeski. Maysazorlar, parklar, yo'llar va yo'laklar yoqasida	
	O'rtaida yumaloq toshlar yoki maysa joylashgan gullardan tuzilgan halqa. Yo'llar kesishuvida, ko'chalarda, xiyobonlar qoshida, parkning bosh yo'laklarida, katta maysazorlarda	
	Gullar va bargli manzarali gullovchi o'simliklardan tuzilgan halqa klumba. Maysazorlarda, yo'l yoqalarida, parklarda	
	Piyozsimon o'simliklardan tuzilgan kvadratlari (narginkul, lolagul va boshqalar). Manzarali gullar bilan almashtirilib turiladi. Asosiy maydonlarda (maysazorda), jamoat va ma'muriy binolar oldida, yodgorliklar qoshida	
	Ninabargli butalar va manzarali gullardan tuzilgan to'lqinsimon halqa. Xiyobonlar, parklar, memorial zonalarda, asosiy ko'chalarda	
	Ko'p yillik o'simliklar va manzarali butalardan (yoki ninabargli butalardan) tuzilgan aralash guruh. Keng ochiq maysazorlarda, parklarda	
	O'rtaida qorag'ay, tilog'och yoki zarang joylashgan ko'p yillik o'simliklar va manzarali butalardan tuzilgan aralash guruh. Parkda, asosiy maydonlarda, keng ochiq maysazorlarda	

6.2.2-rasm. Qishloq ko'chalari, maydonlari va xiyobonlarni bezatishda qo'llanadigan landscape dizayni elementlari.  
(A.S. Uralov montaji.)

Turarjoylar hududini me'moriy-landshaft va rekreatsion tashkil etishda sifatga erishish uchun turarjoylarni landshaft-rekreatsion tashkil etish bosqichlarining quyidagi ketma-ketligiga rioya qilinishi zarur:



- loyihadan oldingi bosqichda, qurilishni tashkil etish va aholining ijtimoiy-demografik tuzilmasini (bolalar, yoshlar, kattalar va qariyalar) tarkibi va nisbatini tahlil qilish, aholining zichligi, dam olish turlari va shakllariga bo'lgan ehtiyojlarini, tabiiy sharoitlar xususiyatini, loyihalanayotgan hududning sanitariya-gigiyenik holati va ekologiyasini hisobga olish;

- loyihalash bosqichida dam olish turlari va mezonlari bo'yicha hududni landshaft-rekreatsion zonalash va landshaft elementlari-dam olish maydonchalari, suv qurilmalari, o'simliklar va tashqi muhitni obodonlashtirish shakllarini me'moriy-rejali tashkil etish masalalari yechilishi zarur. Ko'kalamlashtirishda o'simliklarni tanlash va ekish ochiq maydonlar muhitini shakllantirishning funksional, sanitariya-gigiyenik va estetik omillarini va landshaft tashkil etishning an'anaviy uslublaridan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda bajarilishi kerak.

Masalan, shaxsiy dam olish hovlilardagi bog' hududida, xonodon ayvonchalarida yoki birlamchi uy oldi maydonlarining umumiyligi hovlilarida tashkil etiladi (odatda, bu yerda oila a'zolari va kichik yoshdagagi bolalar kattalarning nazorati ostida dam oladi) (6.3.1-rasm); maktab yoshidagi bolalar va qariyalarning dam olishi uy oldidagi yarimjamoatchilik maydonlarida, o'smirlar va kattalarning dam olishi esa turarjoy jamoatchilik maydonida tashkil etiladi.

Yoshlar o'zlarining dam olish va bo'sh vaqtini turarjoylardan tashqarida (shaharcha, bog' yoki parklarida) o'tkazishni afzal ko'radi.

Landshaft-rekreatsion muhitlarning barcha sanab o'tilgan elementlari turarjoy qurilishi-landshaft muhiti yaxlitligini shakllantirishda, dam olish, muloqot qilish va bo'sh vaqtini o'tkazish, muhitning psixologik va fiziologik qulayligini ta'minlashda o'zaro bog'lovchi ahamiyatga ega. Landshaftni shakllantirishda o'simliklarni to'g'ri tanlash va yashil kompozitsiyalar tashkil etish yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi.



6.3. 1-rasm. Turarjoylar guruhlari hovlilarini landshaft tashkil etish misol.

Turarjoylar muhitidagi aholi guruhlарining dam olishini ta'minlashda kichik yoshdagi (0–4 yosh) va maktabgacha yoshdagi bolalar (5–7 yosh), kichik yoshdagi (8–10 yosh) va o'rta yoshdagi o'quvchilar (11–14 yosh), o'qiyotgan (15–22 yosh) va ishlayotgan yoshlar (23–35 yosh), mehnat qilish qobiliyatiga ega aholi (36–60 yosh) va nafaqaxo'rлarning (60 va undan ortiq yosh) dam olish hududlarini funksional zonalarga ajratishni ko'zda tutish zarur, chunki aholining har bir guruhi o'z vaqt byudjetiga ega bo'lib, turarjoy tuzulmasi hududida dam olishning tarkibi va mazmuniga o'ziga xos talablar qo'yadi.


Ko'p seksiyali turarjoy guruhlari hududida aholi dam olishi uchun mo'ljallangan maydonchalardan tashqari har xil maqsadlarga yo'naltirilgan xo'jalik maydonchalarini ham loyihalash zarur (kirlarni quritish, gilam qoqish, axlat yig'ish qurilmalari).

Turarjoyolar guruhlari hududlarining landshaftini tashkil etishga 6.3.2–6.3.3-rasmlarda misollar keltirilgan. Turarjoyolar maydonchalarining me'yorlari 2-jadvalda berilgan.


*2-jadval*

**Turarjoyolar hududidagi har xil maqsadlarga mo'ljallangan  
maydonchalar me'yorlari**

T/r	Maydonchalarning turlari	Me'yorlar
1.	Bolalar maydonchalari	0,55–0,7
2.	Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun	0,2
3.	Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun	0,35–0,5
4.	Sport maydonchalari	1,00
5.	Dam olish maydonlari	0,2
6.	Xo'jalik maydonlari	1,00
7.	Yo'laklar	10%
8.	Ko'kalamlashtirilgan maydonlar	30%



*6.3.2-rasm. Turarjoy guruhlari hududlarini landshaft tashkil etish.*




**6.3.3-rasm. Alohida turgan uy oldi hududining landshaftini tashkil etishga misol.**

Turarjoy qurilishida madaniy-maishiy va savdo muassasalari, mакtablar, bog'chalar hamda bekatlarga eng qisqa va qulay borish yo'li — transport tarmog'i ham o'rin egallashi lozim.


Turarjoy tashqi muhiti qulayligining asosiy sharti hududga soya tushishi va havo almashish tartibini hisobga oлган holda landshaft elementlarini fazoviy tashkil etish va quyosh harakatini e'tiborga olish hisoblanadi (6.3.4-rasm).

Mahalliy iqlim sharoitida ochiq va yopiq soya muhitlarining to'g'ri nisbati hisobga olinishi lozim (daraxtlar, soyabonlar, pergolalar va boshqalar). Yashash hududlariga o'simliklarni shunday joylashtirish kerakki, ko'kalamzor hududlarda havo almashish imkoniyati bo'lsin.

Turarjoy hududlarini tuman markazi yo'llaridan ko'kamlashtirish va katta ko'chalardan quyuq daraxtlar va butalar ekib ajratish lozim (6.3.5—6.3.6-rasm). Axlat yig'iladigan xo'jalik maydonchalari atrof-muhitdan ajratilishi va butun kun davomida soyada joylashishi lozim. Kirlarni quritish xo'jalik maydonlariga shunday joy tanlash kerakki, ularga butun kun davomida quyosh tushishi va yaxshi havo aylanishi lozim. Bolalarning sport o'yinlari



6.3.4-rasm. Turarjoy hududlarini daraxtlar bilan soyalashtirishda quyosh harakatini inobatga olish:  
 a – maydonchalar; b – yo‘lakchalar;  
 d – sport maydonlari.




6.3.5-rasm. Turar joy hududlari yo'llarini landshaft tashkil etish:

- 1 – pergolalar;
- 2 – o'tirish joylari;
- 3 – ariqlar;
- 4 – gullar;
- 5 – gazonlar;
- 6 – daraxtlar.

va dam olish maydonchalari atrof-hududdan yashil to'siqlar bilan ajratiladi.

Ba'zi hollarda maktabgacha va kichik yoshdagi, ya'ni 9–13 yoshgacha muktab o'quvchilari uchun umumiy kompleks maydonchalar qo'llash mumkin.

Bunday maydonchalarning o'lchamlari 350–400 m bo'ladi (3-jadval).



**6.3.6-rasm.** Turarjoy hududlarini daraxtlar va butalar bilan ko'kalamzorlashtirish.

*3-jadval*

**Bolalar kompleks maydonchalarining o'lchamlari**

Bolalarning yoshiga ko'ra guruhi	Ming kishiga maydonlar soni	Maydonlarning o'lchami, m <sup>2</sup>
Bog'cha va maktabgacha yoshdagi – 7 yosh.	2	150–200
Kichik maktab yoshidagi – 7 dan – 13 yosh.	3	200–250

Kichik yoshdagagi mактаб о‘quvchilari va bog‘cha yoshidagi bolalar maydonlarini birlashtirish tavsiya etilmaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalar maydonchasini kattalar dam olish maydoni bilan birlashtirish maqsadga muvofiq. 1,5–2,5 ming kishilik alohida turarjoylar guruhlarida 22x25 m o‘lchamli kompleks sport maydonlari loyiha-lanishi mumkin (4-jadval).

Bularga maktab sport maydonlari kirmaydi. Sport maydonlari atrofidagi binolar oynalariga 25 m dan yaqin joylashmasligi kerak.

4-jadval

**Turarjoylar hududi sport maydonchalarining turlari  
va o‘lchamlari**

Sport maydonchalarining turlari	Maydonchalar o‘lchamlari		1000 kishilik turarjoy guruhlari uchun maydonlar soni		
	umumiy	o‘yin maydoni	0,5–6,5	3,5–5,5	1,5–3,5
Basketbol maydoni	30x80	26x14	2–3	–	–
Voleybol maydoni	25x14	9x18	3–4	2–3	2–4
Tennis maydoni	40x20	24x11	1–2	1	–
Stol o‘yinlari uchun	4x8	–	3	2	2
Gimnastika o‘yinlari uchun	600m <sup>2</sup>	–	1	1	–

Samarqand viloyatining deyarli barcha tumanlari markazlarida sobiq ittifoq davrida qurilgan kam va o‘rtalig qavatlari ko‘p seksiyali turarjoylar mavjud. Ular, odatda, aholi punkti ichidagi ko‘chalar chetlari va atroflari bo‘ylab qurilgan turarjoylar me’moriy maskanlari va guruhlarini tashkil qiladi. Yo‘l chetidagi trotuarlar bo‘ylab yursangiz ana shunday 2 va 4 qavatlari ko‘p seksiyali uylarni ko‘rasiz. Bu uylar atroflaridagi joylarni ushbu uylarning birinchi qavatida yashovchilar o‘zlariga an’anaviy ogorod, mevali yoki xo‘jalik bog‘i qilib olganlar. Har bir xonardon yonidagi bunday «bog‘»lar bir-biriga qo‘silib, tartibsiz ko‘kalamzor manzarani vujudga keltirgan. Ayrim holatlarda daraxtlar o‘sib, yuqori qavatlarning derezalarini ham to‘sib qo‘ygan, xonalarga keraklicha yorug‘ tushmasligi sababli


kunduz kunlarida ham elektr energiyasidan foydalanishga to‘g’ri keladi. Xonardon xonalarini shamollatishning ham imkonni cheklangan. Bunday qo‘lbola «bog»larda na estetik tamoyillar, na manzaraviy landshaft kompozitsiyalari mavjud. Shunday ekan bunday turarjoylar qoshida o‘zaro yashil to‘sqliar-izgorodlar bilan to‘silgan xususiy ogorodlar-«bog»chalar emas, balki soyali manzaraviy daraxtlar va keng yashil o‘tloqlar bilan shakkantirilgan va ijtimoiy dam olishga mo‘ljallangan yashil maskanlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday turarjoylar qoshida, ayniqsa uylarning seksiyalarga kirish qismlarida mevali daraxtlar ekish o‘zini oqlamagan tajribadir. Mevali daraxtlarni uylarning orqasiga, aynisa, ularning janubga yoki usfoning quyoshli tomonlariga qaragan qismlariga eksa bo‘ladi. Agar bunday uylarda balkonlar mavjud bo‘lsa va ular usfoning sharq hamda g‘arb tomonlariga qaragan bo‘lsa, ularni chirmashib o‘suvchi gullovchi lianalar yoki uzum soluvchi an’anaviy toklar bilan ko‘kalamzorlashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sobiq ittifoq davrida yoki yangi qurilgan qishloq mahallalarining landshafti va ko‘kalammlarini loyihalashda barcha ko‘chalar, piyodalar, trotuarlar, xiyobonlar va ichki proyezdrlarga qatorlab ekilgan soya beruvchi manzaraviy daraxtlar ekilsa maqsadga muvofiqdir. Turarjoylar guruhlari va massivlaridagi jamoat hovlilariga ekilgan ko‘kalamzorlar ulardan ijtimoiy tarzda foydalanish imkonini berishi zarur. Shuningdek, ulardagi ko‘kalamzorlarda aholining barcha yoshdagi qatlamlari uchun xususiy va jamoat bo‘lib dam olishlariga (kattalarning daraxt soyasida tinch dam oishlari, bolalarning ochiq maydonlardagi o‘yinlari, o‘smirlarning sport bilan shug‘ullanishlari uchun) sharoit yaratilishi zarur.

Turarjoylar guruhidagi bog‘lar va ulardagi maydonlarning ko‘kalammlari quyoshga nisbatan ochiq va yopiq yashil maydonlarni tashkil etishi zarur. Bino tarzları bo‘ylab cho‘zilgan trotuarlar va xiyobonlar agar ular janub, g‘arb va usfoning quyoshli tomonlariga qaragan bo‘lsa, quyosh nurini to‘sish maqsadida baland soyapar daraxtlar ekilishi zarur.

Gulzorlar va maysazorlar, yeryopar o‘simliklar ekilgan maydonlar bunday hovlilarning ichki va markaziy qismlariga joylash-tirilsa maqsadga muvofiqdir. Dam olish maydonlarining atroflariga

chetlari go'zal gullovgi butalar bilan aylantirilgan manzaraviy daraxtlardan tuzilgan tabiiy guruqlar kompozitsiyalari shakllantirilishi lozim (6.3.7-rasm).



6.3.7-rasm. Jismoniy tarbiya va sport, bolalar o'yinlari zonasini landshaft tashkillashtirish namunasi.

#### 6.4. Jamoat binolari hududlarini me'moriy-landshaft tashkil etish

##### *Dars rejasি*

1. Ma'muriy binolar.
2. Bolalar bog'chalari va yaslilar.
3. Umumta'lum maktablari, kollejlар va litseylar.
4. Sport inshootlari va komplekslari.

**Ma'muriy binolar.** Ma'muriy va jamoat binolari oldilarida, odatda, bosh fasadlari tomonidan keng ochiq yashil muhit-parterli skver shakllantirish tavsiya etiladi. Agar buning uchun yetarlicha maydon bo'lmasa bosh fasad va binoga kirish yo'laklari oldida manzarali gulzor shakllantiriladi. Uning yechimi turlicha: parter usulida yoki klumba ko'rinishdagi gulzor bo'lishi mumkin (6.4.1-rasm).

Binoning otmostkasi va trotuar orasidagi ensiz, odatda, cho'zinchoq joyga 2–3 qator qilib bir yillik yoki ko'p yillik gullardan

ekiladi. Bino devoriga yaqin qatorga bo‘yi balandroq, trotuarga yaqin qatorga esa pastroq bo‘yli gullar, masalan, xushbo‘y tabak, bir yillik astra va alissum yoki metelchatiy floks va arabislар ekiladi.

Yo’llar chetidagi kengroq hududlarga ko‘p yillik o‘simliklardan miksborder gulzor kompozitsiyasini yaratish mumkin. Agar buning uchun o‘simliklar to‘g‘ri tanlansa, u erta bahordan to kech kuzgacha gullab turish imkonini beradi. Bunday gulzorning tarkibiga primula, floks shilovidniy, arabis alpiyskiy, iris gibriddniy, floks metelchatiy, ko‘p yillik astra o‘simliklarini kiritishi mumkin.

Agar bino qirlikda, atrof-muhitdan teparoq joyda qurilgan bo‘lsa, uning old qismiga tabiiy toshlar va o‘simliklar bilan bezatilgan rokariy yoki tirkak devorlarlarni shakkllantirish, zinapoyalar o‘rnatish maqsadga muvofiqdir. Agar bino unga ajratilgan hududning quyi qismida, ya’ni qizil chiziqdan ancha ichkarida joylashgan bo‘lsa, bino fasadi va trotuar orasidagi keng maydonga maysazor ustida 3–5 ta daraxtdan guruh kompozitsiyasi, chiroqli gullovochi butalar va ko‘p yillik gullar ekiladi. Bu muhitda birorta dekorativ basseyн yoki favvora bo‘lishligi unga yana ham samara beradi, muhitda yoqimli mikroiqlim yaratadi.

Ma’muriy binolar oldilaridagi hududlarning yechimi ko‘pincha muntazam rejaviy uslubda, simmetrik o‘q atrofidagi, takrorlanuvchi yashil landshaft kompozitsiyalaridan tuzilishi mumkin. Bunday ko‘kalamzor muhitlar ma’muriy binolar, magazinlar, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari va boshqa jamoat binolari oldilaridagi hududlarda bo‘lishi zarur.

Agar bino oldidagi maydon yirik beton plitalar bilan qoplangan bo‘lsa, uni ham manzarali gullar bilan bezatish imkoniyati mayjud. Buning uchun ko‘chuvchi gullardan yoki vazalar hamda modulli tuvaklardan foydalaniб, bir yillik gulzor vazalar yoki modulli bog‘-chaman tashkil qilish mumkin. Bunda gullardan begoniya klubnevaya, salviya, maydagulli georginya, pelargoniya, lobeliyalarni qo‘llash yaxshi samara beradi. Agar gultuvaklar katta bo‘lsa, ularga ko‘p yillik o‘simliklarni ham ekish mumkin. Gul vazalari va tuvaklar bir xil yoki turli o‘lchamlarda, biroq bir tip va rangdagi materialdan ishlaniши shart.

Jamoat binolari ko‘kalamzorlashtirishning yana bir oddiyroq, biroq samarali uslublaridan biri – tik ko‘kalamzorlashtirishdir.



*6.4. I-rasm. Ma'muriy binolar hududlarini landscape tashkil etishga amaliyotdan misollar.*

Tirmashib o'suvchi lianalar tik tirkaklar yoki dekorlar bo'ylab ko'kka intilib, binolarga maftunkor manzara berishi mumkin. Tik ko'kalamzorlashtirishda amur toki, Berlande toki, devichiy vinograd pyatilistkoviy, Xitoy glitsinyasi, jimolost kaprifol, tekoma va boshqalarni qo'llash mumkin.

**Bolalar bog'chalarini va yasllari.** Bolalar bog'chalarining hududi funksiyasiga ko'ra, odatda bolalar zonasini guruuhlar maydonlari, sport maydonchalari zonasini, xo'jalik va manzarali ko'kalamlar zonasiga bo'linadi (6.4.3-rasm).

Bolalar bog'chalarini muassasalarining hududlarini atrofidagi ko'cha va hududlardan qatorlab tig'iz ekilgan, eni 5–6 metr bo'lган daraxt va butalar bilan ajratish kerak. Bu bog'cha hududini tashqi shovqin hamda chang-to'zonlardan saqlash imkonini beradi va tashqi muhitdan xolilashtiradi.

Bog'cha binosi hududining ichki qismidagi ko'kalamzorlar mazkur hudud muhitini sog'lomlashadirish va hududdan quay foydalanish imkoniyatini yaratishi kerak.

Bolalar bog'chalarida, eng avvalo, fitontsidga boy quyuq soya beruvchi o'rta kattalikdagi daraxtlar, masalan dala klyoni, yapon saforasi, virgin mojjevelnigi, tuyu, bagryanik, lipa hamda chiroyi va uzoq gullab turuvchi tikoni hamda zahari yo'q butalar, ko'p yillik yorqin va xushbo'y gullarni ekish maqsadga muvosiqdir.

Bog'chalar hududidagi bolalar guruhlari va umumiy foydalanganuvchi maydonlarni soya qilish maqsadida usti va yon tomonlari yovvoyi tok, puerariya, klematis, tekoma va boshqa chirmashib o'suvchi o'simliklar bilan qoplangan trelabaj va pergolalarni qo'llash ma'quldir (6.4.2-rasm).

Bolalar guruhlaringin maydonchalari bir-biridan butalardan ekilgan yashil to'siqlar bilan ajratilishi kerak. Yashil to'siqlarga qirtishlash usulida geometrik shakllar ham berilishi mumkin.

Bolalar bog'chalaridagi gulzorlar, asosan, binoga kirish oldida, ota-onalar kutadigan joyda va bino atroflarida bo'lishi mumkin. Gulzorlar bir, ikki va ko'p yillik gullar hamda gullovchi butalardan shakllantirilib, ular o'zining chiroyi va qizg'in gullahshi, gullarining yorqin ranglari, yoqimli hidi bilan ajralib turishi zarur.

Bir yillik gullardan salviya, barxatsilar, petunya, astra, kalendula, xushbo'y tabaklarni qo'llash mumkin. Ikki yillik gullar ichida viola,

margaritka, nezabutkalarga ko'proq o'rinn berilishi zarur. Ko'p yillik gullarni maysazorlar fondida manzarali butalar bilan birga ekish maqsadga muvofiqdir.


Buning uchun akvilegiya, liliya, delfinium, iris, pion, floks va ko'p yillik astralar tanlanadi. Trelyaj va pergolalar uchun tirmashib o'suvchi lianalar-klematis, jimolost, kaprifollarni, tik ko'kalamzorlashtirish va devorlarga soya berish maqsadida beshbargli devichiy vinograd, tekomalar, drevogubetslarni qo'llash mumkin (6.4.4-rasm).

Bolalar guruhrining maydonchalari atrofiga va ularga yaqin joylarga mevali daraxtlar ekish maqsadga muvofiq emas. Chunki bolalar ularni pishmasdan, chang holida uzib olishlari va payhon qilish mumkin. Mevali daraxtlarni alohida joylarga, jo'ya olib qatorlab ekish mumkin.


Daraxtlar va butalar ekiladigan joylar, gulzorlarning atrofi hamda bolalar maydonchalari va dam olish joylari maysazor bilan qoplanishi zarur (6.4.5-rasm).




6.4.2-rasm. Bolalar bog'chalari hududining landshaft yechimi.



6.4.3-rasm. Bolalar bog'chasi huddini me'moriy-landschaft  
tashkillashtirish.



6.4.4-rasm. Bolalar bog'chasi hududini ko'kalamzor lashtirish bo'yicha loyiha-taklif.  
(L.V. Olevskaia bo'yicha).



6.4.5-rasm. Bolalar bog'chasi hududini ko'kalamzorlashtirish.

**Umumta'lim maktablari, kollejlar va litseylar.** Maktab hududlarini to'g'ri va qulay funksional zonalarga bo'lib tashkillashtirish landshaft obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishda muhim sanitariya-gigiyenik va o'quv-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Aynan shu maqsadda maktab hududining yarmidan ko'p qismi (55–60%) ko'kalamzorlashtirilishi zarur.

Tanlanadigan o'simliklar assortimenti nafaqat manzaraviy estetik va biologik talablarga, balki turli xil daraxt va butalardan hamda o'quvchilarga O'zbekiston florasini tanishtirish imkoniyatlariga ham ega bo'lishi kerak.

Buning uchun yirik maktablar qoshida o'quv-tajribaviy biologiya va dendrologiya bog'chalarini, o'rta va kichik maktablar hududida mevali bog' va polizlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Bunday hududlarda o'quvchi-yoshlar manzarali va qishloq xo'jalik ekinlarini ekish hamda o'stirish tajribalariga ega bo'lishi

bilan birga tabiatga mehr qo'yish va uni ardoqlash ko'nikmalarini ham egallaydilar.

Maktablar hududi quyidagi funksional zonalarga bo'linishi zarur: o'quvchilarning tannafus va darsdan keyingi vaqtlarida dam olish zonasasi, jismoniy tarbiya va sport zonasasi, tinch dam olish zonasasi, xo'jalik zonasasi (6.4.6-rasm).

Maktab hududi atrofdagi ko'chalardan bir yoki ko'p qatorli tarzda ekilgan daraxtlar bilan ajratilgan bo'lishi kerak. Maktabga kirib kelish yo'llari va ichki yo'laklar keng shox-shabbali daraxtlar bilan ko'kalamzorlashtirilishi zarur.

Maktab binosining devorlari janub va janubiy-g'arb kabi quyosh tushuvchi tomonlardan qator ekilgan daraxtlar bilan to'silishi kerak. Boshqa hududlarda va maydonlarda ko'p sonli maktab bolalarining bo'lishi va harakatiga xalaqit bermaydigan daraxtlar ekilishi mumkin. Tinch dam olish zonasida esa daraxtlar tig'izroq ekilishi zarur.

Bu yerda chirmashuvchi o'simliklar va toklar bilan o'ralgan pergola hamda besedkalar o'rnatilishi ma'quldir (6.4.7-rasm).

Maktab hududidagi dam olish zonasini ko'kalamzorlashtirish uchun quyuq soya beruvchi eniga keng o'suvchi, shox-shabbasi va bargi tig'iz daraxtlar tanlanadi. Darsxonalarning derazalari oldini to'sib qo'ymaslik uchun daraxtlar va baland butalarni binodan muayyan masofaga ekish kerak. Daraxtlar oralig'i 5–10 m, butalar orasi 3–5 m bo'lishi kerak. Butalarni maysa ustuda alohida yoki guruhlab ekish zarur. Baland bo'yli butalarni (siren, jimolost, kalina, buldanej) maktab uchastkasi chegaralariga yaqin, o'rtalari past butalarni (veygela, forzitsiya, grebenschchik, spireya) binolarga yaqin ekish tavsiya etiladi.


Maktabning old qismi va kirish joylaridagi hududlarni xvoy tipidagi daraxtlar (virgin mojjevelnigi, sharq biotasi, ko'k archa, magoniya) bezaydi. Maktab hududiga tikonli butalar (boyarishnik, barbaris), mevasi va barglari zaharli bo'lgan o'simliklar (dafna yoki volche liko, jimolostning ayrim turlari, sumaxlar)ni ekish man etiladi. Gulzorlarni, asosan, ko'p yillik o'simliklardan shakllantirish tavsiya etiladi. Maktab hududidagi dam olish zonasida miksborder gulzorlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Uning tarkibidagi turli o'simliklar yil davomida uzlusiz gullab yaxshi manzara berishi muqarrardir. Ikki yillik va bir yillik o'tli

o'simliklar hamda gullarni mактаб binosi oldidagi klumbalar va rabatkalarni shakllantirishda foydalanish mumkin. Mактab hududida bir yillik gullar tuxumi to'g'ridan-to'g'ri gulzor tuprog'iga ekiladi.

Shunda uning yoppasiga gullahshi mактabdagi o'qishning boshlanish davriga to'g'ri keladi.

204



6.4.6-rasm. Mактab hududini ko'kalamzorlashtirish.



6.4.7-rasm. Mактabdagi jonli tabiat burchagi:

1 – yirik daraxtlar; 2 – basseyн; 3 – zooburchak; 4 – mahalliy flora o'simliklarining kolleksiysi; 5 – alpinariyalar, 6 – skameykalar, 7 – toza havoda shug'ullanish uchun maydoncha; 8 – zinapoya.

**Sport inshootlari va komplekslari.** Sport inshootlari va komplekslari hududlarini me'moriy landshaft loyihalash va ko'kalamlashtirish ishlari ushbu inshootlarning hududda qanday joylashtishi, hududning me'moriy-rejaviy yechimi, hudud relyefi, iqlimi, tuproq turi va atrof-muhit qurilishi va landshaftiga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Hududga ekiladigan o'simliklarni tanlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- bargi yaltiraydigan daraxt va butalarni tanlamaslik;
- sport maydonlari atrofiga ekiladigan o'simliklarni ulardan maydonlarga soya tushmaydigan qilib joylashtirish;
- tikoni o'simliklarni, o'zidan havoga ko'p miqdorda tuxumi uchib yuruvchi, mo'l meva beruvchi va barglarini tez tushuvchi o'simliklarni qo'llamaslik;
- o'simliklarning manzaraviy imkoniyatlaridan atrof-chetdagi nobop ko'rinishlarni yopish uchun foydalanish.


Sport kompleks hududidagi shovqin kuchini pasaytirish, havo tarkibi va uning issiqqli hamda namlik rejimini yaxshilash uchun maxsus o'simliklar ekiladi.

Masalan, ochiq sport inshootlari yer maydonining perimetri bo'ylab tashqi shamol va changlardan himoyalanish maqsadida daraxt hamda butalardan tuzilgan ixota ekinlari shakllantiriladi. Uning enini mahalliy yo'l va ko'chalar tomonidan 5 m, magistral yo'llar tomonidan esa 10 metrgacha belgilanadi. Sport kompleksi ichidagi ochiq sport inshootlari atrofidan ham eni 3 m bo'lgan yashil polosa shakllantiriladi.

Sport komplekslar hududining balansini quyidagicha qabul qilish maqsadga muvofiqdir (% hisobida):

— hajmiy inshootlar	10–20;
— tekis inshootlar	15–25;
— royezd, piyoda yo'llar, ochiq maydonchalar	10–15;
— xo'jalik zonasasi	2–5;
— yashil ko'kalamlar	40–60.

Har bir sport inshootlari guruhining o'z yashil ko'kalamlari bo'lishi kerak. Sport komplekslari hududini me'moriy-landshaft tashkillashtirishda maysazorlarning ahamiyati va o'rni katta. Ularning dilni yayratuvchi yam-yashil tekis yuzasi nafaqat imorat-



**6.4.8-rasm. Mikrorayon jismoniy sport parknining modeli.**

larga, balki maysalar ustiga ekilgan daraxt va butalar, gulzorlarga ham yaxshi manzaraviy fon bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, maysalar muhitning mikroiqlimini yaxshilashga yordam beradi. Agar maysazorlar umumiy foydalanuvchi ko'kalamlar hududidan, odatda, 60% gacha joy egallasa, sport inshootlari va komplekslari hududining 90 % gacha yeri maysazorlar bilan band bo'lishi mumkin (6.4.8-rasm).

Sport maysazorlarini chim yotqizish yoki maysa tuxumini ekish yo'li bilan yaratish mumkin.

Sport kompleks hududi muntazam rejaviy yechimga ega bo'lsa, unda xiyobonlar va piyoda yo'laklarini shakllantirish mumkin. Xiyobonlarni ko'kalamlash ularning ufq tomonlariga nisbatan oriyentatsiyasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

## **6.5. Qishloq parklarini me'moriy-landshaft tashkil etish**

### **Dars rejasি**

1. *Qishloq parklarining funksional zonalari.*
2. *Park markaziy qismining rejasi.*
3. *Tinch dam olish va sayr qilish zonasи.*
4. *Bolalar zonasи.*
5. *Sport va xo'jalik zonasи.*

Qishloq parklari odatda, shahar yoki shaharcha maqomini olgan tuman markazlari hududida joylashib, shaharcha markazidagi nufuzli jamoat binolari yonidagi yoki alohida hududdagi manzaralni joyni egallaydi.

Qishloq parklari, odatda, ochiq landshaft muhitida ommaviy madaniy-ma'rifiy tadbirlar, konsertlar, navro'z va mustaqillik bayramlari, xalq sayillari, bolalar va sport o'yinlari, attraksionlar va boshqa ommaviy-madaniy dam olish funksiyalariga mo'ljallanadi (6.5.1-rasm). Aynan shu maqsadlarga moslab park hududi bir nechta **funksional zonalarga**: ommaviy-madaniy tadbirlar va attraksionlar, jismoniy tarbiya va sport, bolalar, tinch dam olish va boshqa zonalarga bo'linadi. Park hududida suv havzasи (tabiiy ko'l yoki prud) bo'lgan hollarda ushbu zonalar qatoriga akvatoriya zonasи ham qo'shiladi. Bu zonalar bir-biri va parkning bosh darvozasi bilan park xiyobonlari hamda sayrgoh yo'llari orqali bog'lanadi. Har bir zona o'z funksiyasiga mos tarzda park inshootlari, imoratlari, qurilmalari, mebellari va hududning tashqi obodonlashtirish jihozlari bilan ta'minlanishi zarur. Bu zonalarni manzaraviy landshaft yechimlari ham ularga mos tarzda shakllantiriladi. Massalan, parkning bosh darvozasi oldi va bosh xiyobon yashil parterlar hamda qatorlar bilan ko'kalamlashtiriladi. Buning uchun esa, odatda, to'g'ri geometrik shakllar (konus, ustun, piramidasimon) yoki boshqa manzaraviy siluetlarga ega doim yashil xvoyli va yaproq-bargli daraxtlar, butalar va gullovchi o'simliklardan foydalaniladi. Darvozaga tutash maydonlarda parter tipidagi klumba gulzorlari, bosh xiyobon bo'ylab esa rabatka va bordyurlar shakllantiriladi.


**Park markaziy qismining rejasi** ko'pincha muntazam stilda yechilib, shunga mos ravishda gulzorlar va xiyobonlar shakllan-

(iriladi. Doim yashil butalardan oddiy va kazasskiy mojjevelniklarni ekish tavsiya etiladi. Ularning birinchisi piramidasimon tik shaklga ega bo'lsa, ikkinchisi yer bag'irlab sochilib o'sadi. Bunday guruhlar yam-yashil maysazor fonida yanada yaxshi manzara beradi, biroq kazasskiy mojjevelnik yonida atirgullar ekilsa samara yanada oshadi (6.5.2-rasm).


Doim yashil tuya zapadnaya o'simligi ham ko'p turli va o'ta ko'r kam, uning daraxt shaklidan tortib, to yer ustida sharsimon shakl beruvchi pastqam buta turlarigacha mavjud, uning xvoy rangi esa turli-tuman yashil va sarg'ich tuslarga kiradi. Maysa fonida daraxt va go'zal gullovchi butalar ekiladi. Ularning shunday xillari tanlanadiki, toki ular turlicha gullah davriga ega bo'lsin. Farzisiya, mindal, kinomeles, spereya Van-Gutta, siren, gortenziya va boshqalar shular jumlasidandir. Gul o'simliklaridan eng manzaralari va uzoq gullovchilar – kann, salviya, pelargoniya, alissum kabilar tanlanadi. Park markazidagi parter va klumbaga mavsumiy gullar – bahorda tyulpanlar, naritssa, viola, margaritka va boshqalar, kuzda esa bir yilliklar ekiladi.

Park markazidan uzoqlashgan sari daraxt va butalardan tuzilgan tabiiy landshaft tusidagi aralash hamda murakkab guruhlar kompozitsiyasini ko'paytirib borish zarur, ularning tarkibi kengayib ularga daraxtlarning mahalliy turlari ham kiradi (majnuntol, chinor va boshqalar). Gulzorlarning shakli va turlari ham o'zgarib, soni esa kamaytiriladi. Asosan, maysa foniga ekilgan ko'p yillik gullardan tuzilgan guruhlar (rudbekiya, astra, floks, iris) va butalardan shakllangan guruhlar miksborderlar qo'llaniladi (6.5.3-rasm). Bu yerlarda, ya'ni markazdan chetraq joylarda parkning *tinch dam olish va sayr zonasasi* joylashgan bo'lib, yuqorida aytilgan ko'p yilliklardan tuzilgan landshaft kompozitsiyalari (guruhlar) park ska-meykalari, pergola, voishlar yonlariga ekiladi. Bu zonani ko'kalam-lashtirganda ochiq va yopiq yashil muhitlar tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqki, buning uchun o'tloq maysazorlar, pastqam butalar va soya beruvchi daraxtlar massivini qo'llashni tavsiya qilish mumkin.


**Bolalar zonasida** uncha katta bo'lмаган modulli bog'lar yaratish maqsadga muvofiqdir. Ularda turli o'simliklar o'chamlari 1x1 m yoki 1,5x1,5 m bo'lgan gul qutilarida o'stirilishi mumkin. Bu




6.5.1-rasm. Samarqand viloyatidagi «Besh bola» qishlog'i parkining me'moriy landshaft yechimi.



6.5.2-rasm. Qishloq parki landshaftining ko'rinishi.



**6.5.3-rasm. Samarqand viloyatidagi qishloq parkining me'moriy-landshaft yechimi.**



**6.5.4-rasm. Parklardagi ochiq va yopiq yashil xiyobonlarning ko'rinishi.**

balalarning modulli qutilar orasidagi yo'laklardan quvishib faol va sho'x o'yinlari uchun qulay imkoniyat yaratishi mumkin. Bolalar attraksionlarini bir-biridan yashil to'siqlar yoki tirik devorlar orqali ajratish tavsija etiladi.

**Sport zonasiga**, odatda, gulzorlar ekilmaydi. Daraxt va butalardan iborat qatorlar, yo'laklar hamda xiyobonlar ko'kalam-lashtirishda qo'llaniladi. Qatorlar esa ko'proq maysa va yeryopar o'simliklar fonida shakllantiriladi.



6.5.5-rasm. Juma shahri «Yoshlar bog‘i»ning bolalar zonasasi.

*Xo‘jalik sektori* (park inventarları jihozlarini saqlash uchun saroy yoki shiypon)ni tirmashib o‘suvchi butalar (lianalar) yordamida yopish tavsiya etiladi. Boyarishnikdan ishlangan baland yashil to‘sinq, qisqa bargli lox yoki oddiy barbarislari nobop xo‘jalik imoratlarini to‘sish, ko‘zdan xolilashtirish imkonini beradi. Xo‘jalik hovlisining devori, hojatxonalar va axlatxonalar yoniga yog‘och panjaralar o‘rnatib, ularga vinograd devichiy pyatilistochkoviyl, oddiy xmel kabi tirmashib va chirmashib o‘suvchi o‘simliklarni ekish mumkin (6.5.5-rasm).

Ana shunday manzarali o‘simliklar bilan tinch dam olish zonasidagi trelyaj, pergola, voish, shiyponlarni ham bezash tavsiya etiladi. Eng manzarali lianalarni (pletistaya roza, klematis, jimolost, kaprifol brauna, goroshek dushistiy) parkning markaziy qismida metall yoki yog‘ochlardan maxsus o‘rnatilgan dekorativ tayanchlar oldiga ekish maqsadga muvofiqdir. Bunday tayanchlar tekis voishlar, konus, piramida, shar yoki soyabonsimon shakllarida bo‘lish mumkin (6.5.6-rasm).



**6.5.6-rasm. Qishloq bog'lari «Bolalar zonasasi»ning landshaft yechimi.**

Qishloq parklarini tabiiy yoki sun'iy shakllantirilgan suv havzalari ham bezashi mumkin. Ular atrofidan aylanib yurish uchun yo'laklar o'matilishi lozim.

Suv havzalarining qirg'oqlarini maysalar bilan, daraxtlar, butalar va ko'p yilliklardan tuzilgan guruhlarni esa shunday joylashtirish kerakki, ular suv havzalarining chiroyli peyzajlarini to'sib qo'ymasin.

Aksincha, suv havzalari sohillariga majnuntol kabi manzaralari va gullovchi butalardan ekish maqsadga muvosfiqdir. Uncha katta bo'limgan irmoqlar sohiliga esa toshlar va namlikni yoqtiruvchi turli xil ko'p yillik o'simliklar, shu jumladan veronika prostyortaya, nezabutka bolotnaya, paporotniklarni ekish mumkin.

***Mustahkamlash uchun savollar***

1. Umumshahar va qishloq tuman markazlarini landshaft tashkillashtirishda qanday tamoyillarga asoslaniladi?
2. Qishloq tuman markazlari hududi qanday zonalarga bo'linadi?

3. *Qishloq ko'chalarini va xiyobonlarini landshaft tashkil etish qanday usul va tamoyillar asosida amalga oshiriladi?*
4. *Xiyobonlarning turlari va ularni ko'kalamlashtirish asoslarini tushuntirib bering.*
5. *Turarjoylar hududlarini landshaft tashkillashtirishning asosiy tamoyillarini aytib bering.*
6. *Ma'muriy binolar hududlarini landshaft loyihalashtirishda nimalarga e'tibor qaratilishi kerak?*
7. *Bolalar bog'chalari va yaslilar hududlarini landshaft loyihalashtirishda nimalarga e'tibor berilishi zarur?*
8. *Umumta'lim maktablari va kollejlар hududlarini landshaft loyihalashtirishda qanday tamoyillarga asoslanadi?*
9. *Qishloq parklarining hududlarini landshaft tashkil etish va loyihalashda qanday talab va tamoyillarga asoslaniladi?*
10. *Qishloq parklari qanday funksional zonalarga bo'linadi?*
11. *Qishloq parklari hududining balansi deganda nimani tushunasiz?*
12. *Maxsus parklar va bog'larga qanday bog'-parklar kiradi?*

## VII bob

# LANDSHAFT ARXITEKTURASINING ASOSIY ELEMENTLARI VA LANDSHAFT DIZAYNI QURILMALARI

---

### *Dars rejasি*

1. Landshaft dizayni qurilmalarining tipologiyasi.
2. Yer relyefi bilan bog'liq landshaft dizaynining qurilmalari.
3. Suv havzalari bilan bog'liq landshaft qurilmalari.
4. Mo'jaz me'moriy shakllar bilan bog'liq qurilmalar.
5. O'simliklar bilan bog'liq landshaft qurilmalar.

**Landshaft dizayni qurilmalarining tipologiyasi.** Landshaft dizayn qurilmalari va ularning arxitekturasi landshaft arxitekturasining eng muhim estetik, foydalanishga qulay, manzaraviy va sog'lom funksional muhit yaratish bilan bog'liq sohalaridan biridir. Aynan ana shu soha hozirgi kunda qishloqlarimiz va shaharlarimiz muhitida, ayniqsa, bog'-parklar va xiyobonlarda yaxshi yechim va sifatlarga ega bo'lishga muhtojdir.

**Landshaft arxitekturasi va landshaft qurilmalari.** Bu ikki so'z orasida murakkab uzviy bog'lanishlar borki, landshaft arxitekturasining tarixi butkul landshaft qurilmalari bilan bisyordir. Landshaft arxitekturasi bu umumiy so'z bo'lsa, landshaft qurilmalari uni moddiy to'ldiruvchi, uning barcha obyektlariga sifat va mazmun bag'ishlovchi, landshaft bilan bog'liq mo'jaz me'moriy shakllar, tashqi muhitni obodonlashtirish, o'simliklar, yer relyefi, suv havzalari, bog'-park mebellari, me'moriy shakllar bilan bog'liq elementlar, bularning barcha-barchasi landshaftni shakllantiruvchi qurilmalardir.

Landshaft arxitekturasining qurilmalari shunchalar ko'p sonli va turli-tumanki, ularni o'rganish uchun mazkur sohani alohida mavzu sifatida qarab, masalaga chuqur va kompleks yondashish zarur.

Mazkur bobda landshaft qurilmalarining tasnif tizimi ilk bor ishlab chiqilgan bo'lib, ular to'rtta yirik guruhga: 1 – yer relyefi bilan bog'liq landshaft qurilmalariga; 2 – suv havzalari bilan bog'liq landshaft qurilmalariga; 3 – landshaft arxitekturasining mo'jaz

me'moriy shakllar bilan bog'liq qurilmalari; 4 – landshaft arxitekturasining o'simliklar bilan bog'liq qurilmalarga bo'lingan.

*Birinchi guruhdagi landshaft qurilmalariga* tirkak devorlar, zina-poyalar va panduslar, xiyobonlar, maydonlar va ularning to'shamalari, alpinariya va rokariyalar, chadarlar, chinixana, chabutralar, *ikkinchchi guruhdagi landshaft qurilmalariga* esa hovuzlar va prudlar, dekorativ basseynlar, favvoralar, sharshara va shalolalar, sohillar va qirg'oqlar, ko'priklar, *uchinchchi guruhg'a* to'siqlar va darvozalar, ko'shk (kioska)lar, pavilyonlar, rotondalar, bolyustradalar, park mebellari (o'rindiqlar, kursilar), dekorativ devorlar va nihoyat, *to'rinchi guruhg'a* trelyajlar, pergolalar, shpalerlar, voishlar, bordyurlar, miksborderlar, yashil to'siqlar (izgorodlar), guldonlar, bosketlar, osib qo'yiladigan korzinkalar, konteynerlar va labirintlar kiritildi.


Mazkur bobda har bir guruhdagi landshaft qurilmalarining turlari va xillari, ularning o'lchamlari, parametrlari, shakllari, qurilish materiallari va ularning landshaft yechimlari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

### 7.1. Yer relyefi bilan bog'liq landshaft qurilmalari


*Tirkak devorlar.* O'tmishda qiyaliklar, tog' etaklari va qirlik joylarda barpo etilgan bog'-parklar hududlari bir necha tekis pog'onalarga bo'lib chiqilib, bu sahnlar bir-biridan tirkak devorlar yordamida ajratilgan. Bunday tirkak devorlar, odatda, tuproq bosim kuchi va nurashiga yo'l qo'ymasligi uchun mustahkam ishlanishi zarur bo'lgan. Shu boisdan ular tabiiy toshlardan ishlangan. Tirkak devorlarni hozirgi paytda tarixiy bog'lar va zamonaviy parklarda ham ko'p uchratish mumkin (7.1.1-rasm).

Tirkak devorlar bog'-parklardagi notekis hududlarni chiroyli va manzarali tashkil etishda juda qo'l keladi. Ular joy landshafti yoki relyesining go'zal manzaraviy elementi yoki tarkibiy qismi bo'lib ham xizmat qilish mumkin. Ayniqsa, ularning yoniga «miksborder» gulzor, «osma bog'lar» yoki sharsharalar ishlansa, tirkak devorlar yanada go'zallashib ketishi mumkin (7.1.2-rasm).

Agar tirkak devorlar bog'-park hududida yoki yer relyefida juda cho'zilib ketsa, ularni boshqa dekorativ elementlar bilan, masalan



**7.1.1-rasm.** Yer relyefi bilan bog'liq geoplastik landscape kompozitsiyalari.



**7.1.2-rasm. Miksborderlar bilan bezatilgan tirkak devorlar.**

skameyka, zinapoya, pandus, ravoq, sharshara, tokchalar yordamida bo'lib, ularning bir xilligiga barham berish mumkin.

Tirkak devorlar uchun material tarzida tabiiy toshlar, beton, antisepstiklarga to'yintirilgan yog'ochlar, xay-tek stilidagi bog'lar uchun esa yaltiroq yuzali metall listlar qo'llaniladi.



Tirkak devorlar balandligi turlicha bo'lishi mumkin. Balandligi 25–30 sm bo'lgan tirkak devorlar, odatda, poydevorsiz ishlanib, ularning materiali yerga 15–25 sm chuqurlikdan terib chiqiladi. Baland tirkak devorlar uchun esa poydevor bo'lish shart va u, odatda, devor balandligining 13 qismini tashkil qiladi.

Tirkak devorlarni qurganda drenaj qatlamini unutmaslik kerak va buning uchun devor ichiga diametri 5–10 sm bo'lgan quvur qo'yilib ketiladi. Tirkak devorlar yuzasi turlicha: singan, burchakli, to'g'ri burchakli, chiqqan-kirgan, romb ko'rinishida yoki qobirg'ali bo'lishi mumkin. Tirkak devorlar devori asosidan yuqoriga qarab 10–15° qiyalikka ega bo'lish kerak.

Tirkak devorlar uch uslubda ko'kalamzorlashtirilishi mumkin: pastdan yuqoriga qarab tirmashuvchi o'simliklar bilan (7.1.3-rasm), yuqoridan pastga qarab osilib o'suvchi o'simliklar bilanva devor ichida ishlanadigan maxsus tokchalar yoki «kista»larga ekiladigan o'simliklar bilan.

Uchinchi uslub uchun qo'llanadigan o'simliklar qatoriga burchak skalniy, veronika sedaya, devyasil mechelistniy, ovsyanitsa krasnaya, gvozdika peristaya, jivuchka polzuchaya, karlina besstebelnaya va boshqalarni kiritish mumkin.


7.1.3-rasm. Tırgak devorlarning turlari va ularning ko'lamzorlashtirish usullari.



7.1.3-rasmning

davomi.

Tırgak devorlarning  
turlari va ularni  
ko'kalanzorlashtirish  
uslublari.




**Zinapoyalar va panduslar.** Zinapoyalar qiyalik joylarda maskan yoki landshaft muhitda balandlikka yoki pastga, pog'onadan pog'onaga (sahndan sahnge) qarab harakatlanishga mo'ljallangan qurilmalardir. Zinapoyalar vertikal va gorizontal yuzalardan iborat bo'lib, tik yuza ularning balandligini, odatda, 15–18 sm, gorizontal yuza esa ularning enini (60–65 sm atrofida) hosil qiladi. Paklar va bog'larda zinalar balandligi odatdagidan pastroq – 10–12 sm, eni – 40–45 sm bo'ladi. Murakkab relyefli joylarda (qiyaligi 10° dan katta), ya'ni 1 metrlik qiyalikda, past va balandning farqi 10 sm va undan ortsa zinapoyalar o'rnatilishi shart. Agar qiyalik bundan past bo'lsa, bunday relyefda harakatlanishi uchun zinapoyalar emas, balki «panduslar» ishlanadi. Panduslarda tik yuzalar bo'lmaydi. Ularning yuzi qiya bo'ladi. Panduslar eni zinapoyalar kabi bog' va parklarda 1,2 m dan boshlab 2,4–3,6 m va undan ham kengroq bo'lish mumkin. Bu yerdagi 1,2 m ikki kishining yonma-yon erkin harakatlanishi uchun talab etiladigan eng qisqa masofadir.

Zinapoyalar turli xil materiallardan: toshlar, g'ishtlar, betonlar yoki yog'ochlardan ishlanishi mumkin. Eng muhim ularning yuzasi silliq, ya'ni sirpanchiq bo'lmasligi kerak. Zinapoyalar bir yoki ko'pmashli bo'lishi mumkin. Ko'pmashli zinapoyalarda marshlar orasiga maydonchalar (gorizontal sahnlar) ishlanadi (7.1.4-rasm).

Zinapoyalar amaliy vazifadan tashqari dekorativ ahamiyatga ham ega. Dekorativ zinapoyalar, ayniqsa, Yevropa Uyg'onish davrining italyancha bog'lariga xosdir. Zinapoyalarning dekorativ xususiyatini oshirish maqsadida ularning chetlari bo'ylab perila yoki balyasinalar o'rnatilib, ularning yoniga lianalar ekiladiki, ular ushbu balyasinalarga chirmashib go'zal manzaralarni hosil qiladi. Ko'pmashli zinapoyalarning gorizontal maydonchalariga o'simliklar o'rnatilgan konteynerlar joylashtirilsa zinapoyalar ko'rinishi yanada samarali bo'ladi.

**Bog'-park yo'llari va ularning to'shamalari.** Xiyobon va yo'llar bir necha turlarga: asosiy, ikkinchi darajali, qo'shimcha piyodalar yo'llari, piyodalar xiyobonlari va yo'llariga bo'linadi.

Asosiy yo'llarning eni 6–9 m bo'lib, ularning o'rtafiga kengligi 2 m atrofidagi ajratuvchi yashil tasmalar yotqiziladi, yashil



**7.1.4-rasm. Ko‘p marshli zinapoyalar va tirkak devorlarning me’moriy-landshaft yechimiga amaliyotdan misol.**

tasmalarning har 25–30 m atrofida o‘tish joylari bo‘ladi. Ular o‘zining asosiy kirish joylariga ega bo‘lgan funksional zona va maydonlarni bir-biriga bog‘laydi. Bu maydonlarda parkning ichki transporti o‘tiladigan yo‘llari o‘tkaziladi. Agar xiyobon suv havzasi yoki qirg‘oq yonidan o‘tadigan bo‘lsa, uning ko‘ndalang kesimi turli pog‘onalarda, qiyalik, devorcha va zinapoyalar bilan bog‘langan holatda yechilishi zarur.

Ikkinci darajali yo‘laklar (eni 3–4,5 m) manzarali joylarda o‘tishi trassallashtirilishi va egri chiziqli qirralarga ega bo‘lishi mumkin. Ikkinci darajali yo‘laklarning kirish joylari va park obyektlari o‘zaro bog‘lanadi. Bunday yo‘laklarda ekspluatatsion transport vositalarining harakatiga ruxsat beriladi.



7.1.5-rasm. Tabiiy toshlardan shakllangan to'shama.

Qo'shimcha piyoda yo'laklari (eni 1,5–2,5 m) dam oluvchilarni parkning alohida joylashgan inshootlariga olib boradi. Bu yerda kichik tez-tez piyoda harakatlari amalga oshiriladi va transport vositalarining harakatlarini yo'l qo'yilmaydi. Kichik piyoda yo'laklari erkin trassirovkaga ega bo'lishi mumkin bo'lgan har bir qurilish obyekti bilan, park inshootlari, o'simliklarning yagona va guruhli massivlari bilan tutashtirilib bog'lanadi. So'qmoqlar (eni 0,75–1,0 m) tabiiy xarakterga ega bo'lgan landshaftda qo'shimcha sayr qilish yo'laklarini aks ettiradi. So'qmoqlar keskin qiyaliklar, changalzorlar, jariliklar, jilg'a bo'yalaridan trassirovka qilinishi mumkin. 7.1.5, 6, 7-rasmlarda zamonaviy piyoda yo'laklar va ularning qoplamlalari bog' va park landshafti bilan bog'lanishi ko'rsatilgan.

**Xiyobon, park maydonchalarini va yo'llarning qoplamlalari.** Maydonchalar va yo'laklarning qoplamlalarini yumshoq hamda toshli qoplamlardan yoki ularning qo'shilmasidan qurish maqsadga muvofiqdir. Klinker, parferit, g'adir-budur granit va marmarli qoplamlalar uzoq muddatli, tejamkor va eng qulay tabiiy materiallardir. Ularning qimmat bo'lishiga qaramay, uzoq foydalanishga va yuqori yuklanishga mo'ljallangan maydonlarda hamda piyodalar yo'laklarida qo'proq qo'llanishi lozim, ularni qisqa muddatli va ekologik bo'limgan beton plitalarga, bruschatka va, ayniqsa, asfalt qoplamlarga almashtirmaslik kerak.



*7.1.6-rasm. Yog'och to'shama.*

Bog' va parklarning eng muhim tarkibiy elementlaridan biri – bu asosiy yo'laklar va ularning to'shamalaridir. Ular bog'-parklarning turli qismlari va zinalarini bir-biri bilan bog'laydi hamda insonlarning erkin yurishi uchun xizmat qiladi.

Yo'laklar bir-biridan eni, yopmasi va to'shamasining turi, qo'llanilgan materiali va to'shamasidagi texnologiyasiga qarab farqlanadi. Imoratlarga eltuvchi asosiy yo'laklarning eni 1,2–1,5 m, ikkinchi darajali yo'laklarniki esa 1 m qilib olinadi. To'shamalar



7.1.7-rasm. Maysali to'shamalar.

turiga qarab plitali, toshli, blokli, beton, maysali bo'lishi mumkin (7.1.8-rasmlar).



7.1.8-rasm. Maysali shag'al-beton to'shamalar.

**Alpinariya va rokariyalar.** Ajdodlarimiz o'z tarixiy hayoti faoliyati davomida bog'larni bezash uchun suv va toshlarni ishlatgan. Keyinchalik toshlarni-yo'laklar, to'shamalar va bordyurlar uchun qo'llaganlar. Alishnariya tarixi Britaniyada boshlanib, XVIII asr

boshida tabiiy toshlarni dekorativ element sifatida bog‘larga ishlatischgan. Bu davrda bog‘larda toshlardan tepaliklar, grotlar va katta-katta tabiiy toshlar guruhlari yaratilib, ular orasida o‘simliklardan paporotniklar ekilgan.

Toshlar va suv jozibasini hisobga olgan holda, dala hovlilari va ularning atroflari ular yordamida bezatilib, shu tariqa hududning tabiiyligi ta’minlangan. Yaqin vaqtlargacha hududlarni sun’iy ravishda tosh va suv bilan bezash, faqat ta’minlangan boy kishilarning qo‘lidan kelar edi. XIX asrda Angliya bog‘larida tabiiy toshlardan ravoqlar va devorlar qurish urfga aylandi. XX asrda kelib esa bog‘larda suv havzalari va favvoralarini qurish oddiy bog‘bonlarning ham qo‘lidan kelardi. XIX asr oxirida ulkan tabiiy toshdan yasalgan inshootlar urfdan chiqadi.

1772-yili fizik Garden o‘zining o‘simliklar kolleksiyasiga Shvetsariyaning Alp tog‘laridan o‘simliklar keltiradi. Ularning ekish joyiga island graviysi va bazalt lavasi toshlarini kiritib, ulardan alp tog‘-toshlariga o‘xhash kompozitsiyalar yaratdi. «Alpinariya» yoki «toshli bog‘» atamasi shu qurilmalardan kelib chiqadi. Toshlar orasida o‘simliklarni o‘stirish g‘oyasi, Britaniyada asta-sekin rivojlanma boshlaydi. 1860-yillarda alpinariyalar Britaniya bog‘larida yetakchi o‘rinni egallaydi. 1867-yili London yaqinidagi Kyu bog‘larida alpinariyalar quriladi. 1870-yili U.Robinsonning «Britaniya bog‘lari uchun alp o‘simliklari» degan kitobi chop etiladi. Britaniya bog‘larida alpinariyalar qurilishi uchun XX asrning boshlarigacha Boksborn (Xartfordsh) shahridan toshlar olinardi.

Alpinariyalarning rivojlanish davri va odamlarning ularga bo‘lgan qiziqishi XX asrning uchinchi o‘n yilligiga to‘g‘ri keladi. Bu davrga kelib Rejinald Firrerning «Mening toshli bog‘im» degan kitobi chop etiladi.

XX asrning 20–30-yillari alpinariyalarning hamma bog‘larida qo‘llanish yo‘lga qo‘yiladi. Bu alpinariyalarning ommalashish davri deb hisoblanadi. Bu davrga kelib alpinariya o‘simliklarini oddiy o‘simliklar qatoriga yetishtirish va ko‘paytirish g‘oyasi oldinga suriladi. O‘simliklar assortimenti oshib, hech qanday qiyinchilik-larsiz alp o‘simliklarini yetishtirishi yo‘lga qo‘yiladi. Alpinariyalar va ularning o‘simliklarini bog‘-park hududlarida qo‘llanilishi hozirgi kungacha davom etmoqda.

Alpinariyalarning hududda joylashishiga qarab, 6 xil turi mavjud: zinali tog‘ qiyaligi, stollar va tumbalar ko‘rinishidagi tog‘ toshlari, yassi tog‘li tosh, terassali tog‘, qoyatosh va toshloq vodiy ko‘rinishidagi alpinariyalar (7.1.9-rasm).

Hozirgi kunda alpinariya yoki rokariyalarning 10 xil o‘stirish usullari mavjud.

— osib (sochilgan degan ma’noni beradi) — bunday toshlar, asosan, mayda toshlardan tashkil topadi. Ichida ba’zan katta toshlar ham uchrab turadi;

— ko‘tarilgan klumba (guldon) — devorlari toshlardan terilgan bo‘lib, ekish yeri tepe guldonga joylashgan;

— rakovina yoki karito (chig‘anoq yoki tog‘ora) — bu uslub 1930-yildan boshlab qo‘llanilmoqda, konteynerga ekilgan o‘simlikni xohlagan joyga qo‘yish mumkin;

— quruq toshli devor — bu toshli tirkak devorlardan foydalanish imkonini beradi;

— torfli klumba;

— tosh yo‘lakchalar;

— sun’iy qoyalar;

— alp kichik maysazor;


— alp o‘simliklari uchun (teplisa) issiqxona.

Alp o‘simliklari deb tog‘li hududlarda (Alp, Himolay tog‘lari, qoyatoshli tog‘lar, tog‘ cho‘qqilar va o‘rmonlar tizimidan ancha yuqorida) o‘sadigan ko‘p yillik o‘tlar, butalarga aytildi.

Alp o‘simliklari guruhnинг birinchilaridan bo‘lib, Edelvays o‘simligi qo‘llanilgan. Uni Shvetsariya Alp tog‘laridan keltirib, alpinariyaga ekkan. Bu o‘simlik bo‘yi past bo‘lib, haddan ziyyod yashovchan, quyosh nurlarini yoqtiruvchi, sovuqqa chidamliligi bilan ham ajralib turadi.

Alpinariyada faqat alp o‘simliklari o‘stirilmay dengiz qirg‘oqlarida o‘sadigan fronkeniya va o‘rmonlarda o‘sadigan o‘simliklar (gaulteriya, vaksinnum) ham qo‘llanilib kelinmoqda. Sotuvda uchraydigan «alpinariyalar uchun o‘simliklar» deb nomlangan o‘simliklarni tabiatda uchratmaysiz, bu sun’iy yo‘l bilan yetishtilgan gibidlardir.

Alpinariyalarni tashkillashtirishdan oldin, tog‘ toshlarini keraklicha tekshirib tanlab, g‘amlash zarur (granit, ohaktosh). Ustki




7.1.9-rasm. Rokariyalarning turlari.

qismi moxlar bilan qoplangan toshlar tavsija etiladi. Hududga toshlarni o'rnatishdan oldin, sheben qatlami yordamida (qalinligi 15 dan 20 sm gacha) drenaj qatlami yaratiladi. Drenaj ustidan hosildor yer qatlami (qalinligi 30 dan 40 sm gacha) to'kiladiki, u gumus bilan (10 % gacha) bo'yitilgan bo'lishi kerak.


Toshlarni hosildor yerga joylashtirishda har bir toshning tabiiyliги ko'rsatilgan holda uchdan ikki qismi yerga cho'ktiriladi. Toshlar orasiga ekilgan o'simliklar past bo'yli va ko'p yillik bo'lishi lozim. Toshlardan ochiq qolgan joylarga o'ziga xos «gilam» ko'rinishli o'simliklar (timyan, ochitok, floks) ekiladi. Alpinariyalarda mineral o'g'itlarni qo'llash qat'iyan man etiladi. Yil davomida alpinariya yerlarini bir marta yumshatish va begona o'tlardan tozalab turishga ruxsat beriladi. Ba'zi holatlarda alpinariya o'simliklarini ta'mir jihatlaridan almashtirishga ruxsat beriladi.

**Alpinariy va rokariylar** – toshlik bog' hisoblanib, landshaftli, tog'li va boshqa tabiiy shakllanish ko'rinishida bo'ladi, badiiy, o'ylab topilgan yoki tog' hududining ideallashtirilgan obrazini yaratuvchi, kolleksion o'simliklarni yetishtiruvchi turlari mavjud. Rokariylar hudud manzarasining o'lchamlari va tuproq shart-sharoitlaridan qat'i nazar ixtiyoriy maydonchalarda vujudga keltiriladi. Ular parklar, bog'lar, skverlar, maydonchalar, dalahovlilar va boshqa notekis relyefli joylarda shakllantirilishi mumkin (7.1.10; 7.1.11-rasmlar).



7.1.10-rasm. Alpinariya va rokariyalarga misollar.

Rokariy tepaliklar relyefini ajratib turishi yoki terassalarda va zinapoyalar joylashib, toshlar hamda o'simliklar bilan birga qo'shib barpo qilinishi mumkin. Toshlar past bo'yli daraxtlar va butalar, gullab turuvchi maysali hamda dekorativ bargli o'simliklar uchun ko'rinish — fan vazifasini o'taydi. Rokariylar hududini ko'kalam-




**7.1.11-rasm. Rokariyalarning turlariga amaliyotdan misollar.**

zorlashtirish uchun ko‘pincha sedum, yukka, to‘sama floks, paporotniklar, piyozli o’simliklar ekiladi. Rokariya hududining yoritilishiga qarab o’simliklarni – oftobgo‘y, ya’ni quyoshni yoqtiradigan (semizak, floks bigizsimon, arteriya va boshqalar) yoki soyaga chidamlili (kupena, suvjamlagich, vinka va h.k.) kabi turlarga bo‘lish mumkin.

**Toshdan ishlangan kompozitsiyalar.** Toshlar va tog‘ jinslari bunday holatdagi jinslar tibiyy tarzda uchramaydigan joylarda qo’llaniladi. Bunday holatlarda kerakli toshlarning tanlanishi loyihalanayotgan joyning relyefi bilan mutanosib bo‘lishi hamda ushbu hududdagi shamol harakati jarayonlarining xususiyatlarini hisobga olish kerak (7.1.12-rasm).

Toshlardan ishlangan kompozitsiyalarning amaliy va estetik qadr-qimmati shunda bilinadiki, agar ular loyihalanishning umumiy



**7.1.12-rasm. Katta rokariya toshloq bog'ining tarhi.**

qonun-qoidalariga va tabiatda uchraydigan shakllardek to'g'ri ishlatsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar toshdan ishlanayotgan kompozitsiya loyihalanayotgan hududda yaratilayotgan bo'lsa va hududda asl holatdagi tog' jinslari mavjud bo'lsa, u holda bu qoyalarning holati loyiha oldidan yaxshilab o'rganib chiqilishi va ularni yaratilishda qo'llanilishi kerak. Toshdan ishlanadigan kompozitsianing asosiy mezoni, atrofidagi tabiiy landshaft bilan hamohang bo'lishlidadir.

Yanada anqlik kiritish uchun, bir emas bir necha o'zaro munosabatdagi toshloq kompozitsiyalarni aniq bir «mavzuli

chiziqni» barpo etishda qo'llash mumkin. Misol uchun: toshlarni bir joyga monolit do'nglik ko'rinishida, boshqa variantda ixcham guruh shaklida, uchinchida esa har tarafga sochib tashlangan tasviriy guruh shaklida joylashtirish mumkin. Agar loyihalanayotgan maydon o'ziga xos tabiatga ega bo'lib, uning manzarasi atrof-muhitdagi landshaft tabiatiga qarama-qarshi bo'lsa, u holda uni (me'moriy inshootlar, tayantirilgan devor, daraxtzorlar va h.k.) bilan chegaralash kerak. Toshli materiallarning qo'llanilishiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri uning mustahkamligi, uzoq muddatga chidamliligi, kimyoviy tajovuzkorligidir.

## 7.2. Suv havzalari bilan bog'liq landshaft qurilmalari

Suv — bu eng boy va xilma-xilligi bo'yicha samarador bog'-park kompozitsiyalarni yaratish imkoniyatini beruvchi tabiiy materialdir. Suvning maftunkorligini ularning o'ziga xos dekorativ xususiyatlari va insoniyatga katta emotsiyal ta'sir ko'rsata olishi bilan tushuntirib berish mumkin. Har qanday suv qurilmasini turli xil ranglarga ega bo'lgan tasvir palitrasи bilan taqqoslab ko'rish mumkin. Bu xislatlar suvning tabiiy xususiyatlari bilan: oquvchanligi va rangsizligi, har qanday shaklga kirishi va rangini o'zgartira olishi, atrofidagi jismalarning tasvirini o'zida aks ettira olishi hamda ovoz chiqarishi bilan bog'langan. Suvni landshaft arxitekturasining badiiy kompozitsiyalarida element sifatida qo'llashda uning barcha tabiiy xususiyatlarini to'laligicha va eng yuqori estetik did bilan namoyon etishga harakat qilish lozim.

Suvning sovuqlik, oquvchanlik, o'zgaruvchanlik, aks qaytarish qobiliyati, sochilishi va ovoz chiqarishi kabi tabiiy xususiyatlaridan turli xildagi landshaft elementlarini barpo etishda foydalanish mumkin.


Bog' va parklarning landshaftini tashkillashtirishda suvning buloq, jilg'a, sharshara, basseyн, prud, favvora, shalola, daryo, ko'l va hovuz shakllari ishlatalidi.

**Hovuzlar va prudlar.** Suv havzalarining tabiiy yoki sun'iy turlari mavjud. Ular bilan bog'liq landshaft qurilmalari muhitga o'ziga xos estetik samara beruvchi va mikroiqlim yaratish imkoniyatiga

egadirlar. Ular aniq chegarali, to‘g‘ri geometrik shakllarda yoki erkin tabiat ko‘rinishidagi silliq qirg‘oqli kompozitsiyaviy shakllarda bo‘lish mumkin (7.2.1; 7.2.2-rasmlar).



7.2.1-rasm. Bog‘-park hovuzlari va prudlariga misollar.



7.2.2-rasm. Qirg‘oqlar va sohillarning landshaft yechimlari.

Hovuz atrofini maysa bilan ajratish, suv yuzasini yorug‘lantirish yoki uning qirg‘og‘i oldiga daraxt ekish bilan suv havzasini yanada jozibador qilish mumkin. Suv havzalari qishda muzlab qolmasligi uchun ularning chuqurligi 1,5 m dan kam bo‘lmasisligi kerak. Suv havzalari ulardagি suv harakatiga ko‘ra quyidagicha turlarga bo‘linadi:


- statik suv havzalari: basseynlar, ko'llar, prudlar, hovuzlar. Ulardagi suv tinch vaziyatda bo'ladi;
- dinamik suv havzalari: shalolalar, buloqlar, kanallar, ariqlar, sharsharalar, irmoqlar, favvoralar. Bu qurilmalarning suvi doim harakatda bo'ladi.

**Prudlar.** Tabiiy yoki sun'iy tarzda ishlangan, suvi tinch havzalar bo'lib perimetri bo'ylab suv o'simliklari bilan ko'kalamlashtiriladi.

Prudlar tarhda sof geometrik shakllarda — aylana, trapetsiya, to'g'ri burchakli yoki erkin silliq chiziqli rejalarda ishlanishi mumkin. Maydoni kichikroq bog'larda qirg'oqlari biroz ko'tarilgan yog'och, metall, tosh yoki g'ishtlardan ishlangan prudlar qo'llaniladi. Bunday prudlar peyzajli bog'larga juda yarashadi. Prudlar parklarda quyidagi funksiyalarni bajarishadi:

- markaziy holatni egallaydi va uning atrofida nafaqat binolar va bog'-park imoratlari, balki peyzajlar ham shakllanadi;
- park alohida qismining markaziy kompozitsiyasini tashkil qiladi;
- tabiiy ko'1 vazifasini bajaradi (7.2.3-rasm).

**Favvoralar** — sun'iy bosim ostida yuqoriga otiluvchi suv oqimi va uni hosil qiluvchi inshootlardir. Dastlab favvoradan ichimlik suvi manbayi sifatida ham foydalanilgan, keyinchalik ular shahar



7.2.3-rasm. Qirg'oq va sohil bo'ylarini landshaft tashkillashtirish.

maydonlari, saroy va bog'larni bezash, havoni salqinlashtirish, sog'lom mikroiqlim yaratish vositasi sifatida qo'llanilgan. Favvorada me'morlar tomonidan suvning badiiy-estetik jihatlari va havoni sog'lomlashtirish jihatlari namoyon qilingan. Ellinizm davrida me'moriy ansambllar markazini belgilashda daraxt va haykallar bilan bir qatorda favvoralar ham muhim o'rin tutgan. Haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan. Favvoralar Misrdagi Madinat-az Zahra saroy majmuasida, jez va tilladan ishlangan al-Xumro saroyi favvoralarida o'z aksini topgan. Eronda Shoh Abbas davrida Isfaxon shahrining xiyobonida qurilgan ko'pgina hovuzlarni favvoralar jonlantirib turgan (Xasht-Bihisht ko'shki o'rtasidagi 8 qirrali hovuzda qurilgan favvora, Chihel sutun ko'shkida hovuz burchaklaridagi poyustunga ishlangan sher shaklidagi marmar haykalli favvoralar). Yevropada Uyg'onish va Barokko davrlarida bog'-saroy ansambllarida favvoralar muhim o'rin egallagan (masalan, Tivolidagi de Este villasi, favvorasi). Klassitsizmning serhasham favvoralari (Versaldagi Katta kanal, Appolon va Laton favvoralari, Petrodvorestdagi Katta kaskad favvorasi kabilar) ulug'verligi bilan ajralib turadi. Turkiyadagi favvora – chashmalar uy devoriga tutash peshtoqsimon yarimdoira shiypon yoki rotonda ichiga qurilgan. XVIII asrdan favvoralar ochiq maydonlarda kvadrat, ko'pburchak yoki doira tarqli qilib qurilgan, marmar, granit bilan qoplanib, bejirim ko'rinishga ega bo'lgan; sirtlari ravoqlar, jez panjaralar bilan bezalgan (Turkiyaning Tuproqu saroyidagi favvora).

O'rtal Osiyoda favvoralar qurilishi XIV–XV asrlarda keng rivojlangan. Amir Temur bog'lariqa ishlangan favvoralar haqida yozma ma'lumotlar saqlangan. Bu favvoralarga suvlari maxsus moslamalar (sopol quvurlar)dan kelib, hovuzlarga tushib ariqchalar orqali tashqariga oqib chiqqan. Hovuz atrofi har xil rangdagi marmar toshlar, rang-barang gullar tasviri bilan bezatilgan. Hovuzlarga quyiladigan ariqchalarning qirg'oqlari ham marmar toshlar bilan qoplangan. Qo'lyozma kitoblar (masalan, Nizomiyning «Xamsa», Boburning «Bobirnom» va boshqalar)ga ishlangan miniyaturnalarda favvora namunalari aks ettirilgan.

O'zbekistonda favvoralar, asosan, madaniyat va istirohat bog'lariда, shahar maydonlarida, jamoat binolari oldida bunyod etilgan (Toshkentdag'i A. Navoiy teatri maydoni, 1947; Xadra


maydoni, 1952–1953; Navoiy shahridagi «Farhod» va «O'zbekiston daryolari», 1970 va boshqalar). Mustaqillik maydonidagi favvoralar katta texnik imkoniyatga ega bo'lgan, qator jo'mrakli, ajoyib manzarali murakkab muhandislik va me'morchilik inshooti hisoblanadi (7.2.4-rasm).



7.2.4-rasm. Favvoraning tundagi ko'rinishi.


Hozirgi zamon favvoralari fan-texnika yutuqlari asosida bunyod etilmoqda. Oqshomlari ular harakatdagi rangli nurlar bilan yoritiladi. Suvning shovullash ovozi musiqiy ohanglar bilan muvofiq lashtirilgan.

Favvoralarni tarhiy yechimiga, suv tizgilarining soni va otilish shakllariga, favvara qurilmasining hajmiy shakliga qarab xilma-xil turlarga bo'lish mumkin. Tarhiy yechimi bo'yicha kvadrat, olti va sakkiz burchakli, doira shaklli favvoralar, suv tizginining soniga ko'ra bir va ko'p tizginli favvoralar, suv tizginining otilish shakliga ko'ra vertushka, baliq dumi, tyulpan, Tiffani, doira, qo'ng'iroq, yarimshar (sfera) va boshqa ko'rinishlari mavjud. Favvara qurilmasining hajmiy tuzilishiga qarab esa bir chashalik va ko'p chashalik xillari mavjud (7.2.5–7.2.6-rasmlar).



#### 7.2.5-rasm. Favvora tizginining turlari:

- 1 – bir tizginli; 2 – ko'ptizginli;  
3 – ko'p chashidan oqib tushuvchi favvora bir tirkichli yoy shaklli  
(O.V. Shumaxer bo'yicha), 4 – tizginli yoy shaklli.



#### 7.2.6-rasm. Favvora tizginlarining suvni sachratish bo'yicha turlari:

- 1 – vertushka; 2 – baliq dumii; 3 – tyulpan; 4 – Tiffani; 5 – doira;  
6 – qo'ng'iroq; 7 – sfera (O.V. Shumaxer bo'yicha).

Favvoralar suv tizginining shakllari suvning otilishini belgilab beruvchi «nasadkalarga» bog'liq bo'lib, hozirgi vaqtida ularning yangi xillari ishlab chiqilmoqdaki, suvning qanday shaklda otilishi ularga bog'liqdir.

Hozirgi vaqtida favvoralarning tizginli tipi eng ko'p tarqagan. Biroq, zamонави «насадка́лар» суви ко'зни қувонтирувчи ўпса плюнка́лар тарзида, тури-туман юшқин шаклларда отиловчиги шаффо́ф шакл тизгиларни хосил қила олиш имкониятига ега (7.2.5-rasm).

Insonga emotсional ta'sir etish darajasi suvning hajmi va qudrati, balandligi va tushish tezligi, suv oqimining harakatlanish

shakliga bog‘liq (7.2.6-rasm). Favvoralar landshaft kompozitsiyalarining eng ko‘rimlilik va mas’uliyatli joylarida joylashtiriladi. Ular park, bog‘, maydon, skver, xiyobon, piyoda ko‘chalaryning va boshqa rekreatsion obyektlarning muntazam jihozidir. Ular haykaltaroshlik asari ko‘rinishidagi fazoviy kompozitsiya shaklida yoki suv qurilmasi ko‘rinishida ham ishlanishi mumkin. Favvoralarning me’moriy g‘oyasi va kompozitsion-badiiy ishlanishi hamma vaqt va hamma yerda ijodiy masala bo‘lib kelishi kerak.



7.2. 7-rasm. Sharshara.

**Sharshara** — daryo o‘zanidagi tik jarliklardan yoki bir nechta tabiiy pog‘onalardan suvning pastga oqib tushishi sharsharalar qatorini hosil qilishi mumkin. Daryo yumshoq va qattiq jinslardan tarkib topgan joylardan o‘tganda yumshoq jinsli joyni uyib kirib pog‘ona hosil qiladi va shu pog‘onalardan pastga otilib tushadi. Sharsharalar pog‘onasi beto‘xtov yemirilib turadi va sharshara oqimning yuqori tomoniga siljib boradi. Pog‘ona tez yemirilib borgan joylarda sharshara o‘rniga ostonalar hosil bo‘ladi. Pog‘onalardagi tor vodiylari va daralarning o‘pirilib tushgan qattiq tog‘ jinslari bilan to‘silishi oqibatida hamda tekisliklarda daryoning qattiq jinslar



7.2.8-rasm.  
Mo'jaz shalola.



7.2.9-rasm.  
Surxandaryo.  
Sangardak sharsharasi.

yer yuzasiga chiqib qolgan joylardan o'tishida ham sharsharalar paydo bo'lishi mumkin (7.2.7–7.2.8-rasmlar).

O'rta Osiyo daryolarining tog'li hududlaridagi irmoqlari, soylar ba'zi joylarda uncha katta bo'lмагan tabiiy sharsharalar (masalan, Sangardakdaryo sharsharasi) hosil qilgan. Dunyoda sharsharalar soni ko'p. Ular ichida eng baland va haybatlilari mavjud, ularga Janubiy Amerikadagi Anxel (balandligi 1054 m), Afrikadagi Tugela (933 m) va Shimoliy Amerikadagi Yosemiti vodiysida joylashgan Yosemit (727 m) sharsharalari kiradi.

**Pog'onali sharshara va ayvonchalar** ham borki, ular relyefi o'nqir-cho'nqir joylardan tushayotgan suv va o'simliklardan foydalinishda relyefga o'ziga xos ishlov berish uslubidir (7.2.9-rasm). Ular yaruslar va pog'onalardan tashkil topib, muntazam va erkin (manzaralari yoki abstrakt) kompozitsiyalarga ega bo'lishi mumkin.

**Ko'priklar.** Ochiq hududlarda landshaft muhitini shakllantirishning o'ziga xos yo'nalishlaridan biri – bu tabiat va shahar muhiti quchog'ida yo'l va transport kommunikatsiyalari bilan bog'liq inshootlar hamda suv havzalari, daryolar sohillarini birlashtiruvchi ko'priklarni yaratishdir (7.2.10-rasm). Daryolar va kanallar ustidan o'tgan ko'priklar, yo'llar, relyefi notejis joylar ustidan o'tgan akveduklar, park va bog'lardagi ko'priklar shular jumlasidandir. Bu inshootlarning o'lchamlari va me'moriy tuzilishi ularning qayerda va qanday maqsad uchun qurilganligiga qarab turlicha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Biroq, ularga xos umumiyy xususiyat, bularning uzunligidir. Yo'l va transport magistrallari, kanal va daryolar, ko'priklari, akveduklar va bog'-park ko'priklarini qurish arxitektorlar ijodining yangi sohasi emas. Biroq, ular keng tarqalgan bizning hozirgi davrimizda ushbu yo'nalishning me'moriy landshaft dizayni va qurilmaviy yechimlariga qo'yilgan talablar keskin ortmoqda.

Tez yuriluvchi transport magistrallarining murakkab ostki-ustki chorrahalar shaharlar muhitiga yangi sifat baxshida eta boshladи. Ularga xos yirik ko'lam va silliq shakllar an'anaviy to'g'ri burchakli shahar qurilishi bilan nafaqat keskinlik yaratmoqda, balki yo'l ko'priklari tizimini shakllantirishning yangi tamoyillari shahar landshaftini rejalashtirish amaliyotiga sezilarli tarzda ta'sir ko'rsata boshladи. Transport inshootlarining keskin ko'lami bugungi kunda

o'ta katta o'lchovlarga ega bo'lgan keng hududlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ana shunday ulkan transport inshootlaridan biri Nyu-Yorkdagi Verazano bo'g'oziga 1964-yilda suv sathidan 70 metr balandlikka qurilgan, uzunligi 1300 metr bo'lgan osma ko'prikdir. 1980-yillarda bu rekorddan Yaponiya va Angliya ko'priklari o'tib ketgan bo'lsa-da, Verazano ko'prigi hozirda ham dunyoning eng taassurotli inshootlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Bunday yirik ko'priklarda qo'llanilgan qurilmalar turiga ko'ra ular osma va ravoqli, qurilish materiallariga ko'ra esa toshdan va metalldan ishlangan bo'lishi mumkin. Bog'-park ko'priklari esa yog'ochdan ham ishlanishi mumkin. Parklarda «Quruq yo'l» ko'priklari ham ishlanishi mumkinki, ular odatda, notekis relyefli, past-baland, qırılk joylar ustidan o'tkaziladi yoki tekis yuzali joylar ustidan yotqizilib, bunda ular faqat manzaraviy rol o'ynaydi. Yassi yoki yoy shaklidagi kichik bog'-park ko'priklari esa suv yuzida akslanib go'zal manzaralı «oyna» ko'rinishini oladi. Oq yoki suv tusli toshlardan ishlangan yapon bog'larining ko'priklari esa atrof-muhit manzarasiga nisbatan kontrast ko'rinish berishi bilan ajralib turadi. Bog'-park ko'priklari yoki ko'prikhalarining odatda, ikki yonidan panjaralar ishlansa yana ham jozibali ko'rinishga ega bo'ladi (7.2.10-rasm).



7.2.10-rasm. Alisher Navoiy nomli O'zbekiston milliy bog'idagi ko'prik.

### **7.3. Mo‘jaz me’moriy shakllar bilan bog‘liq landshaft qurilmalari**

«Landshaft arxitekturasining mo‘jaz me’moriy shakllar bilan bog‘liq qurilmalari»ga bog‘-parklarga kirish darvozalar, ularni chegaralovchi to‘sinq va panjaralar, ko‘shklar (kioskalar), voish, treluj, pergola va shpalerlar, galereya va shiyponchalar, pavilyonlar, rotondalar, park mebellari (o‘rindiqlar, kursilar) dekorativ devorlar kiradi.

Mo‘jaz me’moriy qo‘yiladigan asosiy talablardan biri, ushbu hududning yashil o‘simliklari, relyef va landshaft kompozitsiyalarining shakllari bilan uyg‘unligiga erishishdir. Ular atrof-muhitga nomutanosiblikni olib kirishi kerak emas, aksincha arxitekturaviy landshaft kompozitsiyasi stilistikasiga to‘la javob berishi kerak.

Mo‘jaz me’moriy shakllar ixtiyoriy arxitekturaviy shakllarni darvozalar kirish qismidan, pavilyon (ko‘shk), ratonda, galereya, supalar (besedka), bolyustradalar, fayvoralar yoki ko‘prikchalardan tortib to vazalar, fonarlar, panjaralari to‘silqlar, o‘rindiqlar va boshqa ko‘rinishlarda eks etirishi mumkin (7.3.1-rasm).



*7.3.1-rasm. Yashil maysazorga o‘rnatilgan ko‘shk.*

**To'siqlar va darvozalar.** Umumiy foydalanishga mo'ljallangan ko'kalamzorlar, hududlar va maydonlarini atrof-muhitdan ajratish maqsadida ularning atrofiga to'siqlar o'rnatish odat tusiga kirgan. Bundan tashqari barcha oliy va o'rtalik maxsus, ta'lim-tarbiya muassasalari, maktablar, bog'chalar, kollej va litseylar, shifoxonalar, sanatoriylar, ishlab chiqarish, sanoat va ma'muriyat binolari, sport inshootlari va maydonlari, omborxonalar va saqlash zonalari ham to'siqlar bilan ajratiladi. Shunday ekan, ushbu masalaga ham jiddiy e'tibor qaratishimiz zarur bo'ladi. Ayniqsa, bog'-parklar va nufuzli jamoat binolari hududlarining to'siqlari va ularning me'moriy dizayn yechimlariga alohida e'tibor berishimiz zarur.

O'tmishda ham bunday qurilmalarga katta e'tibor berilgan. Bizgacha saqlangan bog'-parklarning to'siqlari va darvozalari bunga yorqin misoldir (7.3.2–7.3.3–7.3.4-rasmlar).

To'siqlarni balandligiga qarab uch turga: baland to'siqlar (3–5 m), o'rtalik bo'yli (1–1,2 m – odam belbogi balandligida) va past to'siqlarga (0,3–0,5 m) ajratish mumkin.

Baland to'siqlar yirik parklar va hududi katta bog'lar, masalan, katta ko'rgazma bog'lar, botanika bog'lari, hayvonot bog'lari, dendroparklar, stadionlar va shunga o'xshash joylar hududini to'sish uchun qo'llansa, o'rtalik bo'yli to'siqlar skverlar, bulvarlar, sohillar va ayrim hollarda katta parklar ichidagi alohida ajratilgan joylar, shahar ko'chalari va yo'llar chetlarini ajratish uchun o'rnatiladi. Past to'siqlar esa chiroyli gulzorlar va ko'kalamzorlar hududlarini to'sish uchun ishlatiladi.

Baland va o'rtalik bo'yli to'siqlar, odatda, yuqori sifatli hamda uzoq saqlanadigan materiallardan ishlanadi. Ularning kursi qismi va tayanch ustunlari uchun granit, bazalt, peschanik va boshqa mustahkam tog' jinslaridan, panjaralari hamda darvozalari uchun esa metall, quyma chugun yoki yelimanadigan po'lat materiallar ishlatiladi. Panjaralarning ornamentlari, odatda, quyma chugundan ishlanib boltlar bilan mustahkamlanadi.


Bog'-parklar va yirik jamoat binolari egallagan hududlarning darvozalari o'ta tantanavor hajmlar va shakllarda bo'lishligi talab etiladi (7.3.2–7.3.3-rasmlar). Ular uchun sifatli va mustahkam qurilmalar hamda pardoz materiallari ishlatiladi. Tunda bu darvozalar, odatda quflab qo'yiladi. Bunday darvoza uchun metall va




7.3.2-rasm. Park darvozalari va uning oldidagi favoralar:

- 1 — Toshkent shahridagi «Bog'i eram»;
- 2 — Farg'ona shahrining markaziy bog'i.

toshlar, shaklli beton yoki sopol bloklar qo'llanadi (7.3.4-rasm). Pastkam to'siqlar uchun bobolarimiz o'tmishda pishiq g'ishtlardan foydalangan, «dandona» deb ataluvchi to'siqlar gulzorlar va yo'laklar chetlarini bezagan.



7.3.3-rasm. Dalahovlilarining to'siqlari.



7.3.4-rasm. Bog'da tinch dam olish uchun qurilgan trelyaj.

**Ko'shklar (kioskalar)** – aholi ko'p yig'iladigan joylarda joylash-tiriladi. Ularning dizayni **landshaft stiliga mos kelishi**, **landshaft kompozitsiyalarining ko'rinishiga esa atrof-muhitga monand bo'lib**, unga bo'ysunishi kerak. Ularning arxitekturaviy dizayni zamонавиy an'analarga yoki antiqa dizayn stiliga yarasha bo'lishi, landshaft sharoitiga munosib ranglardan va yengil konstruksiyalardan bajarilishi lozim.

Ko'shkto'rt ustunli, tomi qubbali, asosan, yog'ochdan qurilgan yengil inshoot, evropacha nomi kioskdir. Kelib chiqish jihatidan oddiy o'tovga borib taqaladi. O'rtalashtiruvchi Sharq me'morchniligidagi keng tarqalgan. Dastlab qadimgi ko'chmanchi xalqlarning ko'chib yurishiga qo'lay uy (ko'chik) sifatida paydo bo'lgan. Arava ustiga o'rnatilgan ko'shklardan ham foydalanilgan. Keyinchalik ko'shklar badavlat kishilar, hukmdorlar uchun bezakdor qilib bog'lar ichida qurilgan. Tarixiy manbalarda ko'shk namunalari haqida ma'lumotlar saqlangan. Vizantiya elchisi Zemarx 568-yilda O'rtalashtiruvchi Sharq me'morchniligidagi ko'chmanchilarining hoqoni o'rdasida to'rt tovus haykalini ko'tarib turgan ko'shknini ko'rgani haqida yozgan. 738-yilda Termiz yaqinida arab sarkardasiga oltin va kumush bilan bezatilgan ikkita ko'shk taqdim etilgan. X–XV asrlarda ko'shklar arxitekturasi rivojlanib, aksari bog' ichkarisidagi sinchkori yengil qurilmalar tarzida ustunli, ayvonli va boloxonalni, zeb-u ziynatli, hashamatli, ko'rkan imoratlar tarzida ko'zga tashlangan. Amir Temur bunyod etgan bog'lar ichidagi ko'shklar o'zlarining shakl-shamoyili va bezaklari bilan arxitektura va bog'-park qurilishi taraqqiyotida yangi davr ochgan. Samarqand atrofida bunyod etilgan (XIV–XVI asrlar) bog'-rog'lar ichidagi ko'shklar haqida tarixiy manbalar aniq ma'lumot beradi. Samarqanddagi Ko'ksaroy, Shahrisabzdagi Oqsaroyni Bobur ko'shklar qatoriga kiritgan. Ko'shk me'morligi Turkiya, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda keng tadbiq etilgan. Yevropaga ham Sharq orqali («kiosk» shaklida) kirib kelgan.

**Pavilyonlar, rotondalar, bolyustradalar** – atrof-muhit ansambliga monand bo'lishi yoki parkning yoxud boshqa obyektlarning landshafti muhitidagi erkin element bo'lishi mumkin (7.3.5-rasm).

**Haykaltaroshlik asarlari** san'at asari bo'lib, xuddi favoralar, ko'kalamzorlashtirilgan joylarni bezatadi, ular muhitiga xilma-xillik kiritadi va boyitadi.



7.3.5-rasm. Park peyzajiga o'rnatilgan rotonda.

Ular yirik va kichik bo'lishi mumkin va kayfiyatga yaxshi ta'sir etishi, odamlarda qiziqish uyg'otib, ularga chiroyli his-tuyg'ularni ato eta oladigan bo'lishi kerak.

Haykaltaroshlik asarlari – antik, klassik, turli xil tematik va sahna asarlarini aks ettirishi, hattoki abstrakt holatlarda bo'lishi ham muhim. Abstrakt shakllardagi haykallarni dekorativ-amaliy san'at yoki erkin ijodiy yo'nalishga bog'lash mumkin.

**Panjara devor** (ixtalar) – perimetr bo'ylab haqiqatda zarur bo'lган holatlarda qo'llaniladi, biroq ular yuqori badiiy qadr-qimmatga ega bo'lishi kerak. Panjara devorlarni ishlaganda landshaftni mo'jaz me'moriy va dekorativ shakllar bilan haddan tashqari bezatilishiga harakat qilish shart emas, biroq katta ma'lumot yuklatilgan obyektlar bundan mustasno albatta, misol uchun tematik bog' va parklar (7.3.6-rasm).

**Dekorativ devorlar.** Dekorativ devorlar landshaft arxitekturasining bog'-park san'atida keng qo'llanilib kelgan.

**Shpalerlar** ham trelyajlar va pergolalar kabi tik ko'kalam-zorlashtirishda qo'llanib, tirmashib o'suvchi o'simliklar uchun




7.3.6-rasm. Bog‘-park uchun mo‘ljallangan to‘siq.

tayanch qurilma – sinch vazifasini bajaradi. Ular alohida turishi, yo‘laklar bo‘ylab qo‘yilishi, patiolar, ya’ni hovli bog‘larini, terrasan va hatto to‘siqlarni ham shakllantirishi mumkin. Shpalerlar dam oluvchilarни jazirama quyosh va shamoldan himoya qiladi, soya hosil qiladi. Ularning balandligi, odatda, 2 m dan oshmaydi va yog‘och reykalardan (qirqimi 25x25 mm) ishlanadi. Reykalar bir-biriga xos shaklda biriktiriladi va tomonlari 10 sm kvadrat yoki romblar hosil qiladi. Agar bog‘da suv havzasi bo‘lsa, uning yoniga yengil bog‘ qurilmasi – **rotonda**, ya’ni aylana tarhdagi ustunlar o‘rnatilib, ubti gumbaz bilan yopilgan, yonlari qisman yopiq, kursi ustiga o‘rnatilgan suhabatgoh ishlangani ma’qul. Rotondalar, odatda, katta bo‘lmay, diametri 2,2–2,5 m umumiy balandligi 2,5–3 m, kursisining balandligi esa 35–40 sm bo‘ladi.

**Kursi (o‘rindiq)lar** – bog‘-park maydoni, skverlar, xiyobonlar, maydonlar va boshqa obyektlarning zarur elementi. Ular alohida, guruhlar bo‘lib, aylana bo‘ylab yoki daraxt atrofida turishi mumkin. Kursilar odatiy geometrik shakllardan to erkin shakllargacha bo‘lgan kutilmagan ko‘rinishlarga ega bo‘ladi.

## 7.4. O'simliklar bilan bog'liq landshaft qurilmalari


**Trelyajlar, pergolalar, shpaleralar, voishlar.** Trelyajlar O'rta Osiyo xalqlari bunday qurilmalarni «voish» deb ataladi. Voishlar o'tmishda hovli bog'lari va chorbog'larda keng qo'llanib kelingan. Jazirama issiq kunlarda voish ostida o'tirib dam olish o'rtaosiyoliklarda azaldan xush yoqqan odatdir. Voishlarda tirmashuvchi manzarali o'simliklar o'rniga uzum toklaridan keng foydalaniladi. Voishlarga qafasga solingan kakliklar osib qo'yilib, ajoyib jannatiy mikromuhit hosil qilinadi (7.4.1-rasm).



7.4.1-rasm. Voish.

Trelyajlar chirmashib yoki suyanib o'suvchi o'simliklar bilan bezatilgan, ko'p hollarda erkin turuvchi yengil tik qurilgan panjara — sinchlardir (7.4.2-rasm).

Trelyajlar aslida tokzorlar uchun mo'ljallangan an'anaviy voishlar yoki «shpalera»lardan boshlangan. Trelyajlarning bog'-park san'atidagi asosiy funksiyasi — bu o'simliklar uchun tayanch



7.4.2-rasm. Oddiy (a) va konteynerli trelyajlar (b).

vazifasini bajarish bo‘lib, bunda trelyaj shaklidan ko‘ra uning uchun qanday o‘simlik tanlanishi muhim ahamiyatga egadir. Trelyajlar, shuningdek binolarning devorlariga ham mahkamlanishi mumkinki, ular yordamida muhitning mikroiqlimini yaxshilash, uni fazoviy bo‘laklarga bo‘lish vazifalarini ham bajarishi mumkin. Trelyaj qurilmalar metalldan, plastikdan, yog‘ochdan, tayanch ramkalarga tortilgan arqon iplardan tayyorlanishi mumkin. Trelyajlarning oddiy va konteynerli turlari mavjud (7.4.3-rasm).

Trelyajlar va pergolalar landshaft arxitekturasining o‘simliklar bilan bog‘liq mo‘jaz me’moriy shakllari hisoblanib, ular, asosan, rekreatsiya, ya’ni tinch dam olib hordiq chiqarish uchun mo‘ljallanadi.

Trelyajlar, odatda, yog‘ochlar va yengil metallardan qurilgan tayanch tik panjaralar bo‘lib, ularga tirmashib va osilib o‘suvchi o‘simliklar bilan birga go‘zal ko‘rinishli yozgi soyapar dam olish joylarini: «yashil devor»lar, suhbatgohlar, yopiq xiyobonlarni tashkil qiladi.

Trelyajlar devorlarga tutashtirilgan yoki alohida qurilgan bo‘lishi mumkin. Har ikkala holda ham ularni atrof-muhitdagi daraxtlar, butalar, tirmashib o‘suvchi o‘simliklar va gulzorlar bilan uyg‘un bog‘lash talab etiladi. Shu boisdan ham bu qurilmalar oddiy va sodda ishlanishi zarur. Trelyajlarning eng muhim tarkibiy qismi – bu ularga tirmashib o‘suvchi o‘simliklardir.

**Pergolalar** trelyajlardan farqi o‘laroq tik tayanch panjaralar ko‘rinishida bo‘lmay, balki ustunlar yoki sinchlari ustiga o‘rnatilgan tekis yoki sferik shakklardagi yog‘och yoki metall panjalardir. Pergolalar ham trelyajlar kabi chirmashib va yoyilib o‘suvchi o‘simliklar uchun tayanch qurilmalar hisoblanib, bog‘ yoki parklarda usti yopiq yo‘laklari, gallereyalar yoki suhbatgohlar vazifasini bajaradi. Pergolalar dastlab bog‘larda tok navdalarini baland tutib turish va uzumlarni oson uzib olish maqsadida qurilgan. Keyinchalik ular issiq mamlakatlarda bog‘ xiyobonlari ustini yopish uchun ham qo‘llanilgan. Hozirgi vaqtida ular bog‘ va park yo‘laklari ustidan qurilib, tirmashib o‘suvchi o‘simliklar (devichiy vinograd pyatilstochkoviy, xmel, drevogub, chirmashuvchi atirgullar) bilan bezatiladi. Ayniqsa, yog‘och yoki keramik kadkalarga o‘rnatilgan yirik o‘lchamli o‘simliklar bilan bezatilgan pergolalar ajralib turadi.

Ularning shox-shabbalari bir-biriga pergola ustida qo'shib ketib, chiroyli «yashil koridorlar»ni tashkil qiladi.


Pergolalar va barso – bular daraxtlarga, metall va boshqa sinchlarga chirmashadigan o'simliklardan tashkil topgan yopiq xiyobon. Pergolalarning taviya etilishi mo'tadil soyalarda hordiq chiqarish, bog' va parklarning turli xil maydonlarini bir-biriga bog'lashdir. Pergolalar, asosan, muntazam parklarning jihozidir. Chirmashib o'sadigan o'simliklar sifatida yovvoyi uzum, qumloq (xmel), turk loviyasi, dukkakli ipomeya va boshqalar ishlataladi.

Zamonaviy bog'larda hamda parklarda yengil dekorativ pergolalarni, yuk ko'taruvchi asosi temirbeton, metall yoki plastikdan ishlangan besedka va trelyajlarni ham uchratish mumkin. Har bir holatda ular chiroyli bo'lishi kerak va yashil qoplama ega bo'lmasligi ham mumkin.

**Bordyurlar, miksborderlar, yashil to'siqlar (izgorodlar).** Bordyur deganda (bu fransuzcha so'z) biz, odatda, beton bordyurlarni, ya'ni yo'lak yoki yo'l chetlarini chegaralovchi to'g'ri chiziqli, ingichka, pastkam shakllarni tushunamiz. Biroq bordyurlar o'simliklardan ham ishlanishi mumkin. Ular parterlar, klumbalar, maysazor, favvoralar chetlarini bezovchi, odatda, 1–2 qator qilib pastqam, balandligi 30–40 sm dan oshmagan gullovchi butalar yoki o'tli o'simliklardan qatorlab ekilgan yashil kompozitsiyalardir. Eni 10–50 sm dan oshmaydigan bordyurlar ramka yoki hoshiya deb ha ataladi. Ular, odatda, parter tipidagi gulzorlar chetini hoshiya tarzida ajratib turuvchi kuzalgan shamshoddan ishlangan yashil shakllardir.

**Miksborderlar** – aralash gulzorlar – bordyur yoki aralash rabatkalardir. Miksborderlarning tarixiy, ya'ni mumtoz ko'rinishi – bu eni 2 dan 4 metrgacha shakli cho'zinchoq bo'lgan klumbadir. Unda o'simliklar yarusimon tarzda joylashadi: oldingi, ya'ni birinchi yarusda balandligi 30 sm gacha o'simliklar ekilsa, o'rtadagi yarusga 40 dan 70 smgacha, orqa yarusga esa balandligi 80 dan 120–150 sm gacha bo'lgan o'simliklar ekiladi. Birinchi yarusning odamlar yuradigan va miksborderlarga nigoh tashlaydigan tomonda bo'lishi, qolgan yaruslarning bo'yи esa birin-ketin o'sib borishi kerak.

Keyingi vaqtarda miksborderlarga erkin tabiiy shakllar berila boshlandi. Ayniqsa, ular to'g'ri geometrik yashil shakllardan qancha



**7.4.3-rasm. Trelyaj, pergola, shpale va voishlarga amaliyotdan misollar.**

narida joylashsa, shunchalik erkin ko‘rinishlar ola boshladi. Miks-borderlar, odatda, guruqlar yoki maysazor ichidagi jozibador «dog»lar tarzida trapetsiya, assimetrik uchburchak, stillashtirilgan

kvadratlar, to‘g‘ri burchaklar yoki ovallar shaklida yaratiladi (7.4.4-rasm). Miksborder 2 ta asosiy talabga javob berishi, ya’ni:

- hamma tomondan yaxshi ko‘rinib turishi;
- o‘z jozibadorligi va manzaraviyigini iloji boricha uzoq saqlashi kerak. Uning asosiy yaratilish g‘oyasi ham ana shunda.

Miskborderlarga o‘simgliklarni to‘g‘ri tanlash, ya’ni, ularning gullash davri, shakli, silueti, ayniqsa, barglari va gullarining shakl-shamoyili, rangi va o‘lchamlariga qarab tanlash orqali erishiladi. Miksborderlarni yaratish uchun bir va ko‘p yillik o‘simgliklar hamda ayrim xona o‘simgliklari, masalan, balzamin Uollera, xlorositum xoxlatiy, setkreaziya purpurnaya, agova amerikanskaya, begoniya vechnosvetushchaya, koleus gibridniy, pelargoniya plushchelistnaya, fuksiya izyashchnayalarni qo‘llash mumkin.


Miksborder gulzorlarni suv havzalari yoni, uy va binolarga kirish, dam olish maydonlari oldiga joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Odatda, ular qiyalarga yoki erkin o‘suvchi maysazorlar, tirik izgorodlar, tabiiy toshlar yoki g‘ishtlardan terilgan tirkak devorlar foniga ekilsa samarali ko‘rinadi. Miksborder, ayniqsa, yirik maysazorda daraxtlar guruxi fonida ekilsa, yaxshigina kompozitsiya aksenti bo‘lishi ham mumkin (7.4.5–7.4.6-rasmlar).



7.4.4-rasm. Qush ko‘rinishidigi miksborderlar.



7.4.5-rasm. Bog'da ishlangan  
erkin shaklli miksborderlarning  
ko'rinishi.



7.4.6-rasm. Yashil devordan ishlangan ravvoqli bosket ko'rinishi.

**Guldonlar, bosketlar, vazalar** ham haykaltaroshlik asarlaridir. Ular bolyustradalar, avyonchalar, maydonchalar yoki maysazorning markaziga joylashtirish mumkin.

Parklarni bezatish uchun vazalarning yuqori badiiy namunalarini tanlash maqsadga muvofiq.

**Bosket** deganda tomonlari tig‘iz etilgan, yuzasi tartibli qirtishlangan, daraxt yoki butalardan shakllantirilgan yashil devor bilan chegaralangan, geometrik chiziqli atrof-muhitdan holi bo‘lgan yashil fazoviy muhit tushuniladi. Bosketlar ichida pavilyonlar, favvoralar, suv oynalari, haykallar va portretlar joylashishi mumkin (7.4.6–7.4.7-rasmlar).

Bosketlar, odatda, bog‘ ansamblari kompozitsiyasining asosiy ochiq qismlari yoki xiyobonlariga yondoshgan bo‘ladi. Ayrim hollarda bosket qurilmalari uchun trelyajlardan foydalanilgan. Bosketlarning quyidagi asosiy turlari mavjud:

- yopiq bosketlar daraxt va butulardan ishlanib, sathi butkul qirtishlangan yashil devorlardan shakllantiriladi va bunday muhit, odatda, texnik yoki xo‘jalik ehtiyojlariga mo‘ljallangan;

- perimetri kuzalgan yashil devorlardan ishlangan bosketlar, ular daraxtlardan shakllantirilib joylashib, kirish joyi manzaraviy yashil darvozalar yoki ravoqlar bilan bezatilgan. Bunday bosketlar tinch dam olish, holilashgan tarzda vaqt o‘tkazish, labirint ichida sayr qilish kabi maqsadlarga mo‘ljallangan.

Bosketlarni shakllantirishda mayda bargli lipa, tikanli archa, sariq akatsiya, oddiy barbaris, ko‘kimir jimgolost, turli xil boyarishniklar, yaltiroq kizilnik, tatar klyoni, tillarang smorodinalardan foydalaniladi.

**Osib qo‘yiladigan korzinkalar.** Korzinkalar, odatda, devorga qoqilgan yoki o‘rnatilgan maxsus temir qoziqlar yoki sterjenlarga ilgichlar yordamida osib yoki o‘rnatilib qo‘yiladi. Korzinkalar turli ko‘rinishlar: kvadrat, uchburchak, aylana (shar), oval, voronka shakllarida bo‘lishi mumkin. Korzinkalar metall sim, yog‘och, turli plastik va boshqa materiallardan ishlanishi mumkin. Keyingi paytlarda pastki qismidan namlik tarqatuvchi, ya’ni suv beruvchi maxsus qurilmali korzinkalar paydo bo‘la boshladи. Ushbu qurilmaga maxsus voronka yordamida suv quyib turiladiki, undagi suv mayda teshiklar orqali korzinkadagi substrat tuproqqa kapiliyar yo‘nalishida



a)



b)




d)

**7.4.7-rasm. Klumba, rabatka va miksborderlarga amaliyotda misollar:**  
**a – arabeska ko‘rinishidagi klumba; b – trotuar chetidagi rabatka;**  
**d – klumba, rabatka va miksborderlardan tuzilgan gulzor majmuasi.**

tarqaladi va o‘simglik ildiziga etib boradi. Korzinkalar, binolarning kirish joylariga yaqin bo‘lgan devorlarga o‘rnatilgan qoziqlar, kronshteynlar yoki daraxtlarning shoxlariga, yorug‘lantirish ustulariga osib qo‘yiladi (7.4.8-rasm).

Derazalar oldiga osib qo‘yilgan va ichiga lianlar ekilgan qush qafaslari shaklidagi korzinkalar o‘ta original ko‘rinishga egadir.




**7.4.8-rasm. Devorlar va qurigan daraxtga osib  
qo'yiladigan korzinkalar.**

Ayrim hollarda esa korzinkalar uchun maxsus badiiy ko'rinishli ustunlar ishlandi. Yoz paytlari xonalardagi korzinkalarda o'stiriladigan gullarni ham tashqariga bog' hududiga chiqarish mumkin.

Korzinkalarga, odatda, bir yillik o'simliklar, sharsimon yoki yarimsharsimon shaklli kompozitsiyalarga ega bo'lgan gullar ekiladi. Bitta kronshteynga bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ko'p korzinkalar osib qo'yilishi mumkin.

**Labirintlar.** Labirintlarning ya'ni, kishini adashtiruvchi yashil tik devorli yo'laklar ilk bor Fransiyaning Uyg'onish davri bog'larida shakllantirilib, Yevropaga keng tarqalgan (7.4.9-rasm). Ular, odatda, o'simliklar (grab, lipa, lavr, tis)lardan qirtishlab ishlangan yashil baland to'siqlardan shakllantiriladi. Labirintlar XVII asrgacha xudoga intilish yo'lida uchraydigan azob-uqubatlar va shaytonga qarshi kurashish harakatlarini bildiruvchi ramziy ma'noga ega bo'lgan. Shuning uchun ham ularni ilk o'rta asrlarda ibodatxonalar va monastirlarning pollariga mozaika tarzida ishlashganki, xudoga sig'inuvchilarning ushbu murakkab yo'laklar bo'yicha emaklab o'tishi va xuddi yiroqdan kelgan, azob-uqubatlarni tortgan xudojo'ylarni eslatgan holda harakat qilishlari talab etilgan. Keyinchalik bunday murakkab yo'laklar sayr yo'laklari tarzida istirohat



**7.4.9-rasm. Labirint bog'larining tarhlari.**  
(A.P. Vergunov va V.A. Goroxovlar bo'yicha.)

bog'lariga ko'chirilgan. Uncha katta bo'lmagan bog'larda ham labirintlar qurish sayr qilish yo'laklarini uzaytirish va ko'ngil ochish imkoniyatlarini tug'dirgan. Dunyodagi eng murakkab labirintlardan biri Angliyadagi Xempton-Kort istirohat parkida bunyod etilgan (7.4.10-rasm).



**7.4.10-rasm. Angliyadagi Xempton-Kort istirohat bog'ining labirinti.**

### ***Mustahkamlash uchun savollar***

1. Landshaft dizayni qurilmalarining tasnifini keltiring.
2. Yer relyefi bilan bog'liq landshaft dizayni qurilmalariga nimalar kiradi?
3. Suv havzalari bilan bog'liq landshaft qurilmalariga nimalar kiradi?
4. Mo'jaz me'moriy shakllar bilan bog'liq landshaft qurilmalariga nimalar kiradi?
5. O'simliklar bilan bog'liq landshaft qurilmalariga nimalar kiradi?
6. Tirkak devorlar qanday materiallardan ishlanadi va ko'kalamlashtiriladi?
7. Zinapoya panduslardan qanday farq qiladi?
8. Maydonlar va xiyobonlar qanday to'shamalar bilan yopiladi?
9. Alpinariya rokariyalardan qanday farq qiladi?
10. Hovuzlar prudlardan qanday farq qiladi?
11. Favvoralarning qanday turlari amaliyotda keng tarqalgan?
12. Sohillar va qirg'oqlarni landshaft tashkillashtirish deganda nimani tushunasiz?
13. Pavilyonlar rotondalardan qanday farqlanadi va ular qayerda qo'llanadi?
14. Pergola trelyajdan qanday farq qiladi?
15. Bordyurlar miksborderlardan qanday farq qiladi?
16. Yashil to'siqlar qanday o'simliklardan ishlanadi?
17. Bosketlar deb nimaga aytildi va ularning qanday xillari mavjud?

# VIII bob

## LANDSHAFT ARXITEKTURASI OBYEKTLARINI LOYIHALASH TARTIBI, TARKIBI VA ULARGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR

---

*Dars rejasi:*

1. *Loyiha oldi ishlari va materiallarining tarkibi hamda mazmuni.*
2. *Loyihalash jarayoni va uning chizmalari.*

### 8.1. Loyiha oldi ishlari va materiallarining tarkibi hamda mazmuni

Arxitektura va shaharsozlik kabi landshaft arxitektura obyektlarini ham loyihalamasdan amalga oshirish mumkin emas. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov «qayerda arxitektura takomilga yetgan bo'lsa, uning atrof-muhiti, ya'ni binoni o'rab turgan ochiq muhitlar landshafti ham takomiliga yetgan bo'lishi kerak» deganlarida aynan ana shu talabni nazarda tutganlar. Darhaqiqat agar biz shahar va qishloqlarimiz jamolini fayzli hamda ko'rkmak bo'lishini xohlasak, nafaqat ularda quralayotgan bino va inshootlar arxitekturasiga, balki ochiq muhitlar arxitekturasi, ya'ni landshaft arxitekturasi obyektlarining loyihalariga ham buyurtmalar berishimiz zarur.

Xo'sh, landshaft arxitekturasi obyektlari deganda nima va qanday obyektlar tushuniladi? Bunday obyektlarga, eng avvalo, inson hayoti va faoliyati, uning yashashi, o'qishi, tarbiyalanishi, bilim va hunar, kasb egallashi, mehnat qilishi, hordiq chiqarishi va dam olishi, davolanishi va sog'lomlashuvi, ishlab chiqarish, madaniy-ma'rifiy va boshqa barcha ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq obyektlar, bino va inshootlar, shu jumladan, davlat boshqaruvi, ma'muriy organlar ham egallab turgan hududlarning ochiq muhitlari kiradi.

Insonning yashashi bilan bog'liq landshaft arxitekturasi obyektlariga xususiy uylarning hovli bog'lari, turarjoy guruhlari ichidagi bog'lar, mikrorayonlar, turarjoy massivlarining bog'lari, ularga olib boruvchi ko'chalar, trotuarlar kirsa, insonning mehnat qilishi va

faoliyati bilan bog'liq landshaft arxitekturasi obyektlariga deyarli barcha jamoat binolari, shuningdek ta'llim-tarbiya, ilm-u fan, sport, davolanish hamda ishlab chiqarish va sanoat obyektlari egallab turgan hududlarning landshaft arxitekturasi, dam olish bilan bog'liq rekreatsion obyektlarga esa parklar, bog'lar, skverlar, xiyobonlar, dam olish uylari, pansionatlar egallagan hududlarning landshaft arxitekturasi kiradi. Landshaft arxitekturasi obyektlariga, shuningdek, shahar va qishloqlarning ko'kalamzorlashtirish tizimi, sanitariya-himoya va ixota zonalari hamda suv havzalari bilan bog'liq landshaft arxitekturasi obyektlari: tabiiy va sun'iy prudlar, ko'llar, sohillar, plyajlar, akvo va gidroparklar ham kiradi.

Ko'rib turibmizki, landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash mavzulari turli-tuman va ko'p qirralidir. Ularni umumlashtirgan holda quyidagicha guruhlarga bo'lish mumkin:

1) muayyan aholi punktining yaxlit ko'kalamzorlashtirish tizi-mini yaratish loyihasi (ko'kalamzorlashtirish sxemasi va ko'kalamzorlar tizimi);

2) landshaft arxitekturasining yangi obyektlarini (parklar, bog'lar, skverlar, xiyobonlar, turarjoy massivlari ichining ko'kalamlari, jamoat binolarining hududlari, yo'llar, ko'chalar va boshqa ijtimoiy obyektlarni) yaratish loyihalari;

3) mavjud obyektlarni qayta tiklash va ta'mirlash loyihalari.

Loyihalash ishlari 2 qismga: loyiha oldi bosqichi va loyihalash bosqichi jarayonlariga bo'linadi. Loyihalash mavzusi va topshiriq mavqeyiga bog'liq holda loyiha oldi bosqichida o'rganiladigan dastlabki materiallar hamda loyihalash bosqichidagi loyiha ishlarining hajmi, tarkibi va mazmuni aniqlanadi.

Landshaft arxitekturasining muayyan obyektini loyihalashda loyiha oldi bosqichidagi ishlarga quyidagilar kiradi.

Buyurtmachi (shahar yoki tuman hokimligi, vazirlik va boshqa tashkilotlar) obyekt uchun hudud ajratilganligi haqidagi hokimlik qaroriga ega bo'lgach, mahalliy arxitektura-rejallashtirish bosh boshqarmasi (APU)ga hudud chegarasini ajratib, uni qizil chiziqda belgilab berishi va arxitektura-rejaviy topshiriq (APZ) ishlab chiqishga buyurtma beradi. APZ da obyektni loyihalash bo'yicha umumiyoq ko'rsatmalar, uning o'lchamlari, chegaralari, mavjud imoratlarni yo'qotish bo'yicha ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Ayni paytda buyurtmachi loyihalash tashkiloti bilan loyiha tahlil ishlarni o'tkazish va loyihalashga topshiriq, ya'ni loyiha dasturini ishlab chiqishi uchun shartnoma tuzadi.

Loyiha-tahlil ishlari o'z tarkibiga quyidagi masalalar bo'yicha materiallar toplash va ularni tahlil qilishni qamrab oladi:

1) toposyomka, unda joy relyefining gorizontallari ko'rsatilgan obyekt tarhi, suv havzalari, o'simliklar, yo'llar, yerosti muxandislik tarmoqlari, hududdagi mavjud bino va inshootlar ko'rsatilgan bo'ladi. Toposyomka maydoni 10 gektargacha bo'lgan obyektlar uchun 1:500 masshtabda, 10 gektardan katta obyektlar uchun 1:1000 va 1: 2000 masshtabda va juda yirik obyektlarga (hududi 100 ga va undan ziyod) 1:2000 yoki 1:5000 masshtabda ishlanadi;

2) shahar yoki qishloq bosh rejasidan grafik ko'chirma (viko-pirovka). Unda loyihalanayotgan obyektga qo'shni joylashgan uchastkalar, yerosti kommunikatsiyalari ko'rsatilgan bo'ladiki, kelajakda loyiha obyektining mos kommunikatsiyalarini ularga ulash mumkin bo'lsin;

3) obyektga yaqin metostansiyadan olingan obyekt iqlimi sharoitlari haqidagi ma'umotlar;

4) joy relyefi, uning holati tasnifi va tabiiy geopolistikasi, qiyaliklar va qirliklar bo'lsa ularning ufq tomonlariga oriyentatsiyasi;

5) tuproq holati: tuproq tipi, tuproqning farqlanishi va ularning hudud bo'ylab tarqalishi, tuproqning xillik va mexanik tarkibi;

6) gidrogeologik sharoitlar: tuproq suvlarining rejimi, botqoqlik mavjudligi, holati va uning joylashishi, mavjud suv havzalarining tavsifi, hududdagi gidrotexnik inshootlar tavsifi, suvning kimyoiy va bakteriologik tahlili;

7) yerosti inshootlari va qurilmalarining tarhi;

8) hududning obodonlashuv holati: yo'llarning konstruksiyasi va tiplari, suv ta'minotining manbalari, kanalizatsiya;

9) hududdagi mavjud ko'kalamzorlar va ekinlar tavsifi: ularning tabiiy tarkibi, yoshi, sanitar holati, o'simliklarning manzaraviylik darajasi. Mavjud barcha daraxtlar va guruhlar obyekt tarhiga tushiriladi. Ularni saqlab qolish zarurati va imkoniyatlari aniqlanadi. Odatda, yaxshi sanitar holatdagi va manzarasi chiroyli daraxt hamda butalar agar ular qurilish maydoni hamda yo'llar ustiga tushmasa, saqlab qolinadi va loyiha jarayonida e'tiborga olinadi.



**Loyiha dasturi** obyektning qanday maqsadlarga mo‘ljallanganligi, uning o‘lchamlari hudud chegaralari, imoratlar soni va ularning turlari, joyning obodonlashtirilishi, madaniy-ma’rifiy ishlar va tadbirlar mazmuni (parklar uchun) bo‘yicha ko‘rsatmalarni; obyektning rejaviy va me’moriy yechimlariga qo‘yiladigan talablarni; xaratatlar hajmi va ishlarni amalga oshirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Loyiha dasturi, odatda, loyihalash tashkiloti yoki shahar (tuman) arxitektori tomonidan tuzib chiqiladi.

Misol tarzida N shahridagi skverning loyiha dasturini keltiramiz. Skver uchun yosh tomoshabinlar teatri oldidagi 0,62 ga maydonga ega bo‘lgan hudud ajratilgan. Skver hududi shimoldan teatr binosi bilan, janubdan Navoiy ko‘chasi bilan, g‘arb va sharq tomonlardan esa turarjoy binolari bilan chegaralangan. Skverga ajratilgan hudud relyefi tekis. Hududda qurilishlar yo‘q, o‘simliklar ham (ko‘cha bo‘ylab maydon oldidagi mavjud yashil to‘siq (izgorod)dan boshqa deyarli mavjud emas. Hududning tuprog‘i sug‘oriladigan oddiy tuproq turiga kiradi. Hudud chegarasida yerosti inshootlari yo‘q. Navoiy ko‘chasi bo‘ylab suv quvuri tarmog‘i o‘tkazilgan.

Skver qisqa vaqt dam olishga mo‘ljallangan, u atrofdan yashil to‘siqlar bilan aylantirilishi kerak. Skver hududi mavjud suv havzasi bilan 2 simmetrik qismrlarga bo‘lingan. Skver rejasи muntazam geometrik uslubda bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Skver hududini ko‘kalamzorlashtirishda dekorativ bog‘dorchilik pitomnigidagi mavjud bo‘lgan manzarali daraxt va butalar, gullardan foydalanish zarur. Skver hududi sug‘orish quvuri, kechgi yorug‘lantirish va o‘rindiqlar bilan jihozlanishi kerak. Yo‘laklar osti 15 sm qumli shag‘al qatlam bilan, uning usti esa rangli beton plitkalar bidan qoplanishi zarur.

## 8.2. Loyihalash jarayoni va uning chizmaları

Loyiha oldi tahlil ishlarining materiallari o‘rganib chiqilgach, loyiha dasturi tasdiqlangandan so‘ng loyihalovchi tashkilot obyekt loyihasini ishslashga kirishadi. Buning uchun, odatda, loyihaning ikki bosqichli jarayoni belgilanadi: texnik loyiha va ishchi chizmalar. Uncha katta bo‘limgan obyektlar uchun texnik loyiha va ishchi chizmalar bosqichlari bir-biriga qo‘shilishi va bitta «texnorabochiy» loyiha ishlanishi mumkin. Katta yoki yirik obyektlar uchun esa



**8.2.-rasm. Skver loyihasini  
bajarish bosqichlari:**  
1 — skver loyihasining  
eskizi;  
2 — loyihani hududga  
ko‘chirish chizmasi;  
3 — ekinlarni ekish  
chizmasi.

ikki bosqichli loyihalash jarayonidan tashqari yana loyihaviy takliflar va me'moriy-rejaviy yechimlar ishlab chiqiladi.

Birinchi bosqich loyiha jarayoni, ya'ni texnik loyiha obyektlarini rejalashtirishning asosiy masalalari va hududni muhandisona taylorlash yechimlarini o'z ichiga olib, grafik materiallar va tushuntirish xatidan iborat bo'ladi. Texnik loyihaning grafik materiallariga obyektning bosh rejasи va dendroloyiha kiradi. Bosh rejada hudud tarhi (imoratlar, maydonchalar, yo'laklar, suv qurilmalari, haykallar joyi va boshqalar) hamda daraxtlar, butalar, gulzorlar o'rni shartli belgilash yordamida ko'rsatiladi.


Dendroloyihada esa hududga ekish uchun tanlangan barcha o'simliklarning nomlari, xillari, soni, yoshi, ekiladigan joylari, ekilish yashil kompozitsiyalari aniq qilib ko'rsatiladi va o'simliklarga talabnama jadvali ishlab chiqiladi. Uncha katta bo'limgan obyektlar uchun bosh reja dendroloyiha bilan bitta chizma ko'rinishida ishlanib, u obyekt bosh rejasining eskiz loyihasi deb ataladi (8.2.1; 8.2.2; 8.2.3-rasm).

Texnik loyihaning tushuntirish xatiga quyidagilar kiradi: kirish; obyektlarning tabiiy sharoitlari va shaharsozlik elementlari (joylashgan joyi, relyefi, geologiya va gidrogeologiyasi, iqlimi sharoiti tuproq holati, mavjud o'simliklar, mavjud qurilishlar tavsifi, yerosti va yerusti kommunikatsiyalarining yo'llari); me'moriy-rejaviy yechim bayoni va uni asoslash.

Misol tarzida Buxoro shahridagi Abu Ali ibn Sino nomli parkning me'moriy-rejaviy yechimi bayonining qisqartirilgan variantini keltiramiz.

Madaniyat va istirohat bog'i memorial bog' tarzida loyihalangan. Parkda Abu Ali ibn Sino memorial zonasи, unda olimning haykali va uning nomi ilmiy va faoliyatiga bag'ishlangan muzey binosi joylashtirilgan.

Parkning me'moriy-rejaviy yechimi uning atrofidagi mikro-rayonlar arxitekturaviy yechimlari bilan bog'langan va yaxlit me'moriy landshaft ansamblı tarzida yaratilgan. Park me'moriy kompozitsiyasi uning asosiy kompozitsiyaviy markazi va rejaviy o'qlari bilan uzviy bog'langan holda yechilgan. Parkning bosh kirish darvozasi Navoiy bulvarining o'qi bilan bog'langan bo'lib, u park oldi maydoniga ega.



#### **8.2.2-rasm. Skver loyihasi (dendroloyiha)ning texnik va ishchi chizmalari:**

- 1 – texnik chizmasi; 2 – loyihani hududga ko‘chirish chizmasi;
- 3 – ekinlarni o’tqazish chizmasi.

Park hududi quyidagi funksional zonalarga bo‘lingan:

- 1) memorial zona – 3 ga (markaziy xiyobon);
- 2) ommabop tomosha tadbirlarining zonasasi – 6 ga;
- 3) bolalar zonasasi – 5 ga;
- 4) madaniy-ma’rifiy muassasalar zonasasi – 1 ga (ko‘rgazma zona);
- 5) sport zonasasi – 2,5 ga;
- 6) tinch dam olish va sayr qilish zonasasi – 22,5 ga;
- 7) xo‘jalik zonasasi – 2,5 ga.

Har qaysi zonaga mansub park imoratlari va inshootlarining ro‘yxati keltiriladi.

Har bir zona parkning alohida ajratilgan hududlari hisoblanmasdan ular bir-birlariga xiyobonlar va o‘simgliklar orqali shunday bog‘langanki, natijada parkning yaxlit manzaraviy kompozitsiyasi shakllantirilgan. Parkka kelganlarni zonalar bo‘yicha taqsimlash maqsadida zonalararo asosiy maydon tashkil etilgan. U barcha zonalarni bir-biriga, ularni esa bosh darvoza bilan bog‘lovchi vazifasini bajaradi va, ayni paytda, park umumiy kompozitsiya-sining markazini tashkil qiladi.

Shundan so‘ng har bir funksional zonaning me’moriy-rejaviy yechim bayonnomasi keltiriladi (biz bu yerda faqat bolalar zonasining bayonini keltiramiz).

Bolalar dam olish zonasini tashkil qilishga alohida talablar qo‘yilgan. Zona bir nechta fazoviy-rejaviy qismlarga bo‘lingan (ertaklar shaharchasi va attraksionlar, pleskateniy basseyn, fizkul-tura sektori, harakat qoidalarini o‘rganishga mo‘ljallangan maydon, bayram paytidagi lineykalar maydoni, shaxmat pavilyonlari va ochiq estrada). Ular bir-biriga anfilad rejaviy uslubida bog‘langan va o‘zaro fazoviy qo‘shilib ketgan.

Bolalar zonasida qulay sharoit yaratishga katta ahamiyat berilgan: zonaga alohida qurish joyi belgilangan, hudud tegishli yo‘laklar va maydonchalar, beton plitkalar va maysazorlar bilan qoplangan.

Texnik loyihaning tushuntirish xatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

– loyihalanayotgan tadbirlar va ishlar hajmi (imoratlар, maydonlar, kichik me’moriy shakllarni joylashtirish bo‘yicha takliflar, o‘simgliklarni ekish kompozitsiyasi va assortimenti, maysazorlar va gulzorlarning joylari va o‘rni);

— agrotexnik tadbirlar (tuproqni zarur miqdordagi o‘g‘itlar bilan ta’minalash va madaniy tuproqlarni tayyorlash, ekish muddati hamda texnikasi, daraxt va butalarni parvarishlash, maysalar hamda gulzorlarni ekish uslublari);

— suv ta’minoti va sug‘orish (suvga bo‘lgan ehtiyoj va sug‘orish texnikasining bayoni);

— mavjud va loyihalanayotgan hudud balansining hisobi (yo‘llar, maydonlar, imoratlar, suv havzalari, daraxtlar, butalar, maysalar, gulzorlar egallagan maydonlar hisobi).

Daraxtlarga shartli belgilar yoki har bir daraxt uchun unga mos keladigan shartli belgilar tanlanadi. O‘simliklar assortimenti va soni o’sha shartli belgilar bilan jadval tarzida keltirilib ko‘rsatiladi.

#### Hudud balansi quyidagi jadval shaklida tuziladi


Hudud nomi	Maydoni			
	Hozirgi holati		Loyiha bo‘yicha	
	20	%	20	%
Obyektning umumiy maydoni				
Shu jumladan:				
Daraxt va butalar, yashil maydonlar va maysazorlar egallagan maydon				
Sport maydonlari				
Suv havzalari				
Plyajlar				
Gulzorlar				
Yo‘llar va yo‘laklar, park maydonlar				
Imoratlar va qurilishlar maydoni				

Avval ko‘kalamzorlashtirish sxemasi, so‘ngra ko‘kalamzorlashtirish loyihasi (dendroloyiha) ishlab chiqiladi. Obodonlashtirish va irrigatsiya sxemalari ham ko‘kalamzorlar sxemasi masshtabida ishlanadi. Maydonlar, yo‘llar, yo‘laklar, xiyobonlarning to‘shamalari, irrigatsiya tarmog‘i shartli belgilar yordamida ko‘rsatiladi. Bayonnomalarda barcha imoratlar va inshootlar, kichik me’moriy shakllar (masalan, kinokonsert zali, basseyn, haykallar, qahvaxona, kompyuter o‘yinlari zali va boshqalar)ning nomlari keltiriladi.

Texnik proyekt tarkibiga yana hududni vertikal rejajashtirish loyihasi, hududni muhandisona tayyorlash loyihasi, alohida uchastka detallarining chizmalari va moliya-smeta hisoboti kiradi.

«Ishchi loyiha» tarkibiga hududning razbivkasi va ekinlarni ekish chizmalari kiradi (8.2.1; 8.2.2; 8.2.3-rasmlar). Hudud razbivkasi chizmasida imoratlar, maydonlar, yo'llar, maysazorlar, gulzorlar, daraxt va butalar egallagan joylarning o'lchamlari ko'rsatiladi. Ulardan tashqari, barcha elementlar orasidagi masofalar, elementlar bilan asosiy nuqtalar, mavjud binolar va yo'llar o'qlari orasidagi masofalar ko'rsatiladi.

Ekinlarni ekish chizmasida tanlangan barcha daraxt va butalar ning nomlari, ularning ekilish joylari, soni, ekin orasidagi masofalar hamda klumbalar, rabatkalar va boshqa gulzorlar turlari ko'rsatiladi. Bayonnomada barcha o'simliklarning ro'yxati, ularning soni va yoshi keltiriladi.



8.2.3-rasm. Rangda tugallangan loyiha ko'rinishi.

Ko'p hollarda razbivka va ekish chizmalari bir chizmada qo'shilgan bo'ladi (masshtabi 1:500). Gulzorlar uchun alohida chizma qilish tavsiya etiladi (masshtabi 1:20–1:10).

Ekish joylarida qora nuqtalar ko'rsatilib, uning ustiga ekiladigan o'simlikning o'simliklar assortimenti ro'yxatida keltirilgan nomer

soni qo‘yiladi. Guruhlarning o‘rni esa kasr bilan belgilanib, sur’atga o‘simliklarning nomlari, maxrajda esa ularning soni qo‘yiladi.

***Mustahkamlash uchun savollar***

1. Yer relyefi bilan bog‘liq landshaft qurilmalariga qanday qurilmalar kiradi?
2. Tirkak devorlarni ko‘kalamzorlash tirishning qanday usullari mavjud?
3. Suv havzalari bilan bog‘liq landshaft qurilmalariga misollar keltiring.
4. Favvoralarning qanday turlari mavjud?
5. Favvoralarni loyihalashda qanday tamoyillarga amal qilinadi?
6. Mo‘jaz me’moriy shakllar bilan bog‘liq qurilmalarga nimalar kiradi?
7. Mo‘jaz me’moriy shakllar qanday turlanadi?
8. Ko‘shk nima va undan qanday maqsadda foydalaniladi?
9. O‘simliklar bilan bog‘liq landshaft qurilmalariga nimalar kiradi?
10. O‘simliklar bilan bog‘liq landshaft qurilmalarida qanday o‘simliklardan foydalaniladi?

# IX bob

## LANDSHAFT ARXITEKTURASI FANIDAN BAJARILADIGAN KURS LOYIHALARINING MAVZULARI VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

---

### **Dars rejasi**

1. Jamoat binosi hududini landshaft loyihalash.
2. Hovli bog'lari hududini landshaft loyihalash.
3. Ko'p funksiyali parkni me'morii landshaft loyihalash.

### **9.1. Jamoat binosi hududini landshaft loyihalash**

Jamoat binosi tarzida qishloq davolash muassalari hududini landshaft loyihalash mavzusini olib qaraylik.

Davolash muassasalarining hududlarini ko'kalamzorlashtirish davolanuvchilarning sog'lig'ini tiklashni va dam olishini hamda atrofdagi ko'chalardan kelayotgan transport shovqini hamda chang-to'zonlardan saqlashni va ajratishni ta'minlashi zarur. Shifoxonalar egallab turgan hududning 70–80 % ko'kalamzorlashtirilishi zarur. Ko'kalamzorlarning deyarli barcha qismlarida soya-salqin ta'milanishi kerak. Ko'kalamzor hududlar ochiq va yopiq yashil maydonlar tizimini yaratishi zarur (9.1.1-rasm).

Avvalambor shifoxona hududining chegarasi bo'ylab himoya maqsadida 2–3 qator keng va tig'iz shoxli daraxtlardan tuzilgan yashil tasma shakkantirilishi kerak. Yashil tasmaning ichki tarafidan unga yonma-yon tarzda, odatda kuzalmaydigan baland tig'iz o'suvchi butalar ekilishi kerakki, ular hududni himoyalashi bilan birga ichki muhit manzarasini yaxshilaydi. Shifoxona hududidagi ichki piyoda yo'laklar soya beruvchi daraxtlar bilan, binolarga kirish qismlari esa tashqi shovqin, chang va gazlardan himoyalanish maqsadida tirik yashil to'siqlar bilan ko'kalamlashtiriladi. Shifoxonaning infekzion bo'limi hududini boshqa davolash bo'limlарidan, xo'jalik zonasini esa barcha bo'limlardan yashil o'simliklar yordamida ajratish zarur.

Ichki muhitni ko'kalamzorlashtirishda soliter, guruhlar, parter va kurtinalar kabi tabiiy landshaft kompozitsiyalarini qo'llash va

yaratish bemorlar uchun katta estetik va ruhiy ahamiyat kashf etadi.


Shifoxonalar bosh korpuslarining oldilarida soya tushuvchi dam olish joylari va manzaraviy ochiq landshaftli ko‘kalamzor maydon (parter va gulzorlar, favvoralar) tashkillashtirilishi zarur. Bemorlarni ko‘rgani kelganlar uchun chirmashib o‘suvchi o‘simliklar – lianalar bilan o‘ralgan voishlar o‘rnatish ham yaxshi samara beradi. Shifoxona hududidagi ko‘kalamlar ko‘proq xvoy tipidagi, havo tarkibini fitonsid va ionlar bilan boyituvchi, xushbo‘y hidli navlarning tanlanishi maqsadga muvofiq.

Shifoxona palatalarining shimol va shimoliy sharq tomonlaridan daraxt hamda butalarni binolarga yaqin ekmaslik zarur. Bu joylarga yaxshisi maysazor, butalardan ishlangan guruuhlar va ko‘p yillik gulzorlarni shakllantirish kerak. Janub va janubiy-g‘arb tomonlardan esa aksincha, binolarni quyoshning issiq oftobidan, palatalarning yozda haddan ziyod isib ketishidan saqlash maqsadida derazalar oldi soyalashtiriladi. Bino devoridan 5–6 metr masofaga quyuq soya beruvchi va baland o‘suvchi daraxtlar (lipa, klyon, topol kabilar) ekiladi. Shifoxona hududida bemorlarning tinch dam olishi va ochiq havoda sayr qilishi uchun alohida yo‘laklar va maydonlar yaratilishi kerak. Bu yo‘laklar bo‘ylab ochiq, quyoshli va soyali joylar tashkil etish maqsadga muvofiq. Yo‘laklar bo‘ylab daraxtlar va butalardan ekilgan erkin o‘suvchi peyzajli guruhlarning yaratilgani ma’quldir.

Shifoxonalarda bemorlarda allergiya qo‘zg‘atuvchi o‘simliklarni ekish man etiladi (masalan, tol va leshinalarning ayol navlari).

Shifoxona bosh binosi darvozasi va davolash korpuslarining kirish oldiga parter tipidagi yoki modullashtirilgan gulzorlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Gulzorlardagi gullarning rangi tinchlantiruvchi va yumshoq tonlarda bo‘lgani ma’qul. Dam olish joylari oldiga esa hidi xushbo‘y gullar (rezedha, mattiola, xushbo‘y tabak) ekilishi zarur. Xvoy tipidagi daraxt va butalar shifoxona hududini nafaqat yozda, balki qish faslida ham yaxshi bezaydi. Palatalar derazalari oldiga sibir dereni va uning turli shakllarini ekish mumkin. Uning yorqin qizg‘ich barglari qishgi peyzajlarga o‘ziga xos tus berishi bilan ajralib turadi.



**9.1.1-rasm. Qishloq san'at saroyi va jamoat markazi qoshidagi manzaraviy bog' loyihasi.**

Umumiy maydoni – 2 ga, bog' – 1,5 ga, skver – 0,25 ga:

- 1 – ma'muriyat binosi, 2 – madaniyat saroyi, 3 – qahvaxona-oshxonasi,
- 4 – bayroq tribunasi, 5 – rozariya, 6 – raqslar maydonchasi, 7 – bolalar maydonchasi, 8 – kutubxona-pavilyon, 9 – sport o'yinlari maydoni.


## **9.2. Hovli bog'lari hududini landshaft loyihalash**

Hovli bog'iga misol tarzida qishloq uylari hovlisini me'moriy landshaft loyihalash mavzusini qarab chiqaylik.

Hovlini saranjom tutish, hovli ekinlari va xo'jalik imoratlarini o'rniغا joylashtirib, hovlisini chiroqli va obod qilish hovlili uy qurgan har bir oilaning orzu-istagidir. Bu ishlar qancha to'la va sifatlari bajarilsa oila hayoti shuncha fayzli, obod va shirin kechadi, hovlidan foydalanish oson va serunum bo'ladi.

Hovlini rejajashtirish hovli hududini funksional zonalarga bo'lib chiqishdan boshlanadi. Qishloq uylari hovlilarining hududi, odatda, quyidagi zonalarga bo'linadi.

Har bir zona uchun hovli yuzasidan maqsadga muvofiq va foydalanishga qulay bo'lgan joy tanlanishi kerak. Xo'jalik va maishiy imoratlar zonasiga, odatda, hovlining ichkari, to'r qismidan joy ajratiladi. Xo'jalik zonasiga tarkibiga kiruvchi omborxonasi yoki kladovka, o'tinxona, molxona, yemxona va boshqa xonalar



bajaradigan xizmat turiga qarab joylashtiriladi. Bunda ular hovlining butun enini yoki bir qismini egallashlari mumkin. Xo'jalik va maishiy imoratlar, ularning tarkibi va hovlida joylashish tartiblariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Poliz ekinlari uchun uchastkaning quyi tomonidan xo'jalik imoratlari yonida yoki uning atrof-chetlarida joy ajratish maqsadga muvofiqdir. Poliz ekinlarining suvg'a talabchanligini e'tiborga olib, ularni hovli yuzasidan nisbatan pastroqda ekkan ma'qul. Bu, kuz paytlari yomg'ir suvlarining oqib tushishiga ham qulaylik yaratadi. Odatta, poliz ekinlari uchun hovli maydonining 25–30%, mevali o'simliklarga 30–40%, yashash uyi, xo'jalik va tirikchilik imoratlari hamda proyezdlar uchun 30–40% ajratiladi.

Dastlabki 5–10 yillar davomida poliz ekinlari mevali daraxtlar qator oralariga ekilishi mumkin. Bog'bonlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, olma bog'i vaqt-i-vaqti bilan qirqilib turiladigan maysazor yoki bedapoyada ham yaxshi yetilishi mumkin, chunki bedapoya tuproq tuzumini saqlashga va undagi biokimyo jarayonlarga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, beda mollar uchun eng yaxshi qo'shimcha yemish sifatida ham foydalidir.

Uy va yashash hovlisi zonasи, ayvon, peshayvon, umumiyligi hovlining old qismi, uyga kiraverish joyi va uydan so'nggi hovli ichkarisiga chiqishdagi joylar gullar va manzarali daraxtlar bilan

bezatilishi maqsadga muvofiqdir. Qalin soya beruvchi baland daraxt va butalarni uyg'a yaqin masofaga ekmaslik kerak, chunki yashash xonalari kun bo'yi soya ostida qolib ketishi, uyni zax bosishi mumkin.

Gullarni tanlashda ularning ochilish mavsumiga e'tibor berish lozim. Umuman, gullarni shunday ekish kerakki, biri ochilib tugasa, ikkinchisi gullay boshlasin. Xalqimiz gullarni tanlab ekishda qadimdan an'anaga aylanib qolgan mahalliy va zamonaviy gullardan foydalanadi. Shunday gullardan ayrimlarini sanab o'tamiz: rayxon, atirgul, binafsha, namoshomgul, nargiz, gulira'no, nilufar, shabbo'y, gultojixo'roz.


Manzarali daraxtlar orasida qishin-yozin ko'm-ko'k bo'lib o'suvchi archasimon ninabargli daraxtlar ham bo'lishi mumkin. Shunday qilinganda uy atrofidagi kirib-chiqish joylarining saranjom-sarishta, tartibli va manzarali bo'lishi ta'minlanadi. Ninabargli daraxtlar va gullar o'zlaridan xushbo'y hidlar chiqarib, havoni toza va sog'lom qiladi, uy-joy va hovli ko'rinishiga o'ziga xos go'zallik baxsh etadi. Qishloqda ko'p bolali oilalar yashashini e'tiborga olgan holda hovli ichida uyg'a yaqin joydan bolalar uchun maxsus maydoncha ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday joy bolalarning yoz kunlari kunduz, ayniqsa, kechqurunlari hovlida ochiq havoda yayrab o'ynashlari uchun qulaylik tug'diradi. Bolalar maydon-chasining usti yengil yopilishi, yonlari esa ochiq bo'lishi mumkin. Maydoncha janubiy-g'arbiy va g'arb tomonidan soya beruvchi manzarali daraxtlar va butalar, qolgan tomonlardan esa yashil to'siqlar bilan to'silishi lozim.

Ayrim hovlilarda uy atrofidagi kirib-chiqish joylariga mevali daraxtlar zich ekilganligini ko'ramiz. Bunday hollarda yoz pishiq-chiligidida daraxtlar osti tagiga tushgan mevalarning bosilishi, ifloslanishi, har xil qurt-qumursqalar va besaranjomlik kuzatilishi mumkin. Bunday joyda yoz paytlari ochiq havoda chorpojada o'tirib hordiq chiqarish ancha noqulay, qishda esa manzaradan ancha boy berilishi mumkin. Bundan tashqari, mevali daraxtlar bolalar ko'ziga yaqin bo'limgani ma'qul. Shuning uchun ham mevali daraxtlar zonasining katta qismi hovlining tuprog'ida, poliz ekinlari bilan yashash hovlisi oralig'ida yoki ularga tutashib joylashganligi maqsadga muvofiqdir.


Mevali daraxtlar zonasida avval yo‘ng‘ichqa, beda uchun joy tayyorlanadi. Bedazordan alohida-alohida joylar ajratilib, ularidan biriga anor, ikkinchisiga behi, uchinchisiga shaftoli, to‘rtinchisiga esa nok ekilishi mumkin. Yozda qish va bahor fasllariga nisbatan sabzavot, qovun, tarvuzlar ko‘p bo‘lganligi sababli ho‘l mevaga talab kamroq bo‘ladi. Shuning uchun ham hovlidagi mevali daraxtlar orasida ko‘proq kechki olma, nok navlari jami ekiladigan daraxtlarning 70–80% ini tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Yashash hovlisidagi chorpoya atroflarini qator uzum ishkomlari bilan yopilganini ko‘ramiz. Bunday uslub faqat shu chorpoya atroflari uchungina ma’qul bo‘lib, uni bir tomonidan yopishi mumkin. Uy atroflarini esa pastak qator ishkomlar bilan yopish yaramaydi, chunki ular yozda shamolni to‘sib qo‘yadi va manzarani oddiylashtiradi. Shuning uchun ham uzum ishkomlari chorpoyadan ancha ko‘tarilgan va havodor bo‘lishi kerak. Chorpoya va ayvondan hovliga chiroyli hamda soz tabiiy manzara ochilishini ta’minalash lozim. Ba’zan chorpoya hovlining ichkarirog‘iga joylashgan bo‘lib, atrofiga ariq qazilgan, oldiga quvur bilan suv olib borilib, mo‘jaz shakldagi favvora ishlangan bo‘lishi mumkin. Favvora va chorpoya atroflariga qizil olma daraxti ekilsa, pishiqchilikda olmalar favvara-dagi suv ustiga tushib taftini oladi.

Issiq va quruq iqlimli respublikamiz sharoitida soya-salqin joylar, chorpoya, ishkom, hovuzcha va ariklar hovlining muhim elementlari hisoblanadi. Ana shunday mo‘jaz hovli elementlaridan foydalanishni yaxshi bilgan ota-bobolarimiz, yozning jazirama issiq kunlarida ham ular yordamida hovlida salqin, bahavo mikroiqlim vujudga keltirishgan, ostidan ariqlar o‘tgan chorpoyalarda ishkomlar soyasida o‘tirib, ishdan bo‘sh paytlarda suhbatlashgan, mehmon kutishgan, miriqib dam olishgan. Hozirgi xalqimiz tajribasida chorpooyalilar, asosan, ikki xil material: yog‘och taxta va temirdan ishlangan. Yog‘och va temir chorpooyalilar ko‘chma bo‘lganligi uchun foydalanishga qulay, ayniqsa temir supalar juda qulay bo‘lib, ular qishda yig‘ib qo‘yilishi ham mumkin. Hovli ichi yo‘laklarining soni iloji boricha kam bo‘lgani ma’qul: ularni zarur joylardangina o‘tqazib soya bilan ta’minalash kerak. Yo‘laklar g‘isht, g‘isht sinqlari, tabiiy toshlar va shag‘al qo‘shilgan betondan ishlanishi mumkin (9.2.1-rasm). Ularning eni 1 metr atrofida bo‘lishi kerak.





**9.2.1-rasm. Tabiiy toshlar va pishiq g'ishtlardan ishlangan yo'laklar:**  
 a – tosh oralariga maysa ekilgan yo'lak qirqimi: 1 – tosh; 2 – qum;  
 b – tosh oralariga qorishma solingenan yo'lak qirqimi: 1 – tosh; 2 – qum;  
 3 – bir tekis qilib solingenan qorishma; d – oralariga qorishma solingenan chag'irtosh yo'lak qirqimi: 1 – maydalangan chag'irtosh; 2 – qum;  
 3 – tekis tarashlangan tosh-bordyur; 4 – tekis solingenan qorishma.




**9.2.2-rasm. Hovli maydonini obodonlashtirish bo'yicha takliflar:**


- a – cho'l va dasht zonasini uchun mo'ljallangan hovli; b – qulay iqlimli vodiy va tog' vohalariga mo'ljallangan hovli; 1 – turarjoy uyi; 2 – xo'jalik va maishiy imoratlar; 3 – hovli; 4 – mevali bog'; 5 – sabzavot va poliz ekinlari; 6 – chorpoya; 7 – bolalar o'yнaydigan joy; 8 – uzum ishkomи; 9 – avtomashina joyi; 10 – jiyda, bodom va boshqa daraxtlar; 11 – berk devor; 12 – pastqam to'siq; 13 – yashil devor; 14 – go'ng saqlash joyi; 15 – ariq.




**9.2.3-rasm. Hovli landshaftini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar.**  
**(Xelga Gropper kitobidan olindi.)**




**9.2.3-rasmning davomi. Hovli landshaftini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar.**  
**(Xelga Gropper kitobidan olindi).**



*Hudud yechimining muntazam uslubi.*



*Hudud yechimining tabiiy uslubi.*



*Hudud yechimining aralash uslubi.*

**9.2.4-rasm. Hududi noan'anaviy shaklda bo'lgan hovlini landshaft loyihalashning 3 xil uslubi.**

Bir-biriga qo'shni hovlilarning orasida devorlar hosil qiluvchi chirmashib o'sadigan o'simliklarni qo'llash yaxshi natijalar beradi. Bunday yashil devorning balandligi 1–2 metrdan oshmasligi kerak. 9.2.2-rasmida respublikamizning har xil tabiiy iqlim zonalariga mos ravishda xo'jalik imoratlariga ega qishloq uylari hovlisining qulay yechimlari, hovlini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Ularda shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun sharoit, yashash va hordiq chiqarishga estetik qulay landshaft muhitini ta'minlovchi omillar hamda mahalliy shart-sharoitlar e'tiborga olingan.

Hovlisida xo'jalik yuritishga vaqtি bo'limgan va hovlining sof manzaraviy tabiiy landshaft ko'rinishini xohlovchilar uchun esa quyida hovlining bir nechta me'moriy-rejaviy va landshaft yechimlaridan namunalar keltirilgan (9.2.3-rasm). 9.2.4-rasmida hududi noan'anaviy shaklga ega bo'lgan hovli maydonini landshaft loyihalashning 3 xil uslubi ko'rsatilgan. Yuqorida bayon qilingan takliflarga rioya qilish uy-joyni shinam, hovlini fayzli qilishga va hovli uchastkasidan serunum hamda qulay foydalanishga yordam beradi.


### **9.3. Ko'p funksiyali parkni me'moriy landshaft loyihalash**

Park qishloq hududi ko'kalamlashtirish tizimining eng yirik rejaviy tarkibiy elementi hisoblanib, qishloq aholisining madaniy dam olib hordiq chiqarishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi, ochiq havoda sayr qilishi, ommaviy tomosha va madaniy tadbirlar o'tkazishi uchun xizmat qiladi. Ana shu funksiyalarni to'laqonli bajarish uchun qishloq parkining hududi 5 ga va undan ko'p bo'lishi zarur. Agar park maydoni bundan kam bo'lsa, uni markaziy maktab, kollej va qishloq sport kompleksi hududlari bilan uzviy bog'lab loyihalash maqsadga muvofiqdir. Aholisi 5 mingdan ziyod bo'lgan qishloq parki qo'shni qishloqlar aholisi uchun ham xizmat qilishi mumkin.

Parkning funksiyasi, o'lchami, me'moriy-rejaviy va landshaft tashkillatirish uslubiga mahalliy xalqning turmush tarzi, dam olish vaqtini o'tkazishning an'analari, park uchun ajratilayotgan hudud relyefi, uning tabiiy-aqliy sharoitlari ham ta'sir qiladi.

Qishloq parkining rejaviy yechimida atrof-muhit qurilishi va berilgan hududning landshaft holatiga qarab muntazam simmetrik uslub, erkin peyzaj uslubi yoki ularning aralash ko'rinishi ham qo'llanishi mumkin.

Park hududini tegishli funksional zonalarga taqsimlash va ularni park hududida to'g'ri joylashtirish, parkni me'moriy-rejaviy va landshaft tashkillashtirish masalalari mazkur darslikning 6.5-paragrafida bayon etilgan.



9.3.1-rasm. Park hududini funksional bo'lib chiqish sxemasi.

9.3.1; 9.3.2-rasmlarda Rossiyaning Rostov viloyatidagi Vladimir posyolkasining parki va dam olish zonasini misol tarzida ko'rsatilgan. Unda parkning me'moriy-rejaviy yechimi, park imoratlari va qurilmalari, sport maydonchalarini, plyaj hamda boshqa zonalarga doir inshootlar hamda parkni ko'kalamlashtirish va landshaft tashkil etish masalalari ko'rsatilgan.

Park hududiga ekiladigan daraxt va butalar, ularni tanlash tamoyillari, ulardan shakllantiriladigan yashil landshaft kompozitsiyalari, loyihalanadigan gulzorlar va maysazorlar, bog'-parklar

«O'rda» istirohat bog'ining bosh rejasি.



9.3.2-rasm. Qishloq parki hududini me'moriy-landshaft loyihalash.

peyzajlarini yaratishning badiiy-me'moriy va landshaft vositalari darslikning V bobida o'z aksini topgan. Shuning uchun ularga qayta to'xtalib o'tirmasdan quyida ***park loyihasining ishlanish taribini*** ko'rib chiqamiz.


Bunda biz birinchi nabvatda bog'-park uchun ajratilgan (qizil chiziq chegarasida) hudud va uning topografiysi, relyefi, landshafti, suv bilan ta'minlanganlik va boshqa holatlarini o'rganib chiqishimiz kerak. Hudud va uning landshaftini, ya'ni berilgan holatni fotofiksatsiya qilib olishimiz zarur. Bunda bo'lajak park hududidagi mavjud suv havzalari, daraxt va butalar, go'zal landshaft qismlari va relyefning tuzilishiga alohida e'tibor berish, parkning me'moriy-rejaviy yechimi, kompozitsiyasini ishlanganda ularni iloji boricha teginmay saqlab qolishni, ulardan unumli foydalanishni o'ylashimiz kerak (9.3.3-rasm).

Shundan so'ng, bog'ning tarkibiy funksional zonalarini belgilab, ularni hudud bo'ylab to'g'ri va maqsadga muvosiq tarzda joylashtirib chiqishimiz zarur. Buning uchun bog' hududida bog'ning asosiy bosh darvozasi, qo'shimcha darvoza, bosh xiyobon, katta va kichik sayrgoh yo'llarining o'rnnini belgilashimiz hamda bog' hududining tashqi transport shovqinidan, chang to'zonlardan muhofazasi haqida o'ylashimiz kerak. Barcha funksional zonalar bog' hududida to'g'ri joylashtirilib chiqilgandan so'ng bog' me'moriy-rejaviy tuzilishining eskizi, ya'ni me'moriy g'oyasi ishlab chiqiladi.

Bunda bog' funksional zonalari orasidagi qulay bog'lanishlarni, katta va kichik sayr qilish yo'laklarini, bog' imoratlari hamda insho-otlarini, attraksionlar va xizmat ko'rsatish joylarini, tashqi obodon-lashtirish elementlari, faol va tinch dam olish va sayr qilish zonalarini bog' tarhida aniqlab olishimiz kerak. Agar park hududi 20 getktargacha bo'lsa, uning loyihasi 1:500 masshtabda ishlanishi zarur.

Agar parkda suv havzalari, ya'ni akvatoriya zonasini mavjud bo'lsa, unga borish, undan samarali foydalanish funksiyalari, suvda cho'milish, plyaj tashkil qilish masalalari o'ylab ko'rildi va ular barcha talablarga mos holda loyihalanishi kerak.

Park relyefida sezilarli tarzda qiyaliklar, pog'onalar va sohillar bo'lsa ularni alohida texnik loyiha tarzida ishlab chiqish zarur, ya'ni tirkak devorlar, pandus va zinapoyalar, sohil va qirg'oqlar, sohil bo'ylab sayr xiyoboni ishlab chiqilishi lozim.



9.3.3-rasm. Park xiyobonlari va yo'laklarining turlari:

a, b – asosiy xiyobonlar; d – sohil xiyoboni; e – xiyobonning veloyo'lakcha bilan kesishuvi; f – ot yo'lakchasi: 1 – bosh xiyobonning asosiy harakatlanish yo'li; 2 – qo'shimcha harakatlanish yo'li; 3 – ikkinchi darajali yo'lak; 4 – qo'shimcha yo'lakcha; 5 – veloyo'lakcha; 6 – ot yo'lakchasi; 7 – gulzor; 8 – maysazor; 9 – daraxt va butalar.

Shundan so'ng parkning to'liq me'moriy-rejaviy yechimi: attraksionlar, park imoratlari va qurilmalari, park maydonlari, yo'laklar hamda xiyobonlar, suv havzalari va ular egallagan joylar aniqlab chiqiladi. Ularni va park relyefmi o'rganib chiqish asosida parkning landshaft loyihasi ishlab chiqiladi. Masshtab o'sha, ya'ni 1:500.

Buning uchun parkning funksional zonalariga mos tarzda park imoratlari va qurilmalari, daraxt va butalar, gulzorlar, maysalar, yeryopar o'simliklar park hududiga ekish uchun tanlanadi. Qanaqa daraxt va butalarning turlari, gullar va lianalar, qayerga va qancha, nima maqsadda, ular qanday yashil landshaft kompozitsiyalari (soliter, qator, guruh, massiv va h.k.) asosida ekiladi. Bularning barchasi uchun shartli belgilar tanlanib, loyihaga kiritiladi.

Daraxt va butalarni ekishda ularning tabiiy shakllari va sulieti, bo'y-basti, shox-shabbalarining tig'izligi va boshqa dekorativ biologik xususiyatlari, mazkur tuproq va tabiiy iqlimiyligi muhitga mosligi, park zonalarining mo'ljaldagi funksiya va landshaft kompozitsiyalariga mos kelishligiga qarab tanlanadi.

Shundan so'ng tanlangan o'simliklar, ayniqsa daraxt va butalarning yoshi va turlari, mayjud pitomnik va o'rmon xo'jaliklarining imkoniyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi. So'ngra bog'ning bosh xiyoboni, sayr yo'laklari va maydonlari uchun to'shamalar tanlanadi, ular ham loyihaga kiritiladi. Ayrim hollarda daraxt va butalarni, gulzorlarni ekish loyihasi, ularning joyi va o'rirlari, soni ko'rsatilgan loyiha chizmalari ishlab chiqiladi. Barcha yozuv, izoh va bayonnomalar yozib chiqiladi. Loyihaga tushuntirish xati va kerakli talabnomalar, smeta xarajatlari, bog' o'simliklarini sug'orish tizimining loyihasi, zarurat tug'ilganda tirkak devorlar konstruksiyasi kabilar ham kompleks tarzda ishlab chiqiladi.

#### ***Mustahkamlash uchun savollar***

1. Jamoat binolari hududini landshaft loyihalashga qo'yilgan asosiy talablarni tushuntirib bering.
2. Jamoat binolari hududida qanday landshaft kompozitsiyalarini qo'llash mumkin?
3. Jamoat binolari hududini landshaft loyihalashda ketma-ketligini tushuntirib bering.
4. Hovli bog'lari hududini landshaft loyihalashning asosiy tamoyillarini tushuntiring.
5. Hovli bog'larini landshaft tashkil etish va rejalashtirishga nimalar kiradi?
6. Hovli bog'larida qanday o'simliklar qo'llash tavsiya etiladi?
7. Ko'p funksiyali qishloq parklarining funksiya zonalarini tushuntiring.
8. Qishloq parklari funksional zonalarining park hududida joylashish tamoyillarini tushuntiring.
9. Qishloq parklari hududining balansini tushuntiring.

## ILOVALAR

Ko'kalamzorlashtirishda klumba va soliterlar kompozitsiyasini yaratish namunalari (A.E.Jonuzoqov takliflari)

### TURLI DEKORATIV DARAXT VA BUTALAR YORDAMIDA KOMPOZITSIYALAR BAJARISH

#### KLUMBA MARKAZIDA DEKORATIV BUTA VA GULLARDAN SOLITER YARATISH



2-variant  
yosh ipli yukka ishtirokida



1-variant  
ipli yukka ishtirokida



3-variant agava  
ishtirokida



4-variant  
yosh pal'ma ishtirokida


## TURLI DEKORATIV DARAXT VA BUTALAR YORDAMIDA KOMPOZITSIYALAR BAJARISH

### DEKORATIV BUTA VA GULLARDAN SOLITER YARATISH



## TURLI DEKORATIV DARAXT VA BUTALAR YORDAMIDA KOMPOZITSIYALAR BAJARISH

### YAPOLOQ BARGLI DEKORATIV DARAXTLARDAN SOLITER YARATISH



## TURLI DEKORATIV DARAXT VA BUTALAR YORDAMIDA KOMPOZITSIYALAR BAJARISH

### IGNABARGLI DEKORATIV DARAXTLARDAN SOLITER YARATISH



*1-variant  
Oddiy qoraqarag'ay  
ishtirokida*

*2-variant  
shakl berilgan archa  
(mojjevelnik) ishtirokida*



*3-variant  
havorang qoraqarag'ay ishtirokida*

## 1. DARSLIKDA FOYDALANILGAN ATAMALARNING IZOHЛИ LUG'ATI (GLOSSARY)

**Ajursimon** – siyrak bargli, to'rsimon shox-shabba.

**Akvarium** – baliq yoki boshqa suv jonzodlari va o'simliklari parvarish qilinadigan va tomosha qilinadigan maxsus shisha idish, sun'iy havza yoki shaffof devorli maxsus bino.

**Akveduk** – uzoq suv manbalaridan oqizib suv keltirishga mo'ljallangan inshoot, osma quvur yoki ravvoqli suv ko'prigi. Suv quvuri usidan ayrim hollarda odamlar uchun yo'l ham ishlangan. Oddiy akveduklardan bog'-saroylar hududini sug'orishda ham keng foydalanilgan.

**Akvodizayn** – suv inshootlari dizayni, ularni chiroyli, foydali va mustahkam, ayni paytda shinam va tejamli qilib ishlash va loyihalash.

**Aksent** – manzaraning biron joyi yoki detaliga urg'u berish, kishi e'tiborini alohida qaratish maqsadida qo'llaniladigan badiiy me'moriy uslub. Detal yoki muhitga alohida farq qiluvchi holat, shakl, o'lcham yoki rang berish, uni yorug'lantirish va bo'rttirish orqali erishiladi.

**Alpinariya** – bog' yoki parkning baland tog'larga xos o'simliklar o'stiriladigan maxsus qismi, odatda, toshloq yoki qir ko'rinishida ishlanadi.

**Amfora** – parklarni bezashga mo'ljallangan ko'zasimon qo'shquloq sopol idish.

**Ansambl** – yaxlit badiiy estetik shaklda yaratilgan majmua. O'zaro funk-sional bog'langan inshootlar, o'simliklar va boshqa landshaft elementlarining yaxlit bir uyg'unlashtirilgan me'moriy omuxtasi.

**Assortiment** – muayyan joy yoki landshaft obyektini ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladigan turli xil daraxtlar, butalar va gullar to'plami.

**Arabeska** – bog'-parkchilik san'atida handasaviy shakllar, barg, gul, shoda va shu kabilarning tasviridan tarkib topgan murakkab naqshli gulzor, parter yoki to'shama. Dastlab arab arxitekturasiga xos bezak bo'lganligidan shunday nom olgan.

**Aranjirovka** – guldasta, guldon, savat, gul, marjon, gulchambarlardagi gullar va barglarni o'zaro moslab, uyg'un joylashtirish san'ati.

**Arxitektura** — qurilishda shakl va mazmun hamda hajmlar uyg‘unligiga crishish san’ati. Jamiyatning moddiy madaniyati va san’atini o‘zida yaxlit tarzda mujassamlashtira olgan inson ijodining mahsuli — me’moriy asar.

**Arxitekturaviy bog‘** — bog‘ imoratlari va boshqa sun’iy yaratilgan inshootlar tabiat elementlariga ko‘ra ko‘plikni tashkil qilgan va muayyan kompozitsiya asosida yaratilgan bog‘lar turi.

**Atriy, atrium** — qadimgi yunonlar yoki rimliklar uylarining o‘rtalik qismida joylashgan va uy xonalaridan chiqiladigan yopiq ichki hovli. Atrium markazida hovuz (iplyuviy) va uning ustida yomg‘ir suvlari oqib tushadigan tuynuk (komplyuviy) o‘rnatalgan.

**Axa** — bog‘ yoki parkning atrof-muhit landshaftini ko‘rishga to‘sinq bo‘lmaydigan chegarasi: bog‘ chegarasi bo‘ylab o‘tib bo‘lmaydigan chuqur qazish va uni ko‘kalamzorlashtirish orqali erishilgan. XVIII—XIX asr bog‘larida to‘sinq vazifasini bajargan uslub Angliyada «Xa-xa», Rossiyada «Ax-ax» yoki «axa» deb nomlangan. Bog‘ manzarasi go‘zalliklaridan zavqlanib borayotgan kishilar ko‘z oldida favqulotda sersuv kanal paydo bo‘lganda, ular bexosdan «ax-ax» deb yuborishgan. Aytishlaricha, bu uslubning nomi shundan kelib chiqqan.

**Banzay, bansay** — mo‘jaz daraxtlarni o‘stirish san’ati. Ilk bor Yaponiyada vujudga kelib, mo‘jaz bog‘lar yaratishda keng qo‘llanilgan.

**Barokko** — Italiyada keyinchalik G‘arbiy Ovrupada XVI asr oxiridan to XVIII asr o‘rtalarigacha keng tarqalgan serhasham badii yslub. U o‘zining kontrastligi, shakkarning o‘ynoqligi, harakatchanligi, hissiyotlarning qo‘zg‘atuvchanligi, serhashamliligi bilan ajralib turgan. Barokko uslubidagi bog‘lar o‘zining ana shu tomonlari bilan boshqa bog‘lardan farq qilgan.

**Berso, bindaj** — yarimdoira shaklidagi ravoqli sinchlari yordamida usti daraxt shox-shabbalari bilan yopilgan soyali xiyobon; ana shunday ravoqli yopiq xiyobon bilan aylantirilgan bog‘ va parklarda qo‘llanilgan.

**Bosket** — tig‘iz daraxtlar yoki butalardan tuzilgan va yashil to‘sinq bilan chegaralangan xolis keng joy. Barokko bog‘lari ichidagi ana shunday yopiq yashil xolisonsa muhitlar «kabinet»lar yoki «yashil zal»lar deb nomlangan.

**Bordyr** — bog‘lar va parklarda gulzorlar yoki parterlarni chegaralab turuvchi pastqam ingichka yashil hoshiya, jiyak.

**Botanik bog‘** — botanika o‘simlikshunoslik va ko‘kalamzorlashtirish sohalarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, madaniy-oqartuv ishlarini olib borishga mo‘ljallangan yashil massiv, bog‘.

**Boulingrin** — «kegli» o‘yiniga mo‘ljallangan o‘rtalik qismi yassi chuqurcha tarzida ishlangan maysazor. Barokko bog‘lari va parklarida qo‘llanilgan.

**Bulvar** – ko‘chalarning yon tomoni yoki ikki yoniga, sohil bo‘ylab piyodalar harakati, dam olishlari va sayr qilishlari uchun keng ko‘kalamzor xiyobon.

**Bo‘stonsaroy** – saroy atrofidagi obod bog‘, Samarqand qal’asidagi Ko‘ksaroy, Shahrisabzdagi Oqsaroy tarkibidagi ajoyib bog‘lar.

**Viridariy** – monastir yoki turarjoy ichida joylashgan ko‘kalamzor ochiq hovli, mo‘jaz bog‘. U, odatda, to‘g‘ri burchakli handasaviy rejali klumba gullariga ega, markazida favvora yoki hovuz joylashgan.

**Garmoniya** – me’moriy shakllar yoki landshaft elementlarining o‘zaro uyg‘unligi, bir-biriga monandligi, muvofiqligi, badiiy jihatdan mosligi (handsaviy shakllar, ranglar, hajmlar garmoniyasi va hokazo).

**Geoplastika** – landshaft loyihasi yoki ko‘kalamzorlashtirishga mo‘ljallangan yer maydonini me’moriy va badiiy qayta ishlash maqsadida tekislash va tartiblashtirish.

**Germa** – boshchasi haykal yoki byust bilan tugallangan to‘rt qirrali ustun. Park haykaltaroshligida keng qo‘llanishga mo‘ljallangan.

**Gloriet** – parklarda, odatda, tepalik yoki perspektivasi tugal joylarga qo‘yilgan ustunli, ochiq pavilyon shaklidagi uncha katta bo‘Imagan imorat. Ilk bor Fransiyada XVII asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan.

**Grot** – qoyalardagi tabiiy g‘orga yoki tabiiy toshlar o‘ymasiga o‘xshatib ishlangan, soya-salqinda dam olishga mo‘ljallangan sun‘iy park inshooti; parklarda kulgili qiziqarli joy.

**Guruh** – jozibador park manzarasining muhim kompozitsiyasi. Odatda, u soni juft bo‘Imagan (11-tagacha) daraxt, buta yoki gul o‘simliklarnining turli shakllaridagi uyushmasidan tuzilgan bo‘ladi.

**Dendrariy yoki dendropark** – ochiq joyda aniq reja bo‘yicha turli xil daraxt va butalardan tuzilgan maxsus bog‘ yoki botanik bog‘ning bir qismi.

**Dizayn** – loyiha ma’nosini beradi. Landshaft arxitekturasida dizayn so‘zi «me’moriy muhit dizayni» ma’nosida anglashilib, u ushbu muhitda badiiylik asosida yaratilgan yashil o‘simliklar, gulzorlar, suv havzalari, goyeplastika, tashqi obodonlashtirish elementlari, shu jumladan, mo‘jaz me’moriy shakllar va to‘samlarni ham qamrab oluvchi ijodiy soha.

**Kariatida** – ustun sifatida foydalanilgan ayol qomatining haykalli tasviri. Agar haykal ustunda erkak qomati tasvirlangan bo‘lsa, u atlant deb atalgan.

**Klumba** – ochiq maysazorda doira yoki to‘garak tarhda shakllantirilgan daraxtlar va butalar guruhi; XIX asr o‘rtalaridan klumba deb muntazam rejali parklarning yo‘laklari kesishgan, binolarning kirish joylari oldida, haykallar tagkursilari yonida ishlangan nisbatan kichik gulzorlarga aytila boshlangan.

**Kompozitsiya** – san’at asarining barcha element va qismlarini yaxlit bir garmonik tizimda tashkil etish va birlashtirish. Bog‘-parkchilik kompozitsiyasi, asosan, ikki-rejaviy va hajmiy qismlardan tarkib topadi. Ranglar nisbati ham kompozitsyaning muhim elementlaridan biridir.

**Kontrast** – shakl yoki ranglar orasidagi yaqqol seziluvchi farg, holat.

**Kurdoner** – saroy, ko‘shk, qasrlarning bog‘ ko‘rinishdagi hashamatli hovlisi, ko‘cha tomonidan siyrak to‘siq, qolgan tomonlaridan Π-simon tarhlik binolarining qismlari yoki korpuslari orqali to‘silgan.

**Ko‘shk, kiosk** – to‘rt ustunli, tomi qubbali yengil qurilma; pavilon; bog‘ ichidagi zeb-u ziynatlari ayvon, koshona, saroy, qasr. Kiosk savdoga mo‘ljallangan yengil mo‘jaz me’moriy qurilma tarzida keng tarqalgan.

**Labirint** – o‘rta asr bog‘larida baland yashil to‘silqlar tarzida qayin yoki jo‘ka daraxt va butalardan kuzab ishlangan adashtiruvchi chalkash yo‘laklar.

**Landshaft** – ochiq havoda ishlash va dam olish uchun yaratilgan, tarkibi tabiiy (o‘simpliklar, relyef, tuproq, suv, hayvonot dunyosi) va sun‘iy (me’moriy muhandislik inshootlari) ishlanmalar bilan badiiy va ekologik qonuniyatlar asosida shakllantirilgan hudud.

**Landshaft arxitekturasi** – atrof-muhitni tabiiy va sun‘iy me’morchilik qurilmalari va elementlari yordamida badiiy shakllantirish san’ati; me’moriy faoliyatning alohida turi; landshaft yaratish amaliyotining nazariy asosi.

**Landshaft dizayni** – turli xil landshaft obyektlarini yaratish uchun tuzilgan loyiha; landshaft obyektining sun‘iy elementlarini badiiy estetik va ekologik qonuniyatlar asosida muayyan funksiyalarga moslab yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyat turi.

**Luna park** – vazifasi turli xil tomoshalar va ovunmachoq o‘yinlarga mo‘ljallangan bog‘ yoki park.

**Maysazor** – bog‘larda ko‘p yillik boshoqli o‘tlardan ekilgan yashil maydon. Vazifasiga ko‘ra maysazorlarning sport o‘yinlari maydoni, maxsus vazifalarga va manzarali maydonlarga mo‘ljallangan xillari mavjud. Manzarali maysazorlarning parterli, oddiy va yaylovli turlari mavjud.

**Mavritan maysazorisi** – rang-barang gulli maysazor. Gulli o‘simpliklar yoki ularning ko‘p yillik o‘tlar bilan aralashmasidan hosil qilinadi.

**Massiv** – bog‘-park hududining parkni tashkil etuvchi o‘simpliklardan tuzilgan yirik elementi (1–4 ‘gektardan bir necha gektargacha joyni egallaydi).

**Me’morial majmua** – buyuk tarixiy voqealar xotirasiga bag‘ishlangan mahobatli inshoot va bog‘-parkchilik san’tining yaxlit asari.

**Miksborder** — erta bahordan to kech kuzgacha gullab turuvchi turli o'simliklardan tuzilgan, odatda, yo'laklar, devorlar, yashil to'siqlar yoki pog'onalar bo'ylab ekilgan chiroysi va o'ziga xos gulzor.

**Nimfeya** — qadimgi Rim bog'larida cho'milishga mo'ljallangan basseylni, usti gumbazli, naqshinkor, go'zal bog' imorati. Yunoniston bog'larida esa o'rtadagi hovuz atrofida chiroysi o'simliklar qurshovida soyada dam olishga mo'ljallangan gumbazli imorat.

**Nyuans** — shakl yoki ranglar orasidagi zo'rg'a seziluvchi farq, holat.

**Oranjereya** — issiqxona, ochiq joyda o'smaydigan ekzotik o'simliklarni o'stirishga mo'ljallangan maxsus xona. Parklarda sitrus va boshqa ekzotik o'simliklarni o'stirishga qurilgan bir va bir necha zallik inshoot. XVIII asr Ovrupa parklarida oranjereyalar saroylar yonida qurilib, sayr-tomosha maqsadlarida ham foydalilanigan.

**Oroyish** — bezak, pardoz chiroyi; bog'-istirohatchilik san'atida bog'lar dizayni ma'nosida anglanadi.

**Pavilyon** — bog' yoki parkdagi uncha katta bo'lmanan yopiq yengil imorat; ko'shkning suhbatbop mo'jaz bir turi; ko'rgazmalar ko'shki, ko'chada ro'znomalar sotiladigan ko'shklar va hokazo.

**Palisadnik** — atrofi aylantirilgan uy oldi gulzori.

**Pandus** — bog'larda zinapoyalar o'rniiga ishlataladigan qiyali yo'laklar.

**Paradiz** — Eron hukmdorlarining chir atrofi devor bilan aylantirilgan qadimda ov qilib dam oladigan bog'lari shunday nom olgan.

**Park** — bog'-parkchilik san'ati qonuniyatları asosida shakllantirilgan va aholining dam olishi uchun mo'ljallangan yashil massiv. Parklar vazifasiga ko'ra sport, bolalar parki, zoopark, me'morial parklar va boshqa vazifalarga mo'ljallanishi mumkin.

**Parter** — skverlar, parklarning serhasham joylari, jamoa binolari oldilarini bezovchi manzaralari tekis maysazor yoki gulzor maydonlar. Parterda hovuzlar va haykallar ham bo'lishi mumkin. Parterlar gullik, maysalik va jimjimador naqshli xillarga ega.

**Peyzaj** — joy yoki tabiat manzarasining umumiy ko'rinishi; hajm-fazoviy tuzilishi jihatidan ochiq, yarimochiq, yarimyopiq va yopiq manzaralarga bo'linadi.

**«Peyzajniy park» (manzaraviy park)** — tabiat manzaralarini tomosha qilish va sayr qilish uchun mo'ljallangan park yoki uning bir qismi. Yo'llari, xiyobonlari, park elementlari va boshqa rejaviy landshaft yechimlarining erkin tabiat ko'rinishida tashkillashtirilgani bilan ajralib turadi. Katta suv havzalari, maysazorlar

va joy relyefining uyg‘unlashtirilgan landshaft yechimi. «Peyzajniy park» atamasini ilk bor ingliz professori Repton (1752–1817) ishlatgan. U manzaraviy park yaratishning to‘rt tamoyilini ishlab chiqqan:

1) tabiiy landshaftning go‘zalligini to‘liq namoyon qilish, bo‘rttirish va uning kamchiliklarini yashirish;

2) park rejasining erkin bo‘lishligi;

3) park peyzajalari shunday yaratilishi kerakki, go‘yo ular tabiiy bo‘lib tuyulsin;

4) barcha park elementlarini yaxlit manzaraviy g‘oya, yechimga bo‘ysun-dirish.

**Pergola** – chirmoviqlarga burkangan yassi panjarasimon yengil qurilmani ko‘tarib turuvchi bir yoki ikki qator ustun, tirkaklardan iborat bog‘-park imorati.

**Rabatka** – xiyobon, yo‘lak bo‘ylab ekilgan uzun tasma ko‘rinishidagi gulzor; bir yillik o‘simliklarning bir yoki bir necha xillaridan ko‘p qatorlab ekiladi.

**Ritm-bog‘** – parkchilik san’ati obyeklarida turli qiyosiy elementlarning maromiy tarzda takrorlanishi, qaytarilishi.

**Rozarium** – atirgullarning har xil turlari ekilgan park, bog‘ning alohida qismi yoki alohida hududi.

**Rokariy** – bog‘ yoki parklarda gullar va manzaraviy o‘simliklarning tabiiy toshlar, suv jilg‘alari bilan birgalikda maxsus ishlangan qismi.

**Rosha** – park manzarasining bir xil turdag'i daraxtlar (masalan, beryoza, dubrava) ekiladigan yirik (1–1,5 ga) elementi. Rosha daraxt tanalarining orasi ochiq bo‘lishi zarur.

**Simmetriya** – shakl yoki predmetlarning markazi yo‘q chiziqqa, shuningdek tekislikka nisbatan aynan, muqobil joylashuvi, o‘zaro o‘xshashlik. Simmetriyaning teskarisi asimmetriyadir.

**Skver** – shahar ichida uncha katta bo‘limgan (to 1 gektargacha) qisqa vaqtli dam olish va ayrim me’moriy komplekslarni bezash uchun mo‘ljallangan ko‘kalamzor hudud.

**Soliter** – alohida o‘suvchi chiroyli daraxt yoki buta kompozitsiyasi.

**Trilyaj** – tirmashuvchi o‘simliklar uchun sinch vazifasini bajaruvchi yengil yog‘och panjara yoki boshqa materiallardan ishlangan shunday qurilma.

**Topiar san’ati** – daraxt va butalarni chilpab va kuzab shakl berish san’ati.

**Usadba** – Rossiya me’moriy ansamblarining o‘ziga xos turi. Ularda usadba hududi bog‘-park ko‘rinishida ishlangan. Usadbada hukmdor saroyi, xo‘jalik imoratlari va bog‘, manzaraviy bog‘, pavilyonlar, suv havzalari, xiyobonlar bo‘lgan.

**Xiyobon** — bog‘ qismlarini o‘zaro ulaydigan bosh yo‘l, ikki yoniga qator daraxtlar, gullar ekilgan, ariqlari yoki favvoralari bo‘lgan sayrgoh yo‘l. Xiyobon usti ochiq yoki yopiq bo‘lishi mumkin.

**Ekzotik o‘simliklar** — chetdan keltirilgan, mahalliy joyga xos bo‘lmagan daraxtlar va o‘simliklar.

**Qishgi bog‘** — ekzotik o‘simliklarni o‘sirishga mo‘ljallangan, usti oyna bilan yopilgan katta xona, zal yoki shunday zalning bir qismi. Hovuzlar, haykallar, favvoralar bilan bezalishi mumkin.

**Chorbog‘** — to‘rt tomoni devor bilan aylantirilgan darvozali tarhi kvadrat yoki to‘g‘ri to‘rt burchakli muntazam handasaviy yechimga ega, markazida saroy-ko‘shk, uning oldida yoki atrofida sarhovuz, undan to‘rt tarafga ketgan ariqlar, darvozalardan saroygacha xiyobonlar, to‘rt tarafda esa chorchanmanlar va devorlar uzra yo‘llar, manzarali va mevali daraxtlar, gulzorlar va favvoralar bilan bezalib ishlangan me’moriy sayrgoh bog‘.

**Chortoq** — to‘rt tomonida toq-ravoqi bo‘lgan to‘rt burchakli bog‘ imorati; to‘rt tomoni ochiq ravoqli ko‘shk.

**Chorchanman** — chorbog‘larning muhim tarkibiy qismi, u to‘rtta chamandan iborat bo‘lib, har bir chaman markazida alohida mevali daraxtlar, ularning atrofida gullar, chaman chetlari bo‘ylab esa yo‘laklarga soya beruvchi manzarali daraxtlar ekilgan. Chorchanmanlar markaziga hovuz, ayrim hollarda hovuz o‘rniga ko‘shk, shiypon joylashtirilgan.

**Shiypon** — atrofi ochiq, poydevori baland yozlik yengil qurilma, hovli yoki bog‘ imorati.

**Ermitaj** — odatda, parklarning to‘rida joylashib, fikrlash, xayolotlarga cho‘mish va dam olishga mo‘ljallangan bino.

## 2. QISHLOQ TURARJOYLARI HOVLISIDA EKISH VA KO‘KALAMZORLASHTIRISHGA TAVSIYA ETILGAN MEVALI VA MANZARALI DARAXT VA BUTALAR

**Mevali daraxtlar.** Olma navlari: Renet, Smerenko, Jonatan, Oq rozmarin, Delishes, Vaynsep, «Spur» tipi.

**Nok navlari:** Lastochka, Lyubimina, Klappa, Bere royal, Lesnaya krasavitsa, Olive de Serr, Qishki nashvati.

**Behi navlari:** Yirik quva behisi, Nok behi, Izobilnaya, Sovxoznaya.

**O‘rik navlari:** Ko‘rsodiq, Arzami, Zarya vostoka, Mirsanjali, Subhoni Isfarak, Xurmoy.

**Shaftoli navlari:** Vatan, Lola, Oq shaftoli, Start, Farhod, Elberta.

**Olxo'ri navlari:** Kurortnaya, Pioneer, Berton, Ispolinskaya.

**Gilos navlari:** Pushti napoleon, Volove serdse, Qora gilos, Drogana jeltyaya.

**Olcha navlari:** Podbelskaya, Qora shponka, Samarqand olchasi.

**Anor navlari:** Qizil anor, Qozog'i anor, Oq dona (tuya tishi), Achchiq dona.

**Anjir navlari:** O'zbekiston sariq anjiri, Smirin qora anjiri, Chapla, Kadota.

**Xurmo navlari:** Tamonan, Zenji-Maru, O'zbekiston pioneri, Xiakume.

**Yong'oq navlari:** Gvardeyskiy, Ideal, Pioneer, O'zbekiston ertagi.

**Bodom navlari:** Kosonsoy, Bo'stonliq, Ugom, Chidamli.

**Jiyda navlari:** Mayda mevali nordon nav, Ta Yan-Szao.

**Manzarali daraxtlar.** Virgin archasi: ustunsimon va piramida shaklidagi turlari. G'ujanoq archa: past bo'yli turlari. Uchqur bargli zarang: shoxlab ketgan va shar shaklidagi turlari, Mirzaterak: piramida shaklidagi terak, Yapon saforasasi, Qayrag'och.

**Manzarali butalar:** atirgul navlari, Yapon behisi, Veygela: oq, pushti, qizil gulli navlari. Do'lana, Deysiya izyashnaya: oq pushti, qizil gulli navlari. Shiivi: gullovchi uchqat, Bodzerak, Shamshod venger siren: binafsha va oq gulli navlari, Ligustrum.

**Chirmashib o'suvchi butalar va chirmoviq o'simliklar.** Amur yovvoyi toki, Yapon toki, Devichiy vinograd pyatilstochkoviy. Klematis vitalba. Yapon shilqisi. Kamrifol, pechak, Lomonosov jakmana, Lomonosov Vostochniy (ilonot), tekoma.

### 3. LANDSHAFT ARXITEKTURASI FANIDAN REYTING NAZORATI UCHUN TUZILGAN TEST SAVOLLARI

#### 1. Landshaft so'zining lug'aviy ma'nosini to'g'ri ko'rsating:

- a) yer manzarasi;
- b) yer tuzilishi;
- d) yerdagi o'simliklar;
- e) yer geografiyasи.

#### 2. Quyidagi javoblardan landshaftning turlarini to'g'ri ko'rsating:

- a) tabiiy va sun'iy landshaftlar;
- b) tabiiy va madaniy landshaftlar;
- d) shahar va qishloq landshafti;

e) cho'l va sahro landshafti.

**3. Landshaft arxitekturasining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?**

a) o'simliklar, hovuz va favvoralar, tashqi obodonlashtirish elementlari;

b) o'simlik va suv dunyosi, mo'jaz me'moriy shakllar;

d) o'simlik dunyosi, suv dunyosi va uning qurilmalari, hudud relyefi va uning shakllari, tashqi obodonlashtirish elementlari;

e) o'simliklar, hudud relyefi, mo'jaz me'moriy shakllar.

**4. Landshaft arxitekturasining kasbiy yo'naliш (sohalari) ga nimalar kiradi?**

a) landshaft rejalashtirish, yangi obektlarni landshaft loyihalash, bog'-park san'ati yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash;

b) landshaft rejalashtirish, landshaft dizayni, flora va fitodizayn;

d) landshaft rejalashtirish, buzilgan hududlar va landshaftlarni tiklash;

e) landshaft rejalashtirish, landshaft arxitekturasi, landshaft dizayni, flora va fitodizayn.

**5. Landshaft arxitekturasining qaysi kasb egalari ekologik muammolar bilan shug'ullanadi?**

a) landshaftni rejalashtiruvchilar va landshaft arxitektorlari;

b) landshaft dizaynerlari;

d) flora va fitodizaynchilar;

e) dendrologlar.

**6. Qadimgi Misrda qanday bog'lar shakllantirilgan?**

a) ulkan sfinkslar qoshidagi xiyobon bog'lar;

b) flra'vnlar saroylari, zodagonlar hovlilari, ibodatxonalar qoshidagi bog'lar, xo'jalik bog'ları;

d) shahar ma'muriy markazi atrofidagi bog'lar;

e) hayvonot bog'ları.

**7. Qadimgi dunyoning «Osma bog'ları» qaysi mamlakatda va qachon qurilgan?**

a) bobil davlatida, eramizgacha VI–V asrlarda;

b) qadimgi Eronda, eramizgacha V–VI asrlarda;

d) qadimgi Misrda, eramizgacha IV–III asrlarda;

e) yunonistonda, eramizgacha III–II asrlarda.

**8. Italiyaning uyg'onish davri bog'-parklariga xos xususiyatlarni to'g'ri ko'rsating.**

a) muntazam rejali, tekis sahnli bog'lar, haykallarning ko'pligi, asimmetrik bog' inshootlari;

b) ko'ndalang o'q bo'ylab tuzilgan muntazam simmetrik kompozitsiya, tekis parterlar va klumbalarning ko'pligi;

- d) erkin rejali, peyzajli kompozitsiya, suv havzalarining ko‘pligi;
- e) bo‘ylama o‘q bo‘ylab simmetrik muntazam kompozitsiya, pog‘onali relyef, tirkak devorlar va keng zinapoyalar.

**9. Fransiyaning uyg‘onish davri bog‘-parklariga xos xususiyatlarni to‘g‘ri aniqlang.**

a) aralash stilda yechilgan bog‘ kompozitsiyalari, mahobat va salobat, naqshinkorlik, tantanavorlik;

b) erkin rejali peyzajli kompozitsiya, relyefli hudud, tirkak devorlar va zinapoyalarning ko‘pligi;

d) bo‘ylama o‘qqa simmetrik joylashgan bog‘ elementlarining, suv havzalari va sharsharalarning ko‘pligi;

e) bo‘ylama o‘q bo‘ylab simmetrik muntazam kompozitsiya, tekis sahnli parterlar, klumbalar, haykallar va favvoralarning ko‘pligi, tantanavorlik.

**10. Algambra va Grenada bog‘-saroylariga xos xususiyatlarni to‘g‘ri ko‘rsating.**

a) bog‘-saroylarning ko‘k va qora toshlardan qurilganligi;

b) hovli landshaftining mevali va manzarali daraxt va butalardan tashkil topganligi;

d) mo‘jaz hovli-bog‘larning ko‘pligi, ularning o‘zaro funksional bog‘langanligi, bog‘larning muntazam simmetrik kompozitsiyasi va suv qurilmalariga boyligi;

e) bog‘ ekinlarining ekzotik xillariga boyligi.

**11. Yekatirina va Aleksandriya bog‘lari Rossiyaning qaysi shahrida joylashgan?**

a) petrodvorets shahrida;

b) pushkinskoye selo shahrida;

d) sankt-Peterburg shahrida;

e) suzdal shahrida.

**12. Islom sharqi mamlakatlariga xos ideal bog‘ni qanday tasavvur qilasiz?**

a) to‘rt tarafdan devor bilan chegaralangan, markazida ko‘shk va «jannat bulog‘i» hovuz joylashgan, mevali va manzarali daraxt va gullarga boy sayrgoh soyali bog‘lar;

b) markazida «jannat qudug‘i» qurilgan, atrofi devor bilan aylantirilgan darvozali bog‘;

d) markazida «jannat ko‘shki» qurilgan, atrofi devorli darvozali bog‘;

e) o‘rtasida hovuz, to‘rida «jannat ko‘shki» qurilgan bog‘.

**13. Eron o‘rta asr bog‘-park san‘atining ilg‘or tajribalari uning qaysi obyektlarida o‘z aksini topgan?**

a) hamadondagi Ibn Sino bog‘ida;

- b) koshondagi Chehelstum bog'-saroyida;
- d) nishopurdagi Umar Xayyom maqbara bog'ida;
- e) Isfaxondagi «Maydoni shox» va «Shaharbog» bog'-saroylari va bog'xiyobonlarida.

**14. Chorbog' u-el ubi dat O'rta Osiyo tarixiy bog'larini quyidagi tavsiflarga ko'ra to'g'ri aniqlang:**

- a) to'rtta alohida mo'jaz bog'lardan tuzilgan hovli bog'i;
- b) to'rt va undan ko'p qismlardan tuzilgan, tabiiy manzarali, erkin rejali istirohat bog'i;
- d) to'rt va undan ko'p qismlardan iborat muntazam simmetrik rejalangan, mevali va manzari o'simliklarga boy istirohat bog'-saroyi;
- e) to'rtta bog'dan tashkil topgan hayvonot bog'i.

**15. Xitoy bog'-parklari qanday me'moriy-rejaviy uslubda qurilgan?**

- a) muntazam geometrik rejaviy uslubda;
- b) tabiiy landshaft uslubida, ya'ni jonli peyzaj ko'rinishida;
- d) ko'ruk landshaft uslubida;
- e) parter ko'rinishidagi manzara uslubida.

**16. Xitoydagi eng ulkan va mashhur tarixiy bog'larga qaysi bog'lar kiradi?**

- a) imperator bog'lari;
- b) adabiyot bog'lari;
- d) ko'riqxonalar;
- e) choy ichish marosimi bog'lari.

**17. Yapon milliy bog'i o'zida qanday sifatlarni mujassamlashtirishi zarur?**

- a) badiiylik va tabiiy ishonchlilikni;
- b) daraxtlarni kuzab, ularga sun'iy shakllar berishni;
- d) daraxtlarni mo'jaz ko'rinishlarga o'stirishni;
- e) suv havzalariga sun'iy shakllar berishni.

**18. Yaponiya bog'-parklari qanday turlarga bo'linadi?**

- a) xususiy bog'lar, xo'jalik bog'lari, monastir bog'lari;
- b) imperator bog'lari, monastir bog'lari, turarjoyolar qoshidagi mo'jaz xususiy bog'lar;
- d) monastir bog'lari, imperator bog'lari, adabiyot bog'lari;
- e) imperator bog'lari, xo'jalik bog'lari, ma'muriy bog'lar.

**19. Quyidagi qaysi javobda manzarali o'simliklar dunyosi to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) daraxtlar, daraxt-butalar, buta-daraxtlar, lianalar, tikonli o'simliklar;
- b) daraxtlar, butalar, suv ostida va suv ustida o'suvchi o'simliklar;
- d) daraxtlar, butalar, lianalar, gullar, maysalar, yeryopar o'simliklar;

c) daraxtlar, butalar, maysalar, o'tlar, suv usti gullari va manzaralar.

**20. Daraxtlar va butalarning dekorativ-biologik xususiyatlariga nimalar kiradi?**

a) barg va gullarining tuzilishi va rangi, shox-shabbalarining tig'izligi;

b) tashqi shakli,sovq va issiqlik, suvsizlikka chidamliligi, gaz va chang, shovqin ta'sirida bardoshlilik darajasi;

d) balandligi va hajmiy ko'rinishi, tuproqni tanlashi;

e) tashqi shakli, balandligi, bargi va gullarining tuzulishi, rangi, qachon va qancha vaqt gullashi, mevasining shakli va rangi, shox va butoqlarining tig'izligi.

**21. O'zbekiston hududi daraxt va butalarning o'sish imkoniyatlariga qarab qanday zona va rayonlarga bo'linadi?**

a) shimoli-g'arbiy, markaziy, janubiy, sharqiy zonalarga va 11 ta rayonga;

b) shimoliy, sharqi-janubiy zonalarga va ularga tegishli 11 ta rayonga;

d) shimoli-g'arbiy, markaziy, g'arbiy va sharqiy zonalarga va 14 ta rayonga;

e) markaziy, sharqi, g'arbiy zonalarga va 12 ta rayonga.

**22. O'simliklar shaharsozlikda qanday asosiy rol o'yaydi? To'g'ri javobni ko'rsating.**

a) shaharga manzara, chiroy beradi;

b) shaharni chang-to'zonlardan saqlaydi;

d) shahar ekologiyasi, manzarasi va mikroiqlimini yaxshilaydi;

e) rekreatsiya zonalarini yaratish imkoniyatini beradi.

**23. Yashil to'siqlar, bordyurlar, yashil devorlar, bosketlar, labirintlar qanday o'simliklardan ishlanadi?**

a) lianalardan;

b) doim yashil daraxtlardan;

d) gullovochi butalardan;

e) doim yashil butalardan.

**24. Labirantlar o'tmishda qanday vazifani bajargan?**

a) ochiq yashil muhitda xudoga pinhona sig'inish uchun;

b) yakka yoki juft tarzda ochiq yashil muhitda ov qilib dam olish uchun;

d) ochiq yashil muhitda do'stlar bilan ovqatlanish va muloqot qilish uchun;

e) yakka yoki juft tarzda yashil manzarali, pinhona, usti ochiq tabiiy muhitda sayr qilish va dam olish uchun.

**25. Landshaft loyihalashda qo'llaniladigan gullarning turlarini to'g'ri ko'rsating.**

a) mevali va mevasiz gullar;

b) bir yillik, uch yillik, o'n yillik gullar;

d) bir yillik, ikki yillik, ko'p yillik gullar;

e) tabiiy va sun'iy gullar.

**26. Gullardan shakllantiriladigan landshaft kompozitsiyalarini to'g'ri ko'rsating:**

- a) klumbalar, segmentlar, freskalar, rozariyalar;
- b) soliter, klumbalar, rabatkalar, miksborderlar, massivlar;
- c) miksborderlar, guruhlar, buketlar, kurtinalar;
- d) massivlar, rabatkalar, kurtinalar, freskalar.

**27. Klumbalar rabatkalardan qanday farq qiladi?**

- a) klumbalar maydonlar, chorrahalar, yo'llar, xiyobonlar ichida, rabatkalar esa yo'llar atrofida, xiyobonlar, trotuarlar chetida shakllantiriladi;
- b) rabatkalar – bu kvadrat, aylana, uchburchak shakllarda bo'lsa, klumbalar cho'zinchoq tasmasimon yoki yoysimon shakllarda bo'ladi;
- c) klumbalar daraxtdan, rabatkalar esa gullardan shakllantiriladi;
- d) klumbalar butalardan, rabatkalar esa daraxtlardan shakllantiriladi.

**28. Miksborderlar gul massivlaridan qanday farq qiladi?**

- a) miksborderlar gul massivlaridan tik ko'kalamzorlashtirishda qo'llanishi bilan farq qiladi;
- b) miksborderlar gul massividan deyarli fark qilmaydi;
- c) miksborderlar gul massivlaridan egallagan maydonining kattaligi bilan farq qiladi;
- d) miksborder bu aralash bordyur yoki aralash rabatkadir, gul massivi esa bir yoki ikki xil tonli parter ko'rinishli yirik gulzorlar hisoblanadi.

**29. Miksborderlar qanday o'simliklardan tashkil qilinadi?**

- a) oddiy plyuo', tekoma, agava, viola;
- b) buzina, buzilnik, molochay;
- c) agava, palma, doimiy gullovchi begoniya, plyushsimon pelargoniya, fuksiya;
- e) xrizantema, xind dyusheneyasi, georginiya.

**30. Klumbalarning tarkibiy qismlari nimalardan tashkil topadi?**

- a) gullardan, toshlardan, suv havzasidan;
- b) gullardan, maysalardan, bordyurlardan, toshlardan;
- d) gullardan, g'ishtlardan, butalardan;
- e) gullardan, bordyurlardan, haykallardan.

**31. Maysalar qanday shakllantiriladi?**

- a) maysa yoki yeryopar o'simligining urug'ini ekib, chimlashtirish usuli bilan, sun'iy yo'l bilan;
- b) maysa yoki yeryopar o'simliklarning ko'chatini ekib, chimlashtirib;
- d) chimlashtirib, georginiya va xrizantemalar ekib;

e) faqat yeryopar o'simliklar bilan.

**32. Dekorativ parter maysazorlar qanday o'simliklardan shakllantiriladi?**

a) raygras pastbishniy, qizil sovyannitsa, myatnik, lugoviy, katta va kichik barvinok, verbeynik, dyuyeneya;

b) oddiy plyush, xitoy glinitsiyasi, beda, floks;

d) raygras patsbishniy, oq beda, timofeyevka lugovaya, jivuchka;

e) oqbeda, oddiy grebennik, timofeyevka, agava, viola.

**33. Daraxtlardan tuziladigan landshaft kompozitsiyalarini to'g'ri ko'rsating.**

a) katorlar, klumbalar, massivlar, bosketlar;

b) guruhrar, rabatkalar, miksborderlar, soliterlar;

d) guruhrar, soliterlar, qatorlar, massivlar, kurtinalar;

e) rabatkalar, qatorlar, kurtinalar, bosketlar.

**34. Ko'kalamzorlarni loyihalashning asosiy tamoyillarini to'g'ri ko'rsating.**

a) tuman bog'i, shahar bog'i, zavod bog'i va shahar cheti bog'-parklarini shakllantirish;

b) mikrorayon bog'i, tuman bog'i va umumshahar bog'-parklarini shakllantirish;

d) ko'kalamlarni shahar hududi bo'ylab teng taqsimlash, ularning uzviyligini ta'minlash, shahar ichi va shahar cheti ko'kalamzorlar tizimini yaratish va o'zaro bog'lash;

e) xiyobonlar, skverlar, bulvarlar, bog'-parklar tizimini shakllantirish.

**35. Ochiq yashil muhitlar ko'rsatilgan qatorni to'g'ri belgilang.**

a) guruhrar, qatorlar, maysazorlar;

b) xiyobonlar, rabatkalar, maysazorlar, guruhrar;

d) bulvarlar, klumbalar va miksborderlar;

e) klumbalar, rabatkalar, rozariyalar, miksborderlar, dekorativ maysazorlar.

**36. Yopiq yashil muhitlar ko'rsatilgan qatorlarni aniq belgilang:**

a) guruhrar, xiyobonlar, massivlar, qishki bog'lar, o'rmonlar;

b) soliterlar, kurtinalar, rabatkalar, parterlar;

d) klumbalar, rabatkalar, maysazorlar, qishgi bog'lar;

e) o'rmonlar, miksborderlar, rabatkalar, parterlar.

**37. Ko'kalamzorlar foydalanishi va vazifasiga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?**

a) chang-to'zonlar va shamollar oldini to'suvchi ko'kalamzorlar;

b) umumiy foydalanuvchi, foydalanishi cheklangan va maxsus ko'kalamzorlar;

d) sanitariya-gigiyenik zonalardagi ko'kalamzorlar;

e) xo‘jalik va manzarali ko‘kalamzorlar.

**38. Landshaft loyihalashda qo‘llaniladigan rejaviy usullarni to‘g‘ri va to‘liq ko‘rsating:**

a) muntazam, pog‘onali, assimmetrik;

b) modulli, simmetrik, peyzajli;

d) regulyar (muntazam), erkin peyzajli, aralash;

e) erkin peyzajli, pog‘onali, modulli.

**39. Daraxt va butalar qanday tamoyillarga asoslanib tanlanadi?**

a) chang-to‘zon, gaz, tutunlarga chidamliligiga;

b) suvsizlikka, issiq va sovuqqa chidamlilik darajasiga ko‘ra;

d) tuproqning holati va hosildorligiga ko‘ra;

e) funksional vazifasiga, badiiy-dekorativ, sanitariya-gigiyenik, biologik xususiyatlari va sifatlariga ko‘ra.

**40. Shahar parklarining quyidagi keltirilgan qaysi klassifikatsiyasi to‘g‘ri?**

a) tematik va notematik parklar;

b) ko‘ngilochar attraksion parklar, sport parklari;

d) botanik parklar, madaniyat va istirohat parklari;

e) ko‘pfunksiyali, monofunksiyali va maxsus parklar.

**41. Monofunksiyali parklar uchun keltirilgan quyidagi misollardan qaysi biri to‘g‘ri?**

a) dendroparklar va gullar bog‘i;

b) madaniyat va istirohat parklari;

d) tematik parklar, botanik parklar;

e) disneylendlar va bolalar parki.

**42. Shaharning magistral ko‘chalarini ko‘kalamzorlashirishda qanday daraxtlar tanlanadi?**

a) shovqinga, shamolga chidamli, baland o‘suvchi daraxtlar;

b) gazga, changga, shovqinga chidamli hamda trotuarga soya beruvchi daraxtlar;

d) suvsizlikka va gazga chidamli baland o‘suvchi daraxtlar;

e) soya beruvchi, chiroyli gullovchi daraxtlar.

**43. Qaysi oriyentatsiyali xiyobonlar O‘zbekistonda yopiq xiyobon ko‘rinishida ko‘kalamzorlashtirilishi kerak?**

a) shimoli-janub, janubi-g‘arbiy oriyentatsiyali;

b) janubi-sharqiy oriyentatsiyali;

d) shimoli-g‘arbiy oriyentatsiyali;

e) sharqi-g'arbiy oriyentatsiyali.

**44. Yopiq xiyobonlar qanday daraxtlardan shakllantiriladi?**

- a) sosna, archa, terak, tuya;
- b) zarang, majnuntol, sarv, archa;
- d) tol, chinor, qayin, biota;
- e) safora, kashtan, chinor, dub, zarang.

**45. Ochiq xiyobonlar qanday daraxtlardan shakllantiriladi?**

- a) chinor, magnoliya, qayin, tuya;
- b) kashtan, zarang, dub chereshchatiy, safora;
- d) piramidasimon dub, archa, mojjevelnik, kiparis;
- e) yasen, kanada bagryannigi, lipa, kashtan.

**46. Ko'pfunksiyali parklar hududi qanday funksional zonalarga ajratiladi?**

- a) ommaviy o'yinlar, tomoshagohlar, sayrgohlar va xo'jalik zonalari;
- b) ommaviy tadbirlar va attraksionlar, sport, bolalar tinch dam olish va sayr qilish, xo'jalik zonalari;
- d) ommaviy o'yin va tomoshalar zonasi, attraksionlar sport va sayr qilish zonasi;
- e) ma'naviy dam olish, sayr qilish, bolalar va xo'jalik zonasi.

**47. Ko'pfunksiyali parklar hududining balansi qanday ho'lishi kerak?**

- a) ko'kalamzorlar – 70–75%, yo'laklar, xiyobonlar, maydonlar – 20–25%, bino va inshootlar – 5–10%;
- b) ko'kalamzorlar – 80%, yo'lak, xiyobon, maydonlar – 15%, bino va inshootlar – 5%;
- d) ko'kalamzorlar – 60–70%, yo'lak, xiyobon, maydonlar 30%, bino va inshootlar – 20%;
- e) ko'kalamzorlar – 85%, yo'lak, xiyobon, maydonlar 10%, bino va inshootlar – 5%.

**48. Madaniyat va istirohat parki ichida qanday binolarni joylashtirish man etiladi?**

- a) mehmonxonasi, sirk binosini, bank binosini;
- b) teatr binosi, yoshlar markaziy binosi, restoranni;
- d) stadion, suv basseyni, ko'rgazmalar zalini;
- e) to'xona, amfiteatr, raqlar zalini.

**49. Vertikal (tik) ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladigan o'simliklar qatorini to'g'ri ko'rsating:**

- a) vinograd amurskiy, buksus, beresklet, magoniya;
- b) devichiy vinograd, tekoma, puyerariya, plyushch;

- d) glitsiniya kitayskaya, ligustrum, forzitsiya;
- e) deysiya, jasmin, ayva yaponskaya, buzina.

**50. Yozin-qishin ko‘m-ko‘k bo‘lib o‘suvchi lianalar qatorini ko‘rsating.**

- a) puyerariya, xitoy glitsiniyasi;
- b) jimolost, kaprifol, virgin, lomonosi;
- c) oddiy plyush, yapon jimolosti;
- d) tekoma, yapon jimolosti.

**51. Shaharning landshaft rekreatsion tizimi deganda nimani tushunasiz?**

- a) transport yo‘llarini qum va qorlardan muhofazalovchi landshaft tizimini;
- b) sport bilan shug‘ullanish maydonlari va suv havzalari;
- c) shaharni kuchli shamollar chang-to‘zonlardan muhofaza qilish landshaft tizimi;
- d) dam olish zonalari va bog‘-parklar, plyajlar tizimini.

**52. O‘zbekiston bog‘-parklarida soya-salqin hosil qilish uchun 1 hektar hududga qancha daraxt ekilishi maqsadga muvoffiq?**

- a) 350—400 daraxtgacha;
- b) 200—250 daraxtgacha;
- c) 250—300 daraxtgacha;
- d) 50—200 daraxtgacha.

**53. Plyaj maydoni qanday normativlar asosida loyihalanadi?**

- a) shahar aholisining 5—6 % olinib, bir kishiga 8 kv.m. joy hisob qilinadi;
- b) shahar aholisining 10—12 % olinib, har bir plyajga keluvchi uchun 5,5—6 kv.m. joy hisob qilinadi;
- c) shahar aholisining 10—12 % olinib, bir kishiga 16—20 kv.m. joy hisob qilinadi;
- d) shahar aholisining 5,5—6 % olinib, bir kishiga 10—12 kv.m. joy hisob qilinadi.

**54. Bog‘-parklar kompozitsiyasini shakllantirishda qanday tarixiy milliy stillar mavjud?**

- a) gollandcha, nemischa, turkcha, ispancha stillar;
- b) yunoncha, misr, eron, hindcha bog‘ stillar;
- c) fransuzcha, italyancha, inglezcha bog‘ stillari, yaponcha, xitoycha stil, Chorbog‘ stili, ispan-mavritan stili;
- d) ruscha, fincha, estoncha, arabcha bog‘ stillari.

**55. Park ssenariyalari deganda nimani tushunasiz?**

- a) park inshootlari va qurilmalarining istiqbolli ko‘rinishlarini;
- b) park hududi uchun tanlangan daraxtlar manzarasini;

- d) park hududidagi mavjud suv havzalari va akvazona ko‘rinishlarini;
- e) park hududining manzara va peyzajlari, ularning bir-biridan farqlanib, o‘zgarib turishini.

**56. Landshaft arxitekturasida qo‘llaniladigan suv qurilmalarining klassifikatsiyasi»ni to‘g‘ri ko‘rsating.**

- a) hovuzlar, ariqlar, prudlar, ko‘llar;
- b) ko‘llar, prudlar, kanallar, ariqlar;
- c) sharsharalar, chadarlar, ko‘llar;
- d) favvoralar, shalola, sharasharalar, hovuzlar.

**57. «Artlandshaftlar» deganda nimani tushunasiz?**

- a) landshaft arxitekturasida yaratilayotgan gulzorlarning umumiy nomini;
- b) landshaft arxitekturasida qo‘llanilayotgan sun’iy bog‘larning umumiy nomini;
- c) landshaft arxitekturasida shakllantirilayotgan eng yangi bog‘larning umumiy nomini;
- d) landshaft arxitekturasida daraxt va butalarni kuzab, turli sun’iy yashil shakllar berish san’ati.

**58. «Artlandshaftlar»ni shakllantirishda qo‘llanilayotgan zamonaviy ijodiy-badiiy yo‘nalishlarni to‘g‘ri ko‘rsating:**

- a) texnik bog‘lar, haykallar bog‘i, sun’iy bog‘lar;
- b) kinetik bog‘lar, bog‘-artafetlar, bog‘-instalatsiyalari;
- c) texnologik bog‘lar, san’at bog‘lari, amaliy san’at bog‘lari;
- d) amaliy san’at bog‘lari, haykallar bog‘i, muzlar bog‘i.

**59. Landshaftlar arxitekturasi obyektlarining loyihasi, odatda, qanday qismlardan tashkil topadi?**

- a) obyekt hududini funksional zonalarga ajratish, obyekt hududining me’moriy-rejaviy kompozitsiyasi;
- b) hududning dendro (landshaft) loyihasi tanlangan o‘simliklarning shartli belgilari va ularga talabnomasi;
- c) hudud ssenariyalaridan fragmentlar, o‘simliklarning vertikal yoyilmasi va panoramasidan ko‘rinishlar, to‘shamalar, sug‘orish qurilmalarining chizmalari;
- d) eskiz va klauzuralardan.

**60. O‘zbekiston sharoitida shaharlar hududining ko‘kalamzorlashtirilgan qismi necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak?**

- a) 70 %;
- b) 60 %;

d) 65 %;

e) 55 %.

**61. Shaharni landshaft rejalashtirish deganda nimani tushunasiz?**

a) shahar hududini ko'kalamzorlashtirish uchun o'simliklarni yetishtirib beruvchi ta'minot;

b) shahar hududi bo'ylab rekreatsion obyektlarni to'g'ri rejalashtirishni;

d) shahar hududi bo'ylab landshaft obyektlarini to'g'ri taqsimlash va tashkillashtirish, ular orasidagi uzviylikni ta'minlash;

e) pitomniklar va o'rmon xo'jaliklarini loyihalashning obyektlarini rejalashtirishni.

**62. Landshaft dizayni obyektlariga nimalar kiradi?**

a) hududni muhandislik obodonlashtirish va yorug'lantirish qurilmalari;

b) hududni tashqi obodonlashtirish elementlari, mo'jaz me'moriy shakllar va bog'-park mebellari, toshloq bog'lar;

d) «Tasviriy oyna» obyektlari va shahar dizayni elementlari;

e) gulzorlar, maysazorlar, relyef bilan ishslash — geoplastika.

**63. Ko'kalamzorlashtirish loyihasida tanlangan o'simliklarga yoziladigan talabnomada nimalar ko'rsatiladi?**

a) o'simliklarning nomlari, yoshi, soni, shartli belgilari;

b) o'simliklarning balandligi va yoshi, soni;

d) o'simliklarning biologik xususiyatlari va soni;

e) o'simliklarning tashqi ta'sirlarga chidamlilik darajasi.

**64. Dendrologiya deb nimaga aytildi?**

a) tanlangan daraxt va o'simliklar, ularning joylashish va ekilish tartibi ko'rsatilgan loyiha;

b) sug'orish suv ta'minoti tarmoqlari ishlab chiqilgan loyiha;

d) yer arxitekturasi ishlab chiqilgan loyiha;

e) tashqi obodonlashtirish jihozlari ishlab chiqilgan loyiha.

**65. Landshaft loyihalash fanining asosiy maqsadini ko'rsating.**

a) ishdan chiqqan va buzilgan ko'klamlarni qayta loyihalash, egasiz va tashlandiq joylarni ko'rkan qilish va fayz berish;

b) shahar va qishloqlarda parklar, bog'lar, skverlar va xiyobonlar yaratish, ularni ta'mirlash, qayta tiklash;

d) shahar muhitiga tabiat manzaralari va ko'kalamzorlarni kiritish, buzilganlarini ta'mirlash, muhitni landshaft elementlariga uyg'unlashtirish, ekologiyani va dam olish sharoitlarini yaxshilash;

e) asosiy maqsad — bu ko'kalamzorlashtirishdir.

**66. Istirohat bog'larining qancha foiz hududi ommaviy tadbirlar va attraksionlar zonasiga ajratiladi?**

- a) 30–35 %;
- b) 45 %;
- d) 20–25 %;
- e) 40 %.

**67. Quyidagi daraxt va butalarning qaysi birlari yozin-qishin ko'm-ko'k bo'ladi?**

- a) kiparis, samshit, tuya, biota, mojjevelnik, qrim qarag'ayi;
- b) mojjevelnik, chinor, zarang, kashtan, yasen;
- d) kashtan, qayin, bagryannik, tuya, yasen, dub;
- e) biota, safora, gledechiya, jimolost, lipa, dub.

**68. Soliter kompozitsiyasini yaratish uchun quyidagi daraxtlarning qayerlaridan foydalanish zarur?**

- a) qrim qaragayi (sosna), kumush archa, tuya, kashtan, dub, biota;
- b) gledechiya, mojjevelnik, chinor, qayrag'och, tuya, majnuntol, tut, olma;
- d) Yapon saforasi, barbaris, siren, terak, akatsiya, tol;
- e) majnuntol, akatsiya, dub, samshit, mojjevelnik.

**69. Shabada samarasini nima?**

- a) sun'iy ravishda iliq havo oqimini hosil qilish va undan foydalanish;
- b) ochiq va yopiq yashil muhitlar orasida tabiiy ravishda sovuq havo oqimini hosil qilish va undan foydalanish;
- d) tabiiy ravishda iliq havo oqimini hosil qilish va undan muhitni sog'lomlashtirishda foydalanish;
- e) sun'iy ravishda sovuq havo oqimini hosil qilish va undan foydalanish.

**70. Umumiyligi foydalanishga mo'ljallangan ko'kalamzorlar soni O'zbekiston shaharlarida aholi boshiga qanchadan kam bo'lmasisligi zarur?**

- a) 30 kv.m;
- b) 15 kv.m;
- d) 24 kv.m;
- e) 40 kv.m.

**71. Barcha ko'kalamzorlarning umumiyligi sathi O'zbekistonda har bir shahar aholisiga qanchadan kam bo'lmasisligi zarur?**

- a) 90 kv.m;
- b) 30 kv.m;
- d) 75 kv.m;
- e) 60 kv.m.

**72. Klumbalarga ekiladigan gullarning nomini ko'rsating:**

- a) iris, romashka, gvozdika, forzitsiya, jasmin;
- b) xrizantema, ayva yaponskaya, pion, georgina;
- d) tyulpan, kann, gladios, nartsiss, margaritka;
- e) shalfey, astra, viola, kasluzsa, sedum, salviya.

**73. Soliter kompozitsiya uchun ekiladigan butalarning nomlarini ko'rsating:**

- a) forzitsiya, floks, kann, alternater;
- b) jimolos, kalina, lox, plyush;
- d) siren, chibushnik, shipovnik, atirgul;
- e) qizil kalina, sudum, tillarang fuksiya.

**74. Quyidagi daraxtlardan qaysilari transport gazlari, chang va shovqinga qarshi magistral ko'chalar chetiga ekishda foydalaniladi?**

- a) yasen, majnuntol, klyon;
- b) virgin mojjevelnigi, tuya, sosna, yel;
- d) saragach, vyaz, dub, lipa;
- e) chinor, safora, klyon, terak.

**75. Tashqi ko'rinishi ustunsimon shaklga ega bo'lgan daraxtlarning nomlarini ko'rsating.**

- a) virgin mojjevelnigi, sharq biotasi, kiparis;
- b) sosna, dub, pixta, jimolost, lipa;
- d) archa, qarag'ay, zarang, tol, tuya zapadnaya;
- e) chinor, archa, dub, kashtan konskiy, akatsiya.

**76. Quyidagi o'simliklardan qaysi biri tikonli butalardir?**

- a) smorodina alpiyskaya, qizilnik, jasmin;
- b) vyaz kustoviy, chibushnik, spireya, akatsiya joltaya;
- d) floksiya, xrizantema, gibiskus;
- e) boyarishnik, gladichiya, maklyura, shipovnik, lox.

**77. Alpinariya deganda nimani tushunasiz va u qanday muhitda qo'llaniladi?**

- a) bir xil gulning turli navlaridan tuzilgan gulzor, tashqi muhitda qo'llaniladi;
- b) turli xil gullardan tuzilgan gulzor, ochiq yashil muhitda qo'llaniladi;
- d) tabiiy toshlardan va baland tog' o'simliklaridan tuzilgan mo'jaz bog', ichki va tashqi muhitda qo'llaniladi;
- e) tosh va suv sharsharalaridan iborat mo'jaz kompozitsiya, faqat tashqi muhitda qo'llaniladi.

**78. Tabiiy futbol maydonlarini hosil qiluvchi maysa turini ko'rsating:**

- a) polevitsa belaya;
- b) osvyanitsa lugovaya, myatnik lugoviy;

- d) ovsyanisa krasnaya;
- e) raygras pastbishniy.

**79. Landshaft arxitekturasini shakllantirish vositalariga nimalar kiradi?**

- a) o'simliklar, toshlar, suv qurilmalari, badiiy to'shamalar, tashqi obodonlashtirish elementlari;
- b) mo'jaz me'moriy shakllar, bino va inshootlar, transport;
- c) geoplastika, dekorativ-amaliy san'at elementlari, yorug'lantirish elementlari, «tasviriy oyna» elementlari;
- d) shahar dizayni, badiiy to'shamalar.

**80. Landshaft arxitekturasida «guruh» deb nimaga aytiladi?**

- a) manzaraviy park peyzajining muhim kompozitsiyaviy elementi, odatda, toq sonli (2 ta gacha bo'lgan) daraxtlar, butalar yoki gul o'simliklaridan tashkil bo'ladi;
- b) faqat daraxtlar va butalardan tashkil topgan landshaft kompozitsiyasi;
- c) faqat buta va gullardan tashkil topgan landshaft kompozitsiyasi;
- d) faqat gullardan tashkil topgan landshaft kompozitsiyasi.

**81. Landshaft obyektlarini shakllantirishda qanday kompozitsiyaviy vositalar va usullar qo'llaniladi?**

- a) kompozitsiyaviy markaz, bosh va yordamchi o'qlar va aksentlarni bo'rttirish;
- b) muhit va uning elementlari mashtabiga rioya qilish, kontrast, nyuans, metr, ritm va mutanosiblik qoidalarini qo'llash;
- c) ranglar yaxlitligi va koloristik uyg'unlikka erishish;
- d) landshaft dizayni va fitodizayn elementlari.

**82. Maxsus parklarga qanday parklar kiradi?**

- a) sport parklari, ko'rgazmali xususiyatga ega bo'lgan park-muzeylar, milliy parklar;
- b) zooparklar, qo'riqxonalar, madaniyat va istirohat parklari;
- c) madaniy-ko'ngilochar, madaniy oqartuv, bolalar parki, gidroparklar;
- d) madaniyat va istirohat parklari, disneylendlar.

**83. Ishkom, valish, so'ri, pergola, trilinj, balkon va to'siqlarni ko'kalam-zorlashtirishda tokdan tashqari yana qanday soya beruvchi manzaraviy o'simliklar qo'llaniladi?**

- a) jasmin, jimolost, deren beliy, deysiya;
- b) barbaris obiknovenniy, ayva yaponskaya, jasmin;
- c) smorodina, siren, samshit, boyarishnik;
- d) vinograd devichiy pyatilstkoviy, vinograd amurskiy, plyush obiknovenniy, jimolost.

**84. Quyidagi nomlari keltirilgan o'simliklardan har doim yashil bo'lib o'suvchi butalarni ko'rsating:**

- a) samshit, bresklet yaponskiy, magnoliya;
- b) bryuchina obiknovennaya, tekoma, grebenshik;
- d) siren, boyarishnik obiknovenniy;
- e) kalina obiknovennaya, kizilnik blestyashiy.

**85. Quyidagi o'simliklardan qaysi birlari tikanli butalardir?**

- a) vyaz kustoviy, chibushnik, speriya, akatsiya jeltaya;
- b) boyarishnik, glyadichiya, makklyura, shipovnik, lox;
- d) floksiya, xrizantema, gibiskus;
- e) smorodina alpiyskaya, kizilnik, jasmin.

**86. O'zbekiston sharoitida qanday o'tlardan manzaraviy maysazorlar hosil qilinadi?**

- a) polovitsa obiknovennaya, ovsyannitsa ovechya, klever beliy;
- b) raygras pastbishniy, klever beliy, timofeyevka lugovyaya;
- d) raygras pastbishniy, ovsyannitsa, palchatnik, myatlik lugovoy;
- e) klever beliy, grebennik obiknavenniy, timofeevka lugovaya.

**87. Maysazor o'rnidagi yashil manzarali tekis o'tzor hosil qiluvchi ko'p yillik o'simliklarni to'g'ri ko'rsating.**

- a) makklyura, gledichiya, spireya, xrizantema, alternatera, astra, mojjevelnik kazaskiy;
- b) jimolost, mojjevelnik kazaskiy, astra;
- d) plush obiknovenniy, glintsiya kitayskaya, vinofad amurskiy;
- e) veronika polzuchaya, sedum yedkiy, floks dernistiy, plush, alternatera.

**88. Parter va skver muhitining bir-biridan farqini, asosan, nimada ko'rasiz?**

- a) parter va skver orasida deyarli farqi yo'q;
- b) parter bu, asosan, yopiq yashil muhit bulib, skverlarda esa ochiq yashil muhit ham mavjuddir;
- d) parter bu ochik yashil muhit bo'lib, skverlarda esa yopiq yashil muhit ham mavjuddir;
- e) parter skverning ochiq maysazor va gulzorlardan iborat qismidir.

**89. Arabeska deganda nimani tushunasiz?**

- a) aralash bordyurning bir turi;
- b) o'rtasida yumaloq tosh yoki maysa joylashgan halqasimon gulzor;
- d) parter va klumbalarda qo'llaniladigan manzarali barglar va gullovchi o'simliklardan yoki mayda toshlardan terib ishlangan geometrik naqsh;

e) rabatka tipidagi gulzorlarning bir ko'rinishi.

**90. Geoplastika deganda nimani tushunish zarur?**

- a) panno, zinapoyalar, panduslar, tirkak devorlar, terassalar yaratish san'ati;
- b) zinopoyalar, panduslar, tirkak devorlar, terassalar, otkoslar va joy relyefiga badiiy ishlov berish san'ati;

- d) panduslar, pannolar, tasviriy oyna elementlari, hovuzlarni badiiy yaratish;
- e) tirkak devorlar, yer arxitekturasini ishlash svetilniklarini o'rnatish.

**91. «Modulli bog» deb nimaga aytiladi va u nimalardan tashkil topadi?**

- a) bu geometrik to'g'ri shaklli elementlardan tashkil topgan gul kompozitsiyasi – gullar bog'i;

- b) bu o'simliksimon naqshli shakklardan tuzilgan butalar kompozitsiyasi;
- d) bu geometrik to'g'ri shaklli elementlardan tuzilgan butalar bog'i;
- e) bu o'simliksimon shaklli elementlardan tuzilgan gullar kompozitsiyasi.

**92. Parterlarning qanday xillar mavjud?**

- a) butali, gulzorli va aralash;
- b) maysali, butali va toshloq parterlar;
- d) gulzorli, maysali, chirmoviq o'simlikli parterlar;
- e) maysali, gulzorli va aralash parterlar.

**93. Bolalar bog'chalarini ko'kalamzorlashtirishda qaysi butalarni ekish man etiladi?**

- a) virgin mojjevelnigi, qrim qarag'ayi, yapon aylanti;
- b) sayrag'och, archa, tuya, beresklet, safora;
- d) gledichiya, lox, suzam, jenskiy porodi topolya, klyon ostrolistniy;
- e) dub chereshchatiy, beryoza, sharq biotasi.

**94. Plyajdag'i asosiy funksional zonalarni ko'rsating:**

- a) solyariya, bolalar zonasasi, cho'milish zonasasi, xo'jalik zonasasi;
- b) solyariya, ayerariya, akvatoriya, fizkultura va sport zonasasi, xo'jalik zonasasi;
- d) akvatoriya, ayerariya, fizkultura va sport zonasasi, solyariya;
- e) akvatoriya, ayerariya, cho'milish zonasasi.

**95. Landshaft arxitekturasi obyektlarining landshaft loyihalari qanday mashtablarda chizilishi kerak?**

- a) 1:500, 1:400, 1:200, 1:100;
- b) 1:1000, 1:500, 1:200;
- d) 1:2000, 1:1000, 1:500;
- e) 1:10, 1:25, 1:50, 1:100.

**96. Maysazorlarning qanday xillari mavjud?**

- a) sport maysazori, maxsus maysazorlar, dekorativ;

- b) dekorativ maysazor, sport maysazori, park maysazori;
- d) parter maysazor, gulli maysazor, oddiy maysazor;
- e) maxsus maysazorlar, gulli maysazor, park maysazori.

**97. Tashqi ko‘rinishi ustunsimon ko‘rinishga ega bo‘lgan daraxtlarning nomlarini ko‘rsating.**

- a) archa, qarag‘ay, zarang, tol, tuya;
- b) virgin mojjevelnigi, sharq biotasi, kiparis;
- d) sosna, dub, pixta, jimolost, lipa;
- e) chinor, archa, dub, soxta kashtan, kiparis.

**98. Yaponiya bog‘ parklariga xos bo‘lgan asosiy-me’moriy landshaft uslubini ko‘rsating.**

- a) muntazam rejali simmetriya kompozitsiya;
- b) tog‘-u toshlardan tuzilgan assimetrik kompozitsiya;
- d) maftunkor manzara uslubidagi erkin rejali kompozitsiya;
- e) parter ko‘rinishidagi manzara usuli.

**99. Madaniyat va istirohat bog‘larining asosiy funksional zonalarini to‘g‘ri ko‘rsating:**

- a) ommaviy o‘yin va tomashalar zonasasi, ma’nnaviy dam olish va sayr qilish zonasasi;
- b) ommaviy o‘yinlar, tomashagohlar, sayrgohlar, xo‘jalik zonalari;
- d) ommaviy o‘yin va tomashalar zonasasi, attraksionlar zonasasi, sport zonasasi, sayr zonasasi;
- e) tinch dam olish va sayr qilish, ommaviy tadbirlar va attraksionlar, sport, bolalar va xo‘jalik zonalari.

**100. Shaharlarni ko‘kalamzorlashtirishning asosiy prinsiplarini to‘g‘ri sanang.**

- a) ko‘kalamlarni hamma yerga baravar joylashtirish, ularning uzuksizligi va tizimli bo‘lishini ta’minlash, funksionallilik prinsiplari;
- b) ekologik, funksionallik, mutanosiblik;
- d) uyg‘unlik, ekologik, funksionallilik;
- e) tizimli bo‘lish, samaradorlik, funksionallilik.

**101. Parklarda tuzilishi jihatidan qanday ko‘rinishdagi ko‘kalamzorlar bo‘lishi lozim?**

- a) gulzorlar, maydonlar va maysalar;
- b) yopiq, yarimochiq va ochiq;
- d) daraxtlar va butalar;
- e) umumiy foydalanimuvchi va qisman foydalananuvchi ko‘kalamzorlar.

**102. Parklarning ommaviy madaniy tadbirlar zonasida qanday bino yoki inshootlar bo'lishi kerak?**

- a) attraksionlar, favoralar, ochiq maydonlar;
- b) yozgi teatr, kinoteatr, attraksionlar;
- d) ko'rgazma zallar, ochiq estrada, raqslar maydoni;
- e) ochiq maydonlar, raqs maydoni, yozgi teatr.

**103. Parklarda bino va inshootlar egallagan maydon necha foizdan oshmasligi kerak?**

- a) 5 % dan;
- b) 15 % dan;
- d) 20 % dan;
- e) 10 % dan.

**104. Qanday parklarga «Luna park» deb aytildi?**

- a) tomosha qilishga mo'ljallangan ko'chib yuruvchi parklarga;
- b) attraksion parklarga;
- d) osmon sayyoralarini o'rganishga mo'ljallangan parklarga;
- e) peyzajli parklarga.

**105. Madaniyat va istirohat bog'larida qanday xiyobonlar va yo'laklar mavjud?**

- a) to'g'ri chiziqli va yoy shaklidagi xiyobonlar;
- b) ochiq va yopiq xiyobonlar va yo'laklar;
- d) bosh xiyobon, katta va kichik sayr qilish xiyobonlari va yo'laklari;
- e) asosiy, yordamchi xiyobonlar va yo'laklar.

**106. Parklar va skverlarda gullarni ranglari bo'yicha tanlab ekishda qanday qoidalarga rioya qilish lozim?**

- a) xromatik ranglar mutanosibligiga;
- b) axromatik ranglar uyg'unligiga;
- d) ranglar kontrasti, nyuansi va neytral tonlar qoidalalariga;
- e) arxromatik va xromatik ranglar uyg'unligiga.

**107. Amir Temur Samarqand va uning atroflarida qancha bog' bunyod etgan?**

- a) 15 ta;
- b) 14 ta;
- d) 12 ta;
- e) 13 ta.

**108. Amir Temur bunyod etgan bog'ning eng kattasini to'g'ri ko'rsating.**

- a) dilkusho bog'i;
- b) naqishjahon bog'i;
- d) bog'i Maydon;

e) davlatobod bog'i.

**109. O'rta Sharq mamlakatlarida islom davrigacha qanday bog'-parklar bo'lgan?**

a) otashkadalar qoshidagi madaniyat bog'lari;

b) chorborg'lar va hayvonot bog'lari;

d) bog'-qo'riqxonalar, bog'-saroylar, chorborg'lar, shahar ichi ibodatxonalar qoshidagi mo'jaz bog'lar;

e) otashkadalar hovlisida qurilgan saylgoh bog'lar.

**110. Islom mamlakatlari o'rta asr bog'lariga xos an'anaviylik, asosan, nimada ifodalananadi?**

a) bog'larning muntazam simmetrik rejada ishlanganligida;

b) bog'ning tabiat manzaralariga boy yorqin rejada bo'lganligida;

d) bog'ning shahar hududida joylashganligida;

e) bog'ning, asosan, xo'jalik maqsadlariga mo'ljallanganligida.

**111. Bobur Hindistonda qurgan bog'lariga qanday yangilik kiritilgan?**

a) bog'da cho'milib dam olish uchun hovuzli hammomlar qurgan;

b) bog'lar ichida gul ko'rgazmalarini tashkil qilgan;

d) bog'larda sport mashqlarini o'tkazishni tashkil qilgan;

e) bog'larda islom bayramlarini o'tkazgan.

**112. Shalimar va Nishat bog'ları qaysi Sharq mamlakatlarida qurilgan?**

a) movarounnahr va Afg'onistonda;

b) qobil va Hirotda;

d) Eron va Iroqda;

e) Hindiston va Pokistonda.

**113. Xitoya hozirga qadar qaysi bog'-park ansambl yaxshi saqlangan?**

a) Szinshan;

b) Yuanminyuan;

d) Ixeyuan;

e) Vanshiyuan.

**114. Xitoydagagi Suchjou shahri nimasi bilan mashhur?**

a) Imperator bog'-saroylari bilan;

b) Adabiyot bog'lari bilan;

d) Bog'-qo'riqxonalari bilan;

e) Hunarmandlar bog'lari bilan.

**115. «Ban-say» san'ati deganda nimani tushunasiz?**

a) daraxtlarni mo'jaz ko'rinishlarda o'stirishni;

b) daraxtlarga kuzab sun'iy shakllar berishni;

- d) sun'iy yashil daraxtlar yaratish san'atini;
- e) daraxtlarni kechasi yoritish san'atini.

**116. «Rean-dzi» monastirining dunyoga mashhur toshloq bog'i qaysi shahar va mamlakatga taalluqli?**

- a) Yaponianing Kioto shahriga;
- b) Xitoyning Sichjou shahriga;
- c) Yaponianing Sansuki shahriga;
- e) Shri Lankaning Shri Lanka shahrida.

**117. Yaponianing sathi tekis va suv havzalarisiz mo'jaz hovli bog'lari, asosan, qanday uslubda ishlanadi?**

- a) «Toshloq bog» uslubida;
- b) Quruq peyzaj uslubida;
- d) Gulzor bog' uslubida;
- e) Choy bog'i uslubida.

**118. «Quruq peyzaj» uslubida ishlangan yapon mo'jaz bog'i nimalardan tashkil topadi?**

- a) Toshko'prik va to'shamalardan;
- b) Qum, tosh va suv havzalaridan;
- d) Qum, tosh va mayda shag'allardan;
- e) Basseyn, maysa va toshlardan.

**119. Sarv daraxtlarini kuzalib, turli xil hayvonlar shakli berilgan sun'iy «yashil hayvonot bog'i» O'rta Osiyoning qaysi shahrida va qachon bunyod etilgan?**

- a) Marvda, XI asrda;
- b) Buxoroda, XVI asrda;
- d) Urgenchda, XVII asrda;
- e) Samarqandda, X asrda.

**120. Otma suv tizginli ulkan marmar favoralari bo'lgan bog' O'rta Osiyoning qaysi shahrida va qachon qurilgan?**

- a) Shahrisabzda, Oqsaroy bog'ida, XIV asrda;
- b) Samarqandda, Bog'i Safetda, XVII asrda;
- d) Buxoroda, Oqsaroy bog'ida, XVI asrda;
- e) Termizda, Gulisyon bog'ida, XIV asrda.

**121. Landshaft arxitekturasi tarixi qanday ma'lumotlarga asoslanib o'rganiladi?**

- a) tarixiy qo'lyozmalar va san'at asarlariga asoslanib;
- b) qadimiy qo'lyozmalar, tasviriy san'at naqsh-u bezaklari va arxeologik topilmalarga asoslanib;

- d) arxeologik qazishmalarda topilgan ashylarga asoslanib;
- e) xalq og'zaki ma'lumotlariga asoslanib.

**122. Hududi pog'onasimon ko'p sahnli bog'lar dastlab qayerda vujudga kelgan?**

- a) mesopotamiyada, Dajla daryosi sohillarida;
- b) qadimgi Eronda, tog'lik hududlarda;
- c) qadimgi Misrda, Nil daryosi sohillari qirliklarida;
- d) qadimgi Yunonistonda, qirlik hududlarda.

**123. Qadimgi Misr bog'larining rejaviy yechimlari qanday me'moriy kompozitsiyaga asoslangan?**

- a) aralash rejaviy kompozitsiyalarga asoslangan manzara ko'rinishlariga;
- b) muntazam assimetrik rejaviy kompozitsiyaga;
- c) sug'orish tizimiga asoslangan yaxlit asimetrik rejaviy kompozitsiyaga;
- d) muntazam simmetrik rejaviy kompozitsiyaga.

**124. Qadimgi Misr bog'larida qanday o'simliklar ekilgan?**

- a) mevali daraxtlar va uzumlar;
- b) manzarali daraxtlar va gullar;
- c) sabzavotlar, gullar, maysalar;
- d) mevali va manzarali daraxtlar, uzumlar, gullar, sabzavotlar.

**125. Qadimgi dunyoning qaysi mamlakatida shahar arxitekturasini shakllantirishda ko'cha va xiyobonlar landshafti muhim rol o'ynagan?**

- a) qadimgi Misrda;
- b) qadimgi Rimda;
- c) qadimgi Yunonistonda;
- d) Eronda.

**126. Bog'larni turli xil ekzotik o'simliklar va mevalar bilan bezash dastlab qaysi mamlakatlarda rusm qilingan?**

- a) qadimgi Rimda;
- b) Misr va Ossuriyada;
- c) qadimgi Yunonistonda;
- d) qadimgi Eronda.

**127. Qadimgi Bobil (Ossuriya) bog'larida qanday o'simliklar o'sgan?**

- a) mevali va manzarali daraxtlar, uzumlar, xushbo'y gullar, sarv va palma daraxtlari;
- b) manzarali daraxtlar va butalar;
- c) mevali daraxtlar, bir va ko'p yillik gullar;
- d) bir, ikki va ko'p yillik gullar, yer yopar o'simliklar.

**128. Bobil «Osma bog‘lari»ning tashqi ko‘rinishi qanday bo‘lgan?**

- a) qiyalikda joylashgan pog‘onasimon bog‘ ko‘rinishida;
- b) daryo ustiga qurilgan osma bog‘lar ko‘rinishida;
- c) to‘rt ayvonlik pog‘onasimon bog‘ ko‘rinishida;
- e) to‘rt pog‘onali piramidasimon ko‘rinishda.

**129. Markaziy Osiyoning shahar tashqarisidagi qadimgi bog‘lari qanday maqsadlarga mo‘ljallangan?**

- a) harbiylarning jang mashqlarini o‘tkazishga;
- b) xorijiy elchilarni rasmiy qabul qilishga;
- d) hukmdorlarning ov qilishlari va dam olib hordiq chiqarishlariga;
- e) bayram marosimlarini o‘tkazishga.

**130. Sug‘diyonadagi qadimgi ov qilib dam olishga mo‘ljallangan ulkan bog‘ qaysi shaharga yaqin joylashgan?**

- a) Buxoroga;
- b) Samarqandga;
- d) Shahrisabzga;
- e) Qarshiga.

**131. Panjikent hokimi Devashtichning bog‘i qanday maqsadga mo‘ljallangan?**

- a) ov uchun mo‘ljallangan bog‘-qo‘riqxonaga;
- b) mehmonlarni qabul qilishga mo‘ljallangan bog‘;
- d) harbiy mashqlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan bog‘;
- e) hayvonot bog‘i bo‘lgan.

**132. Buxoro hukmdori Shams al-Mulkning bog‘i qanday vazifani bajargan?**

- a) turli hayvonlar va parrandalar saqlanadigan qo‘riqxona;
- b) xotin-qizlar uchun mo‘ljallangan istirohat bog‘i;
- d) islom bayramlari o‘tkaziladigan bog‘;
- e) harbiy jang mashqlarini o‘rganish bog‘i.

**133. XII—XIII asrlarda Xorazmdagi Jend, Vazir va Shoxsanam nomli bog‘-parklar qanday maqsadlarga mo‘ljallangan va rejalarda ishlagan?**

- a) ov mashqlarini o‘rganishga mo‘ljallangan, muntazam rejali;
- b) shohlarning oilalari bilan yoz paytlari yashash va dam olishga mo‘ljallangan, muntazam rejali bog‘lar;
- d) jang mashqlarini o‘tkazishga mo‘ljallangan, erkin rejali bog‘lar;
- e) islomiy bayramlarga mo‘ljallangan, erkin rejali.

**134. Amir Temurning qaysi bog‘lari ov qilish va vaqtinchalik dam olishga mo‘ljallangan?**

- a) bog‘i Nav, Bog‘i Chinor, Bog‘i Shamol;
- b) bog‘i Taxti Qoracha, Bog‘i Buldu, Bog‘i Zag‘on;
- c) bog‘i Jahonnamo, Bog‘i Behisht, Bog‘i Taxti Qoracha va Davlatobod bog‘lari;
- d) bog‘i Dilkusho, Bog‘i Shamol, Bog‘i Behisht.

**135. X asr oxirida sarv daraxtlaridan kuzalib ishlangan ajoyib «Yashil zoopark» Mavarounnahrning qaysi shahrida bo‘lgan?**

- a) Ko‘nga Urgench;
- b) Termiz;
- c) Buxoro;
- d) Samarqanda.

**136. «Chorbog»lar dastlab qachon va qaysi mintaqalarda vujudga kelgan?**

- a) eramizgacha VI–IV asrlarda, Eron va Markaziy Osiyoda;
- b) eramizgacha VI–V asrlarda, Afg‘onistonda;
- c) XIV–XV asrlarda, Markaziy Osiyoda;
- d) VI–V asrlarda, Markaziy Osiyoda.

**137. «Chorbog» uslubining ilk kelib chiqish asoslarini to‘g‘ri ko‘rsating:**  
a) qur‘oni Karimdagagi bog‘lar sifatiga asoslangan;  
b) «Chor unsur» falsafasi va bog‘ hududini tejamli sug‘orish tizimiga asoslangan;

- d) bir yo‘la to‘rtta bog‘ni vujudga keltirish fikriga asoslangan;
- e) «Chor unsur» falsafasiga asoslangan.

**138. Qadimgi Hindistondagi bog‘lar dastlab qayerlarda vujudga kelgan?**

- a) Hindiston podshohlarining saroylari qoshida;
- b) Podshoh saroylari hovlilari ichida;
- c) Budda monastirlari – «vixara»lar qoshida;
- e) Budda ibodatxonalar qoshida.

**139. Qadimgi Xitoya qanday bog‘lar keng rivoj topgan?**

- a) milliy bog‘lar;
- b) ibodatxonalar qoshidagi bog‘lar;
- d) imperatorlarning ovga mo‘ljallangan bog‘-qo‘riqxonalari;
- e) imperator oilalariga mo‘ljallangan bog‘-saroylar.

**140. Sharq mamlakatlarining o‘rta asrlar bog‘-parklarini nechta va qanday guruhlarga ajratish mumkin?**

- a) to‘rtta: Yaqin Sharq, O‘rta Sharq, O‘rta Osiyo va Uzoq Sharq bog‘-parklari;

- b) uchta: Yaqin Sharq, O'rtal Sharq va Uzoq Sharq bog'-parklari;
- d) uchta: Islom Sharqi, buddizm sharqi, xristian sharqi bog'-parklari;
- e) ikkita: Islom sharqi mamlakatlari bog'lari va buddizm tarqalgan Uzoq Sharq mamlakatlari bog'lari.

**141. Yaqin va O'rtal Sharq bog'-park san'tidagi alohida e'tiborga loyiq va tansiq narsa nima?**

- a) daraxtlar va hayvonot dunyosi;
- b) yer va daraxtlar;
- d) suv va soya;
- e) suv va hayvonot dunyosi.

**142. Boburiylar bog'-park san'atiga qanday yangilik kiritgan?**

- a) bog'larda chortoqlar qurgan, hayvonlar saqlagan;
- b) chorborg'ni shahar tashqarisidan shahar ichkarisiga me'moriy obidalar turkumiga olib kirgan, maqbar bog'lar yaratgan.
- d) bog'larda jang mashqlarini o'tkazgan;
- e) ko'ngilochar o'yinlar tashqil etgan.

**143. Agradagi Toj-Mahal maqbara bog'-saroyining qurilishida an'anaviy «Chorbog» uslubiga qanday o'zgartish kiritilgan?**

- a) bog'-saroyi, ya'ni maqbara an'anaviy tarzda bog' markazida emas, balki bog' to'rida qurilgan;
- b) bog'-saroya tashqi devorlar qurilmagan;
- d) bog'-ichiga karvonsaroy qurilgan;
- e) chorborg' to'rt bog'dan emas, olti bog'dan tarkib topgan.

**144. Lahordagi Shalimar bog'iga xos xususiyatlarni aniqlang.**

- a) erkin rejali ko'l bo'yida joylashgan pog'onasimon bog';
- b) erkin rejali pog'onasimon bog'-saroyi;
- d) ko'ndalang o'qli, to'rburchakli asimmetrik rejadagi istirohat bog'i;
- e) bo'ylama o'qli to'g'ri to'rburchakli muntazam simmetrik rejadagi, uch qismdan iborat pog'onali chorborg' ko'rinishidagi istirohat bog'i.

**145. «Maydoni shoh» xiyoboni qanday maqsadlarda qurilgan?**

- a) islom bayramlarini nishonlash uchun;
- b) harbiy mashqlar o'tkazish maydoni uchun;
- d) jamoa markazi — park, milliy marosimlar, tantanalar o'tkazishga, dam olish uchun;
- e) harbiy g'alabalarni nishonlash uchun.

**146. «Shahar bog» qayerda va qaysi asrda qurilgan?**

- a) Sherozda, XV asrda;

- b) Isfaxonda, XVII asrda;
- d) Mashhadda, XV asrda;
- e) Koshonda, XVII asrda.

**147. «Shahar bog'», «Maydoni shoh»dan qanday farq qiladi?**

- a) o'zining g'aroyib bog'-saroylari, muntazam rejali sayrgohlari bilan;
- b) shahar-bog' bu xiyobon, Maydoni-shoh esa bog';
- d) bog' bog' tarzida, Maydoni-shoh esa xiyobon tarzida qurilgan;
- e) shahar-bog' shahar ichida, Maydoni-shoh esa shahar tashqarisida qurilgan.

**148. Eron o'rta asr bog'-park san'atining ilg'or tajribalari uning qaysi obyektlarida o'z aksini topgan?**

- a) Isfaxondagi «Maydoni-shoh» va «Shahar-bog» bog'-saroylari va xiyobonlarida;
- b) Koshondagi Chehel stum bog'-saroyida;
- d) Nishopurdagi Umar Xayyom maqbara bog'ida;
- e) Hamadondagi Ibn Sino bog'ida.

**149. O'rta asr Eron bog'larida qaysi manzarali daraxt va gul alohida e'tiborga loyiq hisoblangan?**

- a) tol daraxti va nargizgullar;
- b) sarv daraxti va atirgullar;
- d) chinor daraxti va lolagullar;
- e) majnuntol va gulxayrilari.

**150 Arab geografi Ibn Xaukal X asrda Samarcand bog'-park san'atiga doir qanday narsani ko'rgan?**

- a) bog'larda sayr qilish uchun maxsus fillar saqlanganligini;
- b) bog'lar «Chorbog» uslubida shakllanganligini;
- d) daraxtlarga kuzalib turli xil hayvonlar shaklining berilganligini;
- e) bog'larda favoralar ishlanganligini.

**151. Amir Temur yaratgan bog'lar avvalgi Samarcand bog'laridan qanday farq qilgan?**

- a) bog' o'simliklari bilan;
- b) bog'lardagi hammomlari bilan;
- d) bog'ni sug'orish tizimi bilan;
- e) shahar tashqarisida joylashgan ulkan bog'-saroylari bilan.

**152. Amir Temur va Temuriylar Samarcand shahri atrofida nechta bog'lar yaratgan?**

- a) 14 ta;
- b) 15 ta;
- c) 12 ta;
- d) 13 ta.

**153. «Bog‘i Dilkusho» bog‘-saroyining devorlariga qanday mavzudagi tasvirlar ishlangan?**

- a) Ulug‘bekning Mo‘zg‘ulistonga qilgan yurishlari;
- b) Amir Temurning Hindiston yurishiga doir jang manzaralari;
- c) Amir Temurning o‘zi va oilaviy portretlari;
- d) Amir Temurning Turkiyaga qilgan jang manzaralari.

**154. Amir Temur qurdirgan «Bog‘i Bo‘ldu» bog‘ining nomi nimani anglatgan?**

- a) bog‘ hududining o‘ta kattaligini;
- b) bog‘ning allomalar, olimlar bilan uchrashuvga mo‘ljallanganligini;
- c) Amir Temur davlatining farovonligini;
- d) bog‘ning mo‘jaz hududga ega bo‘lganligini.

**155. Hirotdagi qaysi bog‘ saroy tasviri san‘at asarlari bilan bezatilgan?**

- a) bog‘i Dilkusho ko‘shki;
- b) bog‘i Baland saroyi;
- c) bog‘i Murg‘oniy ko‘shki;
- d) bog‘i Safet saroyi.

**156. Tillodan ishlangan sun‘iy daraxt Temurning qaysi bog‘ini bezagan?**

- a) davlatobod bog‘ini;
- b) Samarqanddagi «Bog‘i Dilkusho» bog‘ini;
- c) naqshijahon bog‘ini;
- d) Shahrisabzdagi Oqsaroy majmuasi qoshidagi bog‘ini.

**157. Temur bunyod etgan «Bog‘i Dilkusho» va «Bog‘i Nav» bog‘larining o‘lchamlarini aniqlang.**

- a) 1500x2000 gaz;
- b) 1500x1500 gaz;
- c) 1000x1500 gaz;
- d) 2000x2500 gaz.

**158. Temuriylar bog‘-saroylariga qanday mahalliy manzarali daraxtlar xos bo‘lgan?**

- a) majnuntol, archa, qayrag‘och, tol, qayin;
- b) tol, chinor, sarv, archa, majnuntol, mirzaterak;
- c) chinor, qayrag‘och, tut, zarang, terak, shumtol;
- d) mirzaterak, chinor, qayin, dub, tut.

**159. Bog'lardagi ochiq yashil muhit deganda nimani tushunasiz?**

- a) bog'lardagi gulzorlar, yashil maydonlar va maysazorlarni;
- b) bog'lardagi butazorlar va qo'riqxonalarni;
- c) bog'lardagi yashil massivlar, daraxtzorlarni;
- d) bog'lardagi hovuzlar va ariqlarni.

**160. Temur bog'laridagi saroylar qanday joylarga qurilgan?**

- a) bog' darvozalariga yaqin bo'lgan joylarga;
- b) ko'l yoki suv havzalariga yaqin joylarga;
- c) manzarali daraxtzorlar va butazorlar ichiga;
- d) tabiiy yoki sun'iy tepaliklar ustiga.

**161. Allomalar yoki adabiyotlar bog'ları qaysi mamlakatga xos bog'lardir?**

- a) Eronga;
- b) Yaponiyaga;
- c) Xitoyga;
- d) Koreyaga.

**162. Bog'larni me'moriy-kompozitsion tuzilishiga emas, balki lirk xususiyatlariga qarab turlarga bo'lish qaysi mamlakatlarga xos xususiyat?**

- a) Yaponiyaga;
- b) Xitoyga;
- c) Koreyaga;
- d) Eronga.

**163. Xitoyning qaysi shahri imperator bog'-saroylari qurilishining eng yirik markazi hisoblanadi?**

- a) Pekin;
- b) Suchjou;
- c) Shanax;
- d) Guyling.

**164. Xitoya hordiq chiqarib tinch dam olish, o'yga cho'mish, aql-zakovat, erkin tafakkur bilan shug'ullanishga mo'ljallangan bog'lar qanday nom bilan atalgan?**

- a) adabiyot bog'ları;
- b) hovlili bog'lar;
- c) Imperator bog'ları;
- d) hunarmandlar bog'ları.

**165. Qavariq ko'priklı mo'jaz ko'llar, sopol tomlı mo'jaz shiyponlar, pagadalar, tabiiy toshlardan ishlangan kompozitsiyalar, sokin bog' muhiti Xitoyning qaysi bog'lariga xos xususiyatlardir?**

- a) xususiy mo'jaz bog'lariga;
- b) Imperator bog'lariga;
- d) adabiyot yoki allomalar bog'iga;
- e) ibodatxonalar qoshidagi bog'larga.

**166. Xitoyda «dunyoning eng go'zal joyi» deb nomlanuvchi manzaraviy so'lim bog'ning nomini ko'rsating.**

- a) Liyang;
- b) Ixeyuan;
- d) Guylin;
- e) Lyuyuan.

**167. Yaponiya bog'-parklariga xos bo'lgan asosiy me'moriy-landshaft uslubini ko'rsating.**

- a) parter ko'rinishdagi manzara usuli;
- b) tog'-u toshlardan tuzilgan asimmetrik kompozitsiya;
- d) muntazam rejali simmetrik kompozitsiya;
- e) maftunkor manzara uslubidagi erkin rejali kompozitsiya.

**168. Yapon milliy bog'inining go'zalligi qanday g'oyalarga asoslangan?**

- a) muhitni miniyaturlashtirish va timsol (simvol)lashtirish g'oyalari;
- b) yashil dunyoning jozibador manzarasini bo'rttirish g'oyafiga;
- d) suv dunyosining jozibalarini ko'rsatish g'oyafiga;
- e) tog'-u toshlardan turli xil kompozitsiyalar yaratish g'oyafiga.

**169. «Ban-say» san'ati ilk bor qaysi mamlakat bog'larida shakllanib vujudga kelgan?**

- a) Vyetnam;
- b) Xitoy;
- d) Koreya;
- e) Yaponiya.

**170. Eski toshlardan turli kompozitsiyalar, chiroqlar, bog' o'rindiqlari va boshqa tashqi muhit bog'-pakr elementlari dizaynlarini yaratish san'ati qaysi mamlakat bog'lariga xos xususiyatdir?**

- a) Xitoy;
- b) Vyetnam;
- d) Yaponiya;
- e) Koreya.

**171. Yaponianing qaysi tarixiy shahri mamlakat bog'-parkchilik san'atining yirik markazi hisoblanadi?**

- a) Osaka;

b) Yokohama;

d) Tokio;

e) Kioto.

**172. «Suki» nomli yapon xususiy bog'lari qanday maqsadlarga mo'ljallangan?**

a) choy ichish marosimlariga mo'ljallangan bog'.

b) ichki ro'zg'or ehtiyojlari uchun mo'ljallangan bog'.

d) an'anaviy milliy marosimlar o'tkazishga mo'ljallangan bog'lar;

e) estetik funksiyalarga mo'ljallangan nafosat bog'ları.

**173. Zamonaviy Yapon bog'lari relyefining holatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?**

a) qirlik va tekis bog'larga;

b) qirlik va past-baland bog'larga;

d) qirlik, tekis va past-baland bog'larga;

e) tekis va past-baland bog'larga.

**174. Yapon bog'lari kompozitsion tuzilishi va tarkibiy qismlariga ko'ra qanday xillarga bo'linadi?**

a) to'liq va qisqargan xillarga.

b) to'liq, yarimqisqargan va qisqargan xillarga.

d) yarimqisqargan va qisqargan xillarga.

e) ochiq va yopiq xillarga.

**175. Yaponiyada mo'jaz bog'larning qanday yangi turlari mavjud?**

a) bino tomlari ustidagi bog'lar, balkon va erker bog'lari, piyodalar ko'chalari bog'lari, xususiy hovli bog'lari;

b) bolalar bog'lari va oranjeryalar;

d) hayvonlar bog'lari va gidroparklar;

e) akvarium va okeanirum bog'lari.

**176. Yaponiya bog'lariga xos asosiy o'simliklar turini ko'rsating.**

a) Yapon bereskleti, mojjavelnik, kedr, palma;

b) kiparis, dub, safora, klyon, yapon bereskleti;

d) kedr, klyon, bambuk, iva plakuchaya, shelkovitsa;

e) Yapon sosnasi, klyon, sakura, kameliya, azaliya, magnoliya, safora, bambuk, banan.

**177. Yevropaning uyg'onish, barokko va klassitsizm davri bog'lariga qanday me'moriy-rejaviy va landshaft yechimlari xarakterlidir?**

a) aralash (muntazam va peyzajli erkin) rejaviy kompozitsiya;

b) erkin peyzajli tabiiy manzaraviy kompozitsiyalar;

d) muntazam rejaviy, muntazam simmetrik va terrasali kompozitsiyalar;

e) muntazam assimetrik rejaviy kompozitsiya.

**178. Angliya va Germaniyaning peyzaj uslubidagi romantik parklari qaysi asrlarda yaratilgan?**

- a) XIV–XV asrlarda;
- b) XVIII–XIX asrlarda;
- c) XVI–XVII asrlarda;
- d) XVIII asrda.

**179. Maqbara bog‘-saroylar bunyod etish qaysi mamlakatlarda keng rivojlangan?**

- a) Hindistonda;
- b) Afg‘onistonda;
- c) Eronda;
- d) Xurosonda.

**180. Landshaft arxitektorlari maktabi ilk bor qayerda, qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?**

- a) AQSHda, 1901-yilda, mutaxassislarni maqsadga muvofiq tarzda tayyorlash maqsadida;
- b) Angliyada, 1988-yilda, xalqaro miqyosdagi ko‘rgazma parklarni yaratish maqsadida;
- d) AQSHda, 1975-yilda, xalqaro miqyosdagi ko‘rgazma parklarni yaratish maqsadida;
- e) Italiyada, 1978-yilda, mutaxassislarni maqsadga muvofiq tarzda tayyorlash maqsadida.

**181. Xalqaro landshaft arxitektorlari federasiyasi – IFLA qachon va qayerda tashkil etildi?**

- a) 1950-yilda AQSHning Xarvard universitetida;
- b) 1948-yilda Angliyaning Kembridj shahrida;
- d) 1948-yilda Fransiyaning xalqaro texnik universitetida;
- e) 1950-yilda Angliyaning Kembridj shahrida.

**182. Landshaft arxitekturasining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?**

- a) aholi punktlarini arxitektura loyihibi tashkil etish;
- b) shahar bog‘-parklarini yaratish, ko‘kalamzorlar tizimini shakllantirish;
- d) insoniyatning ekologiya ta’siridan muhofaza qilish, muhitni o‘zgartirish yoki qayta yaratish, yangi landshaftlarni yaratish;
- e) landshaft dizaynini shakllantirish va aholi punktlarini rejalashtirish.

**183. Landshaft maydonlarini tashkil etish darajalarini to‘g‘ri ko‘rsating:**

- a) bog‘-parklar, skverlar, xiyobonlar, piyoda ko‘chalarini landshaft tashkil etish darajalari;
- b) viloyat va tuman markazlarini, muassasalar hududini landshaft tashkillashtirish darajalari;
- d) seliteb hududlar, sanoat va ishlab chiqarish hududlarini landshaft tashkillashtirish darajalari;
- e) mamalakat (region)ni, shaharni, mahalliy hududni va mikromaydonlarni landshaft tashkil etish darajalari.

**184. Maxsus maqsadlarga mo‘ljallangan ko‘kalamzorlar hududi qanday me’yorlanadi?**

- a) shaharsozlik normalari va qoidalariga qarab;
- b) maxsus obyekt yoki inshoot egallagan maydonga qarab;
- d) qurilish me’yorlari va qoidalariga qarab;
- e) bunday maqsadlarga mo‘ljallangan ko‘kalamzorlar uchun me’yorlar yo‘q.

**185. Ko‘kalamzorlar vazifasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?**

- a) yashil massivlar, o‘rmonzorlar, xiyobonlar, maysazorlar;
- b) tabiatni qo‘riqlash, madaniy meros, umumiy foydalanuvchi foydalanishi cheklangan va maxsus vazifalarga mo‘ljallangan turlarga;
- d) madaniy meros, vazifasi cheklangan va cheklanmagan turlarga;
- e) umumiy foydalanuvchi va xususiy foydalanuvchi hamda yashil massivlarga.

**186. «Patio» deganda nimani tushunasiz?**

- a) mexiko hovli-bog‘ini;
- b) fransuz hovli-bog‘ini;
- d) ispan hovli-bog‘ini;
- e) yapon choy bog‘ini.

**187. Ekzotik o‘simliklar deb qandy o‘simliklarga aytildi?**

- a) ko‘p yillik uzoq gullvochi o‘ta nafis gul o‘simliklarga;
- b) mahalliy sharoitlarda yaxshi o‘sadigan, o‘ta nafis manzaraviy o‘simliklarga;
- d) o‘zga yurtlardan keltirilgan, odatda, faqat mevali o‘simliklarga;
- e) yuksak manzaraviy dekorativ sifatlarga ega bo‘lgan, odatda, o‘zga yurtlardan keltirilgan va mahalliy sharoitlarda yovvoyi holda o‘smaydigan o‘simliklarga.

**188. Ko‘kalamzorlarning elementlariga nimalar kiradi?**

- a) daraxtlar, butalar, suv havzalari va ochiq maydonlar;
- b) toshloq maydonlar, daraxtlar, qir va adirlar, butalar;
- d) yo‘laklar, xiyobonlar, maydonlar, gulzorlar, maysalar;

e) daraxtlar, butalar, lianalar, gulzorlar, maysazorlar.

**189. Qanday gulzorlar erkin tabiiy kompozitsiyalarga ega bo'ladi?**

a) miksborderlar, rokariyalar, klumbalar;

b) rabatkalar, klumbalar, parterlar;

d) miksborderlar, guruhi, rokariyalar;

e) robatkalar, guruhi, porterlar.

**190. «Topiar bog'» deb qanday bog'ga aytildi?**

a) toshloq, gullar, yeryopar o'simliklar va butalardan tuzilgan bog'larga;

b) daraxt va butalar qirtishlanib sun'iy shakllar berilgan dekorativ kompozitsiyalarga boy bog'larga;

d) suv havzalari va ko'llarga, qirg'oqlardagi bog'larga;

e) landshafti buzilgan va qayta tiklangan bog'larga.

**191. Me'moriy landshaft tuzilishi bo'yicha muntazam stilidagi bog' fransuz stilidagi bog'dan qanday farq qiladi?**

a) hech qanday farq qilmaydi;

b) relyefiga ko'ra farq qiladi;

d) suv havzasining borligi yoki yo'qligiga qarab;

e) muntazam stilda topiar san'ati bor, fransuz stilida esa yo'q.

**192. Bog' maydonining kattaligi park maydonidan qanday farq qiladi?**

a) bog' maydonining kattaligi park maydonidan farq qilmaydi;

b) bog' maydoni 1 getktardan oshmaydi, park esa 100 getktardan;

d) bog' maydoni 0,5 getktardan oshmaydi, park esa 50 getktardan;

e) bog' maydoni, odatda, 2 getktargacha bo'lsa, eng kichik park 5 getktardir.

**193. Rabatka gulzorining eni qanday o'lchamlarda bo'lmaydi?**

a) 1 dan 4 metrgacha;

b) 0,1 dan 1 metrgacha;

d) 0, 5 dan 3 metrgacha;

e) 0,5 dan 2 metrgacha.

**194. Rus tilidagi bog'larga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsating:**

a) faqat muntazam rejaviy landshaft yechimida ishlanishi, bog'larda olma, nok va qaroli daraxtlarining bo'lishligi;

b) muntazam va peyzaj tipidagi rejaviy landshaft kompozitsiyalarining uyg'unlashuvi, mevali xo'jalik bog'larining mavjudligi;

d) faqat peyzaj tipidagi landshaft yechimida ishlanishi, mevali xo'jalik bog'larining bo'lishligi;

e) bog'larda suv havzalarining ko'pligi, rejasingin peyzaj usulida ishlanishi.

**195. Dekorativ maysazorlarning turlarini to'g'ri ko'rsating.**

a) parter maysazorlar, ommaviy maysazorlar, lugoviy maysazorlar, mavritan maysazori;

b) bir yillik va ko'p yillik maysazorlar;

d) gulli va gulsiz maysazorlar;

e) aralash va toza maysazorlar.

**196. Maysazorlarni yaratish usullarini to'g'ri ko'rsating.**

a) tuxumini ekish, chimplashtirish, ajrig'idan ko'paytirish, gidroposev usullari;

b) gidroposev usuli, chatish tirish usuli, tuxumini ekish usuli;

d) ajrig'idan ko'paytirish, chatish tirish va ko'chirib o'tqazish usullari;

e) ko'chirib o'tqazish, tuxumdan va gidroposiv.

**197. Bolalar bog'chalari va umumta'lim maktablari hududidagi qanday o'simliklarni ekish man etilgan?**

a) veygela, forzatsiya, grebenshik, speriyalarni;

b) boyarishnik, barbaris, mojjevelnik kazaskiy, davna, sumax, shipovniklarni;

d) siren, kalina, buldenej, shipovniklarni;

e) floks, iris, barbaris, forzitsiya, dafnalarni.

**198. Maktablar hududining qancha foizi ko'kalamzorlashtirilishi kerak?**

a) 60–70 %;

b) 43–50 %;

d) 53–55 %;

e) 65–75 %.

**199. Parklarda 1 kishiga qancha ko'kalamzor yuza to'g'ri kelishi kerak?**

a) 10–12 m<sup>2</sup>;

b) 6–7 m<sup>2</sup>;

d) 8–9 m<sup>2</sup>;

e) 4–5 m<sup>2</sup>.

**200. Bolalar bog'chalari hududining qancha foizi ko'kalamzorlashtirish kerak?**

a) 60 %;

b) 65 %;

d) 70 %;

e) 75 %.

#### **4. TALABALAR BAJARADIGAN MUSTAQIL ISH MAVZULARI**

Talabalarning mustaqil ish olib borishlari uchun quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- fanni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilgan o‘quv adabiyotlarining alohida boblari bo‘yicha o‘quv materiallarini o‘rganish;
- ma’ruza qismlari bo‘yicha tarqatiladigan materiallarni o‘zlashtirish;
- ta’lim va nazoratning avtomatlashtirilgan vositalari bilan ishlash;
- mazkur darslik mavzularida berilayotgan masalalar bo‘yicha zamonaviy axborot texnologiyalaridan obyektlarning rangli rasmlarini yig‘ish, ularni boblar bo‘yicha umumlashtirish, grafik-albomlar tuzish, tarqatma materiallar to‘plash;
- landshaft arxitekturasi fani bilan bog‘liq o‘quv uslubiy va ilmiy amaliy adabiyotlarni o‘rganish;
- internet tarmoqlarida joylashtirilgan landshaft arxitekturasiga oid materiallarni to‘plash va tahlil qilish.

##### **Mustaqil o‘rganish uchun tavsiya qilinadigan mavzu va bo‘limlar ro‘yxati:**

- landshaft arxitekturasining zamonaviy muammolari va vazifalari;
- landshaft arxitekturasining zamonaviy obyektlari sifatida qishloqlarda yashil zonalar, o‘rmon-parklar va milliy bog‘lar yaratish;
- landshaft arxitekturasining zamonaviy yo‘nalishlari yerni qayta ishlash va noqulay yerlarni o‘zlashtirish;
- qishloq turarjoy hududini landshaft-rejaviy tashkil etish. Turarjoy mavzelarining umumiyligi tuzilishi. Tabiiy omillar, bino va inshootlarning turlaridan kelib chiqqan holda landshaft tashkil etishning xususiyatlari. Turarjoy mavzelari ko‘kalamzorlarining tuzilishi va turlarini o‘rganish;
- qishloq bog‘lari va parklari, maydonlar, ko‘chalar, xiyobonlar, saygohlar, qirg‘oq bo‘ylari, qishloqlardagi piyodalar fazoviy muhitlarining landshaft yechimlarini rivojlantirish;
- issiq iqlimli hududlarda landshaft tashkil etishga ta’sir etuvchi shart-sharoitlar va omillarni o‘rganish;
- landshaft dizayni asoslari. Arxitekturaviy inshootlar va jihozlar. Yo‘l qoplamalari, ularning turlari, bezash usullari. Bezakli qurilmalar, axborotlar, reklamalardan tuzilgan va kompozitsion aksentlar, suv havzalarini elementlarining dizayni.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Karimov I.A.* Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. – T.: 1999.
2. *Karimov I.A.* Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – T.: 2007.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 29-dekabrda tasdiqlangan 322-sonli «2011–2015-yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash» to‘g‘risidagi Qarori. – T.: 2010.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Zamonaviy uy-joy qurilishi — qishloq joylarini kompleks rivojlantirish va qiyofasini o‘zgartish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash omili» mavzuida xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. //O‘zbekiston arxitekturasi va qurilishili, №3, 2013.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 13-avgustda tasdiqlangan 223-sonli «O‘zbekiston Respublikasida landshaft dizaynnini rivojlantirish Dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarori. – T.: 2013.
6. *Адилова Л.А.* Ландшафтное планирование. Учебное пособие. – Т.: 2007.
7. *Adilova L.A.* Landshaft arxitekturasi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: 2009.
8. *Вергунов А.П., Денисов М.Ф., Ожегов С.С.* Ландшафтное проектирование. Учебное пособие. – М.: 1991.
9. *Виноград И.А.* Архитектурно-планировочная организация сельских населённых пунктов. Учебник. – М.: 1986.
10. *Гарнizonенко Т.С.* Справочник современного ландшафтного дизайнера. Ростов-на-Дону, 2005.
11. *Горохов В.А.* Городское зеленое строительство. – М.: 1991.
12. *Дормидонтова В.В.* История садово-парковых стилей. – М.: Архитектура, 2004.
13. *Забелина Е.В.* Поиск новых форм в ландшафтной архитектуре. – М.: 2005.
14. *Isamuxammedova D.U., Adilova L.A.* Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi (II-qism). – Т., 2010.
15. *Камилова Х.Х., Саттарова К.Д.* Проектирование многофункционального парка города. Учебное пособие. – Т.: 2007.
16. *Кузьмичев И., Печеницын В.* Озеленение городов и сел Узбекистана. – Т.: 1979.

17. Киреева М.Ф., Грязева В.П. Цветоводство в сельской местности. –М.: 1989.
18. Курбатов В.Я. Всеобщая история ландшафтного искусства. Сады и парки мира. – М., 2007.
19. Озеленение населённых мест. Справочник. – М., 1987.
20. Ожегов С.С., Уралов А.С., Рахимов К.Ж. Landshaft arxitekturasi va dizayni. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2003.
21. Raximov K.J., Uralov A.S. Sharq mamlakatlarining bog‘-park san’ati. – Toshkent, 2013.
22. Славкина Т.И., Подольская О.Ч. Декоративное садоводство. Озеленение населенных мест. – Т.: 1987.
23. Ташиходжаева М.С. Рекомендация по проектированию зеленых насаждений общего пользования в городах Узбекистана. – Т.: 1973.
24. Теодоронский В.С., Сабо Е.Д., Флорова В.А. Строительство и эксплуатация объектов ландшафтной архитектуры. – М.: 2008.
25. Людор Е.К. Ландшафтный дизайн и обустройство сада. Харьков – Белгород, 2012.
26. Uralov A.S., Hamidova D.A. Landshaft arxitekturasi va dizaynining yer relyefi bilan bog‘liq qurilmalarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. – Samarqand, 2012.
27. Uralov A.S., Sadikova S.N. O‘rta Osiyo an’anaviy «Chorbog» uslubi va zamonaviy bog‘-park san’ati. – Т.: 2012.
28. Uralov A.S. Bog‘-park san’ati fanidan ta’lim texnologiyasi. – Samarqand: SamDAQI, 2009.
29. Хелга Гроннер. Планы садов для начинающих садоводов. Москва, 2009.
30. ShNQ 2.07.04-06. «Qishloq xo‘jalik korxonalari hududlarini rejalashtirish va tashkil qilish» shaharsozlik normalari va qoidalari. – Т.: 2006.
31. ShNQ 2.07.01-03. «Shahar va qishloq aholi punktlari va hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish» shaharsozlik normalari va qoidalari. – Т.: 2009.
32. O‘rolov A., Nozilov D., Farmonov A., Matyazov S. Qishloq uylarini rejalash-tirish va qurish asoslari. – Т.: 1994.

Internet saytlari

<http://www.landstyle.ru>

sad@sad.ru

<http://www.sadtorg.ru>

[www.uznature-uz.hvt](http://www.uznature-uz.hvt)

[www.Gardener.ru](http://www.Gardener.ru)

[www. http://landscape design.ru](http://landscape design.ru)

<http://en.wikipedia.org/wiki/Garden-of-Cosmic-SpuCalation>

<http://alldayplus.ru/design-art-photo/arch/3467-garden-of-cosmic-spuCalation-proizvedenie-landshaftnogo-dizayna-charlza-dzhenksa.html>

<http://www.etoday.ru/2012/2014/the-garden-of-cosmic-spuCalati.php>

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>I bob. Landshaft arxitekturasining ilk shakllanish asoslari.</b>	
<b>Obyektiv va subyektiv omillar</b>	
1.1. Landshaft arxitekturasining dastlabki ildizlari (genezisi) va va shakllari. Ilk bog'dorchilik va bog'-park madaniyatining yuzaga kelish sabablari.....	8
<b>II bob. Bog'-park san'ati va landshaft arxitekturasining tarixi</b>	
2.1. Qadimgi davrning bog'dorchilik va bog'-park san'ati.....	16
2.2. O'rta asrning bog'dorchilik va bog'-park san'ati.....	37
2.3. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining o'rta asrlardagi bog'-park san'ati.....	50
2.4. Uzoq Sharqning bog'dorchilik va bog'-park san'ati.....	72
2.5. Yevropaning uyg'onish, barokko va klassitsizm davrlari bog'-park san'ati.....	89
2.6. Yevropaning XVIII–XIX asrlar peyzaj va romantik uslubdagi parklari.....	107
<b>III bob Landshaft arxitekturasining zamonaviy yo'nalishlari</b>	
3.1. XX asrdagi va XXI asr boshi landshaft arxitekturasining taraqqiyot yo'llari.....	120
3.2. Mustaqil O'zbekiston va hamdo'stlik mamlakatlarining zamonaviy landshaft arxitekturasi.....	133
<b>IV bob. Landshaft arxitekturasining shaharsozlik asoslari</b>	
4.1. Qishloq aholi punktlari landshaft arxitekturasiga qo'yiladigan asosiy talablar.....	147
4.2. O'simliklarning shaharsozlik va landshaft arxitekturasidagi roli va o'rni.....	154
4.3. Shahar va qishloqlarning ko'kalamzorlashtirish tizimi va me'yorlari.....	157
4.4. Aholi yashash joylarini landshaft rejaviy tashkil etishning asosiy tamoyillari va vazifalari.....	165
<b>V bob. Landshaft arxitekturasining nazariy asoslari</b>	
5.1. O'zbekiston sharoitida landshaft arxitekturasida qo'llaniladigan o'simliklar va ularni tanlash tamoyillari.....	167

<b>5.2. Daraxt va butalardan shakllantiriladigan yashil kompozitsiyalar.....</b>	<b>180</b>
<b>5.3. Gulzorlar va maysazorlar.....</b>	<b>196</b>
<b>5.4. Bog‘-park kompozitsiyalari va peyzajlarni yaratishning badiiy-me’moriy va landshaft vositalari.....</b>	<b>212</b>
<b>VI bob. Landshaft arxitekturasi obyektlari hududlarini me’moriy-rejaviy va landshaft tashkil etish</b>	
<b>6.1. Umumshahar va qishloq tuman markazlarini landshaft tashkillashtirish.....</b>	<b>221</b>
<b>6.2. Qishloq ko‘chalari va xiyobonlarini landshaft tashkil etish.....</b>	<b>228</b>
<b>6.3. Turarjoyolar hududlarini landshaft tashkil etish.....</b>	<b>231</b>
<b>6.4. Jamoat binolari hududlarini me’moriy-landshaft tashkil etish.....</b>	<b>242</b>
<b>6.5. Qishloq parklarini me’moriy-landshaft tashkil etish.....</b>	<b>254</b>
<b>VII bob. Landshaft arxitekturasining asosiy elementlari va landshaft dizayni qurilmalari</b>	
<b>7.1. Yer relyefi bilan bog‘liq landshaft qurilmalari.....</b>	<b>262</b>
<b>7.2. Suv havzalari bilan bog‘liq landshaft qurilmalari.....</b>	<b>278</b>
<b>7.3. Mo‘jaz me’moriy shakllar bilan bog‘liq landshaft qurilmalari.....</b>	<b>288</b>
<b>7.4. O‘simliklar bilan bog‘liq landshaft qurilmalari.....</b>	<b>295</b>
<b>VIII bob. Landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash tartibi, tarkibi va ularga qo‘yiladigan asosiy talablar</b>	
<b>8.1. Loyiha oldi ishlari va materiallarining tarkibi hamda mazmuni.....</b>	<b>306</b>
<b>8.2. Loyihalash jarayoni va uning chizmalari.....</b>	<b>309</b>
<b>IX bob. Landshaft arxitekturasi fanidan bajariladigan kurs loyihalarining mavzulari va ularni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar</b>	
<b>9.1. Jamoat binosi hududini landshaft loyihalash.....</b>	<b>317</b>
<b>9.2. Hovli bog‘lari hududini landshaft loyihalash.....</b>	<b>319</b>
<b>9.3. Ko‘p funksiyali parkni me’moriy landshaft loyihalash.....</b>	<b>328</b>
<b>Ilovalar</b>	
<b>1. Darslikda foydalilanilgan atamalarning izohli lug‘ati (glossari).....</b>	<b>338</b>
<b>2. Qishloq turarjoyolari hovlisida ekish va ko‘kalamzorlashtirishga tavsiya etilgan mevali va manzarali daraxt va butalar.....</b>	<b>344</b>
<b>3. Landshaft arxitekturasi fanidan reyting nazorati uchun tuzilgan test savollari.....</b>	<b>345</b>
<b>4. Talabalar bajaradigan mustaqil ish mavzulari.....</b>	<b>379</b>
<b>Foydalilanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>380</b>

**AXTAM SINDOROVICH URALOV  
LUDMILA AXMEDOVNA ADILOVA**

## **LANDSHAFT ARXITEKTURASI**

*Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik*

*Muharrir Xudoyberdi Po'latxo'jayev*

*Badiiy muharrir Sardor Kurbanov*

*Texnik muharrir Yelena Tolochko*

*Musahhih Umida Rajabova*

*Kompyuterda sahifalovchi Gulchehra Azizova*

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2014-yil 24-sentyabrda ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 84^{\frac{1}{16}}$ . Ofset qog'oz. Tayms garniturasi. Shartli bosma tabog'i 22,32. Nashr tabog'i 22,97. Adadi 300 nusxa. Shartnomा № 74—2014. Buyurtma № 840. Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.  
Telefon: (371) 244-10-45. Faks (371) 244-58-55.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliysi cheklangan jamiyat bosmaxonasida chop etildi. 100200, Toshkent, Radialniy tor ko'chasi, 10.



*Cho'pon nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi*

ISBN 978-9943-05-683-1

9 789943 056831